

**M. Usmanov, X.Zikrillaev**

# **FIZIKA**

*Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun*

## **MA'LUMOTNOMA**

**2-nashri**

**Toshkent 2013**



22.3-94yura

UDK:53(072)

BBK: 22.3

U-88

Usmanov M.

Fizika: oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun ma'lumotnoma / M.Usmanov, X.Zikrilloev -  
2-nashr. - Toshkent: MERIYUS, 2013. - 256 b.

*Toshkent Davlat Texnika universiteti qoshidagi "Kompyuter texnologiyalari" akademik litseyi pedagogik kengashining 2013 yil 6 fevralda bo'lib o'tgan 4-sonli va Toshkent Axborot Texnologiyalari universiteti qoshidagi 2-sonli akademik litseyi pedagogik kengashining 2013 yil 30 yanvarda bo'lib o'tgan 6-sonli majlis bayonnomalariga asosan oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun tavsiya etilgan*

Taqrizchilar:

TATU qoshidagi 2-sonli akademik litseyning  
bosh o'qituvchisi **f.-m.f.n M. N. Mirahmedov.**

TAYI, fizika kafedrasi o'qituvchisi **t.f.n K. Zokirov**

TAYI, fizika kafedrasi mudiri **t.f.n R. Mirsoatov**


TDU qoshidagi "Kompyuter texnologiyalari" akademik litseyi  
fizika kafedrasi mudiri **t.f.n. SH. B. Ahmedov**

TDU qoshidagi "Kompyuter texnologiyalari" akademik litseyi  
Fizika kafedra bosh o'qituvchisi **S. G. Tadj-Algaeva**

HO 41350  
2 q,  
61

ISBN 978-9943-395-77-0

© Mansurjon Usmanov



## MUNDARIJA

Kirish.....	8
<b>MEXANIKA</b>	
1-§. Moddiy nuqtaning harakati.....	9
2-§. To'g'ri chiziqli tekis harakat.....	10
3-§. Harakatni grafik usulda tasvirlash.....	11
4-§. Harakat nisbiyligi va tezliklarni qo'shish.....	12
5-§. Notekis harakat. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat.....	14
6-§. Jismlarning erkin tushishi.....	17
7-§. Gorizontil otilgan jism harakati.....	19
8-§. Gorizontga burchak ostida otilgan jism harakati.....	20
9-§. Jismning aylana bo'ylab tekis harakati.....	22
10-§. Nyutonning birinchi qonuni. Inersial sanoq sistemalar. Galileyning nisbiylik prinsipi.....	24
11-§. Nyutonning ikkinchi va uchinchi qonuni.....	25
12-§. Butun olam tortishish qonuni.....	26
13-§. Elastiklik kuchi. Guk qonuni.....	30
14-§. Ishqalanish kuchlari.....	33
15-§. Impuls va uning saqlanish qonuni.....	37
16-§. Mexanik ish va quvvat.....	39
17-§. Energiya va uning saqlanish qonuni.....	41
18-§. Kuchlarni qo'shish. Kuch momenti.....	43
<b>SUYUQLIK VA GAZLAR MEXANIKASI</b>	
19-§. Bosim va uning o'lchov birligi.....	47
20-§. Suyuqlik va gazlar uchun paskal qonuni.....	47
21-§. Suyuqlikning og'irlik kuchi ta'sirida idish tubi va devorlariga bosimi.....	48
22-§. Atmosfera bosimi.....	49
23-§. Arximed kuchi.....	50
24-§. Suyuqliklarning trubalardagi harakati.....	53
<b>MEXANIK TEBRANISHLAR VA TO'LQINLAR</b>	
25-§. Tebranma harakat. Garmonik tebranishlar.....	54
26-§. Matematik mayatnik.....	56
27-§. Prujinali mayatnik.....	58
28-§. Garmonik tebranishlarda energiyaning saqlanish qonuni.....	60
29-§. Majburiy tebranishlar. Rezonans.....	60
30-§. To'lqinlar. Bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlar.....	61
31-§. Tovush to'lqinlari.....	62

## MOLEKULAR FIZIKA VA TERMODINAMIKA

32-§ Molekulyar-kinetik nazariyaning asosilari. Broun harakati.....	64
33-§. Diffuziya. Gazlar, suyuqliklar va qattiq jismlar molekulalarining harakati.....	65
34-§. Ideal gaz molekulyar-kinetik nazariyaning tenglamasi.....	66
35-§. Temperatura. Temperaturaning absolyut shkalasi.....	67
36-§. Molekulalarning o'zaro ta'siri.....	68
37-§. Boyl — Mariott, Gey-Lyussak va Sharl qonunlari.....	68
38-§. Ideal gaz holat tenglamasi.....	72
39-§ Issiqlik miqdori. Jismning ichki energiyasi.....	73
40-§. Termodinamikaning birinchi qonuni.....	75
41-§. Termodinamikaning birinchi qonunini izoprotsess (izojarayon) larga tadbiqu.....	75
42-§. Issiqlik jarayonlarining qaytmaslik xususiyati.....	76
43-§. Issiqlik dvigatellari. Issiqlik mashinaning foydali ish koeffitsienti va uning maksimal qiymati.....	77
44-§. Erish.....	77
45-§. Bug' hosil bo'lishi va kondensatsiya. Bug' hosil bo'lishning solishtirma issiqligi.....	78
46-§. Qaynash. Qaynash temperaturasining bosimga bog'liqligi.....	79
47-§. Absolyut va nisbiy namlik.....	79
48-§. Suyuqliklarda sirt taranglik.....	80
49-§. Xo'llash.....	81
50-§. Kapillyar hodisalar.....	81
51-§. Kristall va amorf jismlar.....	82

## ELEKTROSTATIKA

52-§. Elektr zaryadi va uning ikki turi. Elementar zaryad. Kulon qonuni.....	83
53-§. Elektr maydon va uning kuchlanganligi.....	84
54-§. Bir jinsli zaryadlangan cheksiz tekislikning elektr maydoni.....	87
55-§. Bir jinsli zaryadlangan shar va sferaning elektr maydoni.....	88
56-§. Elektr maydonida zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish. Potensial energiya. Potensial. Potentsiallar ayirmasi.....	88
57-§. Zaryadlangan shar (sfera)ning hosil qilgan potentsiali.....	91
58-§. Elektr maydonda o'tkazgichlar. O'tkazgich ichidagi elektr maydoni.....	93
59-§. Elektr maydonidagi dielektriklar. Dielektriklarning qutblanishi.....	93
60-§. O'tkazgichning elektr sig'imi.....	94
61-§. Kondensator. Kondensatorning elektr sig'imi.....	95
62-§. Kondensatorlarni parallel va ketma-ket ulash.....	97
63-§. Elektr maydon energiyasi.....	98

## O'ZGARMAS TOK

64-§. Elektr toki. Elektr tokining mavjud bo'lish shartlari. Tok kuchi va tok zichligi.....	99
65-§. O'tkazgichning elektr qarshiligi. Solishtirma qarshilik. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni.....	100
66-§. O'tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulash.....	102
67-§. Ampermetr va voltmetrga qo'shimcha qarshilik (shunt) ulash.....	103
68-§. Elektr yurituvchi kuch. Berk zanjir uchun Om qonuni. Krixgof qoidalari.....	105
69-§. Elektr tokining ishi va quvvati. Joul-Lens qonuni.....	107

## TURLI MUHITLARDA ELEKTR TOKI

70-§. Metallarning elektronli o'tkazuvchanligi.....	111
71-§. Elektrolitlarda elektr toki.....	111
72-§. Gazlarda elektr toki.....	114
73-§. Mustaqil razryadning turlari.....	114
74-§. Termoelektron emissiya hodisasi. Vakuumda elektr toki. Diod va triod .....	116
75-§. Aralashmali yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi.....	117

## MAGNETIZM

76-§. Magnit maydon. Toklarning magnit maydoni va ularning o'zaro ta'sirlashuvi.....	120
77-§. Magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuch. Chap qo'l qoidasi.....	123
78-§. Bio-Savar-Laplas qonuni. Turli shakldagi tokli o'tkazgichlarning magnit maydon induktsiyasi.....	123
79-§. Magnit maydonida zaryadli zarrachaning harakati. Lorens kuchi.....	125
80-§. Elektromagnit induktsiya qonuni. Induksion EYUK.....	126
81-§. Induktivlik.....	128
82-§. Magnit maydon energiyasi va energiya zichligi.....	129
83-§. Muhitning magnit singdiruvchanligi. Dia-, para- va ferromagnitlar.....	129
84-§. Elektromagnit tebranishlar.....	131
85-§. O'zgaruvchan elektr toki.....	132
86-§. Transformator.....	137
87-§. Elektromagnit to'lqin.....	139

## O P T I K A

88-§. Yorug'likning to'g'ri chiziq bo'ylab tarqalishi. Yorug'lik tezligi.....	142
89-§. Yorug'likning qaytish qonuni.....	144
90-§. Yorug'likning sinish qonuni.....	144
91-§. Yorug'likning to'la ichki qaytishi.....	146
92-§. Nurlarning uchburchakli prizmadagi yo'li.....	147

93-§. Linzalar.....	148
94-§. Linzaning optik kuchi.....	149
95-§. Linzalarda tasvir yasash.....	149
96-§. Linza formulasi.....	150
97-§. Optik asboblar.....	151
98-§. Yorug'lik dispersiyasi.....	154
99-§. Infragizil va ultrabinafsha nurlar.....	157
100-§. Nurlanish va yutilish spektrlari. Spektral analiz.....	157
101-§. Rentgen nurlari.....	159
102-§. Yorug'lik interferentsiyasi.....	160
103-§. Yorug'lik difraksiyasi.....	162
104-§. Yorug'likning qutblanishi.....	164
105-§. Yorug'likning kimyoviy ta'siri.....	167
106-§. Nisbiylik nazariyasi elementlari.....	167
107-§. Yorug'lik kvantlari.....	170

### ATOM FIZIKASI

108-§. Rezerford tajribasi. Atomning planetar modeli.....	173
109-§. Boring kvant postulatlar. Atomlarning energiya chiqarishi va energiya yutishi.....	174
110-§. Zaryadlangan zarralarni tajribada qayd qilish va kuzatish usullari.....	176
111-§. Radioaktivlik.....	177
112-§. Atom yadrosining tarkibi.....	181
113-§. Atom yadrolarining bog'lanish energiyasi.....	183
114-§. Yadroviy va termoyadroviy reaksiyalar.....	184
115-§. Radioaktiv nurlanishning biologik ta'siri.....	186

### ILOVALAR

1. Grek alfaviti.....	188
2. Miqdor ulushlari va karrali kattaliklar.....	188
3. Doimiy fizik kattaliklar.....	189
4. Xalqaro birliklar sistemasi (SI)dagi asosiy birliklar.....	191
5. Qo'shimcha birliklar (SI).....	191
6. Hosilaviy birliklar (SI).....	192
7. Qattiq moddalarning zichligi.....	195
8. Suyuqliklarning zichligi.....	196
9. Gazlarning zichliklari.....	196
10. Yoqilg'ining yonish issiqligi.....	197
11. Qattiq va suyuq jismlarning solishtirma issiqlik sig'imlari.....	197
12. Gazlarning solishtirma issiqlik sig'imi.....	197
13. Moddalarning erish va qotish temperaturasi.....	198
14. Moddalarning solishtirma erish issiqligi.....	198

15. Moddalarning qaynash temperaturasi.....	198
16. Qaynash temperaturasining bosimga bog'liq bo'lishi.....	199
17. Solishtirma bug'lanish issiqligi.....	199
18. Solishtirma qarshilik .....	199
19. Mustahkamlik chegarasi $\sigma_*$ va Yung (elastiklik) moduli $E$ .....	199
20. Suyuqliklarning sirt taranglik koeffitsiyenti.....	200
21. To'yingan bug' bosimi $r$ va zichligi $\rho$ ning temperatura $t$ ga bog'liqligi .....	200
22. Psixometrik jadval.....	201
23. Moddalarning dielektrik sindiruvchanligi.....	201
24. Metallar va qotishmalarning solishtirma qarshiligi ( $20^\circ\text{C}$ da) va qarshiliklarning temperatura koeffitsiyenti.....	202
25. Elektrokimyoviy ekvivalentlar.....	202
26. Elektronlarning chiqish ishi.....	202
27. Sindirish ko'rsatkichi.....	203
28. Elementar zarralar jadvali.....	203
29. Quyosh, Yer va Oy to'g'risidagi ma'lumotlar.....	204
30. $0-90^\circ$ burchaklar uchun sinuslar, kosinuslar, tangens va kotangenslar qiymatlari jadvali.....	205
31. D. I. Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi .....	208

## SAVOLLAR

1. Kinematikaga oid savollar.....	210
2. Dinamikaga oid savollar.....	213
3. Statikaga oid savollar.....	217
4. Suyuqlik va gazlar mexanikasiga oid savollar.....	218
5. Mexanik tebranish va to'lqinlarga oid savollar.....	220
6. Molekulyar fizika va termodinamikaga oid savollar.....	222
7. Elektrostatikaga oid savollar.....	225
8. O'zgarmas tokga oid savollar.....	227
9. Turli muhitlarda elektr tokiga oid savollar.....	229
10. Magnetizm, elektromagnit tebranish va to'lqinlarga oid savollar.....	231
11. Optikaga oid savollar.....	235
12. Nisbiylik nazariyasi va yorug'lik kvantiga oid savollar.....	241
13. Atom fizikasiga oid savollar.....	242

## ALFAVIT KATALOGI.....245

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	252
M. Usmanovning qo'llanmalari .....	253

## Kirish

Ushbu ma'lumotnoma o'rta maxsus kasb hunar ta'limida fizikadan o'tiladigan harcha mavzularni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unda oliy o'quv yurtlariga kirishdagi test sinovlarida uchraydigan savol va masalalarni yechishga mo'ljallangan asosiy qonunlar, ta'riflar va formulalar keltirilgan. Ma'lumotnoma fizikadan ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

Ma'lumotnoma o'rta maktab, akademik litsey va kasb hunar kollejlari o'qituvchilarini dars o'tish jarayonida berilgan mavzuni o'quvchilarga to'la yetkazib berishida katta yordam beradi.

Oliy o'quv yurtlari imtilonlariga tayyorlanayotgan abituriyent yuqori natijalarga erishishi uchun ma'lumotnomada keltirilgan 300 dan ko'p asosiy formulalarni yoddan bilishi, 2500 dan ko'p keltirilgan formulalarni ularga doir masalalar yechish davomida keltirib chiqarishi va ma'lumotnomada keltirilgan 1300 dan ko'p nazariy savollarga javob bera olishi kerak.

Ma'lumotnomadagi ilovalar alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda o'quvchi uchun kerakli bo'lgan asosiy fizik doimiylar, kattaliklar birliklari, masalalarni yechishda ko'p uchraydigan moddalarning fizik xossalari jadval ko'rinishida keltirilgan, o'quvchilarga test sinovlarida keltirilgan masala va savollarni yechishda katta yordam beradi.

Ma'lumotnoma oxiridagi alfavit katalogi (mavzu nomeri bo'yicha) fizik kattaliklar, hodisalar, jarayonlar va boshqa fizik terminlar haqidagi ma'lumotlarni uni qaysi mavzusida joylashganligi to'g'risida ma'lumot berish orqali abituriyentga test savollariga javob berish va masalalarni yechishda yordam beradi va abituriyentning vaqtini tejaydi.

### Afavit katalogidan foydalanish qoidasi:

Masalan sizga "Balmer seriyasi" haqidagi ma'lumot kerak. Alfavit katalogidan qidirsak "Balmer seriyasi 109" topiladi, bundan Balmer seriyasi 109-mavzudaligi haqidagi ma'lumot kelib chiqadi. Demak 109 mavzuni o'qisak Balmer seriyasi haqida ham ma'lumot olamiz.

Masalan: "Qaynash nuqtasi nima?" Savoliga javob qidiraylik. Alfavit katalogidan "qaynash nuqtasi" iborasini topsak (qaynash nuqtasi 46) 46-mavzuda joylashgan. 46-mavzuni o'qib bu savolga javob topamiz.

Masalan: Agar erkin siljiy oladigan porshenli tik turgan silindrik idishdagi bir atomli gazga 750 J issiqlik miqdori uzatilsa, gazning ichki energiyasi qancha ortadi (I)? Bu masalaga doir quyidagi terminlar: erkin siljiy oladigan porshen, issiqlik miqdori va ichki energiyani alfavit katalogidan qidirsak: erkin sil. por (ter) 41, issiqlik miqdori 39, issiqlik miq. (ter1) 41 larni topamiz 39 va 41 mavzulani qidirsak, yuqoridagi masalani yechish uchun  $\Delta U = \frac{3}{5}Q$  formulani topib masalani yechamiz:  $\Delta U = \frac{3}{5}Q = \frac{3}{5} \cdot 750 J = 450 J$ .

Ma'lumotnoma yuzasidan taklif va mulohazalaringiz bo'lsa, quyidagi manzilga murojaat qilishingiz mumkin:

**Tel: (+99893) 378-33-63, (+99898) 366-38-05, (+99890) 808-03-27**

**Elektron manzil: [usmanovmansur@mail.ru](mailto:usmanovmansur@mail.ru)**

**Internetdagi saytimiz: [www.usmanovmansur.ucoz.ru](http://www.usmanovmansur.ucoz.ru)**

Usmanov Mansurion Mamurjonovich abituriyentlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi matematika va fizika o'qituvchilari bilan tajriba almashish va hamkortlik qilishni taklif etadi.

## MEXANIKA

- Fizika so'zi grekcha «fyuzis» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u *tabiat* degan ma'noni anglatadi. Bu so'zni fanga birinchi marta qadimgi Yunon mutafakkiri Aristotel kiritgan.
- Fizika qonunlari u yoki bu hodisalarning miqdoriy xarakteristikalari orasidagi munosabatlar tarzida ifodalanadi. Bu miqdoriy xarakteristikalar *fizik kattaliklar* deb ataladi

Mexanika fizika fanining bir bo'limi bo'lib, u materiya harakatining eng oddiy ko'rinishlari-jismlar (yoki biror jism ayrim qismlari)ning bir-biriga nisbatan ko'chishlarini o'rganadi.


Mexanika uch qismdan iborat.

1. Jism harakatini mazkur harakatga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar bilan bog'lamagan holda o'rganuvchi qismi *kinematika* deb ataladi.
2. Jism harakati va unga ta'sir etuvchi kuchlar orasidagi munosabatlarni *dinamika* o'rganadi.
3. Kuchlar ta'siridagi jismlar muvozanatini *statika* o'rganadi.

Umuman, mexanika qonunlari jismning ixtiyoriy paytdagi vaziyatini aniqlash imkonini beradi.

### 1-§. Moddiy nuqtaning harakati


- Vaqt o'tishi bilan jismning boshqa jismlarga nisbatan vaziyatining o'zgartirishiga *mexanik harakat* deyiladi .
- Jismning ixtiyoriy ikki nuqtasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq o'z-o'ziga parallelligicha qoladigan harakat, *ilgarilanma harakat* deyiladi.



Rasm 1. Ilgarilanma harakat

- Muayyan sharoitda o'lchamlarini e'tiborga olmasa ham bo'ladigan jism *moddiy nuqta* deyiladi.
- Bir jismga nisbatan ikkinchi jismning harakati o'rganilayotgan bo'lsa, birinchi jism *sanoq jismi*, ikkinchi jism *o'rganilayotgan jism* deyiladi.
- Sanoq jismi, unga bog'langan koordinatalar sistemasi va vaqtni o'lchaydigan asbob birgalikda *sanoq sistemasi* deyiladi.
- Faqat son qiymatiga ega bo'lgan kattaliklar *skalyar kattaliklar* deyiladi

- Son qiymatidan tashqari yo'nalishga ham ega bo'lgan kattaliklar *vektor kattaliklar* deyiladi.
- Moddiy nuqta (jism)ning o'z harakati davomida uzluksiz chizgan chizig'iga yoki qoldirgan iziga *traektoriya* deyiladi.
- Moddiy nuqta (jism)ning o'z harakati davomida uzluksiz chizgan chizig'i yoki qoldirgan izining uzunligiga *yo'l* (yoki *bosib o'tilgan yo'l*) deyiladi.
- Traektoriya uzunligi *yo'l* deyiladi.



**Rasm 2. Traektoriya, yo'l va ko'chish**

- Moddiy nuqta (jism)ning boshlang'ich vaziyati bilan oxirgi vaziyatini tutashtiruvchi yo'nalishli kesma *ko'chish* deyiladi. Ko'chish vektor kattalik.

### 2-§. To'g'ri chiziqli tekis harakat

- To'g'ri chiziqli traektoriya bo'ylab ilgarilanma harakat qilayotgan moddiy nuqta ixtiyoriy, lekin teng vaqt oraliqlarida bir xil masofaga ko'chsa, *to'g'ri chiziqli tekis harakat* sodir bo'ladi.
- Vaqt birligi yoki bir sekundda bosib o'tilgan yo'lga *tezlik* deyiladi. Tezlik vektor kattalikdir. To'g'ri chiziqli tekis harakatda tezlik vektorining yo'nalishi ko'chish vektorining yo'nalishi bilan aniqlanadi.
- To'g'ri chiziqli tekis harakatda tezlik moduli va yo'nalishi o'zgarmaydi. Tezlanish nolga teng yoki tezlanish bo'lmaydi. ( $a=0$ )
- To'g'ri chiziqli tekis harakatda

→ tezlik

$$\vec{v} = \frac{\vec{S}}{t}; \quad v_x = \frac{S_x}{t} = \frac{x - x_0}{t}; \quad v_y = \frac{S_y}{t} = \frac{y - y_0}{t}; \quad v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2}$$

$$\rightarrow \text{yo'l } S = v \cdot t; \quad S_x = v_x \cdot t; \quad S_y = v_y \cdot t; \quad S_x = S \cos \alpha; \quad S_y = S \sin \alpha$$

$$S_x = x - x_0; \quad S_y = y - y_0; \quad S = \sqrt{S_x^2 + S_y^2}; \quad S = \sqrt{(x - x_0)^2 + (y - y_0)^2};$$

$S_x$  – gorizontal ko'chish,  $S_y$  – vertikal ko'chish.

→ vaqt  $t = S/v$

- To'g'ri chiziqli tekis harakatning tenglamasi

$$x = x_0 + g_1 \cdot t; \quad x = g_1 t;$$


$$y = y_0 + g_2 t; \quad y = g_2 t;$$

- Umumiy holda harakat tenglamasi:

$$X = X_0 + S; \quad y = y_0 + S_y; \quad X = X_0 + S_x;$$


### 3-§. Harakatni grafik usulda tasvirlash

- Moddiy nuqta bosib o'tgan yo'lining sarflangan vaqtiga bog'liqligi *harakat qonuni* deb ataladi. To'g'ri chiziqli tekis harakatning qonuni:  $S = g \cdot t$
- To'g'ri chiziqli tekis harakatda tezlikning vaqtga bog'liqlik grafigi vaqt o'qiga parallel bo'lgan to'g'ri chiziqdir.
- Tezlikning vaqtga bog'liqlik grafigidan hosil bo'lgan yuza son jihatdan bosib o'tilgan yo'l yoki ko'chishga teng.
- To'g'ri chiziqli tekis harakatda bosib o'tilgan yo'l (yoki ko'chish) ning vaqtga bog'liqlik grafigi koordinata boshidan o'tuvchi to'g'ri chiziqdir.



Rasm 3. To'g'ri chiziqli tekis harakatda yo'l(ko'chish)ning vaqtga bog'liqlik grafiklari

- $S = f(t)$ -bog'liqlikni ifodalovchi grafik harakatning *yo'l grafigi* va  $g = f(t)$ -bog'liqlikni ifodalovchi grafik *tezlik grafigi* deyiladi.
- To'g'ri chiziqli tekis harakatda bosib o'tilgan yo'l (yoki ko'chish) ning vaqtga bog'liqlik grafigidan:  $v = \frac{S}{t} = g \cdot t$




Rasm 4. To'g'ri chiziqli tekis harakatda yo'l(ko'chish)ning vaqtga va tezlikning vaqtga hog'liqlik grafiklari

#### 4-§. Harakat nisbiyligi va tezliklarni qo'shish

- Agar jism bir vaqtda bir nechta harakatda ishtirok etsa natijaviy tezlik vektori, tashkil etuvchi harakatlar tezlik vektorlarining *geometrik yig'indisiga* teng.
- Tezliklar vektor tarzida (yoki geometrik ravishda ) qo'shiladi.  

$$\vec{g} = \vec{g}_1 + \vec{g}_2 + \vec{g}_3 + \dots + \vec{g}_n$$
- Xususiy holda jism o'zaro  $\alpha$  burchak tashkil etgan ikkita to'g'ri chiziqli harakatda qatnasha, natijaviy tezlik harakat tezliklari asosida qurilgan *parallelogram diagonali* sifatida topiladi.



Rasm 5. Tezliklarni vektor tarzda qo'shish usullari

$$g = \vec{g}_1 + \vec{g}_2; \quad v = \sqrt{v_1^2 + g_2^2 + 2g_1g_2 \cos \alpha}$$

- Nisbiy tezlikni topish

- Agar jismlar qarama-qarshi yo'nalishda harakatlansa:  $v_{uz} = v_1 + v_2$
- Agar jismlar bir xil yo'nalishda harakatlansa:  $v_{uz} = v_1 - v_2$
- Agar jismlar perpendikulyar yo'nalishda harakatlansa:  $v_{uz} = \sqrt{v_1^2 + v_2^2}$
- Agar jismlar o'zaro  $\alpha$  burchak ostida harakatlansa:  $v_{uz} = \sqrt{v_1^2 + v_2^2 - 2v_1v_2 \cos \alpha}$
- Qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan  $l_1$  va  $l_2$  uzunlikdagi ikki jismlarning bir-birining yonidan o'tish vaqti:  $t = \frac{l_1 + l_2}{v_1 + v_2}$
- Bir xil yo'nalishda harakatlanayotgan  $l_1$  va  $l_2$  uzunlikdagi ikki jismlarning bir-birining yonidan o'tish vaqti:  $t = \frac{l_1 + l_2}{v_1 - v_2}$
- $l_1$  uzunlikdagi mashinalar qatori (poezd)ning  $l_2$  uzunlikdagi ko'priklardan o'tish vaqti:  $t = \frac{l_1 + l_2}{v}$
- Kater daryoda  $S$  masofaga oqim yo'nalishida  $t_1$  vaqtida borib,  $t_2$  vaqtda qaytib kelgan bo'lsa:
  - $v_0$  - oqim tezligi:  $v_0 = \frac{t_2 - t_1}{2t_1t_2} \cdot S$
  - $v_1$  - kater tezligi:  $v_1 = \frac{t_2 + t_1}{2t_1t_2} \cdot S$
  - kater va oqim tezliklari munosabati:  $v_1 = \frac{t_2 + t_1}{t_2 - t_1} \cdot v_0$
  - kater borib-kelishidagi o'rtacha tezlik:  $v_{or} = \frac{4t_1t_2}{(t_1 + t_2)^2} \cdot v_1$ ;  $v_{or} = \frac{4t_1t_2}{t_2^2 - t_1^2} \cdot v_0$
- Jism bir vaqtning o'zida ikkita harakatda ishtirok etganda natijaviy tezlik:
  - tezliklarning yo'nalishi qarama-qarshi bo'lsa:  $v_{uz} = v_2 - v_1$
  - tezliklarning yo'nalishi bir xil bo'lsa:  $v_{uz} = v_1 + v_2$
  - tezliklarning yo'nalishi o'zaro perpendikulyar bo'lsa:  $v_{uz} = \sqrt{v_1^2 + v_2^2}$
  - tezliklarning yo'nalishi o'zaro  $\alpha$  burchak tashkil etsa:  $v_{uz} = \sqrt{v_1^2 + v_2^2 + 2v_1v_2 \cos \alpha}$
- Tezlikning o'zgarishi  $\Delta v$ :
  - jism tezligi qarama-qarshi yo'nalishga o'zgarsa:  $\Delta v = v_1 + v_2$
  - jism tezligining yo'nalishi oldingi yo'nalishda qolsa:  $\Delta v = v_1 - v_2$
  - jism tezligi perpendikulyar yo'nalishga o'zgarsa:  $\Delta v = \sqrt{v_1^2 + v_2^2}$
  - jism tezligining yo'nalishi  $\alpha$  burchakka o'zgarsa:  $\Delta v = \sqrt{v_1^2 + v_2^2 - 2v_1v_2 \cos \alpha}$

### 5-§. Notekis harakat. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat

- Moddiy nuqtaning teng vaqt oraliqlaridagi ko'chishlari teng bo'lmagan harakati *notekis (o'zgaruvchan) harakat* deyiladi. Boshqacha aytganda, vaqt o'tishi bilan tezligi o'zgaradigan harakat *o'zgaruvchan (notekis) harakat* deb ataladi.
- Moddiy nuqtaning muayyan bir paytdagi yoki traektoriyaning ma'lum nuqtasidagi tezligiga *oniy tezlik* deyiladi.
- Berilgan vaqt momentidagi tezlik *oniy tezlik* deyiladi.
- Oniy tezlik:

$$\rightarrow \text{qoidasiga asosan: } v = \frac{\Delta S}{\Delta t}$$

$\rightarrow$  tekis tezlanuvchan harakat uchun:


$$v = v_0 + at; \quad v = \sqrt{v_0^2 + 2aS}; \quad v = \frac{2S}{t} - v_0$$

$\rightarrow$  tekis sekinlashuvchan harakat uchun:  $v = v_0 - at$ ;

$\rightarrow$  tekis sekinlashuvchan harakatda yo'lning boshida  $v_1$ , o'rtasida  $v_2$  va

oxirida  $v_3$  tezliklar orasidagi munosabat:  $v_2 = \frac{v_1 + v_3}{2}$

- Notekis (o'zgaruvchan) harakatda umumiy bosib o'tilgan yo'lning (shu yo'lni bosib o'tish uchun ketgan) umumiy vaqtga nisbati o'rtacha tezlik deyiladi.



Rasm 6. a) To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda tezlikning vaqtga bog'liqlik grafi. b) To'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakatda tezlikning vaqtga bog'liqlik grafi

- Notekis harakatda o'rtacha tezlik

$$\rightarrow \text{qoidasiga asosan: } v_{av} = \frac{S_{um}}{t_{um}}; \quad v_{av} = \frac{S_1 + S_2 + S_3}{t_1 + t_2 + t_3}; \quad v_{av} = \frac{v_1 t_1 + v_2 t_2 + v_3 t_3}{t_1 + t_2 + t_3};$$

$$g_{av} = \frac{S_1 + S_2 + S_3}{\frac{S_1}{g_1} + \frac{S_2}{g_2} + \frac{S_3}{g_3}}$$

→ vaqt teng ikkiga bo'linganda:  $g_{av} = \frac{g_1 + g_2}{2}$

→ yo'l teng ikkiga bo'linganda:  $g_{av} = \frac{2g_1g_2}{g_1 + g_2}$

→  $\frac{1}{4}(S/4) \rightarrow g_1$  →  $g_{av} = \frac{4g_1g_2}{g_1 + 3g_2}$   
 $\frac{3}{4}(3S/4) \rightarrow g_2$

→  $\frac{1}{3}(S/3) \rightarrow g_1$  →  $g_{av} = \frac{3g_1g_2}{g_2 + 2g_1}$   
 $\frac{2}{3}(2S/3) \rightarrow g_2$

→  $\frac{1}{4}(S/4) \rightarrow g_1$  →  $g_{av} = \frac{g_1 + 3g_2}{4}$   
 $\frac{3}{4}(3S/4) \rightarrow g_2$

→  $\frac{1}{3}(S/3) \rightarrow g_1$  →  $g_{av} = \frac{g_1 + 2g_2}{3}$   
 $\frac{2}{3}(2S/3) \rightarrow g_2$

→ Yo'l teng 3 bo'lakka bo'lingan bo'lsa:  $S_1 = S_2 = S_3 = S/3$

$$g_{av} = \frac{3g_1g_2g_3}{g_1g_2 + g_1g_3 + g_2g_3}$$

- To'g'ri chiziqli tekis o'zgaruvchan harakatda o'rtacha tezlik:  $g_{av} = \frac{g + g_0}{2}$
- Harakatlanayotgan moddiy nuqtaning tezligi vaqt o'tishi bilan ortib borgan holdagi harakati *tezlanuvchan harakat*, kamayib borgan holdagi harakati esa *sekinlashuvchan harakat* deyiladi.
- To'g'ri chiziqli traektoriya bo'ylab harakatlanayotgan moddiy nuqtaning tezligi ixtiyoriy, lekin teng vaqt oraliqlarida ayni bir xil kattalikka o'zgarib borsa, bunday harakatga to'g'ri chiziqli tekis o'zgaruvchan harakat deyiladi.
- Tekis o'zgaruvchan harakat tezligining o'zgarish jadalligini xarakterlaydigan kattalik *tezlanish* deyiladi.
- Vaqt birligi yoki bir sekundda jism tezligi o'zgarishini xarakterlovchi vektor kattalikka *tezlanish* deyiladi.
- Tezlanish:

→ qoidasiga asosan:  $a = \frac{g - g_0}{t}$ ;  $g_0 = 0$  bo'lganda  $a = \frac{g}{t}$

→ tezlanish:  $a = \frac{g^2 - g_0^2}{2S}$ ;  $a = \frac{2(S - g_0 t)}{t^2}$ ;  $g_0 = 0$  bo'lganda:  $a = \frac{g^2}{2S}$ ;  $a = \frac{2S}{t^2}$

→ ishqalanish koeffitsiyenti orqali:  $a = \mu \cdot g$

$\mu$  – ishqalanish koeffitsiyenti,  $g$  – erkin tushish tezlanishi.

- Tekis tezlanuvchan harakatda tezlik moduli tekis oshib boradi, yo'nalishi bo'yicha o'zgarmaydi.
- Tekis sekinlanuvchan harakatda tezlik moduli tekis kamayib boradi, yo'nalishi bo'yicha o'zgarmaydi.
- Tekis tezlanuvchan harakatda tezlanish  $a > 0$  holda moduli va yo'nalishi o'zgarmaydi.
- Tekis sekinlanuvchan harakatda tezlanish  $a < 0$  holda moduli va yo'nalishi o'zgarmaydi.
- Tekis o'zgaruvchan harakat tenglamalari:

→ tekis tezlanuvchan uchun:  $X = X_0 + v_0 t + \frac{at^2}{2}$

→ tekis sekinlashuvchan uchun:  $X = X_0 + v_0 t - \frac{at^2}{2}$


- Tekis o'zgaruvchan harakatda bosib o'tilgan yo'l yoki ko'chish:

→ tekis o'zgaruvchan uchun:  $S = \frac{v^2 - v_0^2}{2a} = \frac{v^2 - v_0^2}{2\mu g}$

→ tekis tezlanuvchan uchun:  $S = v_0 t + \frac{at^2}{2}$ ;  $S = \frac{v_0 + v}{2} \cdot t$

→ tekis sekinlanuvchan uchun:  $S = v_0 t - \frac{at^2}{2}$ ;  $S = \frac{v_0^2 - v^2}{2a}$ ;  $S = \frac{v_0 + v}{2} \cdot t$

•  $S_{\text{tormoz}}$  - tormozlanish yo'li:  $S_{\text{tormoz}} = \frac{v_0^2}{2a}$ ;  $S_{\text{tormoz}} = \frac{v_0}{2} \cdot t$ ;  $S_{\text{tormoz}} = \frac{v_0^2}{2\mu g}$



Rasm 7. Tekis o'zgaruvchan harakatda tezlanishning vaqtga bog'liqlik grafigi

•  $n$  - chi sekunddagi ko'chishni topish:

$$\rightarrow v_0 = 0 \text{ bo'lganda } \Delta S_n = \frac{a}{2}(2n-1)$$

$$\rightarrow v_0 \neq 0 \text{ bo'lganda } \Delta S_n = v_0 + \frac{a}{2}(2n-1)$$

### 6-§. Jismlarning erkin tushishi

• Jismlarning yerga *erkin tushishi* deganda, tinch holatdan yer tomon yo'nalgan va havoning qarshiligi bo'lmagan (yoxud bu qarshilik jismning og'irlik kuchiga nisbatan hisobga olmasa ham bo'ladigan darajada kichik bo'lgan) sharoitlarda sodir bo'ladigan harakatga aytiladi. Jismlar erkin tushganda barchasi bir xil tezlanish bilan harakatlanadi.

• Yer sharining turli nuqtalarida  $g$  ning qiymati turlicha:  $9.83 \text{ m/s}^2$  dan (qutbga)  $9.78 \text{ m/s}^2$  gacha (ekvator) o'zgaradi. Fransiyaning Sevar shahriga mos geografik kenglikda  $g=9,80665 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}$ .  $g$  ning bu qiymati "normal qiymat" tarzida qabul qilingan.

• Yuqoriga tik otilgan jismning

$$\rightarrow \text{maksimal ko'tarilish balandligi: } H_{\text{max}} = \frac{v_0^2}{2g}$$

$\rightarrow$  istalgan vaqt momentidagi balandligi:

$$H = v_0 t - \frac{gt^2}{2}; \quad h = \frac{v_0 - gt}{2}; \quad h = \frac{v_0 + v_0 - gt}{2};$$

$$\rightarrow \text{oniy tezligi: } v = v_0 - gt; \quad v = \sqrt{v_0^2 - 2gh}; \quad v = \frac{2h}{t} - v_0; \quad v_0 = \frac{v_0 + v}{2}$$

$$\rightarrow \text{ko'tarilish vaqti: } t_1 = \frac{v_0}{g}; \quad t_1 = \sqrt{\frac{2h}{g}}; \quad t_1 = \frac{2h}{v_0}$$

$$\rightarrow \text{uchish vaqti: } t = \frac{2v_0}{g}; \quad t = 2t_1; \quad t = 2 \cdot \sqrt{\frac{2h}{g}}; \quad t = \frac{4h}{v_0}$$

$$\rightarrow h \text{ masofani bosib o'tgandan keyingi jism tezligi: } v = \sqrt{v_0^2 - 2gh}$$

• Yuqoridan tik tashlangan jismning

$\rightarrow$  istalgan vaqt momentidagi ko'chishi yoki tushish balandligi:

$$h = v_0 t + \frac{gt^2}{2}; \quad h = \frac{v^2 - v_0^2}{2g}; \quad h = \frac{v + v_0}{2} t$$

$$v_0 = 0 \text{ bo'lganda } h = \frac{gt^2}{2}; \quad h = \frac{v^2}{2g}; \quad h = \frac{v}{2} t$$

$$\rightarrow n - \text{chi sekunddagi yo'li: } v_0 = 0 \text{ bo'lganda } \Delta h_n = \frac{g}{2}(2n-1),$$

$$v_0 \neq 0 \text{ bo'lganda } \Delta h_n = v_0 + \frac{g}{2}(2n-1)$$

$$\rightarrow t \text{ harakat vaqti: } t = \frac{v - v_0}{g}; \quad t = \frac{2h}{v + v_0}; \quad v_0 = 0 \text{ bo'lganda: } t = \frac{v}{g}; \quad t = \frac{2h}{v}; \quad t = \sqrt{\frac{2h}{g}}$$

2013/85 6544	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
-----------------	--

→ Erkin tushayotgan jism oxirgi  $\Delta t$  vaqt ichida  $\Delta h$  masofani o'tgan bo'lsa, butun yo'lni o'tish vaqti:  $t = \frac{\Delta h}{g\Delta t} + \frac{\Delta t}{2}$

$h$  – jism tushgan umumiy balandlik ( $v_0 = 0$  bo'lganda):  $h = \frac{gt^2}{2}$

yo'lning birinchi  $h_1$  qismini o'tish vaqti  $-t_1$ :  $t_1 = \frac{\Delta h}{g\Delta t} - \frac{\Delta t}{2}$ ;  $h_1 = \frac{gt_1^2}{2}$

→ Erkin tushayotgan jismning yo'li teng ikkiga bo'lingan holda, yo'lning ikkinchi yarmini  $\Delta t$  vaqtda o'tsa, yo'lning birinchi yarmini o'tish vaqti:  $t = (1 + \sqrt{2}) \cdot \Delta t$

→ butun yo'lni o'tish vaqti:  $t = (2 + \sqrt{2}) \cdot \Delta t$

→ jismning o'tgan butun yo'li:  $h = g \cdot (3 + 2\sqrt{2}) \cdot \Delta t^2$

→  $\Delta t$  vaqt oralig'ida uzilgan ikki tomchi orasidagi masofa  $\Delta h$  bo'lsa harakatlanish vaqtlari:

- birinchi tomchiga nisbatan:  $t_1 = \frac{\Delta h}{g\Delta t} + \frac{\Delta t}{2}$

- ikkinchi tomchiga nisbatan:  $t_2 = \frac{\Delta h}{g\Delta t} - \frac{\Delta t}{2}$

→ oniy tezligi:  $v = v_0 + gt$ ;  $v = \sqrt{v_0^2 + 2gh}$ ;  $v = \frac{2h}{t} - v_0$ ;  $v_{av} = \frac{v_0 + v}{2}$

$v_0 = 0$  bo'lganda  $v = gt$ ;  $v = \sqrt{2gh}$ ;  $v = \frac{2h}{t}$ ;  $v_{av} = \frac{v}{2}$

• Yuqoriga tik otilgan jismning ko'tarilishining oxirgi vaqt momentidagi yoki oxirgii sekundidagi yo'li:  $\Delta S_n = (\frac{g}{2}) \cdot 1 \text{sekund}$

• Yuqoridan tik tashlangan jismning oxirgi sekundidagi yo'li yoki ko'chishi:

$h = \frac{g}{2} \left( (2\sqrt{\frac{2H}{g}}) - 1 \right)$ ;  $\Delta S_n = v_0 + gt - \frac{g}{2}$ ;  $t$  – tushish vaqti

• Jismlarning  $n$ - sekundidagi ko'chishlari:

→ boshlang'ich tezliksiz tekis tezlanuvchan harakatda:  $\Delta S_n = \frac{a}{2}(2n-1)$

→ boshlang'ich tezliksiz pastga tik tushayotgan harakatda:  $\Delta h_n = \frac{g}{2}(2n-1)$

→ boshlang'ich tezlik bilan tekis tezlanuvchan harakatda:  $\Delta S_n = v_0 + \frac{a}{2}(2n-1)$


→ boshlang'ich tezlik bilan tekis sekinlanuvchan harakatda:  $\Delta S_n = v_0 - \frac{a}{2}(2n-1)$

→ boshlang'ich tezlik bilan pastga tik tashlangan jism uchun:  $\Delta h_n = v_0 + \frac{g}{2}(2n-1)$

→ Yuqoriga tik otilgan, jismning  $n$ -sekundidagi ko'chishi:  $\Delta h_n = v_0 - \frac{g}{2}(2n-1)$

### 7-§. Gorizontaal otilgan jism harakati

- Havoning qarshiligi hisobga olinmas darajada kichik bo'lganda, jism gorizontaal yo'nalishda o'zgarmas  $u_0$  tezlik bilan tekis harakat qiladi.
- Gorizontaal otilgan jism traektoriyasi *paraboladan* iborat. Gorizontaal otilgan jism harakati *egri chiziqli harakatdir*
- Gorizontaal otilgan jism gorizontaal yo'nalishda tekis, vertikal yo'nalishda tekis tezlanuvchan harakat qilib erkin tushadi.
- Harakat boshlangan vaqtda, ya'ni  $t=0$ ,  $a_1=0$  bo'lib, markazga intilma tezlanish to'la tezlanishga teng bo'ladi. Jism pastga tushgan sari markazga intilma tezlanish kamayib (egrilik radiusi kattalashib, jism traektoriyasining egriqligi kamayib boradi), tangensial tezlanishi esa ortib boradi.



Rasm 8. Gorizontaal otilgan jism harakat traektoriyasi

- Gorizontaal otilgan jismlarning to'la tezlanishi vaqtning ixtiyoriy momentida, traektoriyaning ixtiyoriy nuqtasida erkin tushish tezlanishi  $g$  ga teng bo'lib, vertikal pastga yo'nalgan bo'ladi.

- Gorizontaal otilgan jism:

→ tezligining  $X, U$  o'qlaridagi proeksiyalari:  $u_x = u_0$ ;  $u_y = g \cdot t$

→ gorizontaal yo'nalishdagi ko'chishi yoki uchish uzoqligi:  $x = s = u_0 \cdot t = L$

$$L = g_0 \cdot t; \quad L = g_0 \cdot \sqrt{\frac{2h}{g}}$$

→ vertikal yo'nalish bo'yicha ko'chishi yoki tushish balandligi:  $y = h = \frac{g \cdot t^2}{2}$

$$h = \frac{g}{2g_0^2} \cdot L^2 \quad h = \frac{g^2}{2g}$$

→ traektoriyasining  $XY$  o'qidagi tenglamasi:  $y = \frac{g}{2u_0^2} \cdot x^2$ .

→ uchish vaqti:  $t = \sqrt{2h/g}$ ;  $t = \frac{L}{g_0}$ ;  $t = \frac{g_0}{g}$

→  $g_0$  - boshlang'ich tezligi:  $g_0 = \frac{L}{t}$ ;  $g_0 = L \cdot \sqrt{\frac{g}{2h}}$ ;  $g_0 = g_0$

$g_0$  - tezlik vektorini gorizontaal tashkil etuvchisi.

$g_y$  – tezlik vektorini vertikal tashkil etuvchisi:

$$g_y = gt \quad g_y = \sqrt{2gh}$$

→ harakatning oxiridagi gorizont va vertikal yo'nalishdagi tezliklari:

$$v_x = v_0; \quad v_y = gt;$$

→ yerga urilishidagi tezligi:  $v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2} = \sqrt{v_0^2 + (gt)^2} = \sqrt{v_0^2 + 2gh}$

→ tezlikning gorizont bilan  $\alpha$  burchak tashkil qilgan

vaqtidagi qiymati:  $\sin \alpha = \frac{g_y}{v}$

→ ixtiyoriy  $t$  vaqtdan keyin jism tezligining gorizont bilan tashkil qilgan

burchagi:  $\tan \alpha = \frac{v_y}{v_x} = \frac{gt}{v_0}; \quad \alpha = \arctg \frac{gt}{v_0}$

→ jismni yerga tushish vaqtidagi gorizont bilan tashkil qilgan burchagi:

$$\tan \alpha = \frac{\sqrt{2gh}}{v_0}$$

→ tangensial (urinma) tezlanishi:  $a_t = \frac{g \cdot t}{\sqrt{v_0^2 + g^2 t^2}}$

→ normal (markazga intilma) tezlanishi:  $a_n = \frac{g \cdot v_0}{\sqrt{v_0^2 + (gt)^2}}$

→ tezlanishlar yig'indisi:  $\vec{a}_t + \vec{a}_n = \vec{g}$  yoki  $\sqrt{a_t^2 + a_n^2} = g$


→  $h$  balandlikda  $g$  tezlik bilan uchayotgan vertalyotdan tashlangan yukning

borib tushish masofasi:  $S = g \cdot \sqrt{\frac{2h}{g}} \quad S = g \cdot t$

### 8-§. Gorizontga burchak ostida otilgan jism harakati

Gorizontga burchak ostida otilgan jismning:

- harakat traektoriyasi paraboladan iborat;
- gorizonttal o'q bo'ylab jism tekis harakatlanadi;
- traektoriyaning eng yuqori nuqtasida vertikal tezligi nolga teng ( $v_y=0$ );
- pastga qarab harakatlanish (tushish) vaqti, uning yuqoriga ko'tarilish vaqtiga teng;
- tushish nuqtasidagi tezlikning son qiymati boshlang'ich tezlikning son qiymatiga teng bo'ladi;



Rasm 9. Gorizontga qiya otilgan jism harakat traektoriyasi

→ tezligining  $X$  va  $Y$  o'qlardagi proektsiyalari:

$$\left. \begin{aligned} v_x &= v_0 \cdot \cos \alpha \\ v_y &= v_0 \cdot \sin \alpha \\ v_x &= v_{0x} = v_0 \cdot \cos \alpha \\ v_y &= v_{0y} - gt = v_0 \cdot \sin \alpha - gt \end{aligned} \right\}$$

→ boshlang'ich tezlik:

$$g_0 = \frac{g_x}{\cos \alpha}; \quad g_0 = \frac{g_{\min}}{\cos \alpha}; \quad g_0 = \sqrt{g_{\min}^2 + 2gh}; \quad g_0 = \sqrt{g_1^2 + 2gh};$$

→  $t$  vaqtidan keyin jism tezligi  $g = \sqrt{g_0^2 \cos^2 \alpha + (g_0 \cdot \sin \alpha - gt)^2}$

→ minimal tezlik traektoriyaning eng yuqorisidagi tezlik -  $g_{\min}$ :

$$g_{\min} = \sqrt{g_0^2 - 2gh}; \quad g_{\min} = g_0 \cos \alpha; \quad g_{\min} = g,$$

→ ko'tarilish vaqti:  $t_1 = \frac{v_0 \cdot \sin \alpha}{g}; \quad t_2 = t_3 = \frac{v_0 \cdot \sin \alpha}{g}; \quad t_4 = \sqrt{\frac{2h}{g}}$

→ maksimal ko'tarilish balandligi:

$$h_{\min} = \frac{v_0^2 \sin^2 \alpha}{2g}; \quad h_{\min} = \frac{gt_{\min}^2}{2}; \quad v_0 \cdot \sin \alpha = \sqrt{2gh}; \quad h_{\min} = \frac{L \cdot \tan \alpha}{4}; \quad h_{\min} = \frac{g_0^2 - g^2}{2g}; \quad h_{\min} = \frac{g_1^2}{2g}$$

→ to'la uchish vaqti:  $t_{\text{uchish}} = \frac{2v_0 \cdot \sin \alpha}{g}; \quad t = \sqrt{\frac{8h}{g}}; \quad t = \frac{L}{g_0 \cos \alpha}; \quad t = \frac{2\sqrt{g_0^2 - g^2}}{g}$

→ uchish uzoqligi:

$$s = v_x t; \quad S = \frac{v_0^2 \cdot \sin 2\alpha}{g}; \quad S = g_0 t \cos \alpha; \quad S = \frac{4h}{\tan \alpha}; \quad S = \frac{2\sqrt{g_0^2 - g^2}}{g} \cdot g_{\min}$$

→ tushish nuqtasida tezligi

$$v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2} = \sqrt{v_0^2 \cos^2 \alpha + v_0^2 \sin^2 \alpha} = v_0$$

→ istalgan vaqt momentidagi tezligining gorizont bilan tashkil qilgan

burchak ( $\varphi$ ) tangensi:  $\tan \varphi = \frac{v_y}{v_x} = \frac{v_0 \cdot \sin \alpha - gt}{v_0 \cdot \cos \alpha}$

→  $\alpha$  burchak ostida otilgan jismning tezlik vektori gorizont


bilan  $\varphi$  burchak hosil qilish vaqti:  $t = \frac{g_0 \sin \alpha \pm g_0 \cos \alpha \cdot \tan \varphi}{g}$

→ traektoriyaning egrilik radiusi:  $R = \frac{v_x^2}{a_n} = \frac{(v_0 \cos \alpha)^2}{g}; \quad v_0 \cdot \cos \alpha = \sqrt{g \cdot R}$

→ otish burchagi:  $\tan \alpha = \sqrt{\frac{2gh}{gR}} = \sqrt{\frac{2h}{R}}$

### 9-§. Jismning aylana bo'ylab tekis harakati

- Moddiy nuqtaning traektoriyasi egri chiziqdan iborat bo'lsa, egri chizikli harakat sodir bo'ladi.
- Burilish burchagining mazkur burilish uchun sarflangan vaqtga nisbati aylanma harakatning *burchak tezligi* deyiladi .
- Moddiy nuqtaning aylanani bir marta to'liq aylanishi uchun ketgan vaqtiga *aylanish davri* deyiladi .
- Vaqt birligi yoki bir sekunddagi aylanishlar soniga *aylanish chastotasi* deyiladi .
- Tezlik moduli o'zgarishini xarakterlovchi tezlanishga *tangensial tezlanish (urinma tezlanish)* deyiladi . Tangensial tezlanish aylana bo'ylab notekis harakatda mavjud.
- Tezlik yo'nalishi o'zgarishini xarakterlovchi tezlanishga *normal tezlanish (markazga intilma tezlanish)* deyiladi.
- Aylana bo'ylab tekis harakatda chizikli tezlik moduli bo'yicha o'zgarmaydi, yo'nalishi bo'yicha uzluksiz o'zgarib turadi va hamma vaqt aylanaga harakat yo'nalishiga o'tkazilgan *urinma bo'ylab* yo'nalgan.
- Aylana bo'ylab tekis harakatda normal tezlanish (markazga intilma tezlanish) moduli bo'yicha o'zgarmaydi, yo'nalishi bo'yicha uzluksiz o'zgarib turadi va hamma vaqt *aylana markaziga* yo'nalgan.
- Aylana bo'ylab tekis harakatda burchak tezlik moduli va yo'nalishi bo'yicha o'zgarmaydi.
- Aylana bo'ylab tekis harakatda tangensial tezlanish (urinma tezlanish) bo'lmaydi yoki nolga teng bo'ladi.



Rasm 10. Aylana bo'ylab harakatda tezlanish va tezlik yo'nalishlari

- Aylana bo'ylab tekis harakatda chizikli tezlik va markazga intilma tezlanish orasidagi burchak  $90^\circ$  ga tengdir (bir-biriga perpendikulyar).

• Aylana bo'ylab tekis harakatda:

$$\rightarrow \text{davr: } T = \frac{t}{N}; \quad T = \frac{1}{\nu}; \quad T = \frac{2\pi}{\omega}; \quad T = \frac{2\pi R}{g}; \quad T = 2\pi \sqrt{\frac{R}{a}}; \quad T = \frac{2\pi}{\varphi}$$

→ aylana radiusi -  $R$ :

$$R = \frac{g}{\omega^2}; \quad R = \frac{g}{2\pi\nu^2}; \quad R = \frac{vT}{2\pi}; \quad R = \frac{v\omega}{2\pi N}; \quad R = \frac{a}{\omega^2}; \quad R = \frac{l}{\varphi}; \quad R = \frac{g^2}{a}$$

→ burchak -  $\varphi$ :

$$\varphi = 2\pi N; \quad \varphi = \frac{2\pi}{T}; \quad \varphi = \omega \cdot t; \quad \varphi = \frac{l}{R}; \quad \varphi = 2\pi N; \quad \varphi = \sqrt{\frac{a}{R}} \cdot t; \quad \varphi = \frac{v \cdot t}{R}$$

$$\rightarrow \text{chastota: } \nu = \frac{N}{t}; \quad \nu = \frac{1}{T}; \quad \nu = \frac{\omega}{2\pi}; \quad \nu = \frac{g}{2\pi R}; \quad \nu = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{a}{R}}$$

→ burchak tezlik:

$$\omega = \frac{\varphi}{t}; \quad \omega = \frac{2\pi}{T}; \quad \omega = 2\pi\nu; \quad \omega = \frac{g}{R}; \quad \omega = \frac{a}{g}; \quad \omega = \sqrt{\frac{a}{R}}; \quad \omega = \frac{2\pi N}{t}$$

$$\rightarrow \text{chiziqli tezlik: } g = \frac{2\pi R}{T}; \quad g = \frac{a}{\omega}; \quad g = 2\pi\nu R; \quad g = \omega R; \quad g = \Delta t R; \quad g = \sqrt{aR}$$

→ markazga intilma yoki markazdan qochma tezlanish:  $a = \text{const}$ ;

$$a_m = \frac{g^2}{R}; \quad a_m = \frac{\varphi^2 R}{t}; \quad a_m = \omega^2 R; \quad a_m = \frac{4\pi^2 R}{T^2} = \frac{4\pi^2 N^2 R}{t}; \quad a_m = 4\pi^2 \nu^2 R;$$

• Aylana bo'ylab tekis harakat qilayotgan jism tezligining o'zgarishi  $\Delta g$ :

$$\rightarrow \text{aylananing } \frac{1}{4} \text{ qismida: } \Delta g = \sqrt{2} \cdot g$$

$$\rightarrow \text{aylananing } \frac{1}{2} \text{ qismida: } \Delta g = 2 \cdot g$$

$$\rightarrow \text{aylananing } \frac{3}{4} \text{ qismida: } \Delta g = \sqrt{2} \cdot g$$

$$\rightarrow \text{aylanani to'liq o'tganda: } \Delta g = 0$$

• Disk ikki nuqtasining radiuslari farqi  $\Delta R$  tezliklari farqi:  $\Delta g = g_1 - g_2$  ga teng

$$\text{bo'lsa: } R = \frac{g_1}{g_1 - g_2} \cdot \Delta R; \quad g = \frac{\Delta g}{2\pi \Delta R}; \quad \omega = \frac{\Delta g}{\Delta R}$$

• Aylana bo'ylab notekis harakat:

$$\rightarrow \varphi - \text{burchak: } \varphi = \omega_0 t + \frac{\varepsilon t^2}{2} \quad \varphi = \frac{\omega^2 - \omega_0^2}{2\varepsilon}$$

$$\rightarrow \omega - \text{burchak tezlik: } \omega = \omega_0 + \varepsilon t$$

$$\rightarrow \varepsilon - \text{burchak tezlanish: } \varepsilon = \frac{\Delta \omega}{\Delta t} = \frac{\omega - \omega_0}{t}$$


$$\rightarrow a_t - \text{tangensial tezlanish: } a_t = \frac{\Delta g}{\Delta t} = \frac{g - g_0}{t}; \quad a_t = \varepsilon \cdot R$$

$$\rightarrow a - \text{to'la tezlanish (natijaviy tezlanish): } \vec{a} = \vec{a}_t + \vec{a}_n; \quad a = \sqrt{a_t^2 + a_n^2}$$


- Aylana bo'ylab tekis harakatda aylanadagi uchta nuqta tezliklari, tevlanishlari va burchak tezliklari orasidagi munosabat:

→ Agar  $R_1 < R_2 < R_3$  bo'lsa  $\omega_1 = \omega_2 = \omega_3$ ;  $a_1 < a_2 < a_3$ ;  $\vartheta_1 < \vartheta_2 < \vartheta_3$

→ Agar  $R_1 > R_2 > R_3$  bo'lsa  $\omega_1 = \omega_2 = \omega_3$ ;  $\vartheta_1 > \vartheta_2 > \vartheta_3$ ;  $a_1 > a_2 > a_3$



Rasm 11. Aylana markazidan har xil uzoqlikdagi nuqtalar



Rasm 12. Tasmali uzatma yoki zanjirli uzatma:  $\omega_1 r_1 = \omega_2 r_2$ ;  $v_1 = v_2$

## DINAMIKA

### 10-§. Nyutonning birinchi qonuni. Inersiyal sanoq sistemalar.

#### Galileyning nisbiylik prinsipi

- Nyutonning birinchi qonuni ta'riflari:

1. Har qanday jism tinch holatini yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatini bu jismga boshqa jismlar ta'sir qilmaguncha saqlaydi.

2. Shunday sanoq sistemalari mavjudki, bunday sanoq sistemalarida jismga boshqa jism ta'sir qilib uning boshlang'ich vaziyatini o'zgartirmaguncha o'zining tinch holatini yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatini saqlaydi.

3. Inersiyal sanoq sistemasida erkin jism o'z tezligini o'zgartirmaydi.

→ Nyutonning birinchi qonuni:

$$\vartheta = \text{const}; \quad a = 0; \quad F = 0 \quad \vec{F} - \text{kuch-vektor kattalik.}$$

- Boshqa jismlar ta'siridan xoli bo'lgan jism, *erkin jism*, uning harakati esa *erkin harakat* deyiladi.
- To'g'ri chiziqli tekis harakat qiladigan yoki tinch turadigan sanoq sistemalari *inersiyal sanoq sistemalari* deyiladi.

- Nyutonning birinchi qonuni o'rinli bo'ladigan sanoq sistemalari *inersiyal sanoq sistemalari* deyiladi .
- Inersiyal sanoq sistemalarida jismga boshqa jismlar ta'sir etmaguncha (ya'ni uning erkinligi buzilmaguncha) kuzatilayotgan jismning o'z tezligini saqlash xususiyati *inertlik* deyiladi.
- Jism o'z tezligini saqlashga intilish hodisasiga *inersiya* deyiladi.
- Nyutonning birinchi qonunini *inersiya qonuni* deb ataladi.
- **Nisbiylikning mexanik prinsipi yoki Galileyning nisbiylik prinsipi:**
  1. Inersiyal sanoq sistemasining tinch holatda yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatda ekanligini sistemaning ichida o'tkaziladigan har qanday mexanik tajribalar yordamida aniqlab bo'lmaydi.
  2. Barcha inersiyal sanoq sistemalarida harakat qonunlari bir xil bo'ladi.

### 11-§. Nyutonning ikkinchi va uchinchi qonuni

- Jismga ko'rsatiladigan ta'sir *kuch* deyiladi . Uning kattaligi jism erishadigan tezlanish yoki deformatsiya bilan aniqlanadi.
- Jism inertlik xususiyatini xarakterlovchi fizik skalyar kattalikka *massa* deyiladi.
- Tortishish yo'li bilan aniqlangan massa *gravitatsion massa* deyiladi.
- Jismning harakati orqali aniqlangan massa *inert massa* deyiladi.
- Hajm birligiga to'g'ri keladigan massaga moddaning *zichligi* deyiladi.
- Bir metr kub yoki hajm birligidagi jism massasiga *zichlik* deyiladi.
- Zichlikni topish formulalari:

$$\rho = \frac{m}{V}; \quad \rho_{\text{inh}} = \frac{\rho_{\text{ad}} \cdot m}{R_{\text{qorsh}} \cdot S^2}; \quad \rho = \frac{3g}{4\pi R G}; \quad \rho = \frac{\rho_1 V_1 + \rho_2 V_2}{V_1 + V_2};$$

$\rho_{\text{ad}}$  - solishtirma qarshilik;  $R_{\text{qorsh}}$  - elektr qarshilik;  $R$  - planeta radiusi;  
 $g$  - erkin tushish tezlanishi;

- *Aralashma qotishma zichligi:*  $\rho = \eta_1 \rho_1 + \eta_2 \rho_2$ ;  $\eta_1, \eta_2$  - modda ulushlari
- **Nyutonning ikkinchi qonuni ta'rifi:** Har qanday jismning inersiyal sanoq sistemalarida erishadigan tezlanishi ta'sir etuvchi kuchga to'g'ri proporsional bo'lib, jismning massasiga esa teskari proporsional bo'ladi.

→ Nyuton 2-qonuni:  $\vec{a} = \frac{\vec{F}}{m} \Rightarrow \vec{F} = m\vec{a}$

$\vec{F} = \vec{F}_1 + \vec{F}_2 + \dots + \vec{F}_n$  - teng ta'sir etuvchi kuchlar quyidagicha aniqlanadi:

→ kuchlar bir xil yo'nalgan bo'lsa ( $\alpha = 0^\circ$ ):  $F = F_1 + F_2$

→ kuchlar qarama-qarshi yo'nalgan bo'lsa ( $\alpha = 180^\circ$ ):  $F = F_1 - F_2$

→ kuchlar o'zaro perpendikulyar yo'nalgan bo'lsa ( $\alpha = 90^\circ$ ):  $F = \sqrt{F_1^2 + F_2^2}$

→ kuchlar o'zaro  $\alpha$  burchak hosil qilgan bo'lsa:  $F = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1 F_2 \cos \alpha}$

- Nyutonning uchinchi qonuni ta'rif: Jismlar bir biriga ayni bir to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgan, absolyut qiymati jihatidan teng va yo'nalishi jihatidan qarama-qarshi kuchlar bilan ta'sir qiladi:  $\vec{F}_1 = -\vec{F}_2$ ;  $|\vec{F}_1| = |\vec{F}_2|$
- Nyutonning ikkinchi va uchinchi qonuni birlashmasidan chiqqan xulosa: O'zaro ta'sirlanuvchi ikki jism qarama-qarshi tomonga yo'nalgan va o'zlarining massalariga teskari proporsional bo'lgan tezlanish oladi.

→ Tezlanishlarni nisbati massalar teskari nisbatiga teng:  $\frac{a_1}{a_2} = \frac{m_2}{m_1}$

- Aylana bo'ylab tekis harakatlanayotgan jism (masalan, ipga bog'langan toshning aylanma harakati yoki Oyning Yer atrofidagi harakati) markazga intilma tezlanishga ega bo'ladi. Bu tezlanishning jism massasiga ko'paytmasi *markazga intilma kuch* deb ataladi.
- Nyutonning uchinchi qonuniga asosan  $\vec{F}_m$  ga miqdoran teng, lekin unga qarama-qarshi yo'nalgan kuch ham mavjud bo'lib, bu kuch *markazdan qochma kuch* deyiladi.

→ markazga intilma yoki markazdan qochma kuch:

$$F_c = ma_c; F_m = ma_m; F_m = F_c = F;$$

$$F = m\omega^2 R; F = m\omega g; F = \frac{m g^2}{R}; F = 4\pi v^2 m R; F = \frac{4\pi^2 R m}{T^2}; F = m c R$$

## 12-§. Butun olam tortishish qonuni

- Butun olam tortishish qonuni ta'rif: Hamma jismlar bir-birini massalari ko'paytmisiga to'g'ri proporsional va ular massalarning markazlari orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsional bo'lgan kuch bilan tortadi:

$$F = G \frac{m_1 m_2}{R^2}; G = 6,67 \cdot 10^{-11} \frac{Nm^2}{kg^1}$$

- Tortishish doimiysi yoki gravitatsion doimiy ta'rif:

Massalari 1 kg dan bo'lgan ikki jism orasidagi masofa 1m bo'lganda ikki jism bir-birini son jihatdan *gravitatsion doimiysiga* teng bo'lgan kuch bilan tortadi. ( $m_1 = m_2 = 1kg$  va  $R = 1m$  bo'lsa  $1F = G$ )

→ Gravitatsion maydon *potensial* maydondir.

→ Gravitatsion maydon *markaziy* maydondir.

→ Gravitatsion kuchining jismni ko'chirishda bajargan ishi jism traektoriyasining shakliga bog'liq emas. Gravitatsiya kuchini berk traektoriyada bajargan ishi 0 ga teng.

- Jismlarning massasi bilan erkin tushish tezlanish ( $g$ ) ning ko'paytmasi – Yerning muayyan nuqtasida joylashgan jismga ta'sir etuvchi *og'irlik kuchi* deyiladi.

$$F = G \frac{Mm}{R^2}; F = mg$$

- Og'irlik kuchi yer sirtidan balandga ko'tarilgan sari kamayib boradi

- Yer sirtidan  $h$  balandlikdagi og'irlik kuchi:

$$F_{og} = G \frac{Mm}{(R+h)^2}; \quad F_{og}^h = F_{og}^{Yerdagi} \cdot \left(\frac{R}{R+h}\right)^2; \quad \frac{F_{og}^{Yerdagi}}{F_{og}^h} = \left(1 + \frac{h}{R}\right)^2; \quad n = \left(1 + \frac{h}{R}\right)^2;$$

- Og'irlik kuchi  $n$  marta kamayadigan  $h$  balandlikni topish:

$$h = R(\sqrt{n} - 1); \quad F^h = \frac{F_{Yerdagi}}{n}; \quad g_1 = \frac{g_{Yerdagi}}{n}$$

- Yer sirtida erkin tushish tezlanishi- $g$ :

$$g = G \frac{M}{R^2}; \quad g = \frac{4}{3} \pi G \rho_{Yer} R; \quad g = \frac{F_{og}}{m}; \quad g = \frac{g^2}{R_s};$$

- Yer yuzasidan yuqoriga ko'tarilgan sari  $g$  kamayadi.  $g_s = G \frac{M_{Yer}}{(R_{Yer} + h)^2}$

- Yer sirtidan  $h$  balandlikda erkin tushish tezlanishi:

$$g_s = G \frac{M}{(R+h)^2}; \quad g_s = g_{Yerdagi} \cdot \left(\frac{R}{R+h}\right)^2; \quad \frac{g_{Yerdagi}}{g_s} = \left(1 + \frac{h}{R}\right)^2; \quad n = \left(1 + \frac{h}{R}\right)^2$$

$$g = G \cdot \frac{M_{Yer}}{(R+h)^2}; \quad g = g^2 / (R+h)$$

- Planeta sirtidagi erkin tushish tezlanishi:  $g_{planeta} = G \frac{M_{planeta}}{R_{planeta}^2}$

- Biror bir planetadagi erkin tushish tezlanishini Yerdagi erkin tushish

tezlanishiga nisbati:  $\frac{g_{planeta}}{g_{Yer}} = \left(\frac{M_{planeta}}{M_{Yer}}\right) \cdot \left(\frac{R_{Yer}}{R_{planeta}}\right)^2$

zichlik  $\rho$  va radius  $R$  orqali:  $\frac{g_{planeta}}{g_{Yer}} = \frac{\rho_{planeta} \cdot R_{planeta}}{\rho_{Yer} \cdot R_{Yer}}$

- Jismning tayanch yoki osmaga ta'sir etadigan kuchi *og'irlik (yoki vazn)* deb ataladi.
- Jismning og'irlik kuchi shu jismga qo'yilgan, jismning og'irligi esa tayanch yoki osmaga qo'yilgan kuchdir.
- Jism pastga yoki tepaga tekis harakat qilganda uning og'irligi og'irlik kuchiga teng bo'ladi (yoki uning og'irligi o'zgarmaydi).
- Jism pastga tekis tezlanuvchan harakat qilganda uning og'irligi og'irlik kuchidan kichik bo'ladi (yoki uning og'irligi kamayadi).
- Jism yuqoriga tekis sekinlanuvchan harakat qilganda uning og'irligi og'irlik kuchidan kichik bo'ladi (yoki uning og'irligi kamayadi).
- Jism yuqoriga tekis tezlanuvchan harakat qilganda uning og'irligi og'irlik kuchidan katta bo'ladi (yoki uning og'irligi ortadi).
- Jism pastga tekis sekinlanuvchan harakat qilganda uning og'irligi og'irlik kuchidan katta bo'ladi (yoki uning og'irligi ortadi).
- Jismning og'irligi nolga teng bo'lgandagi holatiga *vaznsizlik* deyiladi.

• Jism og'irligi:

→  $\mathcal{G} = \text{Const}$  da  $P = mg$

→ tepaga tezlanish bilan va tezlanish yo'nalishi tepaga  $P = m(g+a) \uparrow a > 0$

→ tepaga tezlanish bilan va tezlanish yo'nalishi pastga  $P = m(g-a) \uparrow a < 0$

→ pastga tezlanish bilan va tezlanish yo'nalishi pastga  $P = m(g-a) \downarrow a > 0$

→ pastga tezlanish bilan va tezlanish yo'nalishi tepaga  $P = m(g+a) \downarrow a < 0$

→ qavariq ko'prikda jism og'irligi yoki ko'prikka bosim kuchi

$$P = m(g-a); \quad P = m\left(g - \frac{\mathcal{G}^2}{R}\right); \quad P = m(g - \omega^2 R); \quad P = m(g - \omega \mathcal{G}); \quad P = m(g - 4\pi^2 v^2 R);$$



$$P = m\left(g - \frac{4\pi^2 R}{T^2}\right)$$

→ o'lik sirtmoq (botiq ko'prikda) jism og'irligi yoki ko'prikka bosim kuchi (F yoki R):  $P = m(g+a); \quad P = m\left(g + \frac{\mathcal{G}^2}{R}\right); \quad P = m(g + \omega^2 R); \quad P = m(g + \omega \mathcal{G});$

$$P = m\left(g + 4\pi^2 v^2 R\right); \quad P = m\left(g + \frac{4\pi^2 R}{T^2}\right); \quad P = F_{\text{og}} + F_{\text{m}}.$$

→ Qavariq ko'prikni yuqori nuqtasida jismni vaznsiz holatga keltiruvchi tezlik:  $\mathcal{G} = \sqrt{gR}$   $R$  – ko'prik radiusi

→ Botiq sirtning pastki nuqtasida jism og'irligi  $k$  marta ortadigan tezlik:  $\mathcal{G} = \sqrt{(k-1)gR}$



**Rasm 13. Qavariq va botiq ko'priklarda jism harakati**

→ yuklanish -n  $n = \frac{P}{mg} = \frac{m(g+a)}{mg} = 1 + \frac{a}{g} = 1 + \frac{\mathcal{G}^2}{gR}$

→ jismning solishtirma og'irligi deb uning hajm ( $V$ ) birligidagi og'irligiga aytiladi:  $d = \frac{P}{V} = \frac{mg}{V} = \rho g$

- Jism yuqoriga tekis tezlanuvchan yoki pastga tekis sekinlanuvchan harakatlanganda, uning tinchlikdagi og'irligiga nisbatan, og'irliginini ortishiga yuklanish deyiladi.
- Arqonga bog'lab aylantirilgan jism uchun ipning taranglik kuchi

→ eng yuqori nuqtada:  $T_1 = \frac{m\mathcal{G}^2}{R} - mg$

→ o'rta holatda:  $T_2 = T_1 = \frac{m\varrho^2}{R}$

→ eng pastki nuqtada:  $T_3 = mg + \frac{m\varrho^2}{R}$

$T$  - ipning tarangligi.


- Aylanayotgan diskdagi jismning muvozanat sharti:

$$\frac{m\varrho^2}{R} = \mu mg; \quad \mu - \text{ishqalanish koeffitsiyenti.}$$

→ aylanayotgan konusdagi shar  $mg \cos \alpha = \frac{m\varrho^2}{R}$

→ qayrilishdagi velosipedchi  $F_{\text{mg}} = mg \cos \alpha$

→ gorizontal tekislikda jism og'irligi yoki bosim kuchi:  $P = F = mg$



#### Rasm 14. Gorizontal tekislikda jism harakati

- Kosmik tezliklar:

1. Jismning Yer sirti yaqinida aylana bo'ylab harakatlanishi uchun zarur bo'lgan gorizontal tezlikka birinchi kosmik tezlik deyiladi:  $\varrho_1 = \sqrt{gR_{\text{yer}}} = 7.9 \text{ km/s}$

2. Jismning Yerning tortishish ta'siridan chiqib ketib, Quyoshning sun'iy yo'ldoshi bo'lib harakatlanishi uchun zarur bo'lgan tezlikka ikkinchi kosmik tezlik deyiladi:  $\varrho_{II} = \sqrt{2gR_{\text{yer}}} = 11.2 \text{ km/s}$

3. Jismning Quyosh tortishishi ta'siridan chiqib ketishi uchun zarur bo'lgan tezlikka uchinchi kosmik tezlik deyiladi:  $\varrho_{III} = 16.7 \text{ km/s}$

Biror planeta uchun  $h$  balandlikdagi:

→ birinchi kosmik tezlik:  $\varrho_1 = \sqrt{gR} \quad \varrho_1 = \sqrt{G \cdot \frac{M_n}{R_n}}$

→ ikkinchi kosmik tezlik:  $\varrho_2 = \varrho_1 \sqrt{2}$

→ biror planetadan  $h$  balandlikdagi sun'iy (yoki tabiiy) yo'ldosh tezligi:

$$\varrho = \sqrt{G \cdot \frac{M_n}{R_n + h}}$$

- **Kopler qonuni:** Yer atrofida aylana bo'ylab harakatlanayotgan yo'ldosh

$$\text{uchun: } \left(\frac{R_2}{R_1}\right)^3 = \left(\frac{T_2}{T_1}\right)^2;$$

$R_1$  va  $R_2$  - aylana radiuslari,

$T_1$  va  $T_2$  - shu traektoriyalar bo'yicha aylanish davrlari.

- **Planeta yaqinidagi yo'ldoshning aylanish davri va chastotasi:**

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{R^3}{GM_p}} \quad v = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{GM_p}{R^3}}$$

- **Planetadan h balandlikdagi yo'ldoshni aylanish davri va chastotasi:**

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{(R+h)^3}{GM_p}} \quad v = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{GM_p}{(R+h)^3}}$$

- Yer atrofida aylana traektoriyasi bo'ylab harakatlanayotgan jism bir traektoriyadan ikkinchi traektoriyaga o'tganida tezligining o'zgarishi

$$\frac{v_2}{v_1} = \sqrt{\frac{R_1}{R_2}}; \quad \frac{v_2}{v_1} = \sqrt{\frac{T_1}{T_2}}$$

### 13-§. Elastiklik kuchi. Guk qonuni

- Tashqi kuch ta'sirida qattiq jismning shakli yoki hajmi o'zgarishi *deformatsiya* deb ataladi. Deformatsiyani vujudga keltiradigan kuchning ta'siri yo'qolgach, qattiq jism o'zining avvalgi shakli va hajmini tiklasa, *elastik deformatsiya* sodir bo'ladi. Aks holda, ya'ni tashqi kuchning ta'siri to'xtatilganda ham jism o'zining dastlabki shakli va hajmini tiklay olmasa, *plastik (qoldiq) deformatsiya* amalga oshgan bo'ladi.
- Tashqi kuch ta'siri to'xtagandan keyin deformatsiyalangan jismning shakli va o'lchamlarini tiklay olish qobiliyati mazkur *jismning elastikligi* deb ataladi.
- Elastik deformatsiyalanish jarayonida jismning dastlabki shaklini tiklashga intiladigan kuch *elastiklik kuchi* deyiladi. Bu kuchlar deformatsiyaga sababchi ta'sir to'xtatilgach, jismning boshlang'ich shakli va o'lchamlarini tiklashni ta'minlaydi.
- **Guk qonuni ta'rifi:**
  1. Elastiklik kuchining kattaligi absolyut deformatsiyaga to'g'ri proporsional.
  2. Deformatsiyalar kichik (elastik tabiatiga ega) bo'lgan holda mexanik kuchlanish nisbiy deformatsiya qiymatiga to'g'ri proporsional.

→ Guk qonuni formulalari:

$$F_n = -k\Delta x; \quad F_n = -k\Delta l; \quad \Delta l = \frac{F_n l_0}{ES}; \quad \sigma = E|\epsilon|$$

- Nisbiy deformatsiya:  $\epsilon = \frac{\Delta l}{l_0} = \frac{l - l_0}{l_0}$
- Absolyut deformatsiya:  $\Delta l = l - l_0$

- Mexanik kuchlanish yoki zo'riqish:  $\sigma = F/S$   
 $\sigma$  - mexanik kuchlanish;  $E$  - yung moduli
- Prujina bikirligi:

$$k = \frac{ES}{l_n}; \quad k = \frac{F_{el}}{\Delta x}; \quad k = \frac{F_{el}}{\Delta l}; \quad \Delta x = x - x_0; \quad \Delta l = l - l_0; \quad k = \frac{F_{el}^2}{2W_p}; \quad k = \frac{2W_p}{\Delta x^2};$$

$$k = \frac{mg}{\Delta l}$$

$W_p$  - prujina potentsial energiyasi;

→ ketma- ket ulangan prujina uchun:

$$k_n = \frac{k_1 \cdot k_2}{k_1 + k_2}; \quad k_n = \frac{k}{n}; \quad \frac{1}{k_n} = \frac{1}{k_1} + \frac{1}{k_2} + \frac{1}{k_3} + \dots + \frac{1}{k_n}; \quad K_n = \kappa/n$$

→ parallel ulangan prujina uchun:

$$k_u = k_1 + k_2; \quad k_u = kn; \quad k_u = k_1 + k_2 + k_3 + \dots + k_n$$

→ bikrligi  $k$  ga teng bo'lgan sim (prujina)  $n$  ta bo'lakka bo'linganda bitta bo'lakning bikrligi:  $k_n = k \cdot n$

→ bikrligi  $k$  ga teng bo'lgan sim (prujina) yarmining bikrligi:  $k_n = 2k$

→ bikrligi  $k$  ga teng bo'lgan sim (prujina)  $n$  ta bo'lakka bo'linib so'ngra parallel eshib qo'yilgandan keyingi bikrligi:  $k_n = n^2 \cdot k$

- Elastik kuchining absolyut uzayishga bog'liqlik grafigidan bikrlik absolyut uzayish o'qi bilan grafik chizig'i orasidagi burchak tangensiga teng:  $k = \operatorname{tg} \alpha$


- $\sigma$  - mexanik kuchlanish yoki zo'riqish:

$$\sigma = F/S; \quad \sigma = E \cdot \varepsilon; \quad \frac{F}{S} = E \cdot \varepsilon; \quad \varepsilon - \text{nisbiy deformatsiya.}$$


- Mustahkamlik chegarasi  $\sigma$  bo'lgan, bir uchidan osilgan ip (tros)ning maksimal uzunligi  $-l$ :

$$\rightarrow \text{havoda: } l_{\max} = \frac{\sigma}{\rho \cdot g}; \quad \rightarrow \text{suyuqlikda: } l_{\max} = \frac{\sigma}{(\rho_{\text{fau}} - \rho_{\text{may}}) \cdot g};$$

- Mustahkamlik chegarasi  $\sigma$ , zichligi  $\rho$  bo'lgan devorning maksimal balandligi:  $h_{\max} = \frac{\sigma}{\rho \cdot g}$



a)



b)

Rasm 15 a) mexanik kuchlanishning nisbiy uzayishga bog'liqlik grafigi; b) elastiklik kuchining absolyut uzayishga bog'liqlik grafigi

• **Taranglik kuchi.**

- Tashqi kuch ta'sirida deformatsiyalanmaydigan jismda taranglik kuchi yuzaga keladi.
  - Taranglik kuchi modul jihatdan tashqi kuchga teng, yo'nafishi qarama-qarshi bo'ladi.
  - $l$  uzunlikdagi ipga  $m$  massali yuk ossak ipning taranglik kuchi yukning og'irligiga teng bo'ladi.
- Jism harakatsiz:  $T = mg$

Jism  $g$  tezlikda muvozanat holatidan o'tayotganida  $T = mg + \frac{m\vartheta^2}{l}$


- Ip  $a$  tezlanish bilan vertikal ko'tarilayotganda:  $T = m(g + a)$
  - Ip  $a$  tezlanish bilan pastga tushayotganda:  $T = m(g - a)$
  - $m$  massali yukni ko'tara oladigan ip yordamida qanday  $m_1$  massali yukni  $a$  tezlanish bilan ko'tarish mumkin:  $m_1 = \frac{g}{g + a} \cdot m$
  - $l$  ipga osilgan gorizontol tekislikda aylanma harakat qilayotgan jism uchun:  $T \sin \alpha = \frac{m\vartheta^2}{l \sin \alpha}$ ;  $T \cos \alpha = mg$ ;  $l g \alpha = \frac{\vartheta^2}{g l \sin \alpha}$ ;  $v = \frac{1}{2\pi} \sqrt{l \cos \alpha}$
- $\alpha$  - vertikal og'ish burchagi,  $T$  - ipning taranglik kuchi,  
 $v$  - aylanish chastotasi.

**Ko'chmas blok:**


- blokda tezlanish:  $a = g \cdot \frac{m_1 - m_2}{m_1 + m_2}$
- $t$  vaqtdan keyin jismning blokda tezligi va blokning aylanish chastotasi:  $\vartheta = \frac{|m_1 - m_2|}{m_1 + m_2} \cdot g t$ ;  $v = \frac{\vartheta}{2\pi R}$
- qo'zg'almas blokda taranglik kuchi:  $T = \frac{2m_1 m_2 g}{m_1 + m_2}$
- blokka osilgan yuk harakatida ( $m_2 > m_1$ ):  
 $T = m_2(g - a)$  yoki  $T = m_1(g + a)$   
 $T$  - ipning tarangligi  $a$  - yuklar tezlanishi

• **Ko'char blok**

- ko'char blokning foydali ish koeffitsiyenti 100% bo'lsa:  
 $F = \frac{mg}{2}$ ;  $m = \frac{2F}{g}$
- Ko'char blokning foydali ish koeffitsiyenti  $\eta$  ga teng bo'lsa:  
 $F = \frac{mg}{2\eta}$ ;  $m = \frac{2\eta F}{g}$



Rasm 16. Ko'chmas blok



Rasm 17. Ko'char blok

#### 14- §. Ishqalanish kuchlari

- Ikki jismlarning bir-biriga tegib turgan sirtlari orasida vujudga keladigan va shu jismlarning bir-biriga nisbatan siljishiga to'sqinlik qiladigan kuchlar *ishqalanish kuchlari* deyiladi .
- Ishqalanish kuchlarining vujudga kelishiga asosiy sabab bir-biriga tegib turuvchi jismlar sirtlarining g'adir-budurliigi va jismlar zarralari orasidagi o'zaro tortishishdir.
- Suyuqlik yoki gaz tomonidan jismning harakatiga qarshilik ko'rsatuvchi kuch *muhitning qarshilik kuchi* deyiladi .

→ Ishqalanish kuchi:  $F_{ishq} = \mu N$ ;  $F_{ishq} = \mu mg$

→  $F$  kuch ta'sirida jism tekis harakat qilsa ( $a = const$ ):

$$F_{ishq} = F; \quad \mu = \frac{F}{mg}$$

→  $F$  kuch ta'sirida jism  $a$  tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakat

$$qilsa: \quad F_{ishq} = F - ma; \quad F = ma + F_{ishq}; \quad a = \frac{F - \mu mg}{m}; \quad a = \frac{F - F_{ishq}}{m}$$

- Tortish koeffitsiyenti  $k$ , tortish kuchini jism og'irligi nisbatiga teng:

$$k = \frac{F}{mg}; \quad k = \frac{a}{g} + \mu; \quad a = (k - \mu)g$$

- Jism faqat ishqalanish kuchi ta'sirida tekis sekinlanuvchan harakat qiladi, uning tezlanishi:  $a = \mu \cdot g$

- Jism faqat ishqalanish kuchi ta'sirida tormozlanadi.

Tormozlovchi kuch:

$$F_{torm} = \mu mg; \quad F_{torm} = ma; \quad F_{torm} = \frac{m \cdot g_0^2}{2S_{torm}}; \quad F_{torm} = \frac{2mS}{l_{torm}^2}$$

- Tormozlanish yo'li:  $S_{torm} = \frac{g_0^2}{2\mu g}$

$g_0$  - tormozlanish boshlangan vaziyatdagi tezlik.

- Tormozlanishda jism tezlanishi:  $a = \mu \cdot g$

- Tormozlanish vaqti:  $t_{\text{toz}} = \frac{S_0}{\mu g}$

- Gorizontal sirtida turgan jismga  $\alpha$  burchak ostida  $F$  kuch ta'sir etayotgan bo'lsa:  $F_{\text{ishq}} = \mu(mg - F \sin \alpha)$

bu holda jism o'zgarmas tezlik bilan harakatlansa ( $g = \text{const}$ ):  $F_{\text{toz}} = F \cos \alpha$

- Qiya tekislikda jism harakati va ta'sir etuvchi kuchlar

→ qiya tekislikda ishqalanish kuchi:  $F_{\text{ishq}} = \mu N$ ;  $F_{\text{ishq}} = \mu mg \cos \alpha$

→ og'irlik kuchi:  $P = mg$

→ reaksiya kuchi (bosim kuchi):  $N = P \cos \alpha = mg \cos \alpha$

→ pastga harakatlantiruvchi kuch:  $F_p = P \sin \alpha = mg \sin \alpha$

→ ishqalanish kuchi:  $F_{\text{ishq}} = \mu N$ ;  $F_{\text{ishq}} = \mu P \cos \alpha$ ;  $F_{\text{ishq}} = \mu mg \cos \alpha$ ;

→  $F_{\text{ishq}} < F_p$  bo'lsa  $\Rightarrow F_p - F_{\text{ishq}} = ma$ ;  $a = g(\sin \alpha - \mu \cos \alpha)$   $a > 0$   $\mu < \tan \alpha$  bunda tekis tezlanuvchan harakat bo'ladi.

→  $F_{\text{ishq}} = F_p$  bo'lsa  $a = 0 \rightarrow g = \text{const}$   $\ddot{\vartheta} = 0$ ;  $\mu = \tan \alpha$ ;  $F_p - F_{\text{ishq}} = 0$  bunda jism tinch turadi yoki tekis harakat qiladi.


→  $F_{\text{ishq}} > F_p$  bo'lsa  $a < 0$ ;  $\mu > \tan \alpha$ ;  $F_p - F_{\text{ishq}} = ma$  bunda jism tinch turadi yoki tekis sekinlanuvchan harakat qiladi.

→ jism qiya tekislikda harakatsiz turgan bo'lsa ( $g = 0$ ) yoki o'zgarmas tezlik bilan ( $g = \text{const}$ ) harakatlansa:  $F_{\text{ishq}} = mg \sin \alpha$

→ jism  $a$  tezlanish bilan tushayotgan bo'lsa  $F_{\text{ishq}} = mg \sin \alpha - ma$

→ qiya tekislik burchagining sin va cos ni topish:

$$\sin \alpha = \frac{h}{l}; \quad \cos \alpha = \frac{S}{l} = \frac{\sqrt{l^2 - h^2}}{l}$$



Rasm 18. Qiya tekislikning geometrik parametrlari

→ qiya tekislik oxirida jism erishgan tezlik:

$$g = \sqrt{2gl(\sin \alpha - \mu \cos \alpha)}; \quad g = \sqrt{2gh(1 - \mu \tan \alpha)}$$

→ jism qiya tekislikda harakatsiz turganida:

$$\mu = \tan \alpha; \quad \mu = \frac{h}{S}; \quad \mu = \frac{F_{\text{ishq}}}{N}$$

→ jismni o'zgarmas tezlik bilan tekis ko'taruvchi  $F$  kuchi:

$$F = mg \sin \alpha + F_{\text{ishq}}; \quad F = mg(\sin \alpha + \mu \cos \alpha)$$


→ qiya tekislik bo'ylab jismni  $a$  tezlanish bilan ko'taruvchi  $F$  kuchni topish:

$$F = mg \cdot \sin \alpha + F_{ishq} + ma \quad F = mg(\sin \alpha + \mu \cdot \cos \alpha) + ma$$

→ qiya tekislikning foydali ish koeffitsiyenti (FIK):


$$\eta = \frac{tg \alpha}{tg \alpha + \mu}; \quad \eta = \frac{1}{1 + \mu \cdot tg \alpha}; \quad \eta = \frac{\sin \alpha}{\sin \alpha + \mu \cos \alpha}$$

- Qiya tekislikdagi majburiy harakat




$$\sum \vec{F} = ma \quad F_T - F_P - F_{ishq} = ma$$

Rasm 19. Jism qiya tekislik bo'ylab tekis tezlanuvchan yuqoriga harakat qilgandagi kuchlar yo'nalishi va harakatining dinamik tenglamasi




$$\sum \vec{F} = ma \quad F_P - F_T - F_{ishq} = ma$$

Rasm 20. Jism qiya tekislik bo'ylab tekis tezlanuvchan pastga harakat qilgandagi kuchlar yo'nalishi va harakatining dinamik tenglamasi



$$g = \cos t \quad F_T = F_P + F_{ishq}$$

Rasm 21. Jism qiya tekislik bo'ylab tekis yuqoriga harakat qilgandagi kuchlar yo'nalishi va harakatining dinamik tenglamasi



$$g = 0 \quad F_P = F_T + F_{ishq}$$

Rasm 22. Jism tortishish kuchi ta'sirida qiya tekislikda tinch turgandagi kuchlar yo'nalishi va harakatining dinamik tenglamasi

Jism qiya tekislikda: 1.  $\mu = \text{tg } \alpha$  2.  $\mu > \text{tg } \alpha$  3.  $\mu < \text{tg } \alpha$

1,2 - jism tinch turadi

1- jism tekis harakat qiladi


2- tekis sekinlashuvchan harakat qiladi

3- tekis tezlanuvchan harakat qiladi

- Stol chetida osilib turgan  $l$  uzunlikdagi ip yoki prujina uchun,

$l_n$  - pastki qismi;  $l_u$  - stol ustidagi qismi:

$$l_n = \frac{\mu}{\mu+1} \cdot l \quad l_u = \frac{1}{\mu+1} \cdot l \quad \mu = \frac{l_u}{l_n} \quad l = l_n + l_u$$



Rasm 23. Stol chetida osilib turgan jism holati

• **Qarshilik kuchi**

Gazlarda (havoda) yoki suyuqliklarda harakatlanayotgan jismga suyuqlik yoki gaz tomonidan *qarshilik kuchi* ta'sir qiladi.

• Qarshilik kuchi jism tezligiga bog'liq

→ jismning tezligi kichik bo'lganda:  $\vec{F}_{qr} = -k\vec{v}$

→ jismning tezligi katta bo'lganda:  $\vec{F}_{qr} = -k\vec{v}^2$

• Qarshilik kuchi jism harakatiga to'sqinlik qilib harakatga qarama – qarshi yo'naladi.

→ jism vertikal yuqoriga ko'tarilayotganida:  $F_{qr} = ma - mg$ ;  $a = \frac{F_{qr} + mg}{m}$

→ jism vertikal pastga tushayotganida:  $F_{qr} = mg - ma$ ;  $a = \frac{mg - F_{qr}}{m}$

• **Markazga intilma kuch:**

$$F_m = ma_m; \quad F_m = \frac{m\vartheta^2}{R}; \quad F_m = m\omega^2 R$$

• Aylanayotgan diskda turgan jismning muvozanat sharti:

$$\frac{m\vartheta^2}{R} = \mu \cdot mg; \quad \vartheta = \sqrt{\mu g R}; \quad \omega = \sqrt{\frac{\mu g}{R}}; \quad R = \frac{\mu g}{4\pi^2 \nu^2}$$

$R$  – aylanish o'qigacha bo'lgan masofa,  $\mu$  – ishqalanish koeffitsiyenti,

$\omega$  – diskning aylanish burchak tezligi:  $\omega = 2\pi\nu$

→ Qayrilayotgan velosipedchi, motosiklchi yoki konkichi uchun ( $R$  – aylana

radiusi):  $\frac{m\vartheta^2}{R} \cdot \lg\alpha = mg$ ;  $\lg\alpha = \frac{gR}{\vartheta^2}$ ;  $\mu = \lg\alpha$

$\alpha$  – gorizontaldan og'ish burchagi.

• To'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan jismga ta'sir etayotgan harakatlantiruvchi kuch va qarshilik kuchining kattaliklari teng bo'lsa, jism to'g'ri chizikli tekis harakatini davom ettiradi.

• Agar harakatlantiruvchi kuch qarshilik kuchidan katta bo'lsa, jism tekis tezlanuvchan harakat qiladi.

• Qarshilik kuchi harakatlantiruvchi kuchdan katta bo'lsa jism tekis sekinlanuvchan harakat qiladi

**15- §. Impuls va uning saqlanish qonuni**

• Jism massasining tezligiga ko'paytmasi shu jismning *impulsi* yoki harakat *miqdori* deb ataladi.

→ Jism impulsi:  $P = m\vartheta$ ;  $P = \frac{2W'_k}{g}$ ;  $P = \sqrt{2W_{1+10}}$

• Kuchning uning ta'sir etish vaqtiga ko'paytmasi *kuch impulsi* deyiladi.

→ Kuch impulsi yoki (jism impulsi o'zgarishi):

$$I = F \cdot \Delta t; \quad F\Delta t = m\vartheta - m\vartheta_0; \quad F\Delta t = m(\vartheta - \vartheta_0)$$

- *Jismlar (yoki moddiy nuqtalar) sistemasi* deganda, o'zaro ta'sirlashuvchi bir nechta jism (yoki moddiy nuqta) tushuniladi. Sistemani tashkil etuvchi jismlar orasida ta'sir etadigan kuchlarni *ichki kuchlar*, sistemaga kirmagan jismlar bilan sistema jismlari orasida ta'sir etuvchi kuchlarni esa *tashqi kuchlar* deyiladi. Tashqi kuchlar ta'sir etmaydigan sistema *yopiq sistema* deb ataladi.
- **Impulsning saqlanish qonuni ta'rifi:** Yopiq sistemani tashkil etgan jismlar impulslarining vektor yig'indisi bu sistemadagi jismlarning bir-biri bilan bo'ladigan har qanday o'zaro ta'sirida o'zgarmaydi.  
→ Impulsning saqlanish qonuni:  
 $m_1 \vartheta_1 + m_2 \vartheta_2 = m_1 \vartheta_1' + m_2 \vartheta_2'$ ;  $\sum m \vartheta = Const$
- *Reaktiv harakat* deb, jism va shu jismdan tashqariga chiqarib yuboriladigan modda orasidagi ta'sirlashishga asoslangan harakatga aytiladi
- Jism impulsining o'zgarishi -  $\Delta P$ :  
⇒  $m$  massali jism tekislikka  $\vartheta$  tezlik bilan tik yo'nalishda noelastik urilganda:  $\Delta P = m \cdot \vartheta$   
⇒  $m$  massali jism tekislikka  $\alpha$  burchak ostida  $\vartheta$  tezlik bilan noelastik urilganda:  $\Delta P = m \cdot \vartheta \cos \alpha$   
⇒  $m$  massali jism tekislikka  $\vartheta$  tezlik bilan elastik urilgandagi impulsning o'zgarishi:  $\Delta P = 2m\vartheta$   
⇒  $m$  massali jism tekislikka  $\alpha$  burchak ostida  $\vartheta$  tezlik bilan elastik urilganda:  $\Delta P = 2m\vartheta \cos \alpha$
- Jismlar sistemasining impulsi -  $P_{\text{mas}}$   
⇒ jismlar bir xil yo'nalishda harakatlansa:  $P_{\text{mas}} = m_1 \vartheta_1 + m_2 \vartheta_2$   
⇒ jismlar qarama-qarshi tomonga harakatlansa:  $P_{\text{mas}} = m_1 \vartheta_1 - m_2 \vartheta_2$   
⇒ jismlar perpendikulyar yo'nalishda harakatlansa:  
$$P_{\text{mas}} = \sqrt{(m_1 \vartheta_1)^2 + (m_2 \vartheta_2)^2}$$
  
⇒ jismlar  $\alpha$  burchak ostida harakatlansa:  
$$P = \sqrt{(m_1 \vartheta_1)^2 + (m_2 \vartheta_2)^2 + 2(m_1 \vartheta_1) \cdot (m_2 \vartheta_2) \cos \alpha}$$
- **Nisbiy impulsni topish.**  
⇒ Tezligi  $\vartheta_1$  bo'lgan bir jismning  $\vartheta_2$  tezlikka ega bo'lgan boshqa jisimga nisbatan impulsi:  $P_{\text{ab}} = m_1 \cdot \vartheta_{\text{ab}}$   
⇒ jismlar bir xil yo'nalishda harakatlansa:  $P_{\text{ab}} = m_1 (\vartheta_1 - \vartheta_2)$   
⇒ jismlar qarama-qarshi yo'nalishda harakatlansa:  $P_{\text{ab}} = m_1 (\vartheta_1 + \vartheta_2)$   
⇒ jismlar tik yo'nalishda harakatlansa:  $P_{\text{ab}} = m_1 \sqrt{(\vartheta_1)^2 + (\vartheta_2)^2}$
- Jismlar noelastik to'qnashgandan keyingi tezligi -  $u$   
⇒ harakat yo'nalishlari bir xil bo'lganda:  $u = \frac{m_1 \vartheta_1 + m_2 \vartheta_2}{m_1 + m_2}$   
⇒ harakat yo'nalishlari qarama-qarshi bo'lganda:  $u = \frac{m_1 \vartheta_1 - m_2 \vartheta_2}{m_1 + m_2}$

- Jismlar markaziy elastik to'qnashgandan keyingi tezliklari  $u_1$  va  $u_2$   
 $\Rightarrow$  harakat yo'nalishlari bir xil bo'lganda:

$$u_1 = \frac{2m_2 v_2 - (m_2 - m_1) v_1}{m_1 + m_2}; \quad u_2 = \frac{2m_1 v_1 + (m_2 - m_1) v_2}{m_1 + m_2}$$

- $\Rightarrow$  harakat yo'nalishlari qarama-qarshi bo'lganda

$$u_1 = \frac{-2m_2 v_2 - (m_2 - m_1) v_1}{m_1 + m_2}; \quad u_2 = \frac{2m_1 v_1 - (m_2 - m_1) v_2}{m_1 + m_2}$$

## 16-§. Mexanik ish va quvvat

- Mexanik ish* deganda, jismga ta'sir etuvchi kuch moduli, ko'chish moduli va kuch bilan ko'chish yo'nalishlari orasidagi burchak kosinusining ko'paytmasiga teng bo'lgan fizik kattalik tushiniladi:  $A = F \cdot S \cdot \cos \alpha$
- Jismga ta'sir etuvchi kuch va bu kuch ta'sirida sodir bo'lgan ko'chish vektorlarining skalyar ko'paytmasi bilan aniqlanuvchi skalyar kattalikka *mexanik ish* deyiladi. Agar jismga bir nechta kuch ta'sir etayotgan bo'lsa, bu kuchlarning teng ta'sir etuvchisi ish bajaradi.
- Kuchning ta'sir yo'nalishi bilan ko'chish yo'nalishi bir xil bo'lganda bajarilgan ish musbat bo'ladi, shuning uchun bunday holda kuch *tortish kuchi* yoki *harakatlantiruvchi kuch* deb ataladi.
- Kuchning ta'sir yo'nalishi bilan ko'chish yo'nalishlari teskari bo'lganda bajarilgan ish manfiy qiymatga ega bo'ladi. Bu holda kuch harakatga to'sqinlik qiladi, shuning uchun uni *qarshilik kuchi* yoki *ishqalanish kuchi* deb ataladi.
- Markazdan qochma va intilma kuchlar harakatlanish yo'nalishiga perpendikulyar bo'lganligi uchun ular ish bajarmaydi (bajargan ishlari nolga teng bo'ladi).  $A=0$

- Og'irlik kuchining bajarilgan ishi:  $A = mgh$ ;  $A = \frac{m(\vartheta_2^2 - \vartheta_1^2)}{2}$

- Kaloriya* issiqlik miqdori ish va energiya birliklari bo'lib, 1gramm suvni temperaturasini normal atmosfera bosimida  $1^\circ\text{C}$  (yoki 1K)ga oshirish uchun kerak bo'ladigan issiqlik miqdoridir:  $1\text{kal} = 4.2\text{J}$

$\rightarrow$  Gorizont bilan  $\alpha$  burchak tashkil qilgan holda:

$$A_{\text{og}} = \frac{1}{2} PS \sin 2\alpha; \quad A_{\text{og}} = mgs \cos \alpha \cdot \sin \alpha; \quad A_{\text{og}} = \frac{1}{2} mgs \sin 2\alpha$$

- Jism gorizont yo'nalishda harakatlanganida, og'irlik kuchini bajarilgan ishi:  $A = 0$
- Mexanik ishning kinetik energiyaga bog'liqligi:

$$A = \Delta E_{\text{kin}} = E_2 - E_1; \quad A = \frac{m(\vartheta_2^2 - \vartheta_1^2)}{2}$$

- Yerda yotgan  $l$  uzunlikdagi sterjenni tik qilib qo'yishda bajarilgan ish:  $A = mg \frac{l}{2}$

- Sterjenni gorizontga nisbatan  $\alpha$  burchakka og'irishda bajarilgan ishi:  $A = mg \frac{l}{2} \cdot \sin \alpha$
- Jism  $a$  tezlanish bilan yuqoriga ko'tarilganida bajarilgan ishi:  $A = m(g + a)h$
- Ko'char blokda jismni  $h$  balandlikka ko'targanda  $F$  kuchni bajargan ishi:  $A = 2mgh$
- $F$  kuch ta'sirida jism  $h$  balandlikka ko'tarilganda  $F$  kuchni bajargan ishi:  $A = Fh$
- Qarshilik kuchining bajargan ishi:  $A = F_{qo}h = m(g - a)h$

- Elastiklik kuchini bajargan ishi:

$$A = \frac{k \cdot x^2}{2}; \quad A = \frac{F_{elast} \cdot x}{2}; \quad A = \frac{F_{elast}^2}{2k}$$

- Ishqalanish kuchining bajargan ishi:

$$A = F_{ishq}l = \mu mgl - \text{gorizontol sirtida}$$

$$A = \mu mgl \cdot \cos \alpha - \text{qiya tekislikda.}$$

- Markazga intilma kuch va Lorens kuchlari ish bajarmaydi (ularning bajargan ishi 0 ga teng)
- Og'irlik kuchi (Gravitatsion kuchi), elastiklik kuchi, elektrostatik (Kulon) kuchi va Arximed kuchlarining bajargan ishi traektoriya shakliga bog'liq emas.
- Ishqalanish kuchi va qarshilik kuchlarining bajargan ishi ichki energiyaga (issiqlikka) aylanadi.
- *Quvvat* deb vaqt birligi yoki bir sekund ichida bajarilgan ishga son jihatdan teng bo'lgan kattalikka aytiladi:

$$N = \frac{A}{t}; \quad N = Fg \cos \alpha; \quad N = Fg; \quad N = \frac{mgh}{\eta t}; \quad N = \frac{m g^2}{2t}$$

- Quvvat birligi bir Vatt bo'lib u 1 sekundda 1 Joul ish bajaradigan mashina quvvatidir.
- Quvvati 736,2 W bo'lgan mashina 1 Ot kuchiga ega.
- 1 kW $\cdot$ soat=3,6 $\cdot$ 10<sup>6</sup> Joulga teng bo'lib, bu ish birligidir.
- Mashinaning tejamlorligini, ya'ni u bajaragan to'liq ishning qancha qismi foydali ishga aylanishini xarakterlaydigan kattalikka mashinaning *foydali ish ko'effitsiyenti* (qisqacha FIK) deyiladi va grekcha  $\eta$  (eta) harfi bilan belgilanadi.
- Foydali ish ko'effitsiyenti: (FIK):

$$\eta = \frac{A_f}{A_r} \cdot 100\%; \quad \eta = \frac{N_f}{A_r}; \quad \eta = \frac{N_f}{N_r} \cdot 100\%; \quad \eta = \frac{N_f}{N_r}$$

→ qiya tekislik uchun FIK:

$$\eta = \frac{1}{1 + \mu \operatorname{tg} \alpha}; \quad \eta = \frac{\operatorname{tg} \alpha}{\operatorname{tg} \alpha + \mu}; \quad \eta = \frac{\sin \alpha}{\sin \alpha + \mu \cos \alpha}$$

- Quvvati  $N$  ga teng bo'lgan dvigatel  $m$  massali yukni  $h$  balandlikka  $t$  vaqtda olib chiqqanidagi FIK:  $\eta = \frac{mgh}{N \cdot t} \cdot 100\%$
- Dvigatelining quvvati  $N_{\Delta}$  ga teng bo'lgan mashina o'zgarmas  $S$  tezlikda ketayotgan bo'lsa:  $\eta_{\Delta} = \frac{F_{\text{tr}} \cdot S}{N_{\Delta}} \cdot 100\%$
- O'zgarmas tezlik bilan ketayotgan avtomobilning tortish kuchi  $F_{\text{tr}}$  bo'lib,  $S$  masofada yoqqan yoqilg'i massasi  $m_{\text{yoq}}$ :  $m_{\text{yoq}} = \frac{SF_{\text{tr}}}{\eta}$

### 17-§. Energiya va uning saqlanish qonuni

- Jismning ish bajara olish qobiliyatiga *energiya* deyiladi.
- Energiya jism holatini xarakterlaydigan fizik kattalik bo'lib, uning o'zgarishi bajarilgan ishga teng bo'ladi.
- Jismning harakati bilan bog'liq bo'lgan energiyasi *kinetik energiya* deyiladi.
- Kinetik energiya – harakat energiyasidir:

$$W_k = \frac{mv^2}{2}; \quad W_k = \frac{P^2}{2m}; \quad W_k = \frac{P^2}{2m}; \quad P\text{-jism impulsi}$$

- Qiya tekislikdan sirpanishsiz dumalab tushayotgan silindri kinetik energiyasi:

$$W_k = \frac{3}{4}mv^2$$

- Jismning holati bilan bog'liq bo'lgan energiyasi *potensial energiya* deyiladi
- Jismning *potensial energiyasi* deb ularning bir-biriga nisbatan vaziyati tufayli olgan energiyasiga aytiladi.

- Jism qandaydir kuch ta'siri ostida bo'lsa potensial energiyaga ega bo'ladi:

→ Yerdan  $h$  balandlikdagi jismning potensial energiyasi:  $W_p = mgh$

→ prujinaning potensial energiyasi:  $W_p = \frac{kx^2}{2}$   $W_p = \frac{F\Delta x}{2}$   $W_p = \frac{F_d}{2k}$

- Jismning energiyasi (kinetik energiyasi ham, potensial energiyasi ham) ish birliklarida (joullarda) o'lchanadi.

- Har qanday jism bir vaqtda ham potensial energiyaga, ham kinetik energiyaga ega bo'la oladi.

- Kinetik va potensial energiyalar yig'indisi *to'liq mexanik energiya* deyiladi

$$W_{\text{mex}} = W_k + W_p$$

- Fizikaning makon va zamonda ro'y beradigan barcha jarayonlarni ma'lum tartibga solib turadigan umumiy qonunlari mavjud bo'lib, ular *saqlanish qonunlari* deyiladi.

- Materiyaning harakati makon va zamonda ro'y beradi. Fizikadagi umumiy qonunlar ham makon va zamonga tayangan, ya'ni ularning biror xossasiga asoslangan bo'ladi. Bu xossalar: makonning, ya'ni fazoning bir jinsliligi va izotopliligi, zamonning, ya'ni vaqtning esa bir jinsliligidir.

- **Fazoning bir jinsliliği** deyilganda uning barcha nuqtalarining teng kuchliliği tushuniladi, ya'ni fizik jarayonning ro'y berishi, tajriba fazoning qaysi nuqtasida o'tkazilishidan qat'iy nazar bir xilda kechadi.
- **Fazoning izotoplīgi**, deyilganda uning barcha yo'nalishlari teng kuchliliği tushuniladi, ya'ni fizik jarayonning ro'y berishi tajriba fazoning qaysi yo'nalishida o'tkazilishidan qat'iy nazar bir xilda kechadi.
- **Vaqtning bir jinsliliği**, deyilganda uning har bir onining teng kuchliliği tushuniladi, ya'ni fizik jarayonning ro'y berishi tajribaning qachon boshlanishiga mutlaqo bog'liq emas. Eynshteynning saqlanish qonuni vaqtning bir jinsliliğining natijasidir.
- **Mexanik energiyaning saqlanish qonuni ta'rifi**: Jismning istalgan vaqtidagi kinetik va potentsial energiylarining yig'indisi shu jismning *to'liq mexanik energiyasi* deyiladi. Jismning to'liq mexanik energiysi o'zgarmaydi. Mexanik energiya o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi va yo'qolmaydi, u bir turdan ikkinchi turga aylanishi yoki bir jismdan ikkinchi jisimga o'tishi mumkin.
- Mexanik energiyaning saqlanish qonuni:

$$W_1 = W_A + W_P = \text{Const}; \quad W_2 = mgh + \frac{m\vartheta^2}{2} = \text{Const}; \quad W_1 = W_{1\text{um}}; \quad W_2 = W_{2\text{um}};$$

$$W_{1\text{um}} \Rightarrow W_A = 0; \quad W_A = 0 \Rightarrow W_{1\text{um}}; \quad \frac{m\vartheta^2}{2} + mgh = \text{const}$$

$$\frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{kx^2}{2} = \text{const}; \quad \frac{m\vartheta_0^2}{2} = W_{1\text{um}} + W_{\text{pot}}; \quad mgh_{\text{um}} = W_{1\text{um}} + W_{\text{pot}}$$

- **Ish va kinetik energiya orasidagi bog'liqlik**:

$$A = W_{k2} - W_{k1}; \quad A = \frac{m\vartheta^2}{2} - \frac{m\vartheta_0^2}{2} = \frac{m}{2}(\vartheta^2 - \vartheta_0^2)$$

- **Ish va potentsial energiya (og'irlik kuchining bajargan ishi)**:

$$A = W_{p1} - W_{p2}; \quad A = mgh_0 - mgh; \quad A = -mg\Delta h$$

- **Elastiklik kuchining bajargan ishi**:

$$A = \frac{kx^2}{2} - \frac{kx^1}{2} = \frac{k}{2}(x_2^2 - x_1^2);$$

- **Massa markazi orqali o'tgan o'q atrofida erkin aylanayotgan qattiq**

$$\text{jism kinetik energiysi: } W_k = \frac{m\vartheta_0^2}{2} + \frac{J_0\omega^2}{2}$$

$\vartheta_0$  – massa markazining tezligi  $\omega$  – burchak tezlik.

- **Qiya tekislikdan sirpanib dumalab tushayotgan silindring kinetik**

$$\text{energiyasi: } W_k = \frac{5m\vartheta_0^2}{4} + \frac{J_0\omega^2}{2}$$

- **Urilish** deb, ikki yoki undan ko'p jismlarning juda qisqa vaqt davomidagi ta'sirlashuviga aytiladi.
- **Absolyut noelastik urilish** deb, ikkita deformatsiyalanadigan sharlarning urilishiga aytiladi. Absolyut noelastik urilishda impulsning saqlanish qonuni

bajariladi va mexanik energiyaning saqlanish qonuni bajarilmaydi. Mexanik energiyaning bir qismi ichki energiyaga aylanadi.

- **Absolyut elastik urilish** deb, ikkita deformatsiyalanmaydigan sharlarning urilishiga aytiladi. Bunda sharlarning urilishdan keyingi kinetik energiyasi urilishdan keyingi kinetik energiyasiga teng bo'ladi. Bu turdagi urilishda mexanik energiyaning va impulsning saqlanish qonuni bajariladi.

## STATIKA


### 18- §. Kuchlarni qo'shish. Kuch momenti

- Mexanikaning kuchlar ta'siri ostida bo'lgan jism yoki jismlar sistemasining muvozanatda bo'lish shartlarini o'rganadigan bo'limi *statika* deyiladi. Statika grekcha «statos» so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi «qo'zg'almas» demakdir
- Jismning tinch turgan yoki to'g'ri chiziqli tekis harakat qilayotgan holatiga, *muvozanat holati* deyiladi.
- **Jismning muvozanat sharti:** jismga ta'sir etayotgan barcha kuchlarning vektor yig'indisi nolga teng bo'lsa, jism muvozanat holatda bo'ladi.
- Aylanmaydigan jism muvozanatda bo'lishi uchun jismga qo'yilgan kuchlarning istalgan o'qdagi proeksiyalarining yig'indisi nolga teng bo'lishi zarur:

$$F_{1x} + F_{2x} + F_{3x} + \dots = 0; \quad F_{1y} + F_{2y} + F_{3y} + \dots = 0; \quad \sum_{i=1}^n F = 0$$

- O'zaro burchak ostida yo'nalgan ikkita kuchning teng ta'sir etuvchisi:

$$F_1 = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1 \cdot F_2 \cos \alpha}$$



a)


b)

#### Rasm 24. Ikki kuchni parallelogram usulida qo'shish

- **Kuch yelkasi** deb, kuchning ta'sir chizig'i va aylanish o'qi orasidagi eng qisqa masofaga aytiladi. Ta'sir etuvchi kuchning aylantirish xususiyatini ifodalash uchun kuch momenti deb ataladigan kattalikdan foydalaniladi. *Kuchning aylanish o'qiga nisbatan momenti* deganda, shu kuch moduli bilan kuch yelkasi ko'paytmasiga aytiladi.
- Kuch momenti:  $M = |F| \cdot d$
- Kuch momenti vektor kattalik bo'lib, uning XBS dagi o'lchov birligi sifatida N·m qabul qilingan. Lekin kuch momentining birligi, ya'ni IN·m ni J (Joul) deb atash qabul qilinmagan.
- Jismni soat strelkasi yo'nalishida aylantiruvchi kuch momentlarining ishorasi musbat deb, soat strelkasiga teskari aylantiruvchi kuch momentlarining ishorasi manfiy deb qabul qilingan.
- Qo'zg'almas o'q atrofida aylana oladigan jismning muvozanat sharti yoki momentlar qoidasi: mahkamlangan o'q atrofida aylana oladigan jismga

qo'yilgan kuchlarning bu o'qqa nisbatan olingan momentlarining algebraik yig'indisi nolga teng ( $\sum M = 0$ ) bo'lganda ushbu jism muvozanatda bo'ladi.

- **Momentlar qoidasi:** Aylanish o'qiga ega bo'lgan jism muvozanatda bo'lishi uchun unga ta'sir etuvchi kuchlar momentlarining vektor yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak, ya'ni:  $\vec{M}_1 + \vec{M}_2 + \vec{M}_3 + \dots = 0$ ;  $\sum M = 0$
- Har bir jism uchun uni ilgari lanma harakatga keltiruvchi barcha kuchlarning ta'sir yo'nalishlari kesishadigan bitta nuqta mavjud. Bu nuqta jismning massa (yoki og'irlik) markazidir. Kuchning ta'sir chizig'i massa markazidan o'tmasa bu kuch jismni buradi.
- Jismning barcha zarralariga ta'sir etuvchi og'irlik kuchlarining markaziga shu jismning og'irlik markazi deyiladi.
- Jismning og'irlik markazi - jismning barcha zarralariga ta'sir etuvchi og'irlik kuchlarining mazkur nuqtaga nisbatan momentlarining yig'indisi hamma vaqt nolga teng bo'lgan nuqta.
- Bir jinsli to'rtburchak va parallelogramning og'irlik markazi uning *diagonallari kesishgan nuqtada* joylashgan.
- Bir jinsli uchburchakning og'irlik markazi uning *medianalari kesishgan nuqtada* joylashgan.





Rasm 25. Bir jinsli geometrik shakllarning massa (og'irlik) markazi.

- Aylanish o'qiga ega bo'lgan har qanday qattiq jism *richag* deyiladi. Richagning osilish nuqtasiga nisbatan  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar momentlarining  $M_1 = M_2$  shartida richag muvozanatda bo'ladi.
- Mexanikaning oltin qoidasi: Kuchdan qancha yutsak masofadan shuncha yutqazamiz, masofadan qancha yutsak kuchdan shuncha yutqazamiz.
- **Jismlar sistemasining massa markazi:**

$$x_0 = \frac{m_1 \cdot x_1 + m_2 \cdot x_2 + \dots + m_n \cdot x_n}{m_1 + m_2 + \dots + m_n}; \quad m_1 \cdot (x_m - x_1) = m_2 \cdot (x_2 - x_m)$$

$x_1, x_2$  - birinchi jism va ikkinchi jismlar massa markazlarining koordinatasi



Rasm 26. Richag

Rasm 27. Jismlar sistemasining massalar markazi


→ Agar jismlar hajmlari teng bo'lsa:  $x_0 = \frac{\rho_1 x_1 + \rho_2 x_2}{\rho_1 + \rho_2}$

• Vaznsiz richagning muvozanat sharti:

$$m_1 d_1 = m_2 d_2; \quad d_1 = \frac{m_2}{m_1 + m_2} d; \quad d_2 = \frac{m_1}{m_1 + m_2} d; \quad d = d_1 + d_2$$

• Vaznsiz richagning yelkalariga  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar qo'yilgan bo'lsa:

$$F_1 d_1 = F_2 d_2; \quad d_1 = \frac{F_2}{F_1 + F_2} d; \quad d_2 = \frac{F_1}{F_1 + F_2} d; \quad d = d_1 + d_2$$



Rasm 28. Richag

Massaga ega bo'lgan richagning muvozanat shartlari:

• Massasi  $M$  va uzunligi  $l$  bo'lgan richagning yelkalariga  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar qo'yilganda muvozanat sharti:  $Mg = \frac{2(F_1 l_1 - F_2 l_2)}{l_2 - l_1}$ ;  $l = l_1 + l_2$

• Agar  $M$  massali richagning faqat bir tomoniga  $F$  kuch qo'yilgan bo'lsa,  $F_1 = F$  va  $F_2 = 0$ ;  $M \cdot g = \frac{2F \cdot l_1}{l_2 - l_1}$ ;  $l = l_1 + l_2$

• Massasi  $M$  va uzunligi  $l$  bo'lgan richagning yelkalariga  $m_1$  va  $m_2$  massali yuklar osilgan:  $m_1 l_1 + \frac{l_1 - l_2}{2} M = m_2 l_2$ ;  $l = l_1 + l_2$

• Agar  $M$  massali richagning faqat bir tomoniga yuk osilgan bo'lsa, ya'ni  $m_2 = 0$   $m_1 l_1 = \frac{l_2 - l_1}{2} M$ ;  $l = l_1 + l_2$

• Yerda yotgan  $m$  massali xodaning bir uchidan bir oz ko'tarish uchun kerak bo'ladigan kuch:  $F = \frac{mg}{2}$

• Ko'ndalang kesim yuzasi bir xil bo'lgan har xil jismlar tutashgan joyida tayanchga o'rnatilgan:  $l_1 \rho_1 = l_2 \rho_2$ ;  $\frac{l_1}{l_2} = \sqrt{\frac{\rho_2}{\rho_1}}$

• Ikki tayanchga o'rnatilgan jisimni tayanchga berayotgan bosim kuchlari yoki

tayanchlarning reaksiya kuchlari:

$$F_1 = \frac{l_2}{l_1 + l_2} \cdot Mg; \quad F_2 = \frac{l_1}{l_1 + l_2} \cdot Mg; \quad F_1 + F_2 = Mg; \quad l = l_1 + l_2$$

- Bir jinsli sterjenning massa markazini  $\Delta x$  ga surish uchun uning bir uchidan  $2\Delta x$  uzunlikdagi qismini kesib tashlash kerak.
- Qattiq jism muvozanatining uch xil turi mavjud: turg'un, turg'unmas va befarq.

1. Agar jism muvozanat holatidan biroz og'dirilganda uni muvozanat holatiga qaytaruvchi kuch yuzaga kelsa, bunday muvozanat *turg'un muvozanat* deyiladi. Botiq sirtga turgan va yengil ipga osilgan jismning muvozanati turg'un muvozanatga misoldir.

2. Agar jism muvozanat holatidan bir oz og'dirilganda uning og'ishini davom ettiruvchi kuch yuzaga kelsa bunday muvozanat *turg'unmas muvozanat* deyiladi. Qavariq sirtga turgan jismning muvozanati turg'unmas muvozanatga misoldir.




Rasm 29. Turg'un (1), turg'unmas (2) va befarq (3) muvozanat turlariga misollar

3. Muvozanat vaziyatidan chiqarilganda massa markazining vaziyati o'zgarmaydigan jismning muvozanati *befarq muvozanat* deyiladi.

Horizontaal sirtga turgan jismning muvozanati befarq muvozanatga misoldir.

- Ko'chmas blok faqat kuch yo'nalishini o'zgartiradi.
- Ko'char blok kuchdan ikki marta yutuq beradi.
- Chig'iriq kuchdan  $\frac{R}{r}$  marta yutuq beradi.



Rasm 30. Ko'chmas blok, ko'char blok va chig'iriq

## SUYUQLIK VA GAZLAR MEXANIKASI

### 19-§. Bosim va uning o'lchov birligi


- Sirtning birlik yuziga perpendikulyar ravishda ta'sir etuvchi kuchga son jihatdan teng bo'lgan skalyar kattalikka *bosim* deyiladi.

$$\rightarrow \text{bosim: } P = \frac{F}{S}; \quad P = P_r = \frac{F_r}{S} = \frac{F \cdot \sin \alpha}{S};$$

- XBS da bosim birligi, Pa (Paskal).
- Bosim skalyar kattalik bo'lganligi uchun F kuchning bosimi uning vertikal va gorizontal tashkil etuvchilari bosimlarining arifmetik yig'indisiga teng:  $R = R_x + R_y$ .
- Kuchning gorizontal tashkil etuvchisi sirtga parallel yo'nalganligi uchun, u sirtga bosim bermaydi.
- Qattiq jismlarda bosim kuch yo'nalishida uzatiladi. Suyuqlik va gazlarda bosimning uzatilish mexanizmi Paskal qonuniga asoslangan.

### 20-§. Suyuqlik va gazlar uchun Paskal qonuni.

- **Paskal qonuni ta'rifi:** Suyuqlik yoki gazga berilgan tashqi bosim suyuqlik yoki gazning har bir nuqtasiga o'zgarishsiz uzatiladi.



Rasm 31. Gidravlik press


- *Gidravlik press*-diametrlari har xil bo'lgan, o'zaro tutashgan ikki silindr va ular ichida harakatlana oladigan porshenlardan iborat. Gidravlik pressning ishlash prinsipi Paskal qonuni va mexanikaning oltin qoidasiga asoslangan.

→ gidravlik press formulalari:

$$\frac{F_1}{S_1} = \frac{F_2}{S_2}; \quad F_1 \cdot S_2 = F_2 \cdot S_1; \quad P_1 = P_2; \quad \frac{F_1}{F_2} = \frac{S_1}{S_2}; \quad \frac{h_1}{h_2} = \frac{S_2}{S_1}; \quad \frac{h_1}{h_2} = \frac{F_2}{F_1}$$

## 21-§ Suyuqlikning og'irlilik kuchi ta'sirida idish tubi va devorlariga bosimi

- Suyuqlikning og'irligi ta'sirida sirtidan  $h$  chuqurlikdagi barcha nuqtalarda hosil qiladigan bosimi suyuqlik ustunining balandligiga va zichligiga to'g'ri proporsional.
- Pastki qismlari tutashgan ixtiyoriy shakldagi idishlar *tutash idishlar* deyiladi.
- Tutash idishlardagi bir-biriga aralashmaydigan suyuqliklarning ajralish sathidan boshlanadigan balandliklari bu suyuqliklarning zichliklariga teskari proporsional.
- Suyuqlikning og'irligi tufayli idish tubiga ta'sir qiladigan bosimi *gidrostatik bosim* deyiladi.



Rasm 32. U-simon tutash idishlar: a) bir xil zichlikdagi suyuqlik solingandagi hol uchun; b) har xil zichlikdagi suyuqlik solingan hol uchun

- Suyuqlik va gazlarning idish tubiga bosimi (gidrostatik bosim):  $P = \rho gh$
- Tutash idishlardagi suyuqliklar muvozanati:

$$\rho_1 h_1 = \rho_2 h_2 : \frac{h_1}{h_2} = \frac{\rho_2}{\rho_1}; \quad \frac{\rho_1}{\rho_2} = \frac{h_2}{h_1}; \quad \rho = \frac{1}{h_1} \quad \rho_1 h_1 = \rho_2 h_2$$

→ Silindrlilik idishning tubiga va yon devorlariga bosimi:

$$P_s = \rho_s gh; \quad P_m = \frac{\rho_s R g}{2}; \quad P_s = P_m \Rightarrow H = R/2$$

N- silindr balandligi

R-silindr asosining radiusi

- Tezlanish bilan harakatda suyuqlikning idish tubiga bosimi:

→  $a$  tezlanish bilan ko'tarilayotganda va tezlanish yuqoriga yo'nalgan:

$$P = \rho(g+a) \cdot h$$

→  $a$  tezlanish bilan ko'tarilayotgan va tezlanish pastga yo'nalgan:

$$P = \rho(g-a) \cdot h$$


→  $a$  tezlanish bilan tushayotganda va tezlanish pastga yo'nalgan:

$$P = \rho(g-a) \cdot h$$

→  $a$  tezlanish bilan tushayotganda va tezlanish yuqoriga yo'nalgan:

$$P = \rho(g+a) \cdot h$$

→  $a=0$  yoki tekis ko'tarilayotgan yoki tushayotganda:  $P = \rho gh$



Rasm 33. Hidrostatik paradoks hodisasi

- Bir xil balandlik va tubining yuzasi bir xil bo'lgan turli shakldagi idishlarga bir xil suyuqlik quyilganda idish tubiga bosim kuchlari bir xil bo'lish hodisasiga *hidrostatik paradoks* deyiladi.

## 22-§. Atmosfera bosimi

- Er atrofini azot, kislorod va boshqa gazlar aralashmasidan iborat havo qobig'i o'rab olgan bo'lib, u *atmosfera* deb ataladi.
- Atmosfera massasi  $5,15 \cdot 10^4$  kg atrofida. Atmosfera tarkibining 78,1% ini azot, 21% ini kislorod, 0,9% argon va boshqa gazlar tashkil qiladi.
- Atmosferaning koinotga tarqab ketmasligining sababi—havo zarralarining yerga tortilishidir. Xuddi idishdagi suyuqlikning og'irligi tufayli bosim vujudga kelganidek, havoning og'irligi tufayli atmosfera bosimi vujudga keladi. Atmosfera bosimi mavjudligini 1643 yilda Torrichelli aniqlagan.
- Dengiz sathi balandligidagi joylarda  $0^{\circ}\text{C}$  temperaturada atmosfera bosimi, o'rta hisobda balandligi 760 mm bo'lgan simob ustunining bosimiga teng bo'lib, bu bosim normal atmosfera bosimi deyiladi. Dengiz sathidan turlicha balandliklarda simob ustunining balandligi turlicha bo'ladi. Dengiz sathidan har 12 m balandlikka ko'tarilganda atmosfera bosimi o'rtacha 1 mm simob ustuniga kamayadi.

$$(1 \text{ mm sim. ust.} = 133,3 \frac{\text{N}}{\text{m}^2} = 133,3 \text{ Pa})$$

Fizik atmosfera (qisqacha atm.) — balandligi 760 mm bo'lgan vertikal simob ustunining bosimidir:

$$1 \text{ atm} = 760 \text{ mm sim. ust.} = 101325 \text{ Pa} = 101,325 \text{ kPa} = 1013,25 \text{ gPa.}$$

Metrologiyada:  $1 \text{ bar} = 10^5 \text{ Pa}$

- Atmosfera bosimining balandlik ortishi bilan kamayib borishidan ko'tarilish balandligini aniqlashda foydalaniladi.
- Atmosfera bosimini o'zgarishiga qarab balandlikni o'lchaydigan asboblarga *altmetrlar* deyiladi
- Dengiz sathidan  $h$  balandlikdagi atmosfera bosimi

$$P = (10^5 - \frac{h}{12} \cdot 133,3) \text{ Pa} \quad P = (760 - \frac{h}{12}) \text{ mm. sim. ust}$$

- Berk idishdagi gazlarning yoki suyuqliklarning bosimi *ma'nometrlar* yordamida, atmosfera bosimi *barometrlar* yoki *aneroidlar* yordamida o'lchanadi.
- Suyuqlik qo'yilgan idishning usti ochiq bo'lsa, u holda  $h$  balandlikka ega bo'lgan suyuqlikning idish tubiga beradigan bosimi, gidrostatik bosim bilan atmosfera bosimining yig'indisiga teng bo'ladi:  $P = \rho gh + P_0$
- Usti ochiq idishning yon devorlarida bosim:  $P_{\text{son}} = P_0 + \frac{\rho gh}{2}$
- Usti yopiq idishning asosidagi bosim:  $P_{\text{asos}} = \rho gh$
- Usti yopiq idishning yon devorlaridagi bosim:  $P_{\text{son}} = \frac{\rho gh}{2}$
- Silindrsimon idishga quyilgan suyuqlikning asosga beradigan bosim kuchi yon sirtiga beradigan bosimga teng bo'lsa, u holda  $h$  - balandlik  $R$  - asos radiusiga teng bo'ladi.  $h = R$
- Ko'l tubidan ko'tarilgan pufakchanning hajmi  $n$  marta ortgan bo'lsa, ko'l tubining chuqurligi -  $h$ :

$$\Rightarrow \text{temperatura bir xil bo'lsa: } T_1 = T_2 \quad h = 10(n-1): \quad n = \frac{V_2}{V_1} = \left(\frac{R_2}{R_1}\right)^3$$

$$\Rightarrow \text{temperatura har xil bo'lsa: } T_1 \neq T_2 \quad h = 10\left(\frac{T_2}{T_1}n - 1\right): \quad n = \frac{V_2}{V_1} = \left(\frac{R_2}{R_1}\right)^3$$

$T$  - absolyut temperatura  $R$  - pufakcha radiusi.

### 23-§ Arximed kuchi

- **Arximed kuchi yoki Arximed qonuni:** Suyuqlik (yoki gaz) o'ziga botirilgan jismga yuqoriga tik yo'nalgan va jismning botirilgan qismi hajmidagi suyuqlikning (yoki gazning) og'irligiga teng kuch bilan ta'sir etadi.
  - Arximed (qonuni) kuchi:  $F_a = \rho_1 V_1 g$
  - Suyuqlik solingan idish vertikal yo'nalishda  $a$  tezlanish bilan ko'tarilayotgan bo'lsa, Arximed kuchi ortadi:  $F_a = \rho_1 V_1 (g + a)$
  - Suyuqlik solingan idish vertikal yo'nalishda  $a$  tezlanish bilan tushayotgan bo'lsa, Arximed kuchi kamayadi:  $F_a = \rho_1 V_1 (g - a)$
- Arximed kuchi  $F_A$  bilan jismning og'irligi  $mg$  orasidagi ayirma ko'taruvchi kuch  $F_k$  deyiladi:  $F_k = F_A - mg$
- Ko'taruvchi kuchning kattaligi va yo'nalishiga bog'liq ravishda suyuqlikka botirilgan jism uch holatda bo'lishi mumkin:
  1. Arximed kuchi og'irlik kuchidan kichik bo'lsa ko'taruvchi kuch manfiy bo'ladi:  $F_k < 0$ ;  $F_A - mg = \rho_1 V_1 g - \rho_2 V_2 g = (\rho_1 - \rho_2) V_1 g < 0$   
Bu holda  $\rho_2 < \rho_1$  va jism suyuqlik tubiga tushadi, ya'ni cho'kadi.
  2. Arximed kuchi son jihatidan jismning og'irligiga teng, bunda ko'taruvchi kuch nolga teng bo'ladi:  $F_k = 0$ ;  $F_A - mg = \rho_1 V_1 g - \rho_2 V_2 g = (\rho_1 - \rho_2) V_1 g = 0$

Bu holda  $\rho_s = \rho_j$  va jism suyuqlikka to'liq botgan holda suzib yuradi.

3. Arximed kuchi og'irlik kuchidan katta bo'lsa, u holda ko'taruvchi kuch musbat:  $F_A > 0$ ;  $F_A - mg = \rho_s V_s g - \rho_j V_j g = (\rho_s - \rho_j) V_j g > 0$

Bunda  $\rho_s > \rho_j$  va suyuqlikka botirilgan jism undan qalqib chiqa boshlaydi.

- Jismning og'irligi uning suyuqlikka botib turgan qismi miqdoridagi suyuqlik og'irligiga tenglashgach jismning ko'tarilishi to'xtaydi. Suyuqlik ustida qalqib suza boshlayotgan jismga ta'sir etuvchi Arximed kuchining son qiymati uning og'irligiga teng bo'ladi:

$$F_A = \rho_s V_s g = m_j g; \quad \frac{V_s}{V_j} = \frac{\rho_j}{\rho_s}$$

→ jism botgan qismining hajmi:  $\Delta V = V_0 \cdot \frac{\rho_j}{\rho_s}$

→ jism botgan qismi:  $\rho_j / \rho_s = V_{bot} / V_j$ ;  $V_{bot} = \frac{m_j}{\rho_s}$

→ jism botmagan qismining hajmi:  $\frac{V_{bot}}{V_j} = \frac{\rho_s - \rho_j}{\rho_s}$

- Suyuqlikda jismni ushlab turuvchi kuch

$$F = mg - F_A; \quad F = (\rho_j - \rho_s) V_j g$$

- Jismning suyuqlikdagi og'irligi

$$F = mg - F_A; \quad F = (\rho_j - \rho_s) V_j g$$

- Suyuqlikda jism og'irligi  $n$  marta kamaygan bo'lsa, jism zichligini topish formulasi:  $\rho_j = \frac{n}{n-1} \rho_s$ ;  $n = \frac{mg}{mg - F_A}$

- Jismning havodagi og'irligi  $P$ , zichligi  $\rho$ , bo'lgan suyuqlikda og'irligi  $P_1$  bo'lsa jism zichligi  $\rho_j = \frac{P \rho_s}{P - P_1}$

- Zichligi  $\rho_1$  bo'lgan suyuqlikda jism og'irligi  $P_1$ ,  $\rho_2$  suyuqlikda  $P_2$  ga teng bo'lsa, jism zichligi  $\rho_j = \frac{P_1 \rho_1 - P_2 \rho_2}{P_1 - P_2}$

- Jismni suyuqlikka botiruvchi kuch:

$$F = F_A - mg; \quad F = (\rho_s - \rho_j) V_j g; \quad F = \left( \frac{\rho_s}{\rho_j} - 1 \right) \cdot mg$$

- Suyuqlikda turgan jismga ta'sir etuvchi ko'taruvchi kuch:  $F_A = F_A - mg$

$F_A > 0$  - bo'lsa, jism qalqib chiqadi

$F_A = 0$  - bo'lsa, jism suyuqlikda suzib yuradi

$F_A < 0$  - bo'lsa, jism suyuqlik tubiga botadi

- Suyuqlikdagi tezlanish:

→ suyuqlik ichiga:  $a = \frac{\rho_1 - \rho_2}{\rho_1} \cdot g$ ;  $\rho_2 = \frac{g}{g-a} \rho_1$

→ suyuqlikdan tepaga:  $a = \frac{\rho_1 - \rho_2}{\rho_1} \cdot g$

- Suvda yurgan jismni yuk ko'tara olish qobiliyati:

$(\rho_1 > \rho_2)$  bo'lsa  $\Delta m = V \cdot (\rho_2 - \rho_1)$

- Suv bilan limmo-lim to'ldirilgan idishga jism solinganda idishdan oqib tushadigan suv hajmi:

⇒ jism zichligi suyuqlik zichligidan kichik bo'lsa:

$$V_{\text{oqib}} = \frac{m_j}{\rho_2} \quad V_{\text{oqib}} = \frac{\rho_j}{\rho_2} \cdot V_j \quad (\rho_1 < \rho_2)$$

⇒ jism zichligi suyuqlik zichligidan katta yoki teng bo'lsa:

$$V_{\text{oqib}} = V_j \quad V_{\text{oqib}} = \frac{m_j}{\rho_1} \quad (\rho_1 \leq \rho_2)$$

- Suvda suzib yurgan muz uchun.

Muz hajmining 0,9 qismi suv ostida ( $V_{\text{ost}}$ ), 0,1 qismi suv ustida, ya'ni havoda bo'ladi ( $V_{\text{havo}}$ )  $V_{\text{ost}} = 0,9 \cdot V_{\text{muz}}$ ;  $V_{\text{havo}} = 0,1 \cdot V_{\text{muz}}$

⇒ Muz hajmini topish:  $V = \frac{10}{9} \cdot V_{\text{ost}}$ ;  $V = 10 \cdot V_{\text{havo}}$

⇒ Muz hajmining suvga botgan qismi botmagan havodagi qismidan 9 marta katta bo'ladi:  $V_{\text{ost}} = 9 \cdot V_{\text{havo}}$ ;  $m_{\text{ost}} = 9 \cdot m_{\text{havo}}$

- Jism havoda  $h$  balandlikdan tushib suvga  $l$  chuqurlikka botdi,  $a$  suvdagi

tezlanish:  $g \cdot h = a \cdot l$ ;  $a = \frac{h}{l} g$ ;  $h = \frac{a}{g} \cdot l$ ;  $h = \frac{\rho_2 - \rho_1}{\rho_1} \cdot l$

- Zichliklari  $\rho_1$  va  $\rho_2$  ( $\rho_2 > \rho_1$ ) bo'lgan aralashmaydigan

suyuqliklarda to'la botganicha muallaq suzib yurgan jism hajmining  $V_1$  qismi birinchi suyuqlikda,  $V_2$  qismi ikkinchi suyuqlikda bo'lsa

$$\frac{V_1}{V} = \frac{\rho_2 - \rho_1}{\rho_2 - \rho_1}; \quad \frac{V_2}{V} = \frac{\rho_1 - \rho_1}{\rho_2 - \rho_1}; \quad \frac{V_1}{V_2} = \frac{\rho_2 - \rho_1}{\rho_1 - \rho_1}$$

- Suyuqlik ichida ichi g'ovak bo'shlig'i ( $V_{\text{bo'sh}}$ ) bo'lgan jism massasi va

hajmini topish:  $m = \frac{\rho_1 \cdot \rho_2}{\rho_1 - \rho_2} \cdot V_{\text{bo'sh}}$ ;  $V_j = \frac{\rho_1}{\rho_2 - \rho_1} \cdot V_{\text{bo'sh}}$


- Brusok suvdan ( $\rho_1$ ) olib moyga ( $\rho_{\text{moy}}$ ) botirilganida cho'kish balandligi

$\Delta h$  ga ortgan bo'lsa, brusok massasi:  $m = S \cdot \Delta h \cdot \frac{\rho_1 \cdot \rho_{\text{moy}}}{\rho_1 - \rho_{\text{moy}}}$

- Kemaning suv sig'imi deb unga ta'sir qilayotgan Arximed kuchiga aytiladi.
- Suyuqlik zichligini o'lchaydigan asbobga *areometr* deyiladi. Areometning ishlash prinsipi Arximed qonuniga asoslangan.


## 24-§. Suyuqliklarning trubalardagi harakati

- Suyuqliklarning harakat qonunlarini va jismlarning suyuqlik ichidagi harakatini o'rganuvchi fan *gidrodinamika* deyiladi.
- Harakatlanayotgan suyuqlik zarralari to'plamiga *oqim* deyiladi.
- Agar biror nuqtadan o'tayotgan suyuqlik zarrasining tezligi vaqt o'tishi bilan o'zgarmasa, oqim chiziqlarining shakli va vaziyati ham o'zgarmaydi. Suyuqlikning bunday harakati *statsionar (barqaror) harakat* deyiladi.
- Sirt yuzini kesib o'tuvchi oqim chiziqlari to'plami *oqim nayi* deyiladi.
- Bir-biriga tegib oqayotganda aralashmaydigan qatlamli oqishga *laminar oqim* deyiladi.
- Tezlik ortganda qatlamlarning tartibsiz ravishda aralashib oqishiga *turbulent oqim* deyiladi.
- Ishqalanish kuchlari nolga teng bo'lgan va siqilmaydigan suyuqlik *ideal suyuqlik* deyiladi.
- **Bernulli qonuni ta'rifi:** Harakatlanayotgan suyuqlik oqimining tezligi qancha katta bo'lsa, shu suyuqlik ichidagi bosim shuncha kichik bo'ladi.
- Samolyotlarning havoga ko'tarilishi Bernulli qonuniga asoslangan.



Rasm 34. Bernulli qonuni asosidagi ko'tarilish kuchi

- **Samolyot qanotini ko'taruvchi kuch:** Qanot ostidan o'tuvchi havo oqimining tezligi, qanot ustidan o'tuvchi havo oqimining tezligidan kichik bo'ladi. Qanot ostidagi bosim, ustidagi bosimdan katta bo'ladi. Shunga ko'ra ko'taruvchi kuch paydo bo'ladi.
- Suyuqlik oqimining uzuluksizlik tenglamasi:  $S_1 v_1 = S_2 v_2$ ;  $S v = \text{const}$



Rasm 35. Suyuqlikning har xil ko'ndalang yuzali trubalardagi harakati

$$S_1 > S_2 > S_3 \quad \vartheta_1 < \vartheta_2 < \vartheta_3 \quad P_1 > P_2 > P_3$$

• Bernulli qonuni:  $\frac{\rho \vartheta^2}{2} + \rho gh + P_1 = \frac{\rho \vartheta^2}{2} + \rho gh + P_2 \quad \frac{\rho \vartheta^2}{2} + \rho gh + P_1 = Const$

$\frac{\rho \vartheta^2}{2}$  – dinamik bosim  $\rho gh$  – statik bosim

• Aralashma temperaturasini topish:  $t = \frac{m_1 t_1 + m_2 t_2 + m_3 t_3}{m_1 + m_2 + m_3}$

• Moddani elektr choynakda isitish:  $\Delta T = \frac{I^2 R t \eta}{cm}$

• Trubaning ko'ndalang kesim yuzasi:  $S = \frac{m}{\vartheta \rho}$

• Suyuqlik oqimining quvvati:  $N = \frac{m^2 \rho \vartheta^3}{8}$ ;  $N = \frac{S \rho \vartheta^3}{2}$

d-truba diametri

• Idishdagi suyuqlik sathidan h balandlik pastda joylashgan idishning kichik teshigidan oqib chiqayotgan suyuqlikning tezligi:  $v = \sqrt{2gh}$

• Ko'ndalang kesim yuzasi S ga teng bo'lgan quvurdan suyuqlik v tezlik bilan oqib chiqayotgan bo'lsa, t vaqt ichida quvurdan oqib chiqqan suyuqlikning hajmi va massasi:

$$V = S \vartheta t; \quad m = \rho S \vartheta t; \quad m = \rho S t \sqrt{2gh}$$

## MEXANIK TEBRANISHLAR VA TO'LQINLAR

### 25-§. Tebranma harakat. Garmonik tebranishlar

- Biror muvozanat vaziyatiga nisbatan davriy takrorlanib turuvchi harakat **tebranish** yoki **tebranma harakat** deyiladi.
- Biror tashqi kuch ta'sirida muvozanat vaziyatidan chiqarilgan va tashqi kuch ta'siri to'xtatilganda ham ichki kuchlar ta'sirida davom etadigan **tebranma harakat erkin** yoki **xususiy tebranma harakat** deyiladi.
- Siljish masofasiga proporsional bo'lgan va dastlabki muvozanat holatiga qaytaruvchi kuch ta'sirida sodir bo'ladigan tebranish **garmonik tebranish** deyiladi.
- Sistemani muvozanat vaziyatidan og'ishini tavsiflovchi kattalik sinusoida yoki kosinusoida qonuni bo'yicha o'zgaradigan tebranishlar **garmonik tebranishlar** deyiladi.
- Tebranuvchi jismning muvozanat holatidan ikki marta ketma-ket bir yo'nalishda to'la o'tishi **to'la tebranish** deyiladi.
- **Tebranish davri** - jismning to'liq bir marta tebranishi uchun ketgan vaqtdir:

$$T = \frac{t}{N}; \quad T = \frac{1}{\nu}; \quad T = \frac{2\pi}{\omega}$$

XBS da tebranish davri birligi qilib sekund (s) qabul qilingan.

- Vaqt birligi ichidagi tebranishlar soniga **tebranish chastotasi** deyiladi.

- Chastota 1 s dagi to'liq tebranishlar sonini ko'rsatadi. XBS da chastotaning birligi qilib  $s^{-1}$  yoki gerts (Hz) qabul qilingan:

$$\nu = \frac{\omega}{2\pi}; \quad \nu = \frac{N}{t}; \quad \nu = \frac{1}{T}$$

- Siklik yoki doiraviy chastota:  $\omega = 2\pi\nu$ ;  $\omega = \frac{2\pi}{T}$ ;  $\omega = \frac{2\pi N}{t}$

- Davr va chastota o'zaro teskari kattaliklardir:

$$T = \frac{1}{\nu} \text{ yoki } \nu = \frac{1}{T}$$

- Ixtiyoriy vaqtda tebranayotgan jismning muvozanat vaziyatidan ko'chish masofasiga *siljish* deyiladi. Siljishning eng katta qiymatiga *amplituda* deyiladi.

- Garmonik tebranma harakat tenglamasi:

$$X = X_m \sin(\omega t + \alpha); \quad X = A \sin(\omega t + \alpha); \quad X = X_m \cos(\omega t + \alpha); \quad X = A \cos(\omega t + \alpha);$$

$$\omega = 2\pi\nu; \quad \omega = \frac{2\pi}{T}; \quad A, X_m - \text{amplituda}; \quad \nu - \text{chastota}; \quad T - \text{davr}; \quad \alpha -$$

boshlang'ich faza;

$\omega$  - tebranma harakatning burchak (yoki siklik) chastotasi

$\omega t + \alpha$  - tebranish fazasi;  $\varphi_0$  - tebranishning boshlang'ich fazasi

- Tebranma harakatning *burchak (yoki siklik) chastotasi* deb  $2\pi$  sekunddagi tebranishlar soniga aytiladi:  $\omega = 2\pi\nu$

- *Tebranish fazasi* tebranayotgan sistemaning istalgan paytdagi holatini aniqlaydi.

- Siljishning vaqt bo'yicha birinchi tartibli hosilasi garmonik harakatning tezligini beradi:

$$v = x' = -\omega x_m \cos(\omega t + \varphi_0); \quad g = A\omega \cos(\omega t + \alpha); \quad g = A\omega \sin(\omega t + \alpha);$$

$$g = -g_{\max} \cdot \cos(\omega t + \alpha); \quad g = g_{\max} \cdot \sin(\omega t + \alpha); \quad g = X'(t); \quad g_{\max} = A\omega = \frac{2\pi A}{T} = 2\pi\nu A;$$

$g_{\max}$  - tezlikning amplituda qiymati

- Garmonik tebranishlarda tezlanish harakat tezligidan vaqt bo'yicha birinchi tartibli hosilasiga yoki siljish bo'yicha ikkinchi tartibli hosilasiga teng:


$$a = v' = -\omega^2 x_m \sin(\omega t + \varphi_0); \quad a = g'(t) = X''(t); \quad a = A\omega^2 \sin(\omega t + \alpha);$$

$$a = A\omega^2 \cos(\omega t + \alpha); \quad a = a_{\max} \cdot \sin(\omega t + \alpha); \quad a = a_{\max} \cdot \cos(\omega t + \alpha);$$

$$a = a_{\max} \cdot \sin(\omega t + \alpha); \quad a_{\max} = \frac{4\pi^2 A}{T^2} \cdot \sin(\omega t + \alpha); \quad a_{\max} = 4\pi^2 \nu^2 A \quad a = -\omega^2 \cdot X$$

## 26-§. Matematik mayatnik.

- Matematik mayatnik deb vaznsiz va cho'zilmaydigan ipga osilgan, og'irlik kuchi ta'sirida vertikal tekislikdagi aylana yoyi bo'ylab harakatlana oladigan moddiy nuqtadan iborat sistemaga aytiladi.



Rasm 36. Matematik mayatnik

- Sistemaning ichki kuchi:  $F_1 = -mg \sin \alpha$
- Sharcha tezlanishi:  $a = -g \sin \alpha$
- Matematik mayatnikning tebranish davri, chastotasi va siklik chastotasi (yoki Gyugens formulasi):

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g}}; \quad v = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{g}{l}}; \quad \omega = \sqrt{\frac{g}{l}}$$

→ gorizontal yo'nalishda  $a$  - tezlanish bilan harakatlangan sanoq sistemasida:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{\sqrt{g^2 + a^2}}}; \quad \omega = \sqrt{\frac{\sqrt{g^2 + a^2}}{l}}; \quad v = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{\sqrt{g^2 + a^2}}{l}}$$

→  $a$  tezlanish bilan tushayotgan (tezlanish pastga yo'nalgan) sanoq sistemasida:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g-a}}; \quad \omega = \sqrt{\frac{g-a}{l}}; \quad v = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{g-a}{l}}$$

→  $a$  tezlanish bilan tushayotgan va tezlanish yuqoriga yo'nalgan:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g+a}}; \quad \omega = \sqrt{\frac{g+a}{l}}; \quad v = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{g+a}{l}}$$

→  $a$  tezlanish bilan ko'tarilayotgan (tezlanish yuqoriga yo'nalgan) sanoq sistemasida:  $T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g+a}}; \quad v = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{g+a}{l}}; \quad \omega = \sqrt{\frac{g+a}{l}}$

→  $a$  tezlanish bilan ko'tarilayotgan va tezlanish pastga yo'nalgan:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g-a}}; \quad \omega = \sqrt{\frac{g-a}{l}}; \quad v = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{g-a}{l}}$$

- Matematik mayatnikda davr, chastota va siklik chastota (yoki burchak tezlik) orasidagi bog'lanishlar:  $v = \frac{1}{T}; \quad v = \omega/2\pi; \quad T = \frac{2\pi}{\omega}$

- Matematik mayatnikning tebranish davri faqat mayatnik ipining uzunligiga va erkin tushish tezlanishiga bog'liq bo'ladi. Tebranish davri mayatnik ipiga osilgan yukning massasiga bog'liq emas.

Matematik mayatnik  $x_m$  masofaga siljiganda uning energiyasi:

$$E = \frac{mg \cdot x_m^2}{l \cdot 2}$$

- Matematik mayatnik muvozanat vaziyatidan yarim amplituda holatiga o'tish vaqti -  $t_1$ :  $t_1 = \frac{T}{12}$

- Matematik mayatnik yarim amplituda vaziyatidan to'la amplituda holatiga o'tish vaqti -  $t_2$ :  $t_2 = \frac{T}{6}$

- Matematik mayatnik muvozanat vaziyatidan to'la amplituda holatiga o'tish vaqti -  $t$ :  $t = \frac{T}{4}$

- Birinchi mayatnik  $t_1$  vaqtda  $N_1$ , ikkinchisi  $t_2$  vaqtda  $N_2$  marta tebransa, mayatnik uzunliklari nisbati:  $\frac{l_2}{l_1} = \left(\frac{t_2 \cdot N_1}{t_1 \cdot N_2}\right)^2$

- Matematik mayatnik vertikalidan  $\alpha$  burchakka og'gan holda gorizontal tekislikda  $R$  radiusli aylana bo'ylab harakat qilayotgandagi aylanish davri va chastotasi:  $T = 2\pi \sqrt{\frac{l \cos \alpha}{g}}$ ;  $\nu = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{g}{l \cos \alpha}}$

- Mayatnik ipining uzunligi  $\Delta l$  ga ortganda davri  $\Delta T$  ga ortgan bo'lsa, boshlang'ich davr -  $T_0$ :  $T_0 = \frac{2\pi^2 \Delta l}{\Delta T g} - \frac{\Delta T}{2}$

- Mayatnik ipining uzunligi  $\Delta l$  ga kamayganda davri  $\Delta T$  ga kamaygan bo'lsa, boshlang'ich davr  $T_0$ :  $T_0 = \frac{2\pi^2 \Delta l}{\Delta T g} + \frac{\Delta T}{2}$

- Mayatnikning biror planetadagi tebranish davri:

$$\frac{T_{planet}}{T_{yer}} = \sqrt{\frac{g_{yer}}{g_{planet}}}; \quad \frac{\nu_{planet}}{\nu_{yer}} = \sqrt{\frac{g_{planet}}{g_{yer}}}; \quad T_{planet} = T_{yer} \cdot \sqrt{\frac{g_{yer}}{g_{planet}}}; \quad \nu_{planet} = \nu_{yer} \cdot \sqrt{\frac{g_{planet}}{g_{yer}}};$$

- Vaznsizlik holatida matematik mayatnik tebranmaydi.
- Matematik mayatnikning bir davr davomida bosib o'tgan yo'li -  $L$  uning amplitudasidan 4 marta katta bo'ladi:  $L = 4 \cdot A$

- Matematik mayatnik tezligi:  $\vartheta = x'$ ;  $\vartheta = \vartheta_0 \cdot \cos(\omega t + \varphi_0)$ ;

$$\vartheta_0 = \omega A; \quad \vartheta_0 = A \sqrt{\frac{g}{l}}; \quad \vartheta_0 = 2\pi \nu A; \quad \vartheta_0 = \frac{2\pi A}{T};$$

- Vertikalidan  $\alpha$  - burchakka og'dirib qo'yib yuborilgan matematik mayatnik maksimal tezligi va eng katta kinetik energiyasi:

$$\vartheta_0 = \sqrt{2gl(1 - \cos \alpha)}; \quad E_0 = mgl(1 - \cos \alpha);$$

- Muvozanat vaziyatidan  $\Delta h$  balandlikka og'dirib qo'yib yuborilgan matematik mayatnik maksimal tezligi, va eng katta kinetik energiyasi:

$$\vartheta_0 = \sqrt{2g\Delta h}; \quad E_0 = mg\Delta h$$

- Matematik mayatnikning tezlanishi:

$$a = x''; \quad a = a_0 \cdot \sin(\omega \cdot t + \varphi_0); \quad a = -\omega^2 \cdot x; \quad a = -\frac{g}{l} \cdot x; \quad a = -\frac{2\pi^2}{T^2} \cdot x$$

- Matematik mayatnik tezlanish amplitudasi

$$a_0 = \omega^2 A; \quad a_0 = A \frac{g}{l}; \quad a_0 = 4\pi^2 \nu^2 A; \quad a_0 = \frac{4\pi^2 A}{T^2}$$

### 27-§. Prujinali mayatnik

- Bir uchi osmaga mahkamlangan ikkinchi uchiga  $m$  massali yuk osilgan prujinadan iborat sistema *prujinali mayatnik* deb ataladi.
- Prujinali mayatnik tebranish davri, chastotasi va siklik chastotasi:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{m}{k}}; \quad \omega = \sqrt{\frac{k}{m}}; \quad \nu = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{k}{m}}; \quad \nu = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{k}{m}}$$

- Tebranish davri, chastotasi va siklik chastotaning prujina o'lchamlariga bog'liqligi:  $T = 2\pi \sqrt{\frac{ml}{ES}}; \quad \nu = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{ES}{ml}}; \quad \omega = \sqrt{\frac{ES}{ml}}$

- Prujinali mayatnikning tebranish davri uning massasining kvadrat ildiziga to'g'ri proporsional, prujina bikrligining kvadrat ildiziga teskari proporsional.

- Prujinali mayatnik yukining massasi  $\Delta m$  ga oshirilganda davri  $n$  marta oshsa, yukning dastlabki massasi:  $m_0 = \frac{\Delta m}{n^2 - 1}; \quad n = \frac{T}{T_0}$

$$\Rightarrow \text{keyingi massasi: } m = \frac{n^2 \cdot \Delta m}{n^2 - 1}; \quad m = m_0 + \Delta m;$$

- Prujinali mayatnik yukining massasi  $\Delta m$  ga kamaytirilganda davri  $n$  marta kamaysa, yukning dastlabki massasi:  $m_0 = \frac{n^2 \cdot \Delta m}{n^2 - 1}; \quad n = \frac{T_0}{T}$

$$\Rightarrow \text{keyingi massasi: } m = \frac{\Delta m}{n^2 - 1}; \quad m = m_0 - \Delta m;$$

- Prujinali mayatnikning o'z yuki ta'sirida cho'zilish uzunligi;

$$\Delta x = \frac{gT^2}{4\pi^2}; \quad \Delta x = \frac{m}{k} g; \quad \Delta x = \frac{g}{\omega^2};$$

- Prujinaga osilgan yuk muvozanat vaziyatiga nisbatan  $x_m$  masofaga uzoqlashganda uning tebranish energiyasi:

$$E = \frac{k \cdot x_m^2}{2};$$

- Prujinali mayatnikning maksimal potensial energiyasi uning to'liq mexanik energiyasiga yoki maksimal kinetik energiyasiga teng bo'ladi:

$$E_{pot \max} = E_{kin \max} = E_0; \quad E_0 = \frac{kA^2}{2}; \quad E_0 = \frac{m\omega^2 A^2}{2}; \quad E_0 = \frac{2\pi^2 m \cdot A^2}{T^2};$$

- Prujinali mayatnik tezligi:  $\mathcal{V} = x'$ ;  $\mathcal{V} = \mathcal{V}_0 \cdot \cos(\omega \cdot t + \varphi_0)$ ;

$$\mathcal{V}_0 = \omega A; \quad \mathcal{V}_0 = A \sqrt{\frac{k}{m}}; \quad \mathcal{V}_0 = 2\pi v A; \quad \mathcal{V}_0 = \frac{2\pi A}{T};$$

- Prujinali mayatnik tezlanishi:

$$a = x''; \quad a = a_0 \cdot \sin(\omega \cdot t + \varphi_0); \quad a = -\omega^2 \cdot x; \quad a = -\frac{k}{m} \cdot x; \quad a = -\frac{4\pi^2}{T^2} \cdot x;$$

- Prujinali mayatnik tezlanish amplitudasi:

$$a_0 = \omega^2 A; \quad a_0 = A \frac{k}{m}; \quad a_0 = 4\pi^2 v^2 A; \quad a_0 = \frac{4\pi^2 A}{T^2};$$

- Vaznsizlik holatida matematik mayatnik, qum soat, prujinali tarozi, suyuqlikli barometrlardan foydalanib bo'lmaydi; bunda prujinali mayatnik, ma'nometr, prujinali soatlardan foydalansa bo'ladi.

- Garmonik harakatda bikrilik:  $K = \frac{4\pi^2 m}{T^2}$

- **Garmonik tebranma harakat.**

Sinus yoki kosinus qonuni bo'yicha o'zgaruvchi harakatga *garmomik tebranma harakat* deyiladi.

$$x = A \cdot \sin(\omega \cdot t + \varphi_0) \quad x = A \cdot \sin\left(\frac{2\pi}{T} \cdot t\right)$$

$$\Rightarrow \text{Matematik mayatnik: } x = A \sin\left(\sqrt{\frac{g}{l}} \cdot t + \varphi_0\right)$$


$$\Rightarrow \text{Prujinali mayatnik: } x = A \sin\left(\sqrt{\frac{k}{m}} \cdot t + \varphi_0\right)$$

$A$  – amplituda,  $\varphi_0$  – boshlang'ich faza,  $(\omega \cdot t + \varphi_0)$  –  $t$  vaqtdagi faza.

- Tebranish muvozanat vaziyatidan boshlansa, sin funksiyadan, amplituda vaziyatidan boshlansa cos funksiyadan boshlanadi.

## 28-§. Garmonik tebranishlarda energiyaning saqlanish qonuni.

- **Garmonik tebranma harakatda energiyaning saqlanish qonuni:** Garmonik tebranma harakatda to'la mexanik energiya o'zgarimasdan qoladi. U goh potensial, goh kinetik energiya ko'rinishida ifodalanadi. Harkatning chegaraviy nuqtalarida u potensial energiyaga aylanadi, muvozanat vaziyatida kinetik energiya sifatida namoyon bo'ladi.



Rasni 37. Matematik mayatnikda energiya almashinuvi


- Tebranayotgan jismning potensial energiyasi (1-holat):  $W_p = mg\Delta h$
- Tebranayotgan jismning kinetik energiyasi (2-holat):  $W_k = \frac{mv^2}{2}$
- Tebranma harkatda to'liq energiya:  $W_T = W_k + W_p = \frac{4\pi^2 A^2 m}{T^2}$ ;  $W_T = 4\pi^2 v^2 A^2 m$ ;  
 $W_T = a_{\max} \cdot Am$ ;  $W_T = \frac{kA^2}{2}$ ;  $W_T = \omega^2 A^2 m$  k- bikrlilik

## 29-§. Majburiy tebranishlar. Rezonans

- Davriy o'zgarib turuvchi tashqi kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan tebranishlar *majburiy tebranishlar* deyiladi. Majburiy tebranishning xususiyatlari:
  1. Sistema tashqi ta'sir kuchining tebranish chastotasida tebranadi.
  2. Majburiy tebranishlar amplitudasi .. tashqi ta'sir kuchi tebranish amplitudasiga proporsional.
  3. Majburiy tebranish amplitudasi tashqi ta'sir chastotasiga bog'liq.
- Sistemaga ta'sir etuvchi tashqi kuch o'zgarishlarining chastotasi sistemaning erkin tebranishlari chastotasi bilan tenglashganda, majburiy tebranishlar amplitudasining keskin o'sishi *rezonans* deb ataladi.

### 30-§. To'liqlar. Bo'ylama va ko'ndalang to'liqlar

- Tebranishlarning vaqt o'tishi bilan fazoda tarqalishi *to'liqin* deyiladi. To'liqin – bu tebranishlarning nuqtadan-nuqtaga, zarradan-zarraga tarqalishidir.
- Zarralarning tebranishi to'liqinning tarqalishi yo'nalishiga tik (perpendikulyar) bo'lgan to'liqin *ko'ndalang to'liqin* deb ataladi. Bir uchi mahkamlangan arqon bo'ylab tarqalayotgan to'liqin ko'ndalang to'liqinga misoldir.



Rasm 38. Mexanik tebranishlarning tarqalishi

- Zarralarning tebranish yo'nalishi tebranishning tarqalish yo'nalishida bo'lgan to'liqin *bo'ylama to'liqin* deb ataladi. Prujinaga osilgan yuk tebranishi, havodagi tovushning tarqalishi, suyuqlik va qattiq jismlarda tovushning tarqalishi bo'ylama to'liqinga misoldir.
- Tebranishning bir xil fazalarda bo'lgan bir-biriga eng yaqin nuqtalari orasidagi masofa *to'liqin uzunligi* deyiladi.
- Ikki do'nglik yoki ikki pastlik orasidagi eng yaqin masofa *to'liqin uzunligi* deyiladi.
- To'liqinning to'liq bir marta tebranishi uchun ketgan vaqt, to'liqinning *tebranish davri* deb ataladi.  $T$  – davr  $\lambda$  – to'liqin uzunlikka teng oraliqni o'tish uchun ketgan vaqtdir.
- Mexanik to'liqlar va yorug'lik to'liqlari uchun:

$$g = \frac{\lambda}{T}; \quad g = \lambda \cdot \nu; \quad l = N \cdot \lambda; \quad \lambda = \frac{ChN}{\rho l}$$

- Yorug'lik xalqalarining diametrlarini topish formulasi:  $d = \sqrt{\lambda \cdot n \cdot R}$ ;  $n$ -chi yorug'lik diametri (son);  $R$ -egrilik radiusi
- Tarqalayotgan yassi to'liqin tenglamasi:  
 $x = A \sin(\omega t + \varphi_0)$
- Bir-biridan  $\Delta x$  masofada tebranayotgan yassi to'liqindagi fazalar farqi:

$$\Delta \varphi = \frac{2\pi}{\lambda} \Delta x = \frac{2\pi \nu}{v} \Delta x$$

### 31-§. Tovush to'liqlari

- Fizikaning tovush hodisalarini o'rganadigan bo'limi *akustika* deb ataladi.
- Insonning eshitish organi 20 Hz dan 20000 Hz gacha bo'lgan chastotali to'liqlarni eshita oladi va bu to'liqlar *tovush to'liqlari* deyiladi. Tovush havo zarralarining tebranma harakatidan paydo bo'ladi. Tovush qulog'imiz bilan tovush manbai oralig'idagi havo orqali o'tib keladi. Tovush to'liqin sifatida tarqaladi.
- Vakuumda tovush yuzaga kelmaydi. Chunki tebranishni uzatuvchi elastik muhit bo'lmaydi.
- Tovushni yuzaga keltirib, uni sezishning to'rtta sharti mavjud:
  1. Tovush manbaining mavjud bo'lishi;
  2. Tovush tarqalishini ta'minlovchi elastik muhit;
  3. Tovush to'liqlarining aniq chastota intervalida yuzaga kelishi;
  4. Tovush to'liqlarini qabul qiluvchi qurilma.
- Qattiq jismlarda to'liqlar ham bo'ylama, ham ko'ndalang bo'ladi. Suyuqlik va gazlarda esa faqat bo'ylama to'liqlar vujudga keladi. Shunga ko'ra, suyuqlik va gazlarda tarqalayotgan tovush to'liqlari faqat bo'ylama to'liqlardir. Qattiq jismlarda esa tovush to'liqlari bo'ylama va ko'ndalang bo'ladi
- Gazlarda tovush tezligi temperaturaning ko'tarilib borishi bilan muttasil ortib boradi. Ammo suyuqliklarda buning aksini ko'ramiz: ularda temperaturaning ortishi bilan tovush tezligi kamayadi. Qattiq jismlarda tovush tezligi o'zining eng katta qiymatiga erishadi. Masalan, berilliy metalida tovush tezligi 12 250 m/s atrofida, po'lat yoki temirda 4900-5000 m/s atrofida. Suvda normal sharoit uchun tovush tezligi 1450 m/s ga teng. Havoda tovush to'liqinining tarqalish tezligi (normal atmosfera bosimida va temperaturasi 15°C bo'lgan sharoitida)  $\approx 340$ m/s.
- Biror aniq chastotaga ega bo'lgan tovush *musiqiy ton* deyiladi. Tonning yuksakligi tebranishlarning chastotasiga ko'ra aniqlanadi.
- Chastotasi eng kichik bo'lgan oddiy tebranma harakat *tovushning asosiy toni* deyiladi. Qolgan katta chastotali tebranishlar *oberton* deyilib, ular tovushga biror tembr (rang) beradi.
- Nodavriy, ya'ni davri o'zgaruvchan hamda uzoq davom etadigan manbalardan chiqadigan turli tovushlar yig'indisi *shovqin* deyiladi.
- Tovush tebranishlari *energiyasi* tebranish amplitudasining kvadratiga proporsional bo'ladi.
- Tarqalayotgan tovush to'liqini, tovush manбайдan olgan ma'lum energiyaga ega. *Tovushning kuch yoki intensivligi (halandligi)* tovush to'liqinining shu to'liqin tezligiga perpendikulyar bo'lgan yuzaga birligidan 1 sekundda olib o'tadigan energiya miqdori bilan aniqlanadigan kattalikdir.

$$I = \frac{W}{S \cdot t} = \frac{P}{S}; \quad I = \bar{w} \cdot \vartheta = \frac{1}{2} \rho \vartheta \omega^2 A^2;$$

bunda  $W$  – tovush to'liqini energiyasi,  $S$  – to'liqinning tarqalish yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan yuza,  $P$  – tovush to'liqining quvvati,  $t$  – vaqt.  $\bar{w}$  – energiya zichligi.

- Tovush intensivligi SI da  $W/m^2$  da o'lchanadi. Inson qulog'i  $10^{-12}$  dan  $10 W/m^2$  gacha intensivlikni sezishga qodir. Intensivlik bundan katta bo'lsa, inson qulog'i og'riqni xis qiladi. Tovush manбайдan uzoqlashgan sari intensivlik masofa kvadratiga teskari proporsional ravishda kamayadi.
- Tarqalayotgan tovush to'liqini ma'lum bir miqdorda impulsiga ega.
- Tovush to'liqini o'z yo'lida to'siqqa uchraganda unga bosim ko'rsatadi, unga tovush bosimi deb ataladi. Boshqa bosimlar kabi tovush bosimi ham paskalda (Pa) o'lchanadi. O'rtacha qattqlikda gapirganda tovush bosimi taxminan 0,1 Pa ga teng.
- Yorug'lik bosimini topish formulasi:  $P = \frac{E}{isc}$ ; s- yuza; t-vaqt
- To'liqin energiya zichligi:  $\bar{w} = \frac{1}{2} \rho \omega^2 A^2$ ;
- Tarqalayotgan to'liqinning o'rtacha energiyasi:  $\bar{W} = \frac{1}{2} m \omega^2 A^2$ ; m-ajratib olingan muhit hajmining massasi.
- Tovushning qattqligi tovush to'liqining sub'ektiv bahosidir. Tovush qattqligi tovushning amplitudasiga bog'liq.
- Tovush balandligi tovushning tebranish chastotasiga bog'liq.
- Chastotasi 20000 Hz dan yuqori bo'lgan mexanik to'liqlar *ultratovushlar* deb ataladi.
- Chastotasi 20Hz dan kichik bo'lgan mexanik to'liqlar *infratovushlar* deb ataladi.
- To'liqin intensivligi chastotaning kvadratiga to'g'ri proporsional:  $I \sim \omega^2$
- *Tovush tembri* energiyaning ma'lum chastotalar orasida taqsimlanishini xarakterlovchi kattalik.
- **Tovush to'liqlari uchun Dopler effekti.** To'liqlar manbai va qabul qiluvchining bir-biriga nisbatan harakatlanishi natijasida qabul qilinayotgan to'liqlar chastotasining o'zgarishiga Dopler effekti deyiladi.
- Biror muhitda tovush to'liqini tarqalayotib, uning chegarasiga yetib boradi. Boshqa muhit chegarasida tovush to'liqining qaytishi sodir bo'ladi. Aks-sado hodisasi tovushning qaytishi tufayli yuz beradi. Tovushning bu xususiyatidan tovush lokatsiyasi (exolokatsiya) hodisasida keng foydalaniladi. Tovush lokatsiyasi-turli buyumlargaacha bo'lgan masofani va ularning o'rmini aniqlash aks-sado hodisasiga asoslangan.
- Radiolokatorming ta'sir uzoqligini topish formulasi:

$$t = \frac{2s}{v} \quad \text{yoki} \quad s = \frac{v \cdot t}{2}$$

## MOLEKULYAR FIZIKA VA TERMODINAMIKA

### 32-§ Molekulyar-kinetik nazariyaning asoslari.

#### Broun harakati

- Molekulyar kinetik nazariyaning asosiy uch qoidasi:
  1. moddalar ko'zga ko'rinmaydigan zarralar - molekullardan tashkil topgan;
  2. ular uzluksiz harakat qiladi;
  3. zarralar bir-birlari bilan ta'sirlashadi, bu ta'sirlashish molekullarning turiga va ular orasidagi masofaga bog'liq bo'ladi.
- *Atomning nisbiy massa birligi* sifatida atom izotoplari aralashmasi o'rtacha massasining  $C^{12}$  uglerod izotopi atom massasining  $m_{at}$  ning 1/12 qismiga teng nisbatiga aytiladi:

$$M_r = \frac{m_0}{\frac{1}{12} m_{at}}$$

- *Massaning atom birligi* sifatida  $C^{12}$  uglerod izotopi atomi massasining 1/12 qismi qabul qilingan. Massaning atom birligi qiymati miqdoran  $M_{at} = 1,66 \cdot 10^{-27}$  kg ga teng.
- 1 Mol moddaning shunday miqdoriki, u shu moddadagi molekula yoki atomlar soni massasi 0,012 kg ga teng bo'lgan uglerod tarkibidagi atomlar soniga teng bo'ladi.
- Massasi bir molga teng bo'lgan modda tarkibidagi molekullar soni *Avogadro doimiysi* deyiladi:  $N_a = 6,022 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$ ;
- Qiymati bir molga mos keluvchi moddada mavjud bo'lgan massa *molyar massa* deyiladi.
- *Broun harakati* deb zarrachalarning suyuqlik yoki gazlardagi muallaq tartibsiz harakatiga aytiladi. Broun harakati to'xtovsiz harakat, uning tezligi zarralarning o'lchamiga bog'liq, temperatura ko'tarilishi bilan bu harakat tezligi ortadi.
- *Broun harakati* suyuqlik yoki gazda erimaydigan va muallaq holatda bo'lgan qattiq zarralarning uzluksiz xotik harakatidir.

- Nisbiy atom massa-  $m_{at}$ : 
$$m_{at} = \frac{m_0}{\frac{1}{12} m_{at}}$$

$m_0$  - qaralayotgan modda atomining massasi,

$m_{at}$  - uglerod atomining massasi.

- Suv molekulasining diametri  $\approx 3 \cdot 10^{-8}$  sm
- Modda miqdori:  $\nu = \frac{m}{M}$ ;  $\nu = \frac{N}{N_a}$ ;  $\nu = \frac{V}{V_0}$ ;  $V_0 = 22,41 \text{ l/mol}$   
 $V_0 = 22,41 \text{ l/mol} \rightarrow (T = 273,15 \text{ K})$  va  $(P = 10^5 \text{ Pa})$ ;  
V-normal sharoitdagi gaz hajmi.

- Molyar massa -  $M$ :  $M = m_0 \cdot N_A$      $M = \frac{m}{N} N_A$   
 $m_0$  - bitta atomning ( molekulaning massasi).
- Berilgan moddadagi molekular soni:  
 $N = \nu \cdot N_A$ ;  $N = \frac{m}{M} \cdot N_A$ ;  $N = \frac{\rho V N_A}{M}$ ;  $N = \frac{m}{m_0}$ ;  $N = nV$
- Bitta molekula massasi:  $m_0 = \frac{m}{N}$ ;  $m_0 = \frac{M}{N_A}$
- Har xil gaz molekulari nisbati:  $\frac{N_2}{N_1} = \frac{m_2 M_1}{m_1 M_2}$
- Modda massasi:  
 $m = \nu \cdot M$ ;  $m = \rho \cdot V$ ;  $m = m_0 N$ ;  $m = \frac{M \cdot N}{N_A}$ ;  $m = n \cdot m_0 V$   
 $n$ -molekular konsentratsiyasi
- Molekula o'lchami:  $d = \sqrt{\frac{V}{N}}$ ;  $d = \sqrt{\frac{M}{\rho \cdot N_A}}$
- Gaz molekulari orasidagi masofa:  $b = \sqrt{\frac{kT}{P}}$

### 33-§. Diffuziya. Gazlar, suyuqliklar va qattiq jismlar molekularining harakati

- Turli moddalar bir-biriga tekkizilsa, bir moddaning molekulari ikkinchi modda molekulari orasiga kiradi, ya'ni ikki xil modda molekularining bir-biriga singishi sodir bo'ladi. Bu hodisaga *diffuziya* deyiladi.
- *Diffuziya* deb bir-biriga chegaradosh bo'lgan ikki modda molekularining tartibsiz harakati tufayli o'zaro qo'shilib ketishiga aytiladi. Diffuziya hodisasini gazlarda, suyuqliklarda va qattiq jismlarda kuzatish mumkin.
- Gazlarda diffuziya suyuqliklardagiga qaraganda tez sodir bo'ladi.
- Qattiq jismlardagi molekular orasidagi tortishish kuchlari suyuqlikdagiga qaraganda ancha katta bo'lganligi uchun diffuziya hodisasi juda ham sekin kechadi.
- Diffuziya jarayonining intensivligi temperatura ortgan sari molekularning tartibsiz harakat tezligining ortishi hisobiga ortib boradi.
- Molekularning o'rtacha erkin yugurish masofasi—ikki ketma-ket to'qnashish orasida molekula bosib o'tgan masofa bo'lib, uning kattaligi moddaning zichligiga bog'liq bo'ladi.
- Bosim qancha past bo'lsa, zichlik ham shuncha kichik bo'ladi va molekularning erkin yugurish o'rtacha masofasi shuncha katta bo'ladi.
- Moddaning *agregat holati* to'rt xil bo'ladi:  
 1) gaz holat; 2) suyuq holat; 3) qattiq holat; 4) plazma holat.

### 34-§. Ideal gaz molekulyar-kinetik nazariyaning tenglamasi

- Hajm birligidagi molekular soni, *molekular konsentratsiyasi* deyiladi.
- Molekulalarning to'xtovsiz harakati davomida ularning idish devori bilan to'qnashishlari tufayli gaz bosimi vujudga keladi.
- *Ideal gaz*-molekulalari orasidagi o'zaro ta'sir kuchlari e'tiborga olinmaydigan darajada kichik bo'lgan gaz.
- *Ideal gazning bosimi* hajm birligidagi molekular soni (*molekular konsentratsiyasi*) bilan molekula ilgarilanma harakatining o'rtacha kinetik energiyasi ko'paytmasiga to'g'ri proporsional.
- Molekular ilgarilanma harakatining o'rtacha kinetik energiyasi faqat gazning absolyut temperaturasiga bog'liq.

• Molekular konsentratsiyasi:  $n = \frac{N}{V}$ ;  $n = \frac{P}{kT}$ ;  $n = \frac{3P}{m_0 g^2}$ ;

$$n = \rho \frac{N_0}{M}; \quad n = \frac{m}{m_0 V}; \quad n = \frac{\rho}{m_0}; \quad n = \frac{\nu N_A}{V}; \quad n = \frac{mN_0}{M V}$$

- *Zichlik* ( $\rho$ ) deb hajm birligidagi massaga teng bo'lgan kattalikka aytiladi:

$$\rho = \frac{m}{V}; \quad \rho = nm_0; \quad \rho = \frac{\nu M}{V}; \quad \rho = \frac{PM}{RT}; \quad \rho = \frac{3P}{g^2}; \quad \rho = \frac{nM}{N_0}; \quad \rho = \frac{Nm_0}{V};$$

- Zichligi  $\rho_1$  hajmi  $V_1$  va zichligi  $\rho_2$  hajmi  $V_2$  bo'lgan suyuqliklar

aralashirilganida aralashmaning zichligi:  $\rho = \frac{\rho_1 V_1 + \rho_2 V_2}{V_1 + V_2}$ ;  $\rho = \frac{m_1 + m_2}{V_1 + V_2}$

- Agar aralashmaning hajmi uni tashkil etuvchilari hajmlarining yig'indisiga teng bo'lsa  $V = V_1 + V_2$  aralashmadagi moddalarning massa

ulushlari:  $\frac{m_1}{m} = \frac{\rho_1}{\rho} \frac{\rho - \rho_2}{\rho_1 - \rho_2}$ ;  $\frac{m_2}{m} = \frac{\rho_2}{\rho} \frac{\rho_1 - \rho}{\rho_1 - \rho_2}$

$\rho$  – aralashmaning umumiy zichligi.

- Bitta molekulaning o'rtacha kinetik energiyasi:

$$E_1 = \frac{m_0 g^2}{2}; \quad E = \frac{3}{2} kT; \quad E_1 = \frac{3P}{2n}$$

- Temperatura molekulyar kinetik energiya o'lchovidir:  $E = \frac{3}{2} kT$

- Molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tenglamalari:  $P = knT$ ;

$$P = \frac{1}{3} m_0 n g^2; \quad P = \frac{2}{3} n \cdot \frac{m_0 g^2}{2}; \quad P = \frac{2}{3} n E_1; \quad P = \frac{1}{3} \rho g^2; \quad P = \frac{1}{3} \frac{N}{V} m_0 g^2$$

$g$  – o'rtacha kvadratik tezlik,  $P$  – bosim,  $n$  – konsentratsiya,  $m_0$  – bitta molekula massasi,  $\rho$  – molekular zichligi,  $V$  – gaz hajmi.

- Boltsman doimiysi:  $\kappa = 1.38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$

- **Dalton qonuni.** Idishda turli xil gazlar aralashmasi bo'lganida ularning umumiy bosimi, har bir gaz alohida boshqalari bo'lmaganida butun idish hajmida hosil qiladigan bosimlarining yig'indisiga teng bo'ladi.

$$P = P_1 + P_2 + P_3 + \dots + P_n$$

- Gaz aralashmasida har bir gazning alohida hosil qiladigan bosimi parsial bosim deyiladi.
- Universal gaz doimiysi -  $R$ :  $R = k \cdot N_A$ ;  $R = 8.31 \frac{J}{mol \cdot K}$

### 35-§. Temperatura. Temperaturaning absolyut shkalasi.

- *Temperatura*-makraskopik sistemaning issiqlik muvozanatini va issiqlik almashinishi yo`nalishini xarakterlovchi kattalikdir.
- *Issiqlik (termodinamik) muvozanatdagi* jismlar temperaturasi bir xil bo'ladi.
- Issiqlik (termodinamik) muvozanatida turgan gaz molekulalarining o'rtacha kinetik energiyalari teng bo'ladi.
- *Temperatura*-modda molekulalarining o'rtacha kinetik energiyasi o'lchovi.
- Temperaturani o'lchash uchun mo'ljallangan asbob *termometr* deyiladi.
- Absolyut nol shunday temperaturaki, bunda molekulalarning ilgari lanma harakati tamomila to'xtaydi. Ammo molekulalar harakatining boshqa turlari (aylanma va tebranma harakatlar)  $T = 0 K$  da ham sodir bo'laveradi.
- Temperaturaning o'lchov birligi sifatida  $1^{\circ}C$  (gradus Selsiy) va  $1 K$  (Kelvin) olingan. Selsiy shkalasida  $t=0^{\circ}C$  - sifatida normal atmosfera bosimidagi suvning qattiq holatga (muzga) o'tish temperaturasi,  $t=100^{\circ}C$  - sifatida suvning gaz (bug') holatiga o'tish temperaturasi olingan. Kelvin shkalasida  $T = 0K$  sifatida, modda molekulalarning ilgari lanma harakati to'xtaydigan temperatura olingan.
- Temperaturaning Kelvin va Selsiy shkalalari orasidagi bog'liqlik:

$$T = (t + 273.15)K; \quad t = (T - 273.15)^{\circ}C$$

- Temperaturani topish formulalari:

$$\Delta T = \Delta t; \quad T = \frac{P}{nk}; \quad T = \frac{2E}{3k}; \quad T = \frac{m_0 g^2}{3k}; \quad T = \frac{PV}{\nu R}; \quad T = \frac{Mg^2}{3R}; \quad T = \frac{PV}{kN}$$

- Aralashma temperaturasi:  $t = \frac{m_1 t_1 + m_2 t_2 + m_3 t_3}{m_1 + m_2 + m_3}$

- Moddani elektr choynakda isitish:  $\Delta T = \frac{I^2 R t \eta}{cm}$

- Temperaturaning Selsiy va Farangeyt shkalalari orasidagi bog'liqlik:

$$F = \left(\frac{9}{5}t + 32\right)^{\circ}F; \quad t = \frac{5}{9}(F - 32)^{\circ}C$$

### 36-§. Molekulalarning o'zaro ta'siri

- Gazlarda molekulalar orasidagi o'zaro *tortishish potensial energiyasi* ularning *kinetik energiyasiga* qaraganda juda kichik.
- Suyuqliklarda molekulalar orasidagi o'zaro *tortishish potensial energiyasi* ularning *kinetik energiyasiga* taxminan teng.
- Qattiq jismlarda molekulalar orasidagi o'zaro *tortishish potensial energiyasi* ularning *kinetik energiyasiga* qaraganda juda katta.
- Molekulalar orasida o'zaro tortishuvchi va itarishuvchi kuchlar mavjud bo'ladi. Molekulalar bir-biridan bu kuchlar teng bo'ladigan masofa  $r_0$  joylashadi. Masofa  $r > r_0$  bo'lsa  $F_{\text{tor}} > F_{\text{itar}}$  va  $r < r_0$  bo'lsa  $F_{\text{tor}} < F_{\text{itar}}$  bo'ladi.
- Gaz molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligi :

$$v = \sqrt{\frac{3RT}{M}}; \quad v = \sqrt{\frac{3kT}{m}}; \quad v = \sqrt{\frac{3P}{\rho}}; \quad v = \sqrt{\frac{3PV}{\rho}}; \quad v = \sqrt{\frac{3PV}{Nm_0}}; \quad v = \sqrt{\frac{3PV}{m}}$$

$$v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2 + v_z^2}; \quad v_x^2 = v_y^2 = v_z^2 = v^2/3; \quad v = \frac{6nR_2(R_2 - R_1)}{S}$$

$\omega$  – burchak tezlik,  $A$  – ichki silindr,  $B$  – tashqi silindr.

### 37- §. Boyl — Mariott, Gey-Lyussak va Sharl qonunlari


- **Boyl—Mariott qonuni:**
  1. Berilgan gaz massasi uchun o'zgarmas temperaturada gazning hajmi uning bosimiga teskari proporsionaldir.
  2. Berilgan gaz massasi uchun o'zgarmas temperaturada gaz hajmining bosimiga ko'paytmasi o'zgarмайdi.
- O'zgarmas temperaturada kechadigan jarayon *izotermik jarayon* deyiladi. Izotermik jarayon grafiklari *izotermalar* deyiladi .
- Izotermik jarayon (Boyl Maroitt qonuni):

$$T = \text{Const}; \quad PV = \text{Const}; \quad P_1V_1 = P_2V_2; \quad \frac{P_1}{P_2} = \frac{V_2}{V_1}$$

$$\rightarrow \text{Izotermik jarayonda: } \frac{P_1}{P_2} = \frac{n_1}{n_2}; \quad \frac{P_1}{P_2} = \frac{\rho_1}{\rho_2}$$

- Izotermik jarayonda har xil gaz molekulalarini o'rtacha kinetik energiyasi bir xil, gaz molekulalari o'rtacha kvadratik tezliklari har xil bo'ladi:


$$E_{k1} = E_{k2}; \quad \frac{v_1}{v_2} = \sqrt{\frac{M_1}{M_2}}$$



Rasm 39. Izotermalar

**Gey-Lyussak qonuni:**

1. Bosim o'zgaras bo'lganda ma'lum massali gaz hajmining nisbiy o'zgarishi temperaturaga to'g'ri proporsionaldir.
  2. O'zgaras massali gaz uchun bosim o'zgaras bo'lganda hajmning temperaturaga nisbati o'zgarmaydi.
- Muayyan gaz massasining bosimi o'zgaras ( $P=\text{const}$ ) bo'lganda sodir bo'ladigan jarayon, *izobarik jarayon* deyiladi. Izobarik jarayon grafiklariga *izobaralar* deyiladi.



Rasm 40. Izobaralar

- Izobarik jarayon (Gey-Lyusak qonuni):  $\frac{V}{T} = \text{Const}$ ;  $\frac{V_1}{T_1} = \frac{V_2}{T_2}$ ;  $P = \text{Const}$ ;

$$V = V_0(1 + \alpha \Delta T); \quad \alpha = \frac{\Delta V}{\Delta T V_0}$$

- Izobara grafigida temperatura o'qiga yaqinroq joylashgan to'g'ri chiziqqa mos keluvchi gaz bosimi kattaroq qiymatga ega bo'ladi.
- Izobarik jarayonda temperatura  $\Delta T$  ga o'zgarganda gaz hajmi  $\Delta V$  ga o'zgaragan bo'lsa:


$$\frac{\Delta V}{V_0} = \frac{\Delta T}{T_0} \quad T_0 = \frac{V_0}{\Delta V} \cdot \Delta T$$

$$\Rightarrow \text{Gaz hajmi } n \text{ marta ortgan bo'lsa: } T_0 = \frac{\Delta T}{n-1}$$

$$\Rightarrow \text{Gaz hajmi } n \text{ marta kamaygan bo'lsa: } T_0 = \frac{n \cdot \Delta T}{n-1}$$

#### Sharh qonuni:

- Hajm o'zgarimas bo'lganda ma'lum massali gaz bosimining nisbiy o'zgarishi temperaturaga to'g'ri proporsionaldir.
- O'zgarimas massali gaz uchun hajm o'zgarimas bo'lganda bosimning temperaturaga nisbati o'zgarmaydi.



Rasm 41. Izoxoralar

• O'zgarmas hajmda sodir bo'ladigan jarayon *izoxorik* jarayon deyiladi. Izoxorik jarayon grafiklari *izoxoralar* deyiladi.


• **Izoxorik jarayon (Sharl qonuni):**

$$\frac{P_1}{T_1} = \frac{P_2}{T_2}; \quad \frac{P}{T} = \text{Const}; \quad V = \text{Const}; \quad \alpha = \frac{\Delta P}{\Delta T \cdot P_0}; \quad P = P_0(1 + \alpha t); \quad \alpha = \frac{1}{273k};$$

• Tashqi muhit bilan issiqlik almashmasdan kechadigan jarayonga *adiabatik* jarayon deyiladi. Adibatik jarayon grafiklari *adiabatalar* deyiladi.


• **Adibatik jarayon (Puasson tenglamasi):**

$$PV^\gamma = \text{Const}; \quad TV^{\gamma-1} = \text{Const}; \quad TP^{\frac{\gamma}{1-\gamma}} = \text{Const}; \quad \gamma = \frac{i+2}{1} \quad i - \text{erkinlik darajasi}$$



Rasm 42. Adiabata va izoterma

- Ideal gaz bosimining termik koeffitsiyenti:  $\beta = \frac{\Delta P}{P \Delta T}$
- Ideal gaz hajmining termik koeffitsiyenti:  $\beta = \frac{\Delta V}{V \Delta T}$



Rasm 43. Izoterma, izobara va izoxora

### 38-§. Ideal gaz holat tenglamasi

- **Avogadro qonuni:** Istalgan gazning bir moli bir xil temperatura va bosimda bir xil hajmi egallaydi. Normal sharoitda, ya'ni bosim 1 atm. temperatura  $T_0 = 273 \text{ K}$  bo'lganda 1 mol gazning egallagan hajmi 22,4 litrga teng bo'ladi.
- Normal sharoitdagi ( $P=1 \text{ atm}$ ;  $T=273\text{K}$ ) molyar hajm:  
 $V_0=22.4 \text{ l/mol}$   $V_0=22.4 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3/\text{mol}$
- Normal sharoitda har qanday 1 mol miqdordagi gaz bir xil  $V = 22.4$  litr hajmga ega bo'ladi.
- Klapeyron tenglamasi:  $\frac{PV}{T} = kN$ ;  $\frac{PV}{T} = \text{Const}$ ;  $\frac{P_1 V_1}{T_1} = \frac{P_2 V_2}{T_2}$ ;

- Mendeleev-Klapeyron yoki holat tenglamasi:

$$\frac{PV}{T} = \frac{m}{M} \cdot R; \quad PV = \nu RT; \quad P = \frac{\rho RT}{M};$$

- Turli xil gazlar uchun:  $\frac{T_2}{T_1} = \frac{M_2 \rho_1^2}{M_1 \rho_2^2}$   $\frac{\rho_2}{\rho_1} = \sqrt{\frac{T_2 M_1}{T_1 M_2}}$
- Har xil gazlarda:  $T_1 = T_2 = T$ , va  $V = V_1 + V_2 + V$ , bajarilsa, gazlar aralashmasining natijaviy bosimi:  $P = \frac{P_1 V_1 + P_2 V_2 + P V_3}{V_1 + V_2 + V_3}$
- Normal sharoitda 1 m<sup>3</sup> gazdagi molekulalar *Loshmid soni* bilan aniqlanadi:

$$N_L = \frac{N_A}{V_0} = 2,7 \cdot 10^{23} \cdot \text{m}^{-3}$$

### 39-§ Issiqlik miqdori. Jismning ichki energiyasi.

- O'zaro va tashqi jismlar bilan ta'sirlashadigan va energiya almashadigan makroskopik jismlar majmuasi *termodinamik sistema* deyiladi.
- Termodinamik sistemaning hech bo'lmaganda bitta parametrining o'zgarishi *termodinamik jarayon* deyiladi.
- Issiqlik uzatish uch turga bo'linadi: issiqlik o'tkazuvchanlik, konveksiya va nurlanish.
- *Issiqlik o'tkazuvchanlik* deb modda molekulalarining va boshqa zarralarning tartibsiz harakati sababli moddaning bir qismidan ikkinchi qismiga ichki energiyaning uzatilishiga aytiladi.
- *Konveksiya* deb notekis isitilgan gaz yoki suyuqlik qatlamlarining og'irlik kuchi ta'sirida siljishi sababli bo'ladigan issiqlik uzatishga aytiladi.
- *Nurlanish* deb jismlar ichki energiyasining nur chiqarish yo'li bilan uzatilish jarayoniga aytiladi. Quyoshdan Yerga nurlanish orqali energiya uzatiladi.
- Jismlarning yoki ular qismlarining bir-biri bilan ichki energiya almashinishiga (mexanik ish bajarilmaganda) *issiqlik uzatish* yoki *issiqlik almashinishi* deyiladi.
- Bir jismdan boshqasiga issiqlik uzatishda o'tgan energiya miqdorini belgilovchi fizik kattalik *issiqlik miqdori* deyiladi.
- Moddaning massa birligini (1kg ni) 1 gradusga (yoki 1 Kelvinga) qizdirish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdoriga son jihatidan teng bo'lgan fizik kattalik *solishtirma issiqlik sig'imi* deyiladi. Solishtirma issiqlik sig'imining o'lchov birligi J/kg·K. Jismlarni solishtirma issiqlik sig'imini tajriba yo'li bilan aniqlashda *kallorimetrdan* foydalaniladi.
- Moddaning harakatlanayotgan molekulalarining kinetik energiyasi bilan ularning o'zaro ta'sir potensial energiyasining yig'indisi uning *ichki energiyasi* deyiladi.

$$U = W_k + W_p$$

→ Bir atomli ideal gazning ichki energiyasi:

$$U = \frac{3}{2} \frac{m}{M} RT; \quad U = \frac{3}{2} \nu RT; \quad U = \frac{3}{2} \frac{N}{N_A} RT; \quad U = \frac{3}{2} PV$$

- Ideal gazda molekulalarning o'zaro ta'sir potensial energiyasi e'tiborga olinmaydi, shu sababdan ideal gaz uchun

$$U = E_{k1} + E_{k2} + E_{k3} + \dots + E_{kn}$$

$N$  – gaz molekulalarining soni. Bitta molekulaning o'rtacha kinetik energiyasi  $E_i = \frac{1}{2} kT$   $i$  – gaz molekulalarining erkinlik darajasi.

- *Molekulalarning erkinlik darajasi  $i$*  deb, uning fazodagi o'zini to'la aniqlash uchun zarur bo'lgan, bir-biriga bog'liq bo'lmagan koordinatalarning umumiy soniga aytiladi.
- Bir atomli gazlar molekulasida uchta ilgarilanma harakat erkinlik darajasiga ega bo'ladi, ya'ni  $i = 3$

- Ikki atomli gazlar molekulasida uchta ilgarilanma va ikkita aylanma harakat erkinlik darajasiga ega bo'ladi, ya'ni  $i = 5$
- Uch atomli gazlar molekulasida uchta ilgarilanma va uchta aylanma harakat erkinlik darajasiga ega bo'ladi, ya'ni  $i = 6$
- Ichki energiya o'zgarishi:

$$\Delta U = \frac{3}{2} \frac{m}{M} R \Delta T; \quad \Delta U = \frac{3}{2} \nu R \Delta T; \quad \Delta U = \frac{3}{2} \frac{N}{N_A} R \Delta T; \quad \Delta T = T - T_0$$

- Jismni isitish uchun sarflangan issiqlik miqdori:

$$Q = cm(t_2 - t_1); \quad Q = cm(T_2 - T_1); \quad Q = cm\Delta t;$$

$c$  - solishtirma issiqlik sig'imi.

- **Issiqlik balans tenglamasi:**  $Q_1 + Q_2 + Q_3 = Q'_1 + Q'_2 + Q'_3$ ; ya'ni issiqlik almashinish jarayonida jismlarning bergan issiqlik miqdorlarining yig'indisi issiqlik oluvchi jismlarning olgan issiqlik miqdorlarining yig'indisiga teng.

- **Suyuqlik aralashmasining temperaturasi.**

$m_1$  massali,  $t_1$  temperaturali suyuqlik  $m_2$  massali va  $t_2$  temperaturali suyuqlik bilan aralashganda qaror topadigan temperatura:

$$t = \frac{m_1 t_1 + m_2 t_2}{m_1 + m_2}$$

→ Agar suyuqlik bir jinsli bo'lsa:  $t = \frac{V_1 t_1 + V_2 t_2}{V_1 + V_2}$

- Yoqilg'ining *yonish issiqligi* deb 1kg yoqilg'i yonganda ajralib chiqqan issiqlik miqdoriga son jihatdan teng bo'lgan kattalikka aytiladi:

$$Q = q \cdot m; \quad q - \text{yoqilg'ining solishtirma yonish issiqligi. (J/kg)}$$

- Yoqilg'i vositasida ishlovchi dvigatelnig foydali ish koeffitsiyenti:

$$\eta = \frac{A_{faydal}}{A_{yoqilg'}} \cdot 100\%; \quad \eta = \frac{N_{faydal}}{qm} \cdot 100\%$$

- Agar avtomobil o'zgarimas tezlik bilan ketayotgan bo'lsa:  $N = F \cdot g$

$$\frac{N \cdot S}{g} = \eta q m_{yoqilg'}; \quad S = \frac{\eta q m_{yoqilg'} g}{N}$$

$g$  - avtomobil tezligi,  $N$  - avtomobil dvigatelinig quvvati,  $m_{yoqilg'}$  - yoqilg'ini massasi,  $S$  - avtomobil o'tgan masofa.

- Suyuqlikning bug'lanish issiqlik miqdori:  $Q = Lm$

- Yoqilg'ining to'la yonishi natijasida ajralib chiqqan issiqlik miqdori:  $Q = qm$

#### 40- §. Termodinamikaning birinchi qonuni

- **Termodinamikaning birinchi qonuni ta'rif:**

1. Sistemaga tashqaridan berilgan issiqlik miqdori uning ichki energiyasini o'zgartirishga va tashqi kuchlarga qarshi ish bajarishga sarflanadi.
2. Birinchi tur abadiy dvigatelni qurish mumkin emas, ya'ni tashqaridan olingan issiqlikdan ko'p ish bajaradigan dvigatelni yaratishning imkoniyati yo'q.

- **Termodinamikaning birinchi qonuni energiyaning saqlanish qonuniga asoslangan:** tabiatda yuz beradigan hamma jarayonlarda energiya hosil bo'lmaydi ham, yo'q bo'lmaydi ham, u faqat bir turdan boshqa turga aylanib turadi va bir jismdan boshqa jismga o'tib turadi, xolos.

- Termodinamikaning birinchi qonuni umumiy holda:  $Q = \Delta U + A$ ;  $\Delta U = Q + A'$

A – tashqi kuchlarga qarshi bajarilgan ish,

A' – tashqi kuchlarning jism ustida bajarilgan ishi.

#### 41-§. Termodinamikaning birinchi qonunini izoprotsess (izojarayon) larga tadbqiq

- **Izobarik jarayon uchun termodinamikaning birinchi qonuni:** Sistemaga tashqaridan berilgan issiqlik miqdori uning ichki energiyasini o'zgartirishga va tashqi kuchlarga qarshi ish bajarishga sarflanadi.

→ Izobarik jarayon uchun termodinamikaning birinchi qonuni formulalari:

$$P = \text{Const}; \quad Q = A + \Delta U; \quad Q = P\Delta V + \Delta U; \quad Q = P\Delta V + \frac{3}{2}mR\Delta T; \quad A = P\Delta V;$$

$$A = \nu R\Delta T; \quad A = \frac{m}{M}R\Delta T; \quad A = \frac{2}{5}Q; \quad \Delta U = \frac{3}{5}Q; \quad P = \text{Const};$$

- **Izoxorik jarayon uchun termodinamikaning birinchi qonuni:**

Hajm o'zgarmaganligi sababli izoxorik jarayonda ish bajarilmaydi, ya'ni  $A=0$ . Izoxorik jarayonda ideal gazga beriladigan issiqlik miqdorining hammasi gazning ichki energiyasini o'zgartirishga sarf bo'ladi.

→ Izoxorik jarayon uchun termodinamikaning birinchi qonuni:

$$A = 0; \quad Q = \Delta U; \quad V = \text{Const}; \quad Q = \frac{3}{2}mR\Delta T;$$

- **Izotermik jarayon uchun termodinamikaning birinchi qonuni:** Bu jarayonda ideal gazning ichki energiyasi o'zgarmaydi, ya'ni  $\Delta U=0$ . Izotermik jarayonda gaz olayotgan issiqlik miqdorining hammasi ish bajarishga sarflanadi:  $Q=A$

→ Izotermik jarayon uchun termodinamikaning birinchi qonuni:

$$T = \text{Const} \Rightarrow \Delta U = 0; \quad A = Q; \quad Q = A;$$

- **Adiabatik jarayonlar.** Tashqi muhit bilan issiqlik miqdori, almashinmay sodir bo'ladigan jarayonga *adiabatik jarayon* deyiladi. Adiabatik jarayonda sistema tashqaridan hech qanday issiqlik miqdori olmaydi va tashqariga hech qanday issiqlik miqdori bermaydi.

→ Adiabatik jarayon uchun termodinamikaning birinchi qonuni:

$$Q = 0; \Delta U + A = 0;$$

$\Delta V < 0$  gaz siqiladi va  $\Delta U > 0; \Delta T > 0$  (temperatura ortadi)

$\Delta V > 0$  gaz kengayadi  $\Delta U < 0; \Delta T < 0$  (temperatura kamayadi)

$$\frac{3}{2} \frac{m}{M} R \Delta T + P \Delta V = 0; \Delta U = -A;$$

- **Abdiabatik jarayon uchun Puasson tenglamasi:**

$$PV^\gamma = \text{Const}; TV^{\gamma-1} = \text{Const}; TP^{\frac{\gamma}{1-\gamma}} = \text{Const}; \gamma = \frac{i+2}{i}$$

$i$  – erkinlik darajasi,  $\gamma$ -adiabatik doimiysi


Adiabatik doimiysining son qiymati aksariyat gazlar uchun birdan katta.

- Gazlarda o'zgarmas bosimdagi issiqlik sig'iminin miqdori, o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'imga nisbatan katta bo'ladi. Chunki, o'zgarmas bosimda gazga beriladigan issiqlikning bir qismi ish bajarishga sarf bo'lsa, qolgan qismi gazni isitishga sarf bo'ladi. O'zgarmas hajmda esa berilgan barcha issiqlik miqdori gazni isitishga sarf bo'ladi va bunda ish bajarilmaydi, ya'ni  $C_p > C_v$ .
- Erkin siljiy oladigan porshen (izobarik jarayon) uchun termodinamikaning birinchi qonuni:

$$\Delta U = \frac{3}{5} Q; \Delta U = \frac{3}{2} P \Delta V; A = \frac{2}{5} Q; Q = \frac{5}{2} P V; Q = \frac{5}{2} \nu R \Delta T;$$

#### 42-§. Issiqlik jarayonlarining qaytmaslik xususiyati

- *Qaytar jarayon* deb sistemaning oxirgi holatdan boshlang'ich holatga o'sha oraliq holatlar orqali atrof muhitda hech qanday o'zgarish ro'y bermasdan o'tishiga aytiladi.
- *Qaytmas jarayon* deb ma'lum qarshilikka uchraydigan yoki issiq jismdan sovuq jisimga issiqlik uzatilishi bilan ro'y beradigan jarayonga aytiladi.
- Sistema 1-holatdan 2-holatga o'tib, so'ng yana 2-holatdan 1-holatga qaytsa va bunda sistemaning o'zida, shuningdek uni o'rab turgan tashqi muhitda hech qanday o'zgarish sodir bo'lmasa bu jarayon, *qaytuvchan jarayon* deyiladi. Aksincha, sistema boshlang'ich holatga o'tgandan so'ng unda, shuningdek, tashqi muhitda o'zgarish sodir bo'lsa bunday jarayon *qaytmas jarayon* deyiladi.



Rasm 44. Issiqlik mashinasi va sovutkichdagi jarayonlar. Karno sikli

### 43-§. Issiqlik dvigatellari. Issiqlik mashinaning foydali ish koeffitsiyenti va uning maksimal qiymati

- Yoqilg'ining yonishi natijasida olingan issiqlik miqdoring bir qismini mexanik ishga aylantiruvchi mashina *issiqlik mashina* yoki *issiqlik dvigateli* deb ataladi. Har qanday issiqlik dvigateli uch qismdan iborat: isitgich, sovitgich va ishchi modda.

- Real issiqlik mashinasining FIK i:


$$\eta = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} \cdot 100\%; \quad \eta = \frac{A}{Q_1} \cdot 100\%; \quad A = Q_1 - Q_2; \quad \eta = \frac{A}{Q_2 + A} \cdot 100\%; \quad \eta = 1 - \frac{Q_2}{Q_1};$$

$$A = \eta Q_1; \quad A = \frac{\eta}{1 - \eta} Q_2; \quad Q_1 = \frac{1}{\eta} A; \quad Q_2 = \frac{1 - \eta}{1 - \eta} Q_2; \quad Q_2 = \frac{1 - \eta}{\eta} A; \quad Q_2 = (1 - \eta) Q_1$$

- Ideal issiqlik mashinasining FIK i (Karno sikli uchun):

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \cdot 100\% \quad \eta = 1 - \frac{T_2}{T_1}$$

- Karno sikli ikkita adiabat va ikkita izoterma o'tishlaridan iborat.



Rasm 45. Issiqlik dvigateli

### 44-§. Erish

- Qattiq jismning suyuq holatga o'tish jarayoni *erish* deyiladi.
- Kristallarning amorf moddalardan farqi shundaki, ular aniq erish temperaturasiga ega.
- Kristall jismlarning erish jarayonida temperaturasi o'zgarmaydi. Jumladan, muz to'la ravishda suvga aylangunga qadar, uning temperaturasi o'zgarmaydi, ya'ni 0°C ga tengligicha qoladi.
- 1 kg moddani, o'zgarmas temperatura va o'zgarmas bosimda eritish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdoriga teng kattalikka *solishtirma erish issiqligi* deyiladi.
- Ko'pchilik moddalarning erish paytida hajmi ortib, qotishida esa kamayadi. Ba'zi moddalarning erish paytida hajmi kamayib qotishda ortadi (cho'yan, vismut, muzlarning erish jarayonida, ularning hajmi kichrayadi). Shunday qilib, nomlari yuqorida qayd qilingan moddalardan tashqari barcha moddalar eriganda hajmi ortadi, zichligi kamayadi. Agar bu moddalarni siqadigan bo'lsak, ya'ni tashqi bosim ortishi bilan, solishtirma erish issiqligi ham

ortadi. Tashqi bosim ortgan sari moddaning hajmiy kengayishi qiyinlashadi va erish temperaturasi ortadi

- Erish issiqligi qattiq jism massasiga to'g'ri proporsional:  $Q = r \cdot m$  bu erda  $r$  – jismning solishtirma erish issiqligi.
- Solishtirma erish issiqligi solishtirma qotish issiqligiga teng.
- Jism eriyotganda temperaturasi o'zgarmaydi.
- Eriyotganda issiqlik yutiladi va jismning ichki energiyasi ortadi.
- Jism qotayotganda issiqlik ajralib chiqadi va jismning ichki energiyasi kamayadi.

#### 45-§. Bug' hosil bo'lishi va kondensatsiya. Bug' hosil bo'lishning solishtirma issiqligi

- Moddaning suyuq holatidan gaz holatiga o'tishiga *bug' hosil bo'lish* deyiladi.
- Moddaning gazsimon holatidan suyuq holatiga o'tishi *kondensatsiya* deyiladi.
- Bug' hosil bo'lish jarayoni modda ichki energiyasining ortishi bilan bog'liq bo'lsa, kondensatsiya jarayoni modda ichki energiyasining kamayishi bilan bog'liq bo'ladi. Ravshanki, bug' hosil bo'lishi ham, kondensatsiya ham, modda bilan uni o'rab turgan muhit orasida energiya almashinishi mavjud bo'lgan holdagina ro'y beradi.
- Bug'lanish jarayoni molekullarning kinetik energiyasi hisobiga sodir bo'lgani sababli, bug'lanish ro'y berayotgan suyuqlikning temperaturasi doimo pasayadi.
- Qattiq jismlarning bug'lanishiga *sublimatsiya* deyiladi. Qattiq jismning sublimatsiyasini hididan bilish mumkin. Naftalin yoki kofening hidini eslash kifoya.
- Bug'lanish jarayoni hamma temperaturalarda ro'y beradi.
- O'zgarmas temperatura va o'zgarmas bosimda birlik massadagi suyuqlikni to'la bug'ga aylantirish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdoriga *solishtirma bug'lanish issiqligi* deyiladi.
- Suyuqlikning bug'lanish issiqlik miqdori:  $Q = \lambda m$   
 $\lambda$  – bug' hosil bo'lishining solishtirma issiqligi,  $m$  – suyuqlik massasi.  
 $Q_{\text{simon}} = -Q_{\text{dun}}$ ;  $\lambda_{\text{bug}} = \lambda_{\text{simon}}$
- O'z suyuqligi bilan dinamik muvozanatda bo'lgan bug'ga *to'yingan bug'* deyiladi.
- To'yingan bug' bosimi hajmga bog'liq emas, u temperaturaga bog'liq:  $P = k_n T$
- Gazni siqish yo'li bilan suyuqlikka aylantirib bo'lmaydigan eng past temperatura *kritik temperatura* deyiladi.

#### 46-§. Qaynash. Qaynash temperaturasining bosimga bog'liqligi

- Agar o'zgarmas temperaturadagi bug' hosil bo'lish suyuqlikning to'liq hajmi bo'yicha sodir bo'lsa, bu hodisaga *qaynash* deyiladi
- Qaynash jarayonida temperatura o'zgarmas bo'lib, suyuqlik to'yingan bug'ining bosimi tashqi bosimga teng bo'ladi.
- Suyuqlik to'yingan bug'ining bosimi tashqi bosimga teng bo'lgan paytidagi temperaturaga *qaynash temperaturasi* deyiladi.
- Qaynayotgan suyuqlikning temperaturasi uning sirtidagi bug'ning temperaturasiga teng bo'ladi.
- Normal atmosfera bosimidagi qaynash temperaturasiga *qaynash nuqtasi* deyiladi.
- Suyuqlik to'yingan bug'ining bosimi tashqi bosimga teng bo'lgan holdagina qaynaydi.
- Suyuqlik ustidagi tashqi bosim qanchalik kichik bo'lsa, qaynash temperaturasi ham shunchalik past bo'ladi.

#### 47-§. Absolyut va nisbiy namlik

- Yer atmosferasida suv bug'ining mavjudligini xarakterlovchi kattalik *namlik* deyiladi.
- 1 m<sup>3</sup> havo tarkibidagi suv bug'ining (grammlardagi) massasiga *absolyut namlik* deyiladi:

$$\rho = \frac{m}{V}$$

- Havo tarkibidagi faqat suv bug'ining hosil qiladigan bosimiga suv bug'ining *parzial bosimi* deyiladi. Demak, parzial bosim—havo namligini ko'rsatuvchi kattaliklardan biri hisoblanadi va u Paskal yoki simob ustuni hisobida o'lchanadi.
- **Havoning nisbiy namligi:** absolyut namlik  $\rho_a$  berilgan temperaturada, havoni to'yintiruvchi suv bug'i zichligi  $\rho_r$  ning necha foizini tashkil etish bilan aniqlanadi va u matematik tarzda quyidagicha yoziladi:  $\varphi = \frac{\rho_a}{\rho_r} \cdot 100\%$
- Meteorologiyada nisbiy namlik deb, havo tarkibidagi suv bug'ining parzial bosimini, berilgan temperaturadagi havoni to'yintiruvchi suv bug'ining parzial bosimiga, nisbati bilan o'lchanadigan kattalikka aytiladi. Bu kattalikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\varphi = \frac{P_a}{P_r} \cdot 100\%$$

- Havoni nisbiy namligi 100% ga teng bo'ladigan temperatura, *shudring nuqtasi* deb ataladi.
- Havodagi suv bug'lari to'yingan holatda bo'ladigan temperatura *shudring nuqtasi* deyiladi.
- Havo namligini o'lchash uchun Lambrext *gigrometri* qo'llaniladi. Gigrometning ishlash prinsipi havoning namligi ortishi bilan inson sochini *uzayishiga* asoslangan.

- Havoni namligini o'lchash uchun ishlatiladigan asboblari *psixrometrlar* deyiladi. Psikrometrlar nam va quruq termometrlardan tashkil topgan.
- Nisbiy namlik taxminin 40 — 60% atrofida bo'lgan taqdirdagina inson o'zini yaxshi his etishi tajriba yo'li bilan aniqlangan.

#### 48-§. Suyuqliklarda sirt taranglik

- Sirt qatlamidagi barcha molekullar uchun sirtga perpendikulyar ravishda yo'nalgan teng ta'sir etuvchi kuch mavjud bo'lib, bu kuch suyuqlik ichi tomon yo'nalganligi sababli qo'shimcha molekulyar bosimning vujudga kelishiga sababchi bo'ladi. Shu sababli suyuqlik siri eng kichik hajmni olishga intiladi. Turli shakldagi jismlar ichida sharsimon jism eng kichik sirtga ega bo'lgani uchun suyuqlik doimo sharsimon shaklga ega bo'lgan tomchi ko'rinishini olishga intiladi.
- *Sirt taranglik kuchi* - suyuqlik sirtini chegaralab turgan chiziqqa perpendikulyar ravishda, shu sirt bo'ylab ta'sir etadigan va ushbu sirtni mumkin qadar qisqartirishga intiladigan kuchdir.
- Sirt taranglik kuchlari suyuqlik sirtiga yaqinlashgan sari kattalashadi. Suyuqlik ichiga botgan sari esa kamayib, molekulyar ta'sirga teng radius qiymatidagi chuqurlikda nolga aylanadi.
- Kontur sirtining uzunlik birligiga ta'sir qiluvchi sirt taranglik kuchiga miqdoran teng kattalikka *sirt taranglik koeffitsiyenti* deyiladi. Bu koeffitsiyent suyuqlik tabiatiga hamda unda mavjud bo'lgan aralashmalar tarkibiga bog'liqdir. Sirt taranglik koeffitsiyenti Xalqaro birliklar sistemasi (SI) da N/m larda o'lchanadi.
- Sirt taranglik koeffitsiyenti suyuqlik sirtini bir birlik yuzaga o'zgartirish uchun lozim bo'lgan potensial energiya miqdorini o'zgarish qiymati bilan aniqlanadi. Sirt taranglik koeffitsiyentining ikkinchi o'lchov birligi tariqasida  $J/m^2$  qabul qilingan.
- Sirt taranglikda:
  - potensial energiya:  $W = \sigma \cdot s$ ;
  - bajarilgan ish:  $A = \sigma \Delta s = \sigma \cdot (S_2 - S_1)$ ;
- Sirt taranglik koeffitsiyenti:  $\sigma = \frac{F}{l}$ ;  $F = \sigma \cdot l$ ;  $\sigma = \frac{A}{\Delta S}$ ;  $\sigma = \frac{W}{S}$ ;
- Tomchilar soni:  $N = \frac{mg}{\sigma l}$ ;  $N = \frac{mg}{2\pi R \sigma}$ ; R- radius
- Sirt energiyasi -U, suyuqlik sirtiga to'g'ri proporsional:  $U = \sigma \cdot S$
- Bir qancha tomchi birlashsa katta tomchining sirt yuzi, tomchilar sirtlari yig'indisidan kichik bo'ladi, natijada sirt energiyasi kamayadi, katta tomchining harorati nisbatan ortadi.

### 49-§. Xo'llash

- Molekulyar o'zaro ta'sir xususiyatiga asoslangan holda, agar suyuqlik molekulalari orasidagi o'zaro ta'sir kuchi suyuqlik molekulasini bilan qattiq jism molekulasi orasidagi o'zaro ta'sir kuchidan kichik bo'lsa, xo'llash hodisasi ro'y beradi. Aks holda esa, xo'llash sodir bo'lmaydi va bu suyuqlik qattiq jismga nisbatan xo'llamaydigan suyuqlik deyiladi.
- Agar suyuqlik xo'llovchi bo'lsa, uning sirti tepa tomonga egiladi aksincha, xo'llamaydigan suyuqlik bo'lsa, suyuqlik sirti past tomonga egiladi
- Xo'llaydigan suyuqlik uchun xo'llash burchagi  $\theta$  o'tkir, xo'llamaydigan suyuqlik uchun esa o'tmas bo'ladi.




Rasm 46. a) Xo'llash; b) Xo'llamaslik

### 50- §. Kapillyar hodisalar

- Ingichka (kapillyar) naylarda suyuqliklarning keng naylardagi sathiga nisbatan ko'tarilishi yoki pasayishi *kapillyar hodisalar* deyiladi .
- Tekis bo'lmagan suyuqlik sirtlarida vujudga keladigan qo'shimcha bosimni sirt taranglik kuchlari vujudga keltiradi va u quydagicha aniqlanadi:  

$$P = \frac{2\sigma}{R}$$
 bu formula *Laplas formulasi* deyiladi .
- Xo'llaydigan suyuqlik sirtida yuzaga keladigan, botiq sirtlar uchun qo'shimcha bosim musbat ( $P > 0$ ), xo'llamaydigan suyuqliklardagi qavariq sirtlar uchun manfiy ( $P < 0$ ) deb qabul qilingan.
- Kapilyarlarda suyuqlikning ko'tarilish balandligi:  $h = \frac{2\sigma}{\rho R g}$ ;



Rasm 47. a) Xo'llash; b) Xo'llamaslik

Rasm 48. a) Xo'llash; b) Xo'llamaslik

### 51- §. Kristall va amorf jismlar


- Aniq hajmga va shaklga ega bo'lgan jism qattiq holatda bo'ladi.
- Qattiq jismlar kristall, polikristal, amorf ko'rinishida bo'lishi mumkin.
- Kristall jismlar atomlari muntazam joylashgan.
- Atomlari va molekulalari qat'iy tartib bilan fazoda joylashgan qattiq jismlar *kristall jismlar* deyiladi. Misol: Osh tuzi va olmos.
- Kristall jismlar aniq erish va qotish temperaturasi ega bo'lib, *anizotropik xossaga* ega.
- Juda ko'p mayda kristalchalardan tuzilgan qattiq jism *polikristall* deb ataladi. Yakka-yakka kristallar *monokristallar* deb ataladi.
- Polikristall qattiq jismlar fazoda o'zaro tartibsiz joylashgan kichik-kichik monokristall bo'lakchalardan tashkil topgan bo'ladi.
- *Anizotropiya* - kristall jismlar fizik xossalari (mexanik, issiqlik, yorug'lik, elektr) kristaldagi turli yo'nalishlarda bir xil bo'lmasligi.
- Amorf jismlar aniq erish va qotish temperaturasi ega emas va *izotropik* (barcha yo'nalishlarda fizik xossalari bir xil) xossaga ega.
- Amorf jismlar barcha yo'nalishlar bo'yicha, qat'iy takrorlanadigan, panjara yasaladigan yacheykalarga ega emas.

## ELEKTROSTATIKA

### 52-§. Elektr zaryadi va uning ikki turi. Elementar zaryad.

#### Kulon qonuni

- Elektrodinamikaning tinch turgan zaryadli jismlarning o'zaro ta'sirlashuvini va elektr maydonini o'rganadigan bo'limi *elektrostatika* deb ataladi.
- Junga ishqalangan qaxrabo tayoqchasi manfiy zaryadlanib qoladi.
- Junga ishqalangan shisha tayoqchasi musbat zaryadlanib qoladi.
- Elektr kuchini hosil qiluvchi kuch maydoni *elektr maydoni* deb ataladi.
- Zaryadlangan zarralar orasida hosil bo'ladigan o'zaro ta'sirlar *elektromagnit o'zaro ta'sirlar* deb ataladi.
- Bir xil ishorali zaryadlar bir-biridan qochadi, har xil ishorali zaryadlar bir-biriga tortiladi.



Rasm 49. Zaryadli zarralarning bir-biriga ta'sir kuchlari yo'nalishlari

- Atomning markazida musbat zaryadlangan yadro joylashgan bo'lib, u zaryadsiz zarralar neytronlar va musbat zaryadli zarralar protonlardan tashkil topgan. Yadro atrofida manfiy zaryadli zarralar elektronlar mavjud bo'lib, u aylanma harakat qiladi.
- Elektr jihatidan neytral bo'lgan, atom yadrosidagi protonlar soni doim uning atrofida mavjud bo'luvchi elektronlar soniga teng bo'lib, bu son o'z navbatida kimyoviy elementning (Mendeliyev) davriy jadvaldagi tartib raqamiga teng.
- Agar jism o'ziga elektron biriktirib olsa, u manfiy zaryadga ega bo'ladi, aksincha u elektrlanish jarayonida o'zidan elektronini berib yuborsa musbat zaryadlanadi.
- Tabiatda uchraydigan zaryadlarning eng kichigi elektron zaryadining moduliga teng bo'lib, u *elementar zaryad* deb ataladi va *e* harfi bilan belgilanadi:  $|e| = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$ . Elektron va proton zaryadining modullari o'zaro teng bo'lib, ular ishoralari bilan farq qiladi.  $|e| = |q_p| = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$ .
- Elektronning massasi:  $m_e = 9,11 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$ .
- Protonning massasi:  $m_p = 1,67 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$ .
- **Zaryadlarning karralik qonuni:** tabiatda uchraydigan zaryadlarning barchasi doim elementar zaryadga karrali bo'ladi:  
 $q = n \cdot e$   $n = 0, \pm 1, \pm 2, \dots$ , butun sonlar.  $q = N \cdot e$ ;  $N = q/e$
- Karralik qonuni bajarilishining asosiy sababi elementar zaryadning bir qismini ajratib olish mumkin emasligidadir, ya'ni elementar zaryadni (elektron yoki protonni) parchalab bo'lmaydi.
- Jismlar ishqalanish vositasida elektrlanganda undagi erkin elektronlar qayta taqsimlanadi.

- Tashqariga zaryadli zarralar chiqmaydigan va bunday zarralar tashqaridan kirmaydigan sistemaga elektr jihatidan *yopiq sistema* deyiladi.
- **Zaryadni saqlanish qonuni:** Elektrlanish jarayonida, yopiq sistema ichidagi barcha zarralar zaryadlarining algebraik yig'indisi o'zgarmaydi:

$$q_1 + q_2 + \dots + q_n = \sum_{i=1}^n q_i = \text{Const}; \quad q_1 + q_2 + \dots + q_n = \text{const}$$

- Zaryadning saqlanish qonuni elementar zarralar bir-biriga aylanganda yoki yangi zarralar paydo bo'lganida ham bajariladi.
- O'lchamlari o'zaro ta'sirlashayotgan zaryadli jismlar orasidagi masofaga nisbatan hisobga olinmas darajada kichik bo'lgan jismlar *nuqtaviy zaryadlangan jismlar* deyiladi.
- **Kulon qonuni:** Vakuumda joylashgan ikkita nuqtaviy zaryadlar orasidagi o'zaro ta'sir kuchi ularning zaryadlari modullarining ko'paytmasiga to'g'ri, orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsional bo'ladi

$$F = k \cdot \frac{q_1 q_2}{R^2} \quad F = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{q_1 q_2}{R^2} \quad \left. \vphantom{F} \right\} \text{vakuum uchun}$$

$$F = \frac{k}{\epsilon} \cdot \frac{q_1 q_2}{R^2} \quad F = \frac{1}{4\pi\epsilon\epsilon_0} \cdot \frac{q_1 q_2}{R^2} \quad \left. \vphantom{F} \right\} \text{muhit uchun}$$

$k$ - proporsionallik koeffitsiyenti.

$$k = 9 \cdot 10^9 \frac{N \cdot m^2}{C^2}; \quad \epsilon_0 = 8,85 \cdot 10^{-12} C^2 / N \cdot m^2; \quad \epsilon_r = 8,85 \cdot 10^{-12} \frac{F}{m};$$

$\epsilon_r$  -elektr doimiysi

- XBSda zaryadning birligi  $1C = 1A \cdot 1s$  ga teng.  $1A$  o'zgaras tok o'tayotgan o'tkazgichning ko'ndalang kesimidan  $1s$  da oqib o'tgan zaryad miqdori  $1$  Kulon ga teng bo'ladi.
- Cho'zilmas ipga osilgan ikki zaryadlangan shar zaryadini topish:

$$q = r \cdot \sqrt{\frac{2mg\tau g \alpha}{k}}; \quad q = \frac{\epsilon_r m g \tau g \alpha}{\sigma};$$

- $q_1$  va  $q_2$  zaryadlarga ega bo'lgan bir xil o'lchamli sharlar  $r$  masofada joylashganda, sharlar o'zaro tekkizilib yana oldingi joyiga keltirilsa, bunda sharlarning o'zaro ta'sir kuchlari orasidagi munosabat:

$$\frac{F_2}{F_1} = \frac{(q_1 + q_2)^2}{4q_1 q_2};$$

### 53-§. Elektr maydon va uning kuchlanganligi

- Qo'zg'almas zaryadlar hosil qilgan elektr maydoni *elektrostatik maydon* deyiladi
- Elektrostatik maydonni faqat qo'zg'almas zaryadlar hosil qiladi.
- Elektrostatik maydon vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi.
- Vaqt o'tishi bilan o'zgaradigan maydon elektromagnit maydon deyiladi.
- Elektrostatik maydonga kiritilgan nuqtaviy zaryadga ta'sir etuvchi kuchni miqdor jihatdan tavsiflovchi kattalikka *maydon kuchlanganligi* deb ataladi.

- Elektrostatik maydonning biror nuqtasidagi kuchlanganligi:

$$\vec{E} = \frac{\vec{F}}{q}; \quad \vec{F} = q \cdot \vec{E}$$

- Nuqtaviy zaryadning elektr maydon kuchlanganligi:


$$E = \frac{1}{4\pi\epsilon\epsilon_0} \cdot \frac{q}{R^2}; \quad E = \frac{k}{\epsilon} \cdot \frac{q}{R^2} \quad \left. \vphantom{E} \right\} \text{ muhitda}$$

$$E = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{q}{R^2}; \quad E = k \cdot \frac{q}{R^2} \quad \left. \vphantom{E} \right\} \text{ vakuumda}$$

$$\epsilon_0 = \frac{1}{4\pi k} = 8.85 \cdot 10^{-12} \frac{C^2}{N \cdot m^2};$$

$$\epsilon - \text{muhitning nisbiy dielektrik sindiruvchanligi.} \quad \epsilon = \frac{F_{\text{vakuum}}}{F_{\text{muhit}}}$$

- Elektr maydonining biror nuqtasiga kiritilgan bir birlik musbat zaryadga maydon tomonidan ta'sir etuvchi kuchga son jihatidan teng bo'lgan fizik kattalikka, elektr maydonining shu nuqtadagi kuchlanganligi deyiladi.
- Kuchlanganlik elektr maydonini kuch tomonidan xarakterlovchi vektor kattalikdir.
- Maydon kuchlanganligining birligi XBS da N/C va V/m larda ifodalanadi.  
**Kuchlanganlik chiziqlari va ularni o'tkazish qoidalari**
- Fazoda elektr maydon kuch chiziqlarini o'tkazish shartlari:
  - kuch chizig'ining ixtiyoriy nuqtasiga o'tkazilgan urinma elektr maydonning shu nuqtasidagi kuchlanganlik vektori bilan mos tushishi kerak;
  - kuch chiziqlarining zichligi elektr maydon kuchlanganligining shu sohadagi qiymatiga proporsional bo'lishi kerak.
- Har bir nuqtasiga o'tkazilgan urinmalarning yo'nalishi, kuchlanganlik vektorining yo'nalishiga mos keluvchi uzluksiz chiziqlar, *kuchlanganlik (qisqacha kuch) chiziqlari* deb ataladi.
- Kuchlanganlik chiziqlari hech qaerda o'zaro kesishmaydi.
- Elektr maydoni kuchlanganlik chiziqlari yopiq bo'lmasdan, ular musbat zaryaddan boshlanib, manfiy zaryadda tugaydi.
- Kuchlanganlik chiziqlari faqat zaryad joylashgan nuqtadagina tutashadi.
- Ikkita parallel plastinkani modullari teng, lekin ishorasi qarama-qarshi bo'lgan zaryadlar bilan zaryadlasa, plastinkalar orasida kuchlanganlik chiziqlari o'zaro parallel joylashadi va maydon kuchlanganligi vektorining moduli plastinkalar orasidagi barcha nuqtalarda bir xilda bo'ladi.
- Kuchlanganlik vektorining moduli va yo'nalishi hamma nuqtalarida bir xil bo'lgan elektr maydoniga *bir jinsli elektr maydoni* deyiladi.
- Kuch chiziqlari zaryadli jismlar yaqinida zichroq joylashib, Bu yerda maydon kuchlanganligi ham kattaroq bo'ladi.



Rasm 50. Elektr maydon kuchlanganligi yo'nalishlari

- **Maydon superpozitsiya prinsipi:** Zaryadlar sistemasining biror nuqtada hosil qilgan elektr maydonining kuchlanganligi sistemaga kiruvchi har bir zaryadning o'sha nuqtada alohida-alohida hosil qilgan maydon kuchlanganliklarining vektor yig'indisiga teng.

$$\vec{E} = \vec{E}_1 + \vec{E}_2 + \dots + \vec{E}_n = \sum_{k=1}^n \vec{E}_k$$

$$\vec{E}_A = \frac{\vec{F}}{q_c} = \frac{\vec{F}_1 + \vec{F}_2 + \dots + \vec{F}_n}{q_c} = \frac{\vec{F}_1}{q_c} + \frac{\vec{F}_2}{q_c} + \dots + \frac{\vec{F}_n}{q_c} = \vec{E}_1 + \vec{E}_2 + \dots + \vec{E}_n; \quad \vec{E}_A = \sum_{k=1}^n \vec{E}_k$$

- Superpozitsiya so'zi «qo'shilish yoki ustma-ust tushish» degan ma'noni anglatadi.
- Superpozitsiya prinsipiga ko'ra bir-biridan  $r$  masofa uzoqlikda joylashgan ikki nuqtaviy zaryadning biror nuqtadagi maydon kuchlanganligi:


⇒ **Maydon kuchlanganlik vektorlarining**

→ yo'nalishi bir xil bo'lsa:  $E = E_1 + E_2$

→ yo'nalishi qarama-qarshi bo'lsa:  $E = E_1 - E_2$

→ yo'nalishi perpendikulyar bo'lsa:  $E = \sqrt{E_1^2 + E_2^2}$

→  $\alpha$  burchak ostida yo'nalgan bo'lsa:  $E = \sqrt{E_1^2 + E_2^2 + 2E_1E_2 \cdot \cos \alpha}$



Rasm 51. Ikkita nuqtaviy zaryadlarning qaralayotgan nuqtadagi natijaviy maydon kuchlanganligi

Bu yerda  $E_1$  va  $E_2$  mos ravishda nuqtaviy zaryadlarning qaralayotgan nuqtadagi maydon kuchlanganliklari,  $\alpha$  - maydon kuchlanganlik vektorlari orasidagi burchak.

- Elektr maydoni kuchlanganligi va induksiya:  $E = B \sin \alpha$      $E = B \cdot \dot{\varphi}$

#### 54-§. Bir jinsli zaryadlangan cheksiz tekislikning elektr maydoni

- Sirtning birlik yuzasiga to'g'ri keladigan zaryadning miqdoriga *zaryad sirt zichligi* deyiladi:


$$\sigma = \frac{\Delta q}{\Delta S}; \quad \sigma = \frac{q}{S}$$

- XBSda zaryad sirt zichligi  $\frac{C}{m^2}$  da o'lchanadi.
- Tekis zaryadlangan cheksiz tekislik hosil qilgan elektr maydon kuchlanganligi:

$$E = \frac{\sigma}{2\epsilon_0}; \quad E = \frac{\sigma}{2\epsilon_0 \epsilon} \text{ - muhit uchun}$$

- Bir tekis zaryadlangan cheksiz tekislik hosil qilgan maydonning kuchlanganligi fazoning ixtiyoriy nuqtasida bir xil qiymatga ega bo'lib masofaga bog'liq emas: ( $E_1 = E_2 = \dots = E_n$ ).
- Zaryadlangan cheksiz tekisliklar tizimining tashqarisida natijaviy elektr maydon kuchlanganligi nolga teng.
- Elektr maydoni faqat tekisliklar orasida hosil bo'ladi:

$$E_{\text{orasi}} = \frac{|\sigma|}{\epsilon_0}; \quad E_{\text{tashqari}} = \frac{|\sigma|}{\epsilon_0 \epsilon}$$



Rasm 52. Yakkalangan va parallel tekisliklarda elektr maydon kuchlanganligi

- Qarama-qarshi ishorali zaryadlar bilan zaryadlangan ikkita parallel tekisliklar orasida hosil bo'lgan elektr maydon kuchlanganligi zaryadlangan bitta tekislik hosil qilgan elektr maydoni kuchlanganligidan ikki marta ortiq bo'ladi.
- Parallel tekisliklar orasidagi fazoning istalgan nuqtasida maydon kuchlanganligi vektorining moduli va yo'nalishi bir xil bo'ladi.
- Cheksiz parallel tekisliklar orasidagi maydon bir jinsli maydon hisoblanadi.
- Musbat zaryad maydoniga manfiy zaryad kiritsak yoki manfiy zaryad maydoniga musbat zaryad kiritsak elektr maydon kuchlanganligi ortadi.
- Musbat zaryad maydoniga musbat zaryad, yoki manfiy zaryad maydoniga manfiy zaryad kiritsak elektr maydon kuchlanganligi zaiflashadi.
- Nuqtaviy zaryadning  $r$  masofadagi elektr maydon kuchlanganligi:


$$E = k \frac{q}{\varepsilon \cdot r^2};$$

$$E = \frac{q}{4\pi\varepsilon\varepsilon_0 \cdot r^2}$$

- Bir xil ishorali nuqtaviy zaryad orasidagi masofa  $l$ , ular orasidagi kuchlanganlik  $E = 0$  bo'lgan nuqta:

$$r_1 = \frac{l}{\sqrt{\frac{q_2}{q_1} + 1}} \quad r_2 = \frac{l}{\sqrt{\frac{q_1}{q_2} + 1}}$$

### 55-§. Bir jinsli zaryadlangan shar va sferaning elektr maydoni



Rasm 53. Bir jinsli zaryadlangan shar va sferaning elektr maydoni kuchlanganligi

- Shar bir jinsli bo'lsa, zaryad shar sirti bo'ylab bir tekisda taqsimlanadi.

$$r > R \rightarrow E = k \frac{|q|}{r^2}; \quad r < R \rightarrow E_{\text{ichki}} = 0$$

- Shar yoki sferaga berilgan zaryad o'zaro itarilish kuchi tufayli faqat ularning sirti bo'ylab taqsimlanganligi uchun ularning ichidagi ( $r < R$ ) maydon kuchlanganligi doim nolga teng ( $E_{\text{ichki}} = 0$ ).
- $E$  gorizontal yo'nalishdagi elektr maydonida elektronning tezlanishi:

$$a = \frac{eE}{m_e}; \quad a = \frac{eU}{m_e \cdot d};$$


- $E$  vertikal yo'nalishdagi elektr maydonida  $q$  zaryadning dinamik tenglamasi:  $ma = \pm qE \pm mg$ ;  $\pm$  ishora  $E$  vektorining yo'nalishi, zaryadning ishorasi va tezlanishi yo'nalishiga bog'liq.
- Faqat metall shar va sferaga berilgan zaryad sirt bo'ylab tekis taqsimlanadi. Boshqa shakldagi metall jismlarda zaryad, sirt bo'ylab notekis taqsimlanadi.

### 56-§. Elektr maydonida zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish.

#### Potensial energiya. Potensial. Potensiallar ayirmasi

- Elektr maydonida nuqtaviy zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish:  
 $A = F \cdot s \cdot \cos \alpha = q \cdot E \cdot s \cdot \cos \alpha; \quad A = qEd; \quad d = S \cos \alpha$   
 $d$  – maydon bo'yicha zaryadning ko'chishi.
- Elektrostatik maydon *potensial maydon*dir.
- Elektrostatik maydonda zaryadni yopiq kontur bo'ylab ko'chirishda bajarilgan ish doimo *nolga teng* bo'ladi.

- Bajargan ishi zaryadning harakat traektoriyasiga bog'liq bo'lmagan kuchga *konservativ kuch* deyiladi. Elektrostatik kuch ham, xuddi og'irlik, elastiklik kuchlari kabi konservativ kuch hisoblanadi.



$$s \cdot \cos\alpha = x_2 - x_1 = \Delta x ; A = qE\Delta x$$

#### Rasm 54. Elektr maydonda zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish

- Elektr maydonning bajarilgan ishi hisobiga zaryadning potensial energiyasi kamayadi:  $A = W_1 - W_2 = -\Delta W$
- Bajirilgan ish doim teskari ishora bilan olingan potensial energiyaning o'zgarishiga teng bo'ladi:  $\Delta W_p = -qE \cdot \Delta x$
- Maydon musbat ish bajarsa, maydondagi zaryadli jismning potensial energiyasi kamayadi ( $\Delta W_p < 0$ ). Aksincha, maydon manfiy ish bajarsa, maydondagi zaryadli jismning potensial energiyasi ortadi ( $\Delta W_p > 0$ ).
- Ikki nuqtaviy zaryad potensial energiyasi:
  - vakuum uchun:  $W_a = k \frac{q_1 q_2}{R}$ ;  $W_a = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{q_1 q_2}{R}$ ;
  - muhit uchun:  $W_a = \frac{k}{\epsilon} \frac{q_1 q_2}{R}$ ;  $W_a = \frac{1}{4\pi\epsilon\epsilon_0} \cdot \frac{q_1 q_2}{R}$ ;
- Bir xil ishoraga ega bo'lgan o'zaro ta'sirlashuvchi zaryadlarning o'zaro ta'sir potensial energiyasi doim musbat va har xil ishorali zaryadlarning o'zaro ta'sir potensial energiyasi manfiy hisoblanadi.
- $q_1$  zaryadni maydon hosil qiluvchi  $q$  zaryaddan  $r_1$  masofa uzoqlikda yotgan nuqtadan  $r_2$  masofa uzoqlikda yotgan nuqtaga ko'chirishda elektr kuchlari bajarilgan ish:

$$A = q_1 \left( \frac{q}{4\pi\epsilon_0 \epsilon \cdot r_1} - \frac{q}{4\pi\epsilon_0 \epsilon \cdot r_2} \right); \quad A = k \frac{q \cdot q_1}{r_1} - k \frac{q \cdot q_1}{r_2}$$

- Maydonning biror nuqtasiga cheksiz uzoqlikdan kiritilgan zaryad olgan potensial energiyasining, shu zaryadning miqdoriga nisbatiga teng bo'lgan kattalikka, maydonning shu nuqtadagi *potensial* deyiladi. Potensial skalyar kattalikdir.
- *Potensial* - elektr maydonini energiya tomonidan tavsiflovchi kattalikdir.

• Elektrostatik maydonning biror nuqtasidagi potentsiali:  $\varphi = \frac{W_x}{q}$

• Nuqtaviy zaryadning potentsiali:

→ vakuum uchun:  $\varphi = k \cdot \frac{q}{R}$ ;  $\varphi = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{q}{R}$ ;

→ muhit uchun:  $\varphi = \frac{k}{\epsilon} \cdot \frac{q}{R}$ ;  $\varphi = \frac{1}{4\pi\epsilon\epsilon_0} \cdot \frac{q}{R}$ ;

• Nuqtaviy zaryaddan har xil masofadagi potentsiallar nisbati:  $\frac{\varphi_1}{\varphi_2} = \frac{r_2}{r_1}$

• Ikki qarama-qarshi ishorali nuqtaviy zaryad orasidagi masofa  $l$ , bo'lsa ular orasidagi potentsiali nol bo'lgan nuqta:

$$r_1 = \frac{q_1}{q_1 + q_2} \cdot l; \quad r_2 = \frac{q_2}{q_1 + q_2} \cdot l$$

• Potensial energiya va ishni potentsial va potentsiallar farqi orqali ifodasi:

$$W = q \cdot \varphi; \quad A = q(\varphi_1 - \varphi_2); \quad A = q\Delta\varphi; \quad U = \varphi_1 - \varphi_2 = \Delta\varphi; \quad A = qU;$$

$\Delta\varphi$  potentsiallar farqi kuchlanish  $U$  ga teng.

• **Maydonlarning superpozitsiya prinsipi natijasi:** Zaryadlar tizimining biror nuqtada hosil qilgan elektr maydonning potentsiali har bir zaryadning o'sha nuqtada hosil qilgan potentsiallarining algebraik yig'indisiga teng:

$$\varphi = \frac{W_{\varphi_1} + W_{\varphi_2} + \dots + W_{\varphi_n}}{q_n} = \varphi_1 + \varphi_2 + \dots + \varphi_n$$

• Musbat ishorali zaryadlar hosil qilgan elektr maydonning potentsiali musbat, manfiy ishorali zaryadlar hosil qilgan maydonning potentsiali esa manfiy ishora bilan olinadi.

• Potentsiallar ayirmasi (kuchlanish):  $U = \varphi_1 - \varphi_2 = \frac{A}{q}$ ;  $U = E \cdot \Delta d$

• Zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish:  $A = qU$ ;  $A = q(\varphi_1 - \varphi_2)$ ;  $A = Ed \cdot q$ ;

• Elektrostatik maydonda zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish zaryadning miqdori bilan zaryad ko'chgan nuqtalar orasidagi kuchlanishning ko'paytmasiga teng.


• Potensial va potentsiallar ayirmasining o'lchov birligi italyan olimi Voltning sharafiga Volt (V) deb ataladi:  $\varphi = W/q$  dan  $1V = \frac{1J}{1C}$  ga teng.

• 1C zaryadni elektr maydonning bir nuqtasidan ikkinchi nuqtasiga ko'chirishda, 1J ish bajaradigan, nuqtalar potentsiallarining ayirmasi 1V ga teng bo'ladi.

• Potentsiallar ayirmasi bilan kuchlanganlik orasidagi bog'lanish yoki bir jinsli elektrostatik maydonning kuchlanganligi:

$$E = \text{Const}; \quad E = \frac{\varphi_1 - \varphi_2}{d}; \quad E = \frac{U}{d}; \quad E = \frac{\varphi_1 - \varphi_2}{\Delta x}; \quad E = -\frac{\varphi_2 - \varphi_1}{\Delta x};$$

- Elektrostatik maydon *kuchlanganligi* potensialning birlik masofadagi kamayishiga teng bo'lgan kattalik bo'lib, uning yo'nalishi doim potensialning kamayish tomoniga qarab yo'nalgan bo'ladi



Rasm 55. a) Nuqtaviy zaryaddan har xil masofadagi potensiallar;  
b) Ekvipotensial sirt

- Potensiallari o'zaro teng bo'lgan ( $\varphi = const$ ) nuqtalarning geometrik o'rniga ekvipotensial (teng potensialli) sirt deyiladi. Zaryadni ekvipotensial sirt bo'ylab ko'chirishda bajarilgan ish nolga teng: Zaryadni B nuqtasidan C nuqtasiga ko'chirishda elektrostatik maydonning bajarilgan ishi:  $A = q_1(\varphi_B - \varphi_C) = 0 \rightarrow \varphi_B = \varphi_C$ ;
- Kuchlanganlik chiziqlari doim ekvipotensial sirtga tik yo'nalgan bo'ladi.
- Elektrostatik maydondagi har qanday o'tkazgichning sirti ekvipotensial sirt-dan iborat bo'ladi. Chunki maydonning kuch chiziqlari doim o'tkazgichning sirtiga perpendikulyardir.
- Nuqtaviy zaryadning ekvipotensial sirti sferadan iborat.
- Zaryadlangan tekislikning ekvipotensial sirti yassi tekislikdan iborat.
- Elektr maydon kuchlanganlik vektori ekvipotensial sirtga perpendikulyar joylashadi.
- Musbat zaryad, potentsiali katta nuqtadan potentsiali kichik nuqta tomon harakat qiladi

### 57-§. Zaryadlangan shar (sfera)ning hosil qilgan potentsiali

- Agar kuzatilayotgan nuqta shar yoki sfera tashqarisida joylashgan bo'lsa (ya'ni  $r > R$ ) u holda, kuzatilayotgan nuqtaning potentsiali quyidagicha aniqlanadi:

$$r > R \rightarrow \varphi \neq const \rightarrow \varphi = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 r} = k \frac{q}{r}; \quad \varphi = \frac{\sigma R^2}{\epsilon_0 \epsilon \cdot r}$$

- Aksincha  $r < R$  bo'lsa, ya'ni kuzatilayotgan nuqta shar yoki sferaning ichida joylashgan bo'lsa, u holda shar yoki sferaning istalgan ichki nuqtasidagi elektr maydon potentsiali o'zgarmas qiymatga ega bo'lib, uning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$r < R \rightarrow \varphi = \text{const} \rightarrow \varphi = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 R} = k \frac{q}{R}; \quad \varphi = \frac{qR}{\epsilon_0}$$

Bu yerda  $R$  – shar yoki sfera tashqi sirtining radiusi.

- $q_1$  zaryadli  $R_1$  radiusli shar  $q_2$  zaryadli  $R_2$  radiusli shar bilan tutashtirilgandan keyingi zaryadning qayta taqsimlanishi –  $q_1', q_2'$ .

$$q_1' = \frac{R_2}{R_1 + R_2}(q_1 + q_2); \quad q_2' = \frac{R_1}{R_1 + R_2}(q_1 + q_2);$$

$\Rightarrow$  bunda sharlardagi zaryadlarning necha marta o'zgarganligini topish formulasi:

$$\frac{q_1'}{q_1} = \frac{R_2}{R_1 + R_2} \left(1 + \frac{q_2}{q_1}\right); \quad \frac{q_1'}{q_1} = \frac{\varphi_1 R_1 + \varphi_2 R_2}{\varphi_1 (R_1 + R_2)}; \quad \frac{q_2'}{q_2} = \frac{R_1}{R_1 + R_2} \left(1 + \frac{q_1}{q_2}\right); \quad \frac{q_2'}{q_2} = \frac{\varphi_1 R_1 + \varphi_2 R_2}{\varphi_2 (R_1 + R_2)};$$

- $q_1$  zaryadli  $R_1$  radiusli shar  $q_2$  zaryadli  $R_2$  radiusli shar bilan tutashtirilgandan:

$\Rightarrow q_1/R_1 > q_2/R_2$  bo'lsa zaryad birinchi shardan ikkinchi sharga o'tadi.

$\Rightarrow q_1/R_1 < q_2/R_2$  bo'lsa zaryad ikkinchi shardan birinchi sharga o'tadi.

$\Rightarrow q_1/R_1 = q_2/R_2$  bo'lsa zaryadni sharlar bo'yicha o'tishi kuzatilmaydi.

- Zaryadlangan sharlar tutashtirilganida biridan ikkinchisiga oqib o'tgan zaryad miqdori  $\Delta q$ :

$$\Delta q = \frac{|R_1 q_2 - R_2 q_1|}{R_1 + R_2}; \quad \Delta q = \frac{|\varphi_1 - \varphi_2|}{k \left( \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \right)}$$

- $\varphi_1$  potentsiali va  $R_1$  radiusli shar va  $\varphi_2$  potentsiali va  $R_2$  radiusli sharlar bilan tutashtirilgandagi umumiy potensial:  $\varphi_{\text{um}} = \frac{R_1 \varphi_1 + R_2 \varphi_2}{R_1 + R_2}$

- $\varphi_0$  potentsialga ega bo'lgan  $n$  ta shar birlashishidan hosil bo'lgan bitta katta sharning potentsiali:  $\varphi_0 = \sqrt{n^2} \cdot \varphi_0$

- Zaryadlangan shar energiyasi:


$$W_{\text{shar}} = \frac{q\varphi}{2}; \quad W_{\text{shar}} = \frac{kq^2}{2R}; \quad W_{\text{shar}} = \frac{\varphi^2 R}{2k}; \quad W_{\text{shar}} = 2\pi\epsilon_0 R \varphi^2$$

- Zaryadlangan sharlar o'zaro tekkizilib yana oldingi joylariga qaytarildi, bunda zaryadlarning o'zaro potensial energiyasining o'zgarishi:

$$\frac{W_2}{W_1} = \frac{(q_1 + q_2)^2}{4q_1 q_2}$$

### 58-§. Elektr maydonda o'tkazgichlar. O'tkazgich ichidagi elektr maydoni.

- Bir jinsli elektr maydoniga kiritilgan o'tkazgichning ichida elektr maydoni mavjud emas (nolga teng), uning tashqarisida mavjud (nolga teng emas).




Rasm 56. Tashqi va ichki maydonlarning bir-biriga ta'siri

- Elektr zaryadlari o'tkazgichning faqat sirtida bo'ladi. Uchlik joylarida ko'p, botiq joylarida kam bo'ladi.
- Bir jinsli elektr maydoniga kiritilgan o'tkazgichning sirtida zaryadlar hosil bo'lish jarayoniga elektrostatik induksiya hodisasi deyiladi.

### 59-§. Elektr maydonidagi dielektriklar. Dielektriklarning qutblanishi.

- Dielektrik elektr maydonni zaiflashtiradi.
- Maydonning vakuumdagi kuchlanganligi modulining ( $E_0$ ) bir jinsli dielektrik ichida hosil qilingan maydon kuchlanganligi moduliga ( $E$ ) nisbati nisbiy dielektrik singdiruvchanlik ( $\epsilon$ ) deyiladi:  $\epsilon = \frac{E_0}{E}$
- Agar dielektrikni elektr maydoniga kiritsak, maydon ta'sirida elektronlar faqat o'z atomi ichida siljiydi. Natijada atomning bir tomonida manfiy va qarama-qarshi tomonida musbat zaryadlar taqsimoti yuzaga keladi. Bu hol elektr maydoniga kiritilgan dielektrikning sirtlarida, ya'ni kuch chiziqlari kiradigan tomonida manfiy va kuch chiziqlari chiqadigan tomonida esa musbat zaryadlarning ajralishiga olib keladi. Bu hodisaga dielektrikning qutblanish jarayoni deyiladi.
- Dielektrik ichida burilgan atom va molekular hosil qilgan maydonning kuchlanganlik chiziqlari, asosiy maydon kuch chiziqlariga qarama-qarshi yo'nalgan. Shuning uchun dielektrik elektr maydonni susaytiradi.
- Atomdagi elektronlarining massa markazi, yadrosidagi protonlarining massa markazi bilan ustma-ust tushadigan dielektriklar, qutbsiz dielektriklar deyiladi. Qutbsiz dielektriklarning atom va molekulari simmetrik tuzilishga ega. Qutbsiz dielektriklarga polietilen, inert gazlar, kislorod, azot, vodorod molekulari kabilar misoldir.



Rasm 57. Dielektriklar elektr maydoni

- Modullari teng, ishoralari esa qarama-qarshi bo'lgan o'zaro bog'langan nuqtaviy zaryadlar sistemasiga *elektr dipoli* deyiladi.
- Dipol zaryadi ( $q$ ) ning zaryadlar orasidagi masofa ( $l$ ) ga ko'paytmasi *dipol momenti* deyiladi:  $p = q \cdot l$



Rasm 58. Elektr dipoli

- Dipol momenti vektor kattalik bo'lib, uning yo'nalishi manfiy zaryaddan musbat zaryadga qarab yo'nalgan deb tanlab olingan. XBS da dipol momentining birligi qilib 1Debay qabul qilingan, 1Debay= $1,6 \cdot 10^{-19}$  C·m.
- Atomidagi elektronlarining massa markazi yadrosidagi protonlarining massa markazi bilan ustma-ust tushmaydigan dielektriklar *qutbli dielektriklar* deyiladi. Osh tuzi, spirt, suv kabilar qutbli dielektriklardir. Qutbli dielektrik molekulasida elektronlar protonlarga nisbatan siljigan bo'ladi. Shu sababdan tashqi elektr maydoniga kiritilmagan qutbli dielektrik molekulasida elektr dipolini tashkil qiladi
- Elektr maydoniga kiritilgan dielektrikning qutblanishi tufayli uning ichida ichki elektr maydoni hosil bo'ladi. Bu ichki elektr maydoni dielektrik dipollarining maydonlari hisobiga yuzaga kelib, tashqi maydonga qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi va shu sababli tashqi maydonni zaiflashtiradi.

### 60-§. O'tkazgichning elektr sig'imi.

- O'tkazgichning o'zida zaryad to'plash qobiliyatini xarakterlovchi fizik kattalik o'tkazgichning *elektr sig'imi* deb ataladi.
- Agar o'tkazgich, atrofdagi jismlar bilan o'zaro zaryad almashmasa, hamda atrofdagi jismlar bilan o'zaro elektr ta'sirida bo'lmasa, bunday o'tkazgich *yakkalangan o'tkazgich* deyiladi.

- Yakkalangan o'tkazgichning potensialini bir potensial birligiga oshirish uchun, unga berilishi kerak bo'lgan zaryad miqdoriga son jihatidan teng bo'lgan fizik kattalikka *elektr sig'imi* deyiladi.

$$C = \frac{q}{\varphi}$$

- XBS da elektr sig'imining birligi Farad (F).  $1F = 1C/1V$ . Elektr potensialni 1 V ga oshirish uchun 1C zaryad qabul qiladigan yakkalangan o'tkazgichning elektr sig'imi 1 F ga teng.
- Izolyatsiyalangan shar elektr sig'imi:  $C = 4\pi\epsilon_0 R$ ;  $C = \frac{q}{\varphi - \varphi_0}$ ;  $C = \frac{R}{k}$ ;
- Yakkalangan muhitdagi sharni elektr sig'imi:  $C = 4\pi\epsilon\epsilon_0 R$ ;  $C = \frac{\epsilon R}{k}$ ;


### 61-§. Kondensator. Kondensatorning elektr sig'imi

- Ikki o'tkazgichdan iborat bo'lgan tizimning elektr sig'imi bitta o'tkazgichning sig'imidan juda katta bo'ladi. Bir-biridan dielektrik bilan ajratilgan ikki o'tkazgichdan iborat bo'lgan har qanday tizim *kondensator* deyiladi. Kondensatorning yakkalangan o'tkazgichlardan asosiy farqi shundaki, uning o'lchamlari juda kichik bo'lsa ham, sig'imi juda katta bo'ladi.
- Kondensatorni hosil qilgan o'tkazgichlar *kondensatorning qoplamalari* deyiladi.
- Qoplamalari ikki parallel yassi tekislikdan iborat bo'lgan kondensatorga *yassi kondensator* deyiladi. Yassi kondensatorning elektr sig'imi, kondensator qoplamalaridan biridagi zaryad miqdorining qoplamalar orasidagi potentsiallar ayirmasiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$C = \frac{q}{\varphi_1 - \varphi_2}; \quad C = \frac{\epsilon_0 \epsilon \cdot S}{d}$$



Yassi kondensator



Sferik kondensator

#### Rasm 59. Kondensatorlar

- Silindrik kondensatorning elektr sig'imi:  $C = \frac{2\pi\epsilon_0 L}{\ln \frac{R_2}{R_1}}$
- Qoplamalari, har xil radiusli ikki sferik sirtidan iborat bo'lgan kondensator, *sferik kondensator* deyiladi. Sferalar orasidagi elektr maydonini  $r_1$  radiusli sferaning zaryadi hosil qiladi:

$$C = \frac{4\pi\epsilon_0 \cdot r_1 \cdot r_2}{r_2 - r_1}; \quad C = \frac{4\pi\epsilon_0 \epsilon \cdot r_1 \cdot r_2}{r_2 - r_1}$$

- Yassi kondensator qoplamalari orasidagi potensiallar farqi, yoki kuchlanish:


$$U = \frac{q}{C}; \quad U = \frac{qd}{\epsilon_0 \epsilon S}; \quad U = \frac{\sigma d}{\epsilon_0 \epsilon}; \quad U = Ed;$$

- Yassi kondensator qoplamalari orasidagi elektr maydon kuchlanganligi:


$$E = \frac{q}{\epsilon_0 \epsilon \cdot S}; \quad E = \frac{U}{d}; \quad E = \frac{\sigma}{\epsilon_0 \epsilon};$$

- Yassi kondensator zaryadi:

$$q = CU; \quad q = \frac{\epsilon_0 \epsilon SU}{d}; \quad q = \sigma S;$$



$$C = \frac{2\epsilon_1 \epsilon_2 \epsilon_0 S}{(\epsilon_1 + \epsilon_2) \cdot d}$$



$$C = \frac{(\epsilon_1 + \epsilon_2) \cdot \epsilon_0 S}{2d}$$

Rasm 60. Yassi kondensator qoplamalari orasidagi fazoning yarmi  $\epsilon_1$  qolgan yarmi  $\epsilon_2$  dielektrik bilan to'ldirilgan bo'lsa, uning sig'imi.

## 62-§. Kondensatorlarni parallel va ketma-ket ulash


- Kondensatorlar parallel va ketma-ket ulanganda ularning umumiy sig'imi o'zgaradi.

### 1. Kondensatorlarni parallel ulash.


- Agar bir qurilmaning ikki uchi, ikkinchi qurilmaning ikki uchiga mos ravishda ulangan bo'lsa, *parallel ulash* deyiladi.

$$q = q_1 + q_2 + \dots + q_n; \quad q = C_{\text{um}} \cdot \Delta\varphi; \quad C_{\text{um}} = C_1 + C_2 + \dots + C_n; \quad C_{\text{um}} = n \cdot c$$

⇒ Agar  $C_1 = C_2 = C_3 = C_0$  bo'lsa,  $C_{\text{um}} = 3C_0$  bo'ladi



a)



b)

Rasm 61. Kondensatorlarni parallel (a) va ketma-ket ulash (b)

- Parallel ulangan kondensatorlar batareyasining umumiy sig'imi, kondensatorlar sig'irlarining algebraik yig'indisiga teng. Kondensatorlar parallel ulanganda umumiy sig'im oshadi.

### 2. Kondensatorlarni ketma-ket ulash.

- Agar bir qurilmaning bir uchi, ikkinchi qurilmaning bir uchiga ulangan bo'lib, qolgan uchlari ulanmasa, *ketma-ket ulash* deyiladi.

$$\Delta\varphi_{\text{umum}} = \Delta\varphi_1 + \Delta\varphi_2 + \dots + \Delta\varphi_n; \quad q = q_1 = q_2 = \dots = q_n;$$

$$\frac{1}{C_{\text{um}}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} + \dots + \frac{1}{C_n}; \quad C_{\text{um}} = \frac{C_1}{n}; \quad C_{\text{um}} = \frac{C_1 \cdot C_2}{C_1 + C_2}; \quad U_1 : U_2 : U_3 = \frac{1}{C_1} : \frac{1}{C_2} : \frac{1}{C_3};$$

- Ketma-ket ulangan ikkita kondensator uchun kuchlanishni taqsimlanishi:

$$U_1 = \frac{C_2}{C_1 + C_2} U_0; \quad U_2 = \frac{C_1}{C_1 + C_2} U_0;$$

- Ketma-ket ulangan kondensatorlar batareyasi umumiy sig'imining teskari qiymati, ulangan kondensatorlar sig'irlari teskari qiymatlarining yig'indisiga teng. Kondensatorlar ketma-ket ulanganda kondensatorlar batareyasining umumiy sig'imi kamayadi. Kondensatorlar batareyasining umumiy sig'imi, batareya tizimiga kiruvchi sig'imi eng kichik bo'lgan kondensator sig'imidan ham kichik bo'ladi.

- Kondensatorlar zaryadlari nisbati:  $q_1 : q_2 : q_3 = C_1 : C_2 : C_3$

- $U_1$  kuchlanishgacha zaryadlangan  $C_1$  sig'imli kondensator  $U_2$  kuchlanishgacha zaryadlangan  $C_2$  sig'imli kondensator bilan tutashtirilganda kondensatorlarda hosil bo'luvchi umumiy kuchlanish:

$$U_{\text{um}} = \frac{C_1 U_1 + C_2 U_2}{C_1 + C_2}$$

- Zaryadi  $q_1$  sig'imi  $C_1$  bo'lgan kondensator, zaryadi  $q_2$  sig'imi  $C_2$  bo'lgan kondensator bilan tutashirilgandan keyin kondensatorlarda zaryadning qayta taqsimlanishi:

$$q_1' = \frac{C_1}{C_1 + C_2}(q_1 + q_2); \quad q_2' = \frac{C_2}{C_1 + C_2}(q_1 + q_2);$$

### 63-§. Elektr maydon energiyasi

- Kondensator qoplamalaridagi elektrostatik maydon energiyasi:

$$W_e = \frac{CU^2}{2}; \quad W_e = \frac{q^2}{2C}; \quad W_e = \frac{1}{2}QU; \quad W_e = \frac{C(\varphi_1 - \varphi_2)^2}{2}; \quad W_e = \frac{1}{2}q(\varphi_1 - \varphi_2);$$

$$W_e = \frac{q^2 d}{2\epsilon\epsilon_0 S}; \quad W_e = \frac{\epsilon\epsilon_0 SU^2}{2d}; \quad W_e = \frac{\epsilon\epsilon_0 Sd}{2} E^2; \quad W_e = \frac{\epsilon\epsilon_0 V}{2} E^2$$

- Elektrostatik maydon energiya zichligi:  $w_e = \frac{W_e}{V}; \quad w_e = \frac{\epsilon\epsilon_0 E^2}{2}; \quad w_e = \frac{ED}{2};$

$$D = \epsilon\epsilon_0 E; \quad D - \text{elektrostatik maydon induksiyasi}$$

- Elektr maydon energiyasining zichligi maydon tarqalgan dielektrikning dielektrik singdiruvchanligi bilan maydon kuchlanganligi kvadratining ko'paytmasiga to'g'ri proporsional.
- Agar elektr maydon bir jinsli bo'lsa, energiyaning hajmiy zichligi maydonning hamma nuqtalarida bir xilda bo'ladi.
- Elektr maydon deyarli butunlay kondensator ichida to'plangan bo'ladi. Ikkita konsentrik sferadan iborat bo'lgan sferik kondensator da butun maydon qoplamalar orasida to'plangan bo'ladi.
- Kondensatorning asosiy xossalari:
  1. Har bir kondensator nafaqat o'zida zaryad to'plash xususiyatiga, shuningdek ular energiya to'plash xususiyatiga ham ega.
  2. Bu energiyani kondensator da uzoq vaqt davomida saqlab bo'lmaydi. Chunki kondensator zaryadini vaqt o'tishi bilan uni o'rab turgan atrof muhitga uzatadi.
  3. Kondensator elektr qarshiligi kichik bo'lgan zanjir orqali zaryadsizlanganda, o'z energiyasini deyarli bir zumda beradi.

## O'ZGARMAS TOK

### 64-§. Elektr toki. Elektr tokining mavjud bo'lish shartlari. Tok kuchi va tok zichligi

- Zaryadli zarralarning harakati bilan bog'liq bo'lgan hodisa va jarayonlarni o'rganadigan fizikaning bo'limi *elektrodinamika* deyiladi.
- Zaryadli zarralarning tartibli harakatiga *elektr toki* deb ataladi. Elektr toki erkin harakatlana oladigan elektronlar yoki ionlarning tartibli ko'chishidan paydo bo'ladi.
- Elektr toki yo'nalishi sifatida musbat zaryadli zarralar harakatining yo'nalishi qabul qilingan. Agar tokni manfiy zaryadli zarralar (masalan, metallarda elektronlar) hosil qilayotgan bo'lsa, elektr toki zarralar harakatining yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi.
- Elektr toki mavjud bo'lish shartlari:
  1. O'tkazgichda erkin zaryadli zarralarning mavjud bo'lishi;
  2. Zaryadli zarralarni tartibli harakatga keltirish va bu harakatni to'xtatmay turish uchun bu zarralarga ma'lum bir yo'nalishda ta'sir qilib turadigan kuch bo'lishi zarur yoki o'tkazgich uchlarida noldan farqli potentsiallar ayirmasi bo'lishi zarur;
  3. Elektr zanjiri yopiq bo'lishi kerak.
- Elektr tokining asosiy belgisi-harakatdagi zaryadli zarralar tufayli paydo bo'luvchi *magnit maydonning* mavjudligidir.
- **Tokning asosiy uch xil ta'siri:** Issiqlik, kimyoviy, optik, magnetik. Magnetik ta'sir eng asosiy ta'sir hisoblanadi.
- O'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasidan vaqt birligi ichida oqib o'tgan zaryad miqdoriga son jihatidan teng bo'lgan skalyar kattalikka *tok kuchi* deyiladi.
- XBSda tok kuchining birligi sifatida, fransuz fizigi Amper sharafiga, *Amper (A)* qabul qilingan. Tok kuchining birligi Amper asosiy fizik kattaliklar qatoriga kirib, bu birlik toklarning o'zaro magnit ta'siri asosida aniqlanadi.
- Tok kuchi *ampermetr* yordamida o'lchanadi.
- Agar tok kuchining moduli va yo'nalishi vaqt o'tishi bilan o'zgarmasa, bunday tok *o'zgarmas elektr toki* deyiladi.
- Metall o'tkazgichlarda elektr tokini *elektronlarning*, ya'ni manfiy ishorali zaryadlarning tartibli harakati yuzaga keltiradi.
- Suyuqliklarda yoki elektrolitlarda tok tashuvchilar vazifasini *musbat va manfiy* ionlar bajaradi.
- Elektronlarning harakat yo'nalishi, tokning yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi.

- Tok kuchi tokni hosil qilayotgan zaryadli zarralarning zaryad miqdori, kontsentratsiyasi, ko'ndalang kesim yuzi va o'rtacha tartibli harakat tezligining ko'paytmasiga teng.
- O'tkazgichning birlik ko'ndalang kesim yuzidan o'tayotgan tok kuchiga son jihatidan teng bo'lgan fizik kattalik *tok zichligi* deyiladi. Tok zichligi  $[A/m^2]$  da o'lchanadi. Tok zichligi vektor kattalik bo'lib, tok yo'nalishi bo'ylab yo'nalgan.

- Tok kuchini topish formulalari:

$$I = qIt; \quad I = \Delta q / \Delta t; \quad I = qnSg; \quad I = U/R; \quad I = \frac{US}{\rho l}; \quad I = \frac{ES}{\rho}; \quad I = j \cdot S$$

- Tok zichligini topish formulalari:

$$j = I/S; \quad j = qnS; \quad j = \frac{U}{\rho \cdot l}; \quad j = \frac{E}{\rho};$$

- Zaryadning tartibli harakat tezligi:

$$g = \frac{j}{qn}; \quad g = \frac{I}{qnS}; \quad g = \frac{U}{en\rho l}$$

$e$  – elektron zaryadi,  $n$  – zaryad kontsentratsiyasi,

$g$  – zaryadning tartibli harakat tezligi.

- Metallarda elektronlarning tartibli harakat tezligi:  $g < 1mm/c$
- $t$  – vaqt ichida o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasidan o'tgan elektronlar soni:  $N = \frac{I \cdot t}{e}; \quad N = \frac{q}{e}$

### 65-§. O'tkazgichning elektr qarshiligi. Solishtirma qarshilik. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni

- Metall o'tkazgichlardagi qarshilik metaldagi erkin elektronlarning kristall panjara tugunlaridagi ionlar bilan to'qnashishi natijasida yuzaga keladi.
- Zanjir orqali o'tayotgan tok kuchini boshqarish uchun ishlatiladigan aniq qarshilikka ega bo'lgan asboblari *rezistorlar* deyiladi. O'zgaruvchan qarshilikka ega bo'lgan rezistorlar *reostatlar* deyiladi.
- Bir jinsli silindrsimon yoki prizma shaklidagi o'tkazgichning elektr qarshiligi (o'zgarimas temperatura sharoitida):  $R = \rho_m \cdot \frac{l}{S}; \quad R = \rho_m \cdot \rho_{zich} \frac{l^2}{m};$

$$R = \frac{\rho_m}{\rho_{zich}} \cdot \frac{m}{S^2}; \quad \rho_{zich} - \text{zichlik}; \quad \rho_m - \text{solishtirma qarshilik}$$

- Solishtirma qarshilik ta'riflari:



1. Ko'ndalang kesim yuzasi  $1m^2$  va uzunligi  $1m$  bo'lgan o'tkazgich qarshiligi solishtirma qarshilik deyiladi.
2. Solishtirma qarshilikning son qiymati, qirrasini  $1m$  bo'lgan kub shaklidagi o'tkazgichning, tok ikkita kubning qarama-qarshi yog'iga o'tkazilgan normal bo'ylab o'tayotgan holdagi qarshiligiga teng.

3.  $1 \frac{\Omega \cdot \text{mm}^2}{\text{m}}$  bo'yicha ta'rif: Solishtirma qarshilik-kesim yuzasi  $1 \text{mm}^2$  va uzunligi  $1 \text{m}$  bo'lgan o'tkazgich qarshiligiga teng.

- XBSda solishtirma qarshilikning o'lchov birligi  $\text{Om} \cdot \text{m}$  yoki  $1 \frac{\Omega \cdot \text{mm}^2}{\text{m}}$ :

$$1 \frac{\Omega \cdot \text{mm}^2}{\text{m}} = 10^{-6} \Omega \cdot \text{m}$$

- Qarshiligi  $1 \Omega$ , uzunligi  $1 \text{m}$  va ko'ndalang kesim yuzasi  $1 \text{m}^2$  bo'lgan silindr shaklidagi o'tkazgichning solishtirma qarshiligi  $1 \Omega \cdot \text{m}$  ga teng.
- Solishtirma qarshilik o'tkazgichning materialiga va haroratiga bog'liq.



### Rasm 62. Zanjirni bir qismi uchun Om qonuni

- **Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni:** zanjirning bir qismidan o'tayotgan tok kuchi uning uchlaridagi kuchlanishga to'g'ri, shu qismning qarshiligiga esa teskari proporsional:  $I = \frac{U}{R}$ ;  $R = \frac{U}{I}$ ;  $U = I \cdot R$
- Zanjirga ulangan o'tkazgichning elektr qarshiligi uning uchlaridagi kuchlanishga ham, undan o'tayotgan tok kuchiga ham bog'liq emas.
- O'tkazgichdagi kuchlanish uning uchlaridagi potensiallar farqiga teng:  $U = \varphi_1 - \varphi_2$ ;  $U = I \cdot R$
- XBSda o'tkazgichning elektr qarshiligi nemis olimi Georg Om sharafiga **Om** da o'lchash qabul qilingan: O'tkazgich uchlariga  $1 \text{V}$  kuchlanish berilganda,  $1 \text{A}$  o'zgarimas tok o'tadigan o'tkazgichning qarshiligi  $1 \text{Om}$  ga teng bo'ladi. O'tkazgichning elektr qarshiligi ommetr yordamida o'lchanadi.
- O'tkazgich qarshiligini temperaturaga bog'liqligi:

$$R = R_0(1 + \alpha \cdot t); \quad \rho = \rho_0(1 + \alpha \cdot t); \quad \frac{R_2}{R_1} = \frac{1 + \alpha \cdot t_2}{1 + \alpha \cdot t_1}; \quad R_2 = \frac{1 + \alpha \cdot t_2}{1 + \alpha \cdot t_1} R_1$$

$\alpha$ - qarshilikning termik koeffitsiyenti Bu koeffitsiyent modda qarshiligining temperaturaga bog'liqligini bildiradi.

- Qarshilikning termik koeffitsiyenti tekshirilayotgan o'tkazgichni  $1 \text{K}$  (yoki  $1^\circ\text{C}$ )ga isitilgandagi qarshilikning nisbiy o'zgarishiga teng. Hamma metallar uchun  $\alpha > 0$  bo'lib, sof metallarda  $\alpha \approx \frac{1}{273} \text{K}^{-1}$  ni tashkil etadi.
- O'tkazgich qarshiligining temperaturaga bog'liqligidan amalda temperaturani o'lchashda foydalaniladi. Temperatura o'zgarishi bilan qarshiligi

o'zgaradigan asboblari yaratilgan bo'lib, ularga qarshilik termometri deyiladi. Qarshilik termometri temperaturani yuzdan bir gradus aniqlikda o'lchash imkoniyatiga ega. Shuningdek, qarshilik termometrlarining o'lchash chegaralari suyuqlik termometrlariga nisbatan ancha yuqoridir.

- **O'ta-o'tkazuvchanlik:** Temperatura juda past bo'lganda (0.....10 K) o'tkazgich qarshiligining juda pasayib 0 ga teng bo'lib qolishiga o'ta-o'tkazuvchanlik deyiladi. Bu hodisani birinchi bo'lib golland fizigi Kammerling-Onnes kashf etgan.

## 66-§. O'tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulash

### O'tkazgichlarni ketma-ket ulash


- O'tkazgichlar ketma-ket ulanganda birining oxiri ikkinchisining boshiga, ikkinchisining oxiri uchinchisining boshiga kabi tartibda ulanadi.



Rasm 63. O'tkazgichlarni ketma-ket ulash

- O'tkazgichlardagi tok kuchi bir xil bo'ladi:  $I_1 = I_2 = I$ ;  
 $I = I_1 = I_2 = I_3 = I_n = Const$ ;
- Ularning umumiy qarshiligi ortadi:  
 $R = R_1 + R_2$ ;  $R = R_1 + R_2 + \dots + R_n$ ;  $R_y = nR$ ;
- O'tkazgichlardagi kuchlanishlar yig'indisi zanjirdagi umumiy kuchlanishga teng bo'ladi:  $U_{AC} = U_{AB} + U_{BC}$ ;  $U_{AB} = I \cdot R_1$  va  $U_{BC} = I \cdot R_2$ ;  
 $\frac{U_{AB}}{I} = \frac{R_1}{R_2}$ ;  $U_{AC} = I \cdot R_1 + I \cdot R_2$ ;  $U_{AC} = I \cdot R$   
 $U = U_1 + U_2 + \dots + U_n$ ;  $Q = Q_1 = Q_2 = \dots = Q_n$ ;  $A = A_1 + A_2 + \dots + A_n$ ;
- Ketma-ket ulangan o'tkazgichda kuchlanish taqsimlanishi:  
 $U_1 = \frac{R_1}{R_1 + R_2} \cdot U_m$ ;  $U_1 = U_m - U_2$ ;  $U_2 = \frac{R_2}{R_1 + R_2} \cdot U_m$ ;  $U_2 = U_m - U_1$
- Ketma-ket ulangan o'tkazgichlardan tuzilgan zanjirning umumiy elektr qarshiligi alohida o'tkazgichlar qarshiliklarining algebraik yig'indisiga teng.

### O'tkazgichlarni parallel ulash.



Rasm 64. O'tkazgichlarni parallel ulash

- O'tkazgichdagi tok kuchlarining yig'indisi zanjirdagi umumiy tok kuchiga teng bo'ladi:  $I = I_1 + I_2$ ;  $\frac{I_1}{I_2} = \frac{R_2}{R_1}$ ;

- O'tkazgichlarda kuchlanishlar bir xil bo'ladi:  $U = U_1 = U_2$  yoki

$$I_1 \cdot R_1 = I_2 \cdot R_2$$

- Ularning umumiy qarshiligi kamayadi:

$$\frac{1}{R} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2}; \quad \frac{1}{R_0} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \dots + \frac{1}{R_n}; \quad I = \frac{U}{R}; \quad I_1 = \frac{U}{R_1}; \quad I_2 = \frac{U}{R_2};$$

$$U = U_1 = U_2 = U_3 = \dots = U_n; \quad I = I_1 + I_2 + I_3 + \dots + I_n; \quad Q = Q_1 + Q_2 + Q_3 + \dots + Q_n;$$

$$R_0 = R/n;$$

- Parallel ulangan o'tkazgichlar zanjirini umumiy qarshiligining teskari qiymati, ulangan o'tkazgichlar qarshiliklari teskari qiymatlarining yig'indisiga teng bo'ladi. O'tkazgichlar parallel ulanganda zanjirning umumiy elektr qarshiligi kamayib, zanjir orqali ko'prok tok oqib o'tadi.

- $R_0$  qarshilikka ega bo'lgan o'tkazgichning  $n$  ta bir xil bo'lakka bo'lganda bitta bo'lagining qarshiligi  $n$  marta kamayadi:  $R = \frac{R_0}{n}$


- $R_0$  qarshilikka ega bo'lgan o'tkazgichning  $n$  ta bir xil bo'lakka bo'lib ulami parallel ulaganda uning qarshiligi  $n^2$  marta kamayadi:

$$R = \frac{R_0}{n^2}; \quad n = \sqrt{\frac{R_0}{R}}; \quad R_0 = n^2 R$$

- Simni cho'zib uzunligini  $n$  marta oshirsak uning qarshiligi  $n^2$  marta ortadi:  $R = n^2 R_0$

### 67-§. Ampermetr va voltmetrga qo'shimcha qarshilik (shunt) ulash

- O'tkazgich orqali o'tayotgan tokni aniqlash uchun *ampermetr* o'tkazgichga ketma-ket ulanadi
- Ampermetr ham elektr qarshiligiga ega bo'lganligi sababli, u ketma-ket ulangan o'tkazgichdan oqayotgan tok kuchining qiymatini kamaytiradi.
- Ampermetrning elektr qarshiligi uning *ichki qarshiligi* deb ataladi.
- Zanjirdagi tok kuchiga ampermetrning ta'sirini kamaytirish maqsadida uning ichki qarshiligi juda kichik qilib tanlanadi. Ampermetrni tok manbaiga to'g'ridan to'g'ri ulash mumkin emas, aks holda qisqa tutashuv yuz berib ampermetr ishdan chiqadi





Rasm 65. Ampermetrga shunt ulash

- Ampermetr o'lchay oladigan eng katta tok kuchi miqdoriga ampermetrning o'lchash chegarasi deyiladi. Ampermetrning o'lchash chegarasini oshirish maqsadida unga parallel ulangan qo'shimcha qarshilikka *shunt* deyiladi:

$$I - I_A = (n-1)I_A \quad I_A = \frac{I}{n}; \quad I = I_A + I_{sh}; \quad (n-1)\frac{U}{R_A} = \frac{U}{R_{sh}};$$

$$R_{sh} = \frac{R_A}{n-1}; \quad I = \left(\frac{R_A}{R_{sh}} + 1\right) \cdot I_A; \quad n = \frac{R_A}{R_{sh}} + 1;$$

- O'lchash chegarasidan  $n$  marta katta bo'lgan tok kuchini o'lchash uchun, ampermetrga parallel ulangan shuntning qarshiligi ampermetr ichki qarshiligidan  $(n-1)$  marta kichik bo'lishi kerak.
- O'tkazgich uchlaridagi kuchlanish tushuvini aniqlash uchun unga voltmeter parallel ulanadi. O'tkazgich uchlaridagi kuchlanishning tushishiga voltmeterning ta'sirini kamaytirish uchun uning ichki qarshiligi juda katta qilib tanlanadi.
- Voltmetrning ichki qarshiligi juda katta bo'lganligi sababli uni tok manbaiga to'g'ridan-to'g'ri ulash mumkin.



#### Rasm 66. Voltmetrga shunt ulash

- Voltmetrning o'lchash chegarasini oshirish maqsadida unga ketma-ket ulangan qarshilikka *shunt* deb ataladi:

$$U = nU_V = U_{sh} + U_V; \quad I = I_{sh} = I_V; \quad R_{sh} = (n-1)R_V$$

$$n = \frac{R_{sh}}{R_V} + 1; \quad R_{sh} = R_V \cdot \left(\frac{U_m}{U_V} - 1\right); \quad U_m = \left(\frac{U_m}{U_V} + 1\right) \cdot U$$

- Voltmetr o'lchash chegarasidagi kuchlanishdan  $n$  marta ortiq kuchlanishni o'lchash uchun unga ketma-ket ulanadigan shuntning qarshiligi voltmeterning ichki qarshiligidan  $(n-1)$  marta katta bo'lishi kerak.

## 68-§. Elektr yurituvchi kuch. Berk zanjir uchun Om qonuni. Kirxgof qoidalari.

- Tashqi kuchlarning berk zanjir bo'ylab birlik zaryadni ko'chirishda bajargan ishiga son jihatidan teng kattalikka *elektr yurituvchi kuch* deb ataladi:

$$\varepsilon = \frac{A_1}{q}; \quad \varepsilon = I(R+r); \quad \varepsilon = U_R + U,$$

Bunda  $\varepsilon$  - EYUK,  $A_1$  - tashqi kuchning bajargan ishi,  $q$  - zaryad.  $R$  - tashqi iste'molchining qarshiligi,  $r$  - manbaning ichki qarshiligi. XBSda EYUKning birligi qilib 1V qabul qilingan, ya'ni  $1V=1J/1s$ .

- To'liq zanjir uchun Om qonuni:** Berk zanjirdagi tok kuchi shu zanjirdagi EYUK ning to'la qarshilikka nisbatiga teng:

$$I = \frac{\varepsilon}{R+r};$$

Bu yerda  $R$  - tashqi qarshilik,  $r$  - manbaning ichki qarshiligi.

- Agar tashqi zanjirni uzib manba klemalari o'zaro ulansa ( $R=0$  bo'lganda), *qisqa tutashuv* hosil bo'ladi. Butun zanjir uchun Om qonuni qisqa tutashuvda:

$$I_{qt} = \frac{\varepsilon}{r}$$

- Qisqa tutashuv toki -  $I_{qt}$ . EYUKi  $\varepsilon$  va ichki qarshiligi  $r$  bo'lgan tok manbaning bera oladigan eng katta tokidir.
- Agar bir manbaning manfiy qutbiga ikkinchi manbaning musbat qutbi ulansa, bunday ulanishlarga ketma-ket ulanish deyiladi.
- Elementlar ketma-ket ulanganda berk zanjir uchun Om qonuni:

$$I = \frac{n\varepsilon}{R+nr}; \quad I = \frac{\sum \varepsilon}{R+\sum r}; \quad I = \frac{\varepsilon}{R+r};$$

- Manbalar parallel ulanganda batareya qilib ulanuvchi manbalarning musbat qutblari bir tugunga, manfiy qutblari esa ikkinchi tugunga ulanadi.
- EYUKsi  $\varepsilon$ , ichki qarshiligi  $r$  bo'lgan  $n$  ta tok manbalari parallel ulanganda berk zanjir uchun Om qonuni:

$$I = \frac{\varepsilon}{R+\frac{r}{n}}$$

- Voltmetr ichki qarshiligi:  $r = \frac{UR}{\varepsilon - U};$
- Akkumlyatorni zaryadlashda:  $U_{zaryad} = \varepsilon + I_{zaryad} \cdot r;$   
 $U$  - zaryadlash kuchlanishi,  $I$  - zaryadlash toki.
- Akkumlyatorni razryadlashda:  $U_{razryad} = \varepsilon - I_{razryad} \cdot r$   
 $U$  - razryadlash kuchlanishi,  $I$  - razryadlash toki.
- Iste'molchidagi kuchlanish, yoki tashqi qarshilikdagi kuchlanish:

$$U_r = \frac{R}{R+r} \cdot \varepsilon; \quad U_R = \varepsilon - U_r$$

• Manbaning ichki qarshiligidagi kuchlanish:  $U_r = \frac{r}{R+r} \cdot \varepsilon; \quad U_R = \varepsilon - U_r$


•  $n$  ta bir xil manba ketma-ket ulanganda;



$$I = \frac{n \cdot \varepsilon}{R + n \cdot r};$$

$$\varepsilon_{\text{um}} = \varepsilon_1 + \varepsilon_2 + \dots + \varepsilon_n; \quad r_{\text{um}} = r_1 + r_2 + \dots + r_n$$

• Ikkita bir xil manba ketma-ket ulanganda (tok yo'nalishi bir xil bo'lganda):



$$I = \frac{\varepsilon_1 + \varepsilon_2}{R + r_1 + r_2}; \quad \varepsilon_{\text{um}} = \varepsilon_1 + \varepsilon_2; \quad r_{\text{um}} = r_1 + r_2$$

• Ikkita har xil manba ketma-ket ulanganda (tok yo'nalishi qarama-qarshi bo'lganda):



$$I = \frac{\varepsilon_1 - \varepsilon_2}{R + r_1 + r_2}; \quad \varepsilon_{\text{um}} = \varepsilon_1 - \varepsilon_2; \quad r_{\text{um}} = r_1 + r_2$$


•  $n$  ta bir xil manba parallel ulanganda:



$$\varepsilon_{\text{um}} = \varepsilon;$$

$$r_{\text{um}} = \frac{r}{n}; \quad I = \frac{n \cdot \varepsilon}{n \cdot R + r}$$


• Ikkita har xil manba parallel, tok yo'nalishi bir xil bo'lganda:



$$\varepsilon_{\text{um}} = \frac{r_1 \cdot r_2}{r_1 + r_2} \left( \frac{\varepsilon_1}{r_1} + \frac{\varepsilon_2}{r_2} \right);$$

$$r_{\text{um}} = \frac{r_1 \cdot r_2}{r_1 + r_2}; \quad I = \frac{\varepsilon_{\text{um}}}{R + r_{\text{um}}}$$

Ikkita manba o'zaro parallel, tok yo'nalishi qarama-qarshi bo'lganda:



$$\varepsilon_{\text{um}} = \frac{r_1 \cdot r_2}{r_1 + r_2} \left( \frac{\varepsilon_1}{r_1} - \frac{\varepsilon_2}{r_2} \right);$$

$$r_{\text{um}} = \frac{r_1 \cdot r_2}{r_1 + r_2}; \quad I = \frac{\varepsilon_{\text{um}}}{R + r_{\text{um}}}$$


- Agar 3 ta manba o'zaro parallel ulansa:

$$\varepsilon_{\text{um}} = r_{\text{um}} \left( \frac{\varepsilon_1}{r_1} + \frac{\varepsilon_2}{r_2} + \frac{\varepsilon_3}{r_3} \right); \quad \frac{1}{r_{\text{um}}} = \frac{1}{r_1} + \frac{1}{r_2} + \frac{1}{r_3}$$

- Manbaning foydali ish koeffitsiyenti:  $\eta = \frac{R}{R+r}$ ;  $\eta = \frac{U}{\varepsilon}$
- Manbaga ulangan tashqi qarshilik  $R_1$  dan  $R_2$  ga o'zgariganda manbaning FIK ning o'zgarishi:

$$\frac{\eta_2}{\eta_1} = \frac{R_2}{R_1} \frac{R_1+r}{R_2+r}$$

- Elektr dvigatelning FIKi:  $\eta_{\text{um}} = \frac{N_{\text{um}}}{IU} = \frac{F\beta}{IU}$
- **Kirxgofning birinchi qoidasi:** Zanjirning tarmoqlanish nuqtasida, potensial o'zgarmayotgan holda, toklarning tugundan oldingi yig'indi qiymati, tugundan keyingi yig'indi qiymatiga teng.



Rasm 67. Kirxgofning birinchi qoidasi

$$q_1 = q_2 + q_3; \quad I_1 = I_2 + I_3 \text{ yoki } I_1 - I_2 - I_3 = 0;$$

- **Kirxgofning ikkinchi qoidasi:** Zanjirning tarmoqlangan qismidagi ixtiyoriy tanlangan har qanday berk konturdagi tok kuchlarining zanjirning tegishli qismidagi qarshiliklariga ko'paytmalari yig'indisi shu konturdagi EYUKlarning algebraik yig'indisiga teng:

$$I_1 R_1 + I_2 R_2 + \dots + I_n R_n = \varepsilon_1 + \varepsilon_2 + \dots + \varepsilon_n$$

- Manbadagi tashqi qarshilikka parallell ulangan kondensator zaryadini topish formulasi:  $q = C \cdot \frac{R \cdot \varepsilon}{R+r}$ ;

## 69-§. Elektr tokining ishi va quvvati. Joule-Lens qonuni

- **Joule-Lens qonuni:** Zanjirning bir qismida ajralib chiqqan issiqlik miqdori, tok kuchining kvadrati, qism qarshiligi va tokning o'tish vaqtiga ko'paytmasiga teng:

$$Q = I^2 R t; \quad Q = \frac{U^2}{R} t; \quad Q = I U t; \quad Q = P_{\phi} t; \quad Q = I^2 (R+r) t$$

- Joule-Lens qonuniga ko'ra qarshiliklari  $R_1$  va  $R_2$  bo'lgan o'tkazgichlar ketma-ket ulanganda ularda ajralib chiqqan issiqlik miqdorlari nisbati o'tkazgichlar qarshiliklari nisbatiga to'g'ri proporsional bo'ladi:

$$\frac{Q_1}{Q_2} = \frac{R_1}{R_2}; \quad \frac{P_1}{P_2} = \frac{R_1}{R_2}$$

- O'tkazgichlar ketma-ket ulanganda qarshiligi kichik bo'lgan o'tkazgichda, qarshiligi katta bo'lgan o'tkazgichga nisbatan kamroq issiqlik ajralib chiqadi.
- Parallel ulangan o'tkazgichlarda ajralib chiqqan issiqlik miqdorlari nisbati ularning qarshiliklari nisbatiga teskari proporsional:

$$\frac{Q_1}{Q_2} = \frac{R_2}{R_1}$$

- O'tkazgichlar parallel ulanganda qarshiligi kichiq bo'lgan o'tkazgich, qarshiligi katta bo'lgan o'tkazgichga nisbatan ko'prok issiqlik ajratib chiqaradi.
- Uchta qarshilik ketma-ket ulangan bo'lsa:

$$Q_1 : Q_2 : Q_3 = R_1 : R_2 : R_3; \quad U_1 : U_2 : U_3 = \frac{1}{R_1} : \frac{1}{R_2} : \frac{1}{R_3}$$

- Ketma-ket ulangan o'tkazgichlarning qarshiligi kattasidan ko'p issiqlik va quvvat ajratadi.
- Parallel ulangan o'tkazgichlarda ajraladigan issiqliklar va quvvatlar nisbati:

$$Q_1 : Q_2 : Q_3 = \frac{1}{R_1} : \frac{1}{R_2} : \frac{1}{R_3}; \quad I_1 : I_2 : I_3 = R_1 : R_2 : R_3$$

- Parallel ulangan o'tkazgichlarning qarshiligi kichigida ko'p issiqlik va quvvat ajraladi.
- $R_1$  qarshilikli speral suvni  $t_1$  vaqtda,  $R_2$  qarshilikli speral  $t_2$  vaqtda qaynatsa:

⇒ speralar ketma-ket ulanganda, suvning qaynash vaqti ortadi:

$$t_{k-1} = t_1 + t_2$$

→ speralar 3 ta bo'lsa:  $t_{k-1} = t_1 + t_2 + t_3$

⇒ speralar parallel ulanganda suvning qaynash vaqti kamayadi:

$$t_{par} = \frac{t_1 t_2}{t_1 + t_2}$$

→ speralar 3 ta bo'lsa:  $\frac{1}{t_{par}} = \frac{1}{t_1} + \frac{1}{t_2} + \frac{1}{t_3}$

- $n$  ta bir xil cho'lg'am ketma-ket ulanganda suvning qaynash vaqti, ular parallel ulangandagisidan  $n^2$  marta katta bo'ladi:  $t_{k-1} = n^2 \cdot t_{par}$

- O'zgarmas tokning ishi

→ zanjirning bir qismi uchun:  $A = IUt$ ;  $A = I^2 R t$ ;  $A = \frac{U^2}{R} \cdot t$ ;  $A = qU$ ;  $A = IB\pi R^2 v t$

→ to'liq zanjir uchun:

$$A = \varepsilon I t; \quad A = \frac{\varepsilon^2}{R+r} \cdot t; \quad A = q \cdot \varepsilon; \quad A = I^2 (R+r) t; \quad A = P \cdot t;$$

- Tok manbaining ichidagi samarasiz quvvat:

$$P_i = I^2 r$$

- Tashqi zanjir quvvati (foydali quvvat):

$$P_f = A_f / t; \quad P_f = IU; \quad P_f = I^2 R; \quad P_f = U^2 / R; \quad P_f = \frac{\varepsilon^2 R}{(R+r)^2}$$

- Tok manbaining to'liq quvvati:

$$P_T = P_i + P_f; \quad P_T = I^2 r + I^2 R; \quad P_T = I^2 (r + R); \quad P_T = \varepsilon \cdot I; \quad P = \frac{\varepsilon^2}{R+r}; \quad P = \frac{A_m}{t}$$

- Tok manbaining FIKi foydali quvvatning to'liq quvvatga nisbatiga teng:

$$\eta = \frac{P_f}{P_T} \text{ yoki } \eta = \frac{U}{\varepsilon} = \frac{R}{R+r}$$

- Manbaga ulangan iste'molchidagi maksimal quvvat,  $R = r$  bo'lganda amalga oshadi:

$$P_{\max} = \frac{\varepsilon^2}{4r}$$

- $R$  qarshilikka  $R_1$  qarshilikni ketma-ket ulasak  $R$  qarshilikdagi

$$\text{quvvat } n \text{ marta kamayadi: } R_n = (\sqrt{n} - 1)R; \quad n = (R_1 / R + 1)$$

- Kuchlanishning ayni bir qiymatida elektr quvvatlari  $P_1, P_2, P_3, \dots, P_n$  bo'lgan o'zaro ketma-ket ulangan qarshiliklardan tashkil topgan zanjirning umumiy quvvati:

$$\frac{1}{P} = \frac{1}{P_1} + \frac{1}{P_2} + \dots + \frac{1}{P_n}$$

- Ketma-ket ulangan iste'molchilarning umumiy quvvatining teskari qiymati har bir iste'molchi quvvatini teskari qiymatlarining yig'indisiga teng. Iste'molchilarning ketma-ket ulanishidan hosil bo'lgan zanjirning umumiy quvvati kamayadi.
- Kuchlanishning ayni bir qiymatida elektr quvvatlari  $P_1, P_2, P_3, \dots, P_n$  bo'lgan, o'zaro parallel ulangan iste'molchilardan tashkil topgan zanjirning umumiy quvvati:

$$P = P_1 + P_2 + \dots + P_n$$

- Parallel ulangan iste'molchilarning umumiy quvvati har bir iste'molchi quvvatining algebraik yig'indisiga teng. Iste'molchilarning parallel ulanishidan hosil bo'lgan zanjirning umumiy quvvati ortadi.
- Quvvati  $P_1$  va  $P_2$  bo'lgan ikkita lampa ketma-ket ulansa umumiy quvvat kamayadi:

$$\frac{1}{P_m} = \frac{1}{P_1} + \frac{1}{P_2}; \quad P_m = \frac{P_1 \cdot P_2}{P_1 + P_2}$$

- Quvvatlari  $P$  ga teng bo'lgan  $n$  ta bir xil lampa ketma-ket ulansa,

umumiy quvvat bitta lampaning dastlabki quvvatiga nisbatan  $n$

marta kamayadi:  $P_{\text{um}} = \frac{P}{n}$ .

- Quvvatlari  $P$  ga teng bo'lgan  $n$  ta bir xil lampa manbaga ketma-ket ulansa, bitta lampadagi quvvat  $P_1$  uning dastlabki quvvatiga

nisbatan  $n^2$  marta kamayadi:  $P_1 = \frac{P}{n^2}$ .

- Dastlabki quvvatlari  $P_1$  va  $P_2$  bo'lgan lampalar manbaga ketma-ket ulangan bo'lsa, ulardagi kuchlanishlar va qarshiliklar nisbati:

$$\frac{U_1}{U_2} = \frac{P_1}{P_2}; \quad \frac{R_1}{R_2} = \frac{P_1}{P_2}$$

- Quvvatlari  $P_1$  va  $P_2$  bo'lgan lampalar manbaga ketma-ket ulandi, ularni alohida quvvatlari:

$$P_1^{\text{yomilq}} = \left( \frac{P_1}{P_1 + P_2} \right)^2 \cdot P_1; \quad P_2^{\text{yomilq}} = \left( \frac{P_2}{P_1 + P_2} \right)^2 \cdot P_2$$

- Manbaga bir qancha lampa ketma-ket ulangan bo'lsa, ularning sonini kamaytirsak lampalarning umumiy ravshanligi ortadi, sonini oshirsak umumiy ravshanligi kamayadi.

- Quvvatlari  $P_1$  va  $P_2$  bo'lgan ikkita lampa parallel ulansa umumiy yonish quvvati ortadi:  $P_{\text{um}} = P_1 + P_2$

- Quvvatlari  $P$  ga teng bo'lgan  $n$  ta bir xil lampa manbaga parallel ulansa, ularning birgalikdagi umumiy quvvati bitta lampaning dastlabki quvvatiga nisbatan  $n$  marta ortadi:  $P_{\text{um}} = n \cdot P$

- Quvvatlari  $P$  ga teng bo'lgan  $n$  ta bir xil lampa manbaga parallel ulansa, alohida bitta lampaning yonish quvvati o'zgarmasdan oldingicha qoladi:  $P_1 = P$

- Quvvatlari  $P_1$  va  $P_2$  bo'lgan lampalar manbaga parallel ulansa, ularning yonish quvvati o'zgarmaydi:  $P_1^{\text{yomilq}} = P_1; \quad P_2^{\text{yomilq}} = P_2$

- Manbaga bir qancha lampa parallel ulangan, ularning sonini kamaytirsak lampaning umumiy ravshanligi kamayadi. Lampaning sonini oshirsak umumiy ravshanligi ortadi.

## TURLI MUHITLARDA ELEKTR TOKI

### 70-§. Metallarning elektronli o'tkazuvchanligi

- Metallarda erkin zaryad tashuvchi zarralar elektronlar hisoblanadi. Elektr maydoni ta'siri ostida elektronlar  $10^{-4}$  m/s o'rtacha tezlik bilan tartibli ravishda ko'chadi.
- Metall o'tkazgich qarshiligi (solishtirishga qarshiligi)ning temperaturaga bogliqligi:  $R = R_0(1 + \alpha t)$ ;  $\rho = \rho_0(1 + \alpha t)$ ;  $\alpha \approx \frac{1}{273^\circ C}$ ;  
 $\alpha$ -qarshilikning termik koeffitsiyenti bo'lib, u qarshilikning o'tkazgich 1K ga isitilganda nisbiy o'zgarishiga teng. Metallarda doim  $\alpha > 0$
- **O'ta o'tkazuvchanlik.** Metallarda temperatura juda past bo'lganda (0-10 K) o'tkazgich qarshiligining juda pasayib nolga teng bo'lib qolish hodisasi o'ta o'tkazuvchanlik deyiladi. Bu hodisani birinchi bo'lib golland fizigi Kamerling-Onnes kashf etgan.

### 71-§. Elektrolitlarda elektr toki

- Molekulalarning zaryadli ionlarga ajralish jarayoniga *dissotsiatsiya* deyiladi.
- Ion deganda bir yoki bir necha elektron yo'qotgan (yoki qo'shib olgan) modda zarrasi (atom, molekula, atomlar gruppasi) tushuniladi.
- Qarama-qarshi ishorali miqdorlari teng zaryadlar birlashib neytral atom hosil bo'lishiga *rekombinatsiya* deyiladi.
- Elektr tokini o'tkazadigan suyuqliklarga *elektrolitlar* deyiladi.
- Erituvchida eriganda ionlarga ajraladigan moddalarga *elektrolitlar* deyiladi.
- Elektrolitlarda ionlarning vujudga kelishiga sabab, elektrolit eriganda uning molekulalari, erituvchi molekulalarining elektr maydoni ta'sirida musbat va manfiy zaryadlangan ionlarga ajralishidir.
- Elektrolitdagi ionlarning tashqi maydon ta'siridagi batartib harakatiga *elektrolitlarda elektr toki* deyiladi.
- Elektrolitlarda elektr tokini, sim orqali tok manbaiga ulangan elektrodni unga tushurish bilan, hosil qilinadi.
- Elektrolitlarda kuchlanishni o'zgartirmasdan vanna elektrodni orasidagi masofani ortirsak qarshilik ortadi va tok kuchi kamayadi
- Elektrolitlarda temperatura ko'tarilsa qarshilik chiziqli ravishda kamayadi.
- Elektrolitlarda o'tkazgich qarshiligi (solishtirishga qarshiligi)ning temperaturaga bog'liqligi:  $R = R_0(1 - \alpha t)$ ;  $\rho = \rho_0(1 - \alpha t)$ ;  $\alpha = \frac{1}{273^\circ C}$ ;  
 $\alpha$ -qarshilikning temperatura koeffitsiyenti bo'lib, u qarshilikning o'tkazgich 1K ga isitilganda nisbiy o'zgarishiga teng. Elektrolitlarda doim  $\alpha < 0$ .
- Biror idishdagi elektrolitlarga tok manbaining musbat va manfiy qutblariga ulangan ikki elektrod tushiraylik. Tok manbaining musbat qutbiga ulangan elektrodni — *anod*, manfiy qutbiga ulangan elektrodni esa *katod* deyiladi.

- Elektrolitlarda anod tomon harakatlanayotgan manfiy ionlar *anionlar* va katod tomon harakatlanayotgan musbat ionlar *kationlar* deyiladi. Katodga etib kelgan kationlar undagi ortiqcha elektronni qo'shib olib neytral atomga aylanadi. Anodga etib kelgan anionlar undagi ortiqcha musbat ion bilan birlashib neytral atomga aylanadi.

- Elektrolitdan o'tayotgan umumiy tok musbat ( $I^+$ ) va manfiy ( $I^-$ ) ionlar toklari yig'indisi teng:  $I = I^+ + I^-$

- Elektrolitlarda tok zichligi:  $j = q \cdot n \cdot v_+ + q \cdot n \cdot v_-$

- Elektrolitlardagi elektr toki tartibli harakatlanayotgan ionlar oqimidan iborat.

- Elektrolitdan tok o'tishi jarayonida elektrodda moddaning ajralishi *elektroliz* deyiladi.

- Elektroliz uchun Faradeyning birinchi qonuni: *elektrodlarning har birida ajralgan modda massasi elektrolit orqali o'tgan zaryad miqdoriga to'g'ri proporsional*:  $m = kq$ ;  $m = kIt$

- Elektroliz uchun ( $j$ - tok zichligi):

$$\rho \cdot V = k \cdot q; \quad \rho \cdot V = k \cdot I \cdot t; \quad d \cdot S \cdot \rho = k \cdot q; \quad d \cdot S \cdot \rho = k \cdot I \cdot t;$$

$$d = j \cdot \frac{kt}{\rho}; \quad d = \frac{I}{S} \cdot \frac{kt}{\rho}; \quad j = \frac{I}{S}$$

$\rho$  - modda zichligi,  $d$  - qalinlik,  $t$  - ajralgan modda massasi,

$k$  — elektrokimyoviy ekvivalent

- Elektrokimyoviy ekvivalent — elektrolit orqali 1C zaryad o'tganda elektrodda ajralgan moddaning massasiga tengdir. Elektrokimyoviy ekvivalentning o'lchov birligi SI da kg/C.

- Faradeyning ikkinchi qonuni: barcha moddalarning elektrokimyoviy ekvivalentlari ularning kimyoviy ekvivalentlariga to'g'ri proporsionaldir:

$$k = \frac{1}{F} \cdot \frac{M}{n}$$

$F$ -Faradey doimiysi.  $F = 96500$  C/mol;  $\frac{M}{n}$  -kimyoviy ekvivalent;

$n$ -valentlik;  $M$ -molyar massa;

- Faradeyning birlashgan qonuni:

$$\frac{m}{q} = \frac{1}{F} \cdot \frac{M}{n}; \quad m = \frac{M}{n} \cdot \frac{1}{eN_A} \cdot q$$


- Faradey doimiysi massasi miqdoran kimyoviy ekvivalentga mos keluvchi moddani elektrodda ajratib chiqarish uchun lozim bo'lgan elektrolit orqali o'tuvchi zaryad miqdoriga son jihatidan teng bo'lgan kattalik.

- Elektrolitlarda tokning kimyoviy ta'siri kuzatiladi.

- O'tkazgichning, tok ta'sirida kimyoviy tarkibiy qismlarga ajralish hodisasi *elektroliz* deyiladi. (grekcha  $\lambda$  i o — ajrataman)

- Tokning kimyoviy ta'siri kuzatilmaydigan o'tkazgichlarni *birinchi klass* o'tkazgichlar deyiladi. Ularga barcha metallar, ko'mir va ko'pgina kimyoviy birikmalar kiradi.

- Elektroliz ro'yi beradigan o'tkazgichlarni *ikkinchi klass* o'tkazgichlar yoki *elektrolitlar* deyiladi. Ko'pgina kislotalar va tuzlarning suvdagi eritmaları va qattiq hamda suyuq holatdagi ba'zi kimyoviy birikmalar elektrolitlardir.
- Elektrolizda manfiy qutbda (katodda) doim metallar va vodorod ajraladi, musbat qutbda (anodda) esa qoldiq kimyoviy element ajraladi. Bunda elektrolitning tarkibiy qismi faqat elektrodlarda ajraladi.
- Elektroliz hodisasidan *kulonometrlarda* foydalaniladi. Kulonometrlar zanjir orqali o'tgan zaryad kattaligini bevosita o'lchaydi.
- **Dissotsiatsiyalanish darajasi** deb ionlarga dissotsiatsiyalangan molekular sonining moddadagi molekularning umumiy soniga nisbatiga aytiladi:  $\beta = \frac{n}{n_1}$
- Dissotsiatsiyalanish darajasi qiymatiga qarab moddalar kuchli ( $\beta > 1$ ) va kuchsiz ( $\beta < 1$ ) elektrolitlarga bo'linadi. Kuchli elektrolitlarga organik kislotalar va ularning asoslari kirsa, kuchsizlariga minerallar kiradi.
- Dissotsiatsiyalanish darajasi shuningdek erituvchining tabiatiga, temperaturaga, bosimga, erituvchining dielektrik singdiravchanligiga, eritmaning konsentratsiyasiga va boshqa faktorlarga ham bog'liq.
- Temperatura ortishi bilan molekularning kinetik energiyasi ortadi, bu esa molekularning o'zaro to'qnashib ionlashish ehtimolini orttiradi



**Rasm 68. Elektrolitlar va metallarda qarshilikning temperaturaga bog'liqligi.**

- Elektrolit orqali tok o'tganda ko'chishi mumkin bo'lgan eng kichik zaryad qiymati elementar zaryad qiymatiga teng:  $|q_{min}| = 1,6 \cdot 10^{-19} C$
- Poligrafiya sanoatida terilgan harflarni plastik materialga tushurilgan nusxasiga qalin temir yoki boshqa material quyib nusxalar olish elektroliz hodisasiga asoslangan.
- Elementar elektr zaryadining qiymati birinchi marta 1874 yilda elektroliz hodisasiga asosan aniqlandi.
- Elektroliz hodisasiga asosan elektron zaryadini aniqlash formulasi:  $e = \frac{M}{mnN_A} \cdot It$

## 72-§. Gazlarda elektr toki

- Gaz orqali elektr toki o'tish protsessi *gaz razryadi* deb ataladi.
- Gazlarda ionlar, isitishda yoki tashqi ionlashtiruvchilarning (masalan, nurlarning) ta'siri hisobiga hosil bo'ladi.
- Agar ionlashtiruvchining ta'siri to'xtatilsa, razryad ham to'xtasa, bu razryad *nomustaqil razryad* deb ataladi.
- Agar tashqi ionlashtiruvchi olib tashlansa razryad to'xtamasa, ya'ni bu razryadni to'xtatib qo'ymaslik uchun tashqi ionlashtiruvchiga extiyoj yo'qligi sababli, bu razryad *mustaqil razryad* deb ataladi.
- Elektronning to'qnashish oldidagi kinetik energiyasi maydon kuchlanganligiga va elektronning erkin yugurish (uchish) yo'lining uzunligiga (ketma-ket bo'lgan ikki to'qnashish orasidagi yo'lga) to'g'ri proporsional:  $\frac{m\phi^2}{2} = eEl$ .
- Agar elektronning kinetik energiyasi neytral atomni ionlashtirish uchun bajarilishi lozim bo'lgan  $A$  ishdan ortiq bo'lsa, ya'ni  $\frac{m\phi^2}{2} \geq A$  bo'lsa, u holda elektron atom bilan to'qnashganda uni ionlashtiradi.
- Ko'pgina qattiq moddalarda termoelektron emissiya moddaning bug'lanishi hali juda oz bo'ladigan temperaturada yuz beradi. Katod xuddi mana shunday moddalardan yasaladi.

## 73-§. Mustaqil razryadning turlari

- **Miltillama razryad.** Bosim past (simob ustuni millimetrining o'ndan bir va yuzdan bir ulushlaricha) bo'lganda nayda miltillama razryad yuz beradi. Miltillama razryad hosil qilish uchun elektrodlar orasidagi kuchlanish bir necha yuz volt (ba'zan esa bundan ancha kichik) bo'lishi etarlidir. Miltillama razryadda katod yaqinidagi kichik sohadan boshqa hamma joyda deyarli butun nay bir jinsli nurlanish bilan to'lgan bo'ladi va bu nurlanish musbat ustun deb ataladi
- **Elektr yoyi.** Bir-biriga tegib turgan ikkita ko'mir sterjenning birikish joyida ko'p miqdorda issiqlik chiqariladi, chunki bu joyning qarshiligi katta bo'ladi. Temperatura termoelektron emissiya boshlanadigan darajaga ko'tariladi. Shuning uchun ko'mir elektrodnlarni bir-biridan ajratishda ular orasida razryad boshlanadi. Ko'mir sterjenlar orasida kuchli yorug'lik beruvchi gaz ustuni hosil bo'ladi; bu ustun elektr yoyi deb ataladi. Bu holda gazning elektr o'tkazuvchanligi atmosfera bosimi sharoitida ham ancha katta bo'ladi, chunki bunda manfiy elektrod juda ko'p elektron chiqarib turadi. Kichikroq yoyda tok kuchi bir necha amperga yetadi, katta yoylarda esa potentsiallar ayirmasi 50 V chamasida bo'lganda tok kuchi bir necha yuz amperga

yetadi. Elektr yoyini birinchi bo'lib 1802 yilda rus akademigi V. V. Petrov hosil qilgan

- Elektr yoyi yongan daqiqada elektrodlar orasidagi kuchlanish ortadi.
- Elektr yoyi hosil qilgan elektrodlar orasidagi gaz bosimi oshirilsa harorat ortadi.
- **Toj razryad.** Razryadning bu turida elektrodlar yaqinida xuddi quyosh tojiga o'xshash nurlanish kuzatiladi. Bunga sabab, kuchlanishning keskin o'zgarishi natijasida ionlanishning tez sodir bo'lishidir. Demak, toj razryad sodir bo'lishi uchun nihoyatda kuchli, ammo notekis-elektromaydon bo'lishi lozim. Masalan, elektrod sirti tekis bo'lmay, unda katta darajali egrilik bo'lsa, u holda egrilikning qavariq hollariga tegishli sirtida zaryadlarning katta konsentratsiyasi vujudga keladi. Bunday sirt atrofida nurlanish kuzatiladi.
- **Uchqunli razryad.** Kondensator qoplamalari yoki o'tkazgichning ikki uchi (shu kuchlar bir-biriga yaqin joylashgan holda) orasidagi kuchlanish juda katta ( $\approx 3 \cdot 10^6$  V/m) bo'lgan holda, gazning biror turtki ravishda zarbdan ionlanishi natijasida qisqa vaqt davom etadigan *razryad-uchqun razryad* hosil bo'ladi. Misol sifatida yashinni keltirish mumkin. Uchqun yaqinidagi gaz juda qiziydi va keskin kengayadi.
- **Yoy razryad.** Ikki elektrod oralig'ida yuzaga keladigan bunday razryad elektrodning birining qizishi natijasida undan juda ko'p miqdordagi termoelektronlar uchib chiqishi va ushbu termoelektronlar ikki elektrod oralig'idagi gazni keskin tez ionlashtirishi natijasida sodir bo'ladi. Yoy razryadda elektrodlar orasidagi kuchlanish katta bo'lmasa ham, ular orasidagi tok kuchi juda katta bo'lishi natijasida shu'la, ya'ni yoysimon yorug'lik chiqadi.
- **Yolqin razryad.** Havosi so'rib olingani sababli, bosimi nisbatan kichik 0,1 mm sim. ust. ga teng bo'lgan shisha naycha olaylik. Naychanning ikki uchiga elektrodlar kavsharlangan. Elektrodarga berilgan kuchlanish bir necha yuz voltga teng bo'lsa katod yaqinida kuchlanishning tushuvi katta bo'lib, anodga yaqinlashgan sari kuchlanish o'zgarishi katta bo'lmay, deyarli o'zgarishsiz qoladi hamda katod tomon intilayotgan musbat ionlar katta energiya oladi. Ular katodga urilgach, undan bir necha elektron ajralib chiqishiga sababchi bo'ladi. Bu elektronlar ham katod potentsiali ta'sirida tezlashib gaz molekullari bilan to'qnashganda yana ionlanish ro'y beradi. Hosil bo'lgan ionlar yana katodga intilib u erdan yana elektron urib chiqaradi va hokazo. Demak, elektrodlar oralig'ida kuchlanish hisobiga razryad uzluksiz davom etaveradi. Ionlarning elektron bilan rekombinatsiyasi, shuningdek, uyg'otilgan molekullarning energiya chiqarib asosiy holatga o'tishi hisobiga yorug'lik hosil bo'ladi.
- *Plazma qisman yoki to'liq ionlashgan gaz bo'lib, unda musbat va manfiy, zaryadlar zichligi amalda bir xil bo'ladi.* Butunicha olib qaralganda, plazma elektr jihatidan neytral sistemadir. Sharoitga qarab plazmaning ionlashish darajasi, ya'ni ionlashgan atomlar sonining hamma atomlar soniga nisbati


har xil bo'lishi mumkin. To'liq ionlashgan plazmada neytral atomlar bo'lmaydi.

- **Kosmik fazodagi plazma.** Koinotda moddaning ko'p qismi (99% ga yaqini) plazma holatida bo'ladi. Temperaturasi yuqori bo'lgani uchun Quyosh va boshqa yulduzlar to'liq ionlashgan plazmadan iborat.
- Bizning planetamiz atrofida ham plazma bor. Atmosferaning 100—300 km balandlikdan yuqoridagi qatlami ionlashgan gaz bo'lib, *ionosfera* deb ataladi.
- Qattiq jismlar plazmasida musbat ionlar butun jism bo'ylab ko'chib yura olmaydi. Gazda bo'ladigan razryadning hamma turida: miltillama razryad, yoy razryadi, uchqunli razryad va hokazolarda plazma paydo bo'ladi. Gaz-razryadi plazmasi ko'p asboblarda, masalan, yorug'likning kvant manbalari bo'lmish gaz lazerlarida ishlatiladi. Lazerlar, yorug'likning eng kuchli manbalaridir.
- Katod nurlari katoddan anodga tez harakatlanuvchi elektronlar oqimidir.

#### 74-§. Termoelektron emissiya hodisasi. Vakuumda elektr toki. Diod va triod

- Yuqori temperaturadagi metallardan elektronlarning ajralib chiqish hodisasiga *termoelektron emissiya* deyiladi.
- Elektronni metallardan ajratib chiqish uchun bajarish kerak bo'lgan ishga chiqish ishi deyiladi. Chiqish ishi quyidagicha topiladi:  $A = e \cdot \Delta\phi$   $\Delta\phi$  – metall sirti va elektron buluti orasida vujudga keladigan potensial.
- Agar elektronning kinetik energiyasi chiqish ishidan katta bo'lsa elektron metallni tark etadi.
- Vakuumda elektr toki termoelektron emissiya natijasida ajralib chiqqan elektronlarning yo'nalgan harakatidan iborat.
- **Diod (Ikki elektrodli lamp)** -havosi so'rib olingan kolba (idish) va uning ichidagi ikki elektrod – katod va anoddan iborat.
- Qizdirish natijasida elektronlar ajralib chiqadigan va o'z elektronlarini yo'qotadigan elektrod *katod* deyiladi. Elektronlarni ushlab qoluvchi ikkinchi elektrod *anod* deyiladi.
- Agar anod potentsiali katod potentsialidan yuqori bo'lsa, qizdirilgan katod chiqqan elektronlar anodga yetib boradi.
- Oksid katodli elektron lampada tok to'yinish holatiga yetmaydi, chunki buning uchun potentsiallar ayirmasi shu qadar katta bo'lishi kerakki, bunday holda katod yemirilib ishga yaramay qoladi.
- Diodlar o'zgaruvchan elektr tokini to'g'rilashda ishlatiladi va elektr tokini faqat bir yo'nalishda o'tkazadi. To'g'rilagich sifatida ishlatiladigan diodlar *kenotron* deyiladi.
- Vakuumli diod va triodning ishlash prinsiplari termoelektron emissiya hodisasiga asoslangan.

- Tez harakatlanuvchi elektronlar moddaga urilib sekinlashganda Rentgen nurlari paydo bo'ladi.



**Rasm 69. Vakuimli diod**

- Vakuimli diodlarda anod kuchlanishini ortishi bilan tok kuchi chiziqli ortmaganligi tufayli, diod uchun Om qonuni o'rinli emas.
- Katod temperaturasini o'rinish bilan vakuimli diodda vujudga keladigan tok kuchi ortadi.
- Agar triodda to'ring potentsiali katodga nisbatan nolga teng bo'lsa triod diod vazifasini bajaradi. To'ring potentsiali musbat bo'lganda trioddan katta tok o'tadi. To'ring potentsiali manfiy bo'lganda trioddan kam tok o'tadi.
- Triodda to'ring anod toki nolga teng bo'ladigan manfiy qiymatdagi kuchlanishiga yopish kuchlanishi deyiladi. Yopish kuchlanishi anodning kuchlanishiga bog'liq bo'lib, anod kuchlanishi qancha katta bo'lsa yopish kuchlanishi shuncha katta bo'ladi.
- Elektronlar dastasi elektron lampalarda hosil qilinadi. Elektr maydoni va magnit maydoni elektronlar dastasini og'diradi.
- Kondensatorning plastinkalari orasidan o'tayotgan elektronlar dastasi manfiy zaryadli plastinkadan musbat zaryadli plastinkaga tomon og'adi.
- Elektronlar dastasi magnitning shimoliy qutbi ustidan o'tayotganda elektronlar chapga og'adi, janubiy qutbi ustidan o'tayotganda esa o'nga og'adi.
- Vakuumda elektr tokini faqat elektronlar tashiydi. Vakuumda elektr tokining faqat magnit ta'siri kuzatiladi, issiqlik va kimyoviy ta'sir kuzatilmaydi.
- Anod potentsiali ( $U$ ) ta'sirida elektron olgan tezlanish ( $a$ ):  $a = \frac{eU}{md}$ ;  $ma = \frac{eE}{d}$ ;  
 $E$  – elektr maydon kuchlanganlik vektori,  $d$  – elektrodlar orasidagi masofa.
- Anodga yetib borgan elektron tezligi ( $\vartheta$ ):

$$\vartheta = \sqrt{\frac{2eU}{m_e}}; \quad U = \frac{m_e \vartheta^2}{2e}; \quad E_{kin} = \frac{m_e \vartheta^2}{2} = eU$$

- Elektron anodga etib borishida elektr maydonini bajargan ishi –  $A$ :

$$A = q \cdot U; \quad A = N \cdot e \cdot U; \quad N = \frac{A}{e \cdot U}$$


### 75-§. Aralashmali yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi

- Sof yarim o'tkazgichlar elektr tokini o'tkazmaydi.
- Aralashmali yarim o'tkazgichlarda asosiy tok tashuvchilar *elektronlar va kovaklar (teshiklar)* hisoblanadi. Teshiklar yoki kovaklar musbat zaryadga ega.

- To'rt valentli element atomlariga besh valentli element atomlari qo'shilgan bo'lsa, bunday aralashma yarim o'tkazgichda faqat elektronli elektr o'tkazuvchanlik yuzaga keladi va bunday o'tkazuvchanlik *n-tip* o'tkazuvchanlik deyiladi.
- To'rt valentli element atomlariga uch valentli element atomlari qo'shilgan bo'lsa, bunday aralashma yarim o'tkazgichda faqat teshikli (kovakli) elektr o'tkazuvchanlik yuzaga keladi va bunday o'tkazuvchanlik *p-tip* o'tkazuvchanlik deyiladi.
- *n*-tipidagi yarim o'tkazgichlar *donor aralashmali yarim o'tkazgichlar* deyiladi.
- *p*-tipidagi yarim o'tkazgichlar *aktseptor aralashmali yarim o'tkazgichlar* deyiladi.
- Xususiy yarim o'tkazgichning elektron va kovak o'tkazuvchanligi teng bo'ladi.
- Xususiy yarim o'tkazgichlarda to'la tok:  $I = I_{elektron} + I_{teshik}$ ;  $I_{elektron} = I_{teshik}$
- Davriy jadvalning III-guruh elementlari teshik (*p-tur*) o'tkazuvchanlik beradi va ular *aktseptor* atomlardir. V-guruh elementlari elektron (*n-tur*) o'tkazuvchanlik beradi, ular *donor* atomlardir.
- Yarim o'tkazgichlar radiopriyomniklarda, hisoblash mashinalarida va hokazolarda o'zgartiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.
- Temperatura ko'tarilganda yarim o'tkazgichlarning va elektrolitlarning o'tkazuvchanligi ortadi, qarshiligi esa kamayadi.
- Yarim o'tkazgichlarda temperatura 1 °C ga ko'tarilganda ularning elektr qarshiligi o'rtacha hisobda 3–5% ga kamayadi.




a)




b)

**Rasm 70.** Dielektriklar (a) va yarim o'tkazgichlarda (b) qarshilikning temperaturaga bog'liqligi.

- Kovaklar musbat zaryadga ega.
- Yarim o'tkazgichlar kristal jismlar hisoblanadi.
- *Bolometr* yordamida temperatura o'lchanadi.
- Yarim o'tkazgichlarda elektron va teshik uchrashganda energiya ajraladi.
- *p-n* o'tishli yarim o'tkazgich, yarim o'tkazgichli diodni tashkil qiladi.
- Issiqlik ta'sirida elektr qarshiligi o'zgaradigan elementlarga *termistorlar* deyiladi.
- **Tranzistor** – baza, emitter, kollektorlardan tashkil topgan qurilmadir.



Rasm 71. Yarim o'tkazgichli diod



Rasm 72. Yarim o'tkazgichli triod (tranzistor)


- Tranzistor o'zgaruvchan tokni kuchaytiruvchi qurilma sifatida ishlatiladi.
- Yorug'lik ta'sirida qarshiligi va elektr o'tkazuvchanligi o'zgaradigan moddalarga fotorezistorlar deyiladi.
- Fotoelement yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib beruvchi qurilmadir.

	Modda turlari	O'tkazuvchanlik turi	Temperatura ortishi bilan qarshilik
1	Metallar	elektronlar	Chiziqli ortadi
2	Elektrolilar	Musbat va manfiy ionlar	Chiziqli kamayadi
3	Vakuum	elektronlar	
4	Gazlar	Musbat va manfiy ionlar va elektronlar	Chiziqli bo'lmagan holda kamayadi
5	Yarim o'tkazgichlar	Kovaklar va elektronlar	Chiziqli bo'lmagan holda kamayadi

## MAGNETIZM


### 76-§. Magnit maydon. Toklarning magnit maydoni va ularning o'zaro ta'sirlashuvi

- Magnit maydonni harakatdagi zaryad yoki elektr toki hosil qiladi.
- Magnit maydoni harakatlanayotgan zaryadlangan zarraga yoki tokli o'tkazgichga ta'sir qiladi.
- Magnit maydonni magnit maydon induksiya vektori –  $\vec{B}$  xarakterlaydi.
- Magnit maydoni harakatsiz zaryadli zarralarga ta'sir qilmaydi.
- Magnitning magnit ta'siri eng kuchli bo'lgan joylari magnit qutblari deb ataladi. Har qanday magnitda ikkita: shimoliy (N) va janubiy (S) qutblari bo'ladi.
- Magnit induksiya chiziqlari magnit ichida janubdan (S dan) shimolga (N ga) tomon yo'nalgan, tashqarida esa shimoldan (N dan) janubga (S ga) tomon yo'nalgan bo'ladi. Agar doimiy magnit ikkiga bo'linsa har bir bo'lagi alohida magnitga aylanadi.



Rasm 73. Magnit maydon induksiya yo'nalishi

- Tabiatda alohida magnit zaryadlari mavjud emas.
- Yer ham magnit maydoniga ega. Ammo Yerning magnit qutblari uning geografik qutblariga to'g'ri kelmaydi.
- Har xil magnit qutblari bir-biriga tortiladi, bir xil magnit qutblari esa bir-biridan itariladi.
- Tokli o'tkazgich atrofidagi magnit maydon uyurmaviy maydon hisoblanadi.
- Har qanday elektr toki, ya'ni harakatlanuvchi elektr zaryadlari atrofida magnit maydoni mavjud bo'ladi. Uni mavjudligini 1820 yilda Daniyalik fizik Ersted aniqlagan



#### Rasm 74. Parallel toklarning o'zaro ta'siri

- Parallel ingichka o'tkazgichlardan qarama-qarshi yo'nalishda tok o'tsa o'tkazgichlar bir-biridan qochadi. O'tkazgichlardan bir xil yo'nalishda toklar o'tkazilganda ular bir-biriga tortiladi.
- Bir jinsli magnit maydondagi tokli yassi konturga ta'sir etuvchi kuch momenti:

$$M = I \cdot S \cdot B \cdot \sin \alpha; \quad M = p_m B \cdot \sin \alpha$$

$\alpha$  - B vektor bilan tekislikka o'tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak.

- **Parallel toklarning o'zaro ta'siri.** Bu ta'sirni Amper aniqlagan: Parallel toklarning o'zaro ta'sir kuchi  $\vec{F}$  o'tkazgichlardan o'tayotgan tok kuchlari  $I_1, I_2$  ga, o'tkazgichning uzunligi  $\ell$  ga to'g'ri proporsional va ular orasidagi masofa  $r$  ga teskari proporsional, ya'ni

$$F = \frac{\mu \mu_0 2I_1 I_2 \ell}{4\pi r}$$

$\mu$  - muhitning nisbiy magnit singdiruvchanligi,

$\mu_0$  - magnit doimiysi:  $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7} \text{ N/A}^2$  (yoki H/m) ga teng.

- **Tok kuchi birligi 1 amper ta'rifi:** 1 amper (A) deb, vakuumda bir-biridan 1 m masofada joylashgan cheksiz uzun va o'ta ingichka ikkita parallel tokli o'tkazgichning har bir metrida  $2 \cdot 10^{-7} \text{ N}$  ga teng o'zaro ta'sir kuchi hosil qiladigan o'zgaras tok kuchiga aytiladi.
- **O'ng parma qoidasi:** Parma dastasining aylanma harakati magnit induksiya yo'nalishi bilan mos tushsa, parma uchining ilgarilanma harakat yo'nalishi tokning yo'nalishini ko'rsatadi.
- **Tokli kontur.** Magnit maydonini o'rganishda tokli kontur tushunchasidan foydalaniladi. Tokli konturning o'lchamlari magnit maydon hosil qilgan tokkacha bo'lgan masofalarga nisbatan juda kichik va uning maydoni o'rganilayotgan maydonni o'zgartira olmaydi deb hisoblanadi.
- Tokli konturning fazodagi yo'nalishi uning normal bilan aniqlanadi. Normalning musbat yo'nalishi o'ng Parma qoidasi bilan aniqlanadi: Normalning yo'nalishi parmaning ilgarilanma harakati bilan mos kelsa konturdagi tokning yo'nalishi parma dastasining harakati bilan mos kelishi kerak.
- Magnit maydon yo'nalishini o'zgartirmasdan, unga kiritilgan konturdagi tokning yo'nalishi o'zgartirilsa konturning joylashuvi  $180^\circ$  ga o'zgaradi.

- Berilgan nuqtada magnit maydonining yo'nalishi sifatida tokli konturning musbat normal bilan mos keluvchi yo'nalishi qabul qilingan va u shu nuqtada joylashgan magnit strelkasining shimoliy qutbiga ta'sir etadigan kuchning yo'nalishi bilan mos tushadi.
- Tokli konturning magnit xossalari xarakterlovchi va uni tashqi maydonda o'zini qanday tutishini belgilovchi kattalikka konturning *magnit momenti* deyiladi.
- Konturning magnit momenti vektor kattalik bo'lib uning yo'nalishi kontur sirtining musbat yo'nalishi bilan mos keladi.
- **Magnit momenti** - konturdan o'tayotgan tok kuchi  $I$  ning kontur yuzi  $S$  ga ko'paytmasiga to'g'ri proporsional:  $\vec{P}_m = P_m \vec{n} = IS\vec{n}$ ;  $P_m = IS$   
 $I$  - konturdagi tok kuchi,  $S$  - kontur yuzi,  
 $\vec{n}$  - kontur tekisligiga o'tkazilgan birlik vektor,  $P_m$  - magnit momenti.
- Har bir sinov konturiga ta'sir qiluvchi maksimal aylantiruvchi moment  $\vec{M}_m$  ning konturning magnit momenti  $\vec{P}_m$  ga nisbati, maydonning tekshirilayotgan nuqtasi uchun o'zgarmas kattalik bo'lib, **magnit maydoni induksiya vektori**  $\vec{B}$  deyiladi.

$$\frac{\vec{M}_m}{\vec{P}_m} = const ; \quad \vec{B} = \frac{\vec{M}_m}{\vec{P}_m} ; \quad B = \frac{F}{l}$$

- **Magnit maydoni induksiya vektori** magnit maydonining miqdoriy xarakteristikasi hisoblanadi.
- XBSda magnit maydon induksiyasi tesla (TI) da o'lchanadi:  
 $1TI = N/(m \cdot A)$
- Magnit induksiya chiziqlari deb istalgan nuqtasiga o'tkazilgan urinma shu nuqtaning  $\vec{B}$  vektori bilan mos keladigan chiziqqa aytiladi.
- Magnit induksiya chiziqlari doimo yopiq bo'lib, tokli o'tkazgichni qamrab oladi. Bu esa magnit maydonning uyurmali maydonligini va tabiatda magnit zaryadlari mavjud emasligini ko'rsatadi.
- Agar magnit induksiya vektorlari barcha nuqtalarda bir xil bo'lsa, bunday magnit maydonga *bir jinsli maydon* deyiladi.

- **Magnit maydon kuchlanganligi:**  $H = \frac{B_0}{\mu_0}$ ;  $H = \frac{B}{\mu\mu_0}$ ;  $H = I \cdot \frac{N}{l}$ ;
- Magnit maydon kuchlanganligining XBSdagi birligi A/m.
- Magnit maydon induksiyasining magnit maydon kuchlanganligiga bog'liqligi:  $\vec{B} = \mu\mu_0 \vec{H}$

### 77-§. Magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuch. Chap qo'l qoidasi

- Magnit maydonida joylashgan tokli o'tkazgichga maydon tomonidan ta'sir etuvchi kuch *Amper kuchi* deyiladi.
- **Amper qonuni:** Bir jinsli magnit maydonidagi tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi  $\vec{F}_A$  kuch o'tkazgichdan o'tayotgan tok kuchi  $I$ , o'tkazgich uzunligi  $l$ , magnit maydon induksiya vektori  $\vec{B}$  va o'tkazgich bilan magnit induksiya chiziqlari orasidagi burchak  $\alpha$  ning sinusiga ko'paytmasiga teng:

$$\vec{F}_A = IBl \sin \alpha$$

- Amper kuchi yo'nalishi chap qo'l qoidasi yordamida aniqlanadi.
- **Chap qo'l qoidasi:** Agar chap qo'lning kaftiga  $\vec{B}$  induksiya vektorining perpendikulyar tashkil etuvchisini tik tushadigan qilib, ko'rsatgich barmoqlar yo'nalishini tokning yo'nalishi bilan mos qilib yoysak,  $90^\circ$  ga burilgan bosh barmoq o'tkazgichga ta'sir qiluvchi Amper kuchining yo'nalishini ko'rsatadi.

### 78-§. Bio-Savar-Laplas qonuni. Turli shakldagi tokli o'tkazgichlarning magnit maydon induksiyasi

- Turli shaklga ega bo'lgan o'tkazgichlardagi tokning magnit maydonlari Bio-Savar-Laplas qonuni yordamida o'rganiladi.
- **Bio-Savar-Laplas qonuni:**  $I$  tok o'tayotgan o'tkazgich  $\Delta l$  elementini fazoning biror A nuqtasida hosil qilayotgan magnit maydoni induksiya vektori  $\Delta \vec{B}$  quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta \vec{B} = \frac{\mu \mu_0 I \Delta l}{4\pi r^2} \sin \alpha$$

Bu yerda  $r$  o'tkazgichning  $\Delta l$  elementidan qaralayotgan A nuqtagacha bo'lgan masofa,  $\alpha$  esa  $\vec{r}$  vektori bilan tok yo'nalishi orasidagi burchak,  $\mu$  - muhitning magnit singdiruvchanligi.

- $\Delta \vec{B}$  ning yo'nalishi o'ng parma qoidasi asosida topiladi: Agar parmaning ilgariharakati tokning yo'nalishi bilan mos kelsa, parma dastasining aylanma harakati magnit induksiya vektorining yo'nalishini ko'rsatadi.
- Turli shaklga ega bo'lgan tokli o'tkazgichlarning hosil qilayotgan magnit induksiyalari:

1. Cheksiz to'g'ri tok hosil qilgan magnit maydon induksiyasi:  $B = \frac{\mu \mu_0}{4\pi} \frac{2I}{r}$

$r$ -tokli o'tkazgichdan magnit maydoni hisoblanayotgan nuqtagacha bo'lgan masofa


2. Aylanma tokning magnit maydon induksiyasi:  $B = \mu \mu_0 \frac{I}{2r}$ ,  $r$ -aylana radiusi.

3. Tokli solenoid o'zagidagi magnit maydon induksiyasi:  $B = \mu \mu_0 I n$ ,

- $n$  - solenoidning uzunlik birligiga mos keluvchi o'ramlar soni,  $n=N/l$ .
4. Tokli toroid (Markazlari aylana bo'ylab joylashgan bir xil aylana shakldagi o'tkazgichlar sistemasi) ning magnet maydon induksiyasi:

$$B = \mu\mu_0 In = \mu\mu_0 I \frac{N}{2\pi R}$$

$N$ -toroiddagi o'ramlar soni,  $R$ -toroid o'qining egrilik radiusi.



Rasm 75. Magnet maydon induksiyasi va kuchlanganligi yo'nalishi (O'ng vint qoidasi)

- **Magnet maydon uchun superpozitsiya prinsipi:** Magnet maydonni tokli o'tkazgichlar sistemasi hosil qilayotgan bo'lsa u holda fazoning biror nuqtasidagi natijaviy magnet maydonning induksiyasi har bir tokli o'tkazgichning o'sha nuqtada hosil qilgan magnet maydon induksiyalarining vektor yig'indisiga teng bo'ladi:  $\vec{B} = \vec{B}_1 + \vec{B}_2 + \vec{B}_3 + \dots + \vec{B}_n$

- **Natijaviy magnet maydon induksiyasi**

1. Magnet induksiya vektorlari bir xil yo'nalishga ega bo'lsa:  $B = B_1 + B_2$
2. Magnet induksiya vektorlari qarama-qarshi yo'nalishga ega bo'lsa:  $B = B_1 - B_2$
3. Magnet induksiya vektorlari o'zaro perpendikulyar yo'nalishga ega bo'lsa:

$$B = \sqrt{B_1^2 + B_2^2}$$


4. Magnet induksiya vektorlari o'zaro  $\alpha$  burchak ostida joylashgan bo'lsa:

$$B = \sqrt{B_1^2 + B_2^2 + 2B_1B_2 \cos \alpha}$$

- Ikkita bir xil kuchli (tok kuchlari bir xil), o'zaro parallel va sirtidan tik chiquvchi (bizga yo'nalgan) to'g'ri chiziqli toklarning o'rtasidagi nuqtada hosil bo'lgan magnet maydon induksiyasi nolga teng.
- Ikkita bir xil kuchli (tok kuchlari bir xil), o'zaro parallel va sirtga tik kiruvchi (bizdan yo'nalgan) to'g'ri chiziqli toklarning o'rtasidagi nuqtada hosil bo'lgan magnet maydon induksiyasi nolga teng.
- Ikkita bir xil kuchli (tok kuchlari bir xil), o'zaro parallel, bizdan chap tomondagisi sirtga tik kiruvchi (bizdan yo'nalgan) va bizdan o'ng tomondagisi sirtidan tik

chiquvchi (bizga yo'nalgan) to'g'ri chiziqli toklarning o'rtasidagi nuqtada hosil bo'lgan magnit maydon induksiyasi pastga yo'nalgan.

- Ikkita bir xil kuchli (tok kuchlari bir xil), o'zaro parallel, bizdan chap tomondagisi sirtidan tik chiquvchi (bizga yo'nalgan) va bizdan o'ng tomondagisi sirtga tik kiruvchi (bizdan yo'nalgan) to'g'ri chiziqli toklarning o'rtasidagi nuqtada hosil bo'lgan magnit maydon induksiyasi yuqoriga yo'nalgan.



Rasm 76. Magnit induksiya yo'nalishlari.

### 79-§. Magnit maydonida zaryadli zarrachaning harakati. Lorens kuchi

- Magnit maydonida harakatlanayotgan zaryadli zarraga shu maydon tomonidan ta'sir etuvchi kuchga *Lorens kuchi* deyiladi.
- **Lorens qonuni ta'rif:** Bir jinsli magnit maydonida harakatlanayotgan zaryadli zarrachaga ta'sir etuvchi Lorens kuchi  $\vec{F}_L$  zarrachaning zaryadi  $q$  ga, uning tezligi  $\vec{v}$  ga, magnit maydoni induksiya vektori  $\vec{B}$  ga va  $\vec{v}$  bilan  $\vec{B}$  vektorlari orasidagi burchak sinusi ko'paytmasiga teng:


$$F_L = qvB \sin \alpha$$

- **Lorens kuchi yo'nalishi chap qo'l qoidasi yordamida aniqlanadi:** Agar chap qo'lning kaftiga magnit induksiyasi vektorining perpendikulyar tashkil


etuvchisi tik tushadigan va ko'rsatkich harmoqlar yo'nalishi musbat zaryadning harakat yo'nalishi bilan bir xil bo'lsa, u holda  $90^\circ$  ga burilgan bosh barmoq Lorens kuchining yo'nalishini ko'rsatadi.

- Lorens kuchi zarraning tezligiga perpendikulyarligi uchun faqatgina zarraning harakat yo'nalishini o'zgartiradi. U zarra ustida ish bajarmaydi. Natijada zarracha aylana bo'ylab tekis harakatga keladi.
- Magnit maydonidagi harakatlanayotgan zaryadli zarrachaning harakat traektoriyasining radiusi:

$$R = \frac{mU}{qB}; \quad R = \frac{m\vartheta}{eB}; \quad R = \frac{1}{B} \sqrt{\frac{2Um}{q}}$$



a)



b)

Rasm 77. Chap qo'l qoidasi: a) Amper kuchi uchun; b) Lorens kuchi uchun

- Zaryadli zarraning aylanish davri va chastotasi:

$$T = \frac{2\pi m}{Bq}; \quad T = \frac{2\pi m}{eB}; \quad \nu = \frac{Bq}{2\pi m}; \quad \nu = \frac{eB}{2\pi m};$$

- Zaryadning harakat tezligi:  $\vartheta = \sqrt{\frac{2qU}{m}}; \quad \vartheta = \sqrt{\frac{2eU}{m}};$

## 80-§. Elektromagnit induksiya qonuni. Induksion EYUK

- Yopiq konturni o'rab turgan magnit oqimi o'zgarishi natijasida konturda vujudga keladigan tok *induksion tok* deyiladi.
- Magnit maydon kattaligining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda elektr tokining hosil bo'lishi *elektromagnit induksiya* hodisasi deyiladi.
- Berilgan sirt orqali magnit maydon induksiyasining oqimi deb, magnit induksiya vektorining sirt normaliga proektsiyasining sirt yuzasi ko'paytmasiga teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi:  $\Phi = B \cdot \Delta S \cdot \cos \alpha$
- Magnit oqimi skalyar kattalik.
- Biror sirt orqali magnit oqimi, shu sirt orqali o'tgan magnit induksiya chiziqlarining sonini xarakterlaydi.
- Yopiq sirt orqali magnit oqimi nolga teng, chunki unga kiradigan va undan chiqadigan kuch chiziqlarining soni teng.

- Magnit oqimining SI'dagi birligi Veber. Bir Veber bir Tesla induksiyali bir jinsli magnit maydon kuch chiziqclariga perpendikulyar joylashtirilgan  $1 \text{ m}^2$  yuzali sirtidan o'tadigan oqimidir.
- Elektr o'lchov asboblarning ishlash prinsipi-tokli o'tkazgichlar, tokli o'tkazgich va doimiy magnetiklar orasidagi o'zaro ta'sir kuchlarining mavjudligiga asoslangan.
- Magnit oqimi:  $\Phi = BScos\alpha$ ;  $\Phi = L \cdot I$ ;  $\Phi = \frac{2W_m}{I}$ ;  $\Phi = \sqrt{2W_m \cdot L}$ ;
- Tokli o'tkazgichni magnit maydonida ko'chirishda bajarilgan ish:  

$$A = IB\Delta x$$
;  $A = I\Delta\Phi = I(\Phi_2 - \Phi_1)$
- Induksion tokning qiymati magnit oqimining o'zgarish tezligiga bog'liq.
- Agar zanjirda induksion tok hosil bo'lsa, demak bu elektr yurituvchi kuch (EYUK) mavjudligini bildiradi. Bu EYUKga *induksion EYUK* ( $\epsilon_i$ ) deyiladi
- Elektromagnit induksiya qonuni:  $\epsilon_i = -\frac{\Delta\Phi}{\Delta t}$ ;
- Induksion EYUK:  $\epsilon_i = -\frac{\Delta\Phi}{\Delta t}$ ;  $\epsilon_i = n \cdot \epsilon_o$ ;  $\epsilon_i = \frac{A}{q}$
- O'ramlar soni  $N$  ta bo'lgan g'altakda vujudga keluvchi induksion EYUK:  

$$\epsilon_i = \epsilon_o N = -N \cdot \frac{\Delta\Phi}{\Delta t}$$
;  $\epsilon_i = -N \cdot \dot{\Phi}$
- Elektromagnit induksiya jarayonida yuzaga keluvchi induksion tokning yo'nalishi **Lens qoidasi** asosida aniqlanadi: Konturda vujudga keladigan induksion tok shunday yo'nalishga egaki, uning magnit maydoni shu induksion tokni vujudga keltirgan magnit oqimining o'zgarishiga to'sqinlik qiladi.
- Uyurmali elektr maydoni potensial maydon emas, ya'ni birlik musbat zaryadni yopiq kontur bo'ylab ko'chirishda bajarilgan ish nolga teng bo'lmasdan induksion EYUKga teng bo'ladi.
- Magnit oqimining o'zgarish tezligi  $\Delta\Phi/\Delta t$  bo'yicha g'altakdagi o'ramlar soni:  

$$N = \frac{\epsilon_i}{\Delta\Phi/\Delta t}$$
;
- Fuko toki:  $I_\Phi = \frac{\epsilon_i}{R}$
- Bir jinsli magnit maydonida o'zgarmas  $v$  tezlik bilan harakatlanayotgan  $l$  uzunlikdagi o'tkazgichda hosil bo'ladigan induksion EYUK:  $\epsilon_i = vBl \sin\alpha$   
 Bu yerda  $\alpha$  magnit maydon induksiya vektori bilan o'tkazgichning tezlik vektori orasidagi burchak.
- $S$  yuzali,  $N$  ta o'ramga ega bo'lgan ramka magnit maydonida o'zgarmas  $\omega$  siklik chastota bilan aylanayotganda yuzaga keluvchi induksion EYUK:

$$\epsilon_i = \omega NBS \sin(\omega \cdot t)$$
;  $\epsilon_i = 2\pi\nu NBS \sin(\omega \cdot t)$

Bunda induksion EYUKning maksimal qiymati:

$$\varepsilon_{i0} = \alpha v N B S; \quad \varepsilon_{i0} = 2\pi v N B S; \quad \varepsilon_{i0} = \frac{2\pi}{T} N B S;$$

- Qarshiligi R ga teng bo'lgan o'tkazgichli konturda yuzaga keluvchi induksion tok:

$$I_i = \frac{\varepsilon_i}{R}; \quad I_i = \frac{1}{R} \frac{\Delta\Phi}{\Delta t}; \quad I_i = \frac{N}{R}$$

- Magnit maydonda induksiya vektoriga nisbatan tik ravishta  $g$  tezlik bilan harakat qilayotgan to'g'ri o'tkazgichdagi induksion tok:

$$I_i = \frac{gBS}{\rho}$$

- Konturdagi induksion magnit oqimi:  $\Phi_m = L \cdot I$
- Berk konturga doimiy magnit kiritilganda yoki chiqarilganda (yaqinlashtirilganda yoki uzoqlashtirilganda) hosil bo'ladigan tok yo'nalishi Lens va parma qoidalari asosida aniqlanadi.
- Magnitning ixtiyoriy qutbi berk konturga yaqinlashtirilganda ular bir-birini itarishadi, uzoqlashtirilganda esa bir-biriga tortiladi.

### 81-§. Induktivlik

- **Induktivlik** (lot. inductio, uyg'otmoq) faqatgina konturni xarakterlovchi kattalik bo'lib, uning magnit maydonni vujudga keltira olish qobiliyatini ko'rsatadi va konturda oquvchi tok kuchiga mutloqo bog'liq emas.
- Induktivlik birligi sifatida Genri (H) qabul qilingan, u shunday konturning induktivligiki, undan 1A tok oqqanda hosil bo'ladigan magnit oqimi 1Wb ga teng bo'ladi:  $1H = \frac{1Wb}{1A}$ .
- Induktivlik konturning geometrik shakli va o'lchamlariga bog'liqdir.
- G'altakdagi induksion EYUKning maksimal qiymati:  $\varepsilon_{i0} = \alpha L I_0$
- Uzunligi  $\ell$  va ko'ndalang kesim yuzi  $S$  bo'lgan bo'shliqda turgan solenoidning induktivligi:

$$L = \frac{\Phi}{I}; \quad L = \frac{\mu\mu_0 N^2 S}{\ell}; \quad n = \frac{N}{\ell}; \quad L = \mu\mu_0 n^2 V;$$

Bu yerda N-solenoiddagi to'liq o'ramlar soni. Agar solenoidning ichiga temir o'zak kiritilsa, solenoidning induktivligi  $\mu$  marta ortadi.

- $L_1$  va  $L_2$  induktiv g'altaklari ketma-ket ulansa umumiy induktivlik:  $L = L_1 + L_2$
- $L_1$  va  $L_2$  induktiv g'altaklari parallel ulansa umumiy induktivlik:  $\frac{1}{L} = \frac{1}{L_1} + \frac{1}{L_2}$

- Zanjirdagi tokning o'zgarishi natijasida shu zanjirning o'zida induksiyalangan EYUKning vujudga kelishiga o'zinduksiya hodisasi deyiladi. O'zinduksiya hodisasi elektromagnit induksiya hodisasining xususiy holdir, ya'ni konturdagi xususiy magnit oqimining o'zgarishi natijasida o'zinduksiya EYUK vujudga keladi.
- Bir-biridan unchalik uzoq joylashmagan ikki konturlardan biri orqali o'tayotgan tok kuchining o'zgarishi natijasida ikkinchi konturda induksiya elektr yurituvchi kuchining vujudga kelish hodisasi *o'zaro induksiya hodisasi* deyiladi.
- Konturda hosil bo'lgan o'zinduksiya EYUK:  $\varepsilon = -L \cdot \frac{\Delta I}{\Delta t}$ ;  $\varepsilon = -N \cdot \frac{\Delta \Phi}{\Delta t}$ ;  
Bu yerda  $\Delta I / \Delta t$  - konturdagi tokning o'zgarish tezligi.

### 82-§. Magnit maydon energiyasi va energiya zichligi

- G'altak magnit maydon energiyasi:  $W_M = \frac{LI^2}{2}$ ;  $W_M = \frac{B^2 V}{2\mu\mu_0}$ ;  $W_M = \frac{\Phi I}{2}$ ;  
 $W_M = \frac{\Phi^2}{2L}$ ;  $W_M = \frac{1}{2} \mu\mu_0 n^2 I^2 V$ ;  $W_M = \frac{1}{2} \mu\mu_0 \left(\frac{NI}{l}\right)^2 I^2 V$ ;  $W_M = \frac{1}{2} B^2 V / \mu\mu_0$ ;
- Magnit maydon energiya zichligi:  
 $w_M = \frac{W_M}{V}$ ;  $w_M = \frac{1}{2} \cdot \frac{B^2}{\mu\mu_0}$ ;  $w_M = \frac{1}{2} \mu\mu_0 n^2 I^2$ ;  $w_M = \frac{1}{2} \mu\mu_0 \left(\frac{NI}{l}\right)^2$ ;

### 83-§. Muhitning magnit singdiruvchanligi. Dia-, para- va ferromagnitlar

- Bir jinsli muhitdagi magnit induksiya vektori  $\vec{B}$  ning kattaligi vakuumda, shu nuqtadagi  $\vec{B}_0$  magnit induksiyasi vektorining kattaligidan son jihatdan farq qiladi. Muhitning magnit xossalari xarakterlovchi:

$$\frac{B}{B_0} = \mu$$


nisbat shu *muhitning nisbiy magnit singdiruvchanligi* deyiladi.

- Tabiatdagi moddalar magnit xossalari bo'yicha, shu modda nisbiy magnit singdiruvchanligining qiymatiga qarab uch turga bo'linadi:

Diamagnitlar	$\mu \leq 1$
Paramagnitlar	$\mu \geq 1$
Ferromagnitlar	$\mu \gg 1$

- Magnit maydonni zaiflashtiruvchi moddalar *diamagnit moddalar* deyiladi va bu moddalarga suv ( $\mu = 0,999991$ ), oltin ( $\mu = 0,999961$ ), kumush ( $\mu = 0,999984$ ) va boshqalarni kiritish mumkin. Diamagnit moddalarning magnit momenti tashqi maydon bo'lmasa nolga teng bo'ladi.
- Diamagnetiklar xususiyatlari temperaturaga bog'liq emas

- Maydonni oz miqdorda kuchaytiruvchi moddalar *paramagnit moddalar* deb atalib, bunday moddalarga alyuminiy ( $\mu = 1,000023$ ), qalay ( $\mu = 1,000022$ ), volfram ( $\mu = 1,000176$ ) ni kiritish mumkin. Magnit maydonga kiritilgan paramagnitlar maydon ta'sirida magnitlanadi va o'zining xususiy magnit maydonini yuzaga keltiradi. Bu xususiy magnit maydon tashqi maydon yo'nalishiga mos keladi va uni kuchaytiradi. Tashqi maydon olib tashlanganda esa yana magnitsizlanadi.
- Paramagnit moddalar tashqi magnit maydon bo'lmasa ham, molekularining magnit momentlari noldan farqli jismlar.
- Paramagnetiklarning magnitlanishi temperaturaga bog'liq bo'lib, temperatura ortishi bilan magnit singdiruvchanligi kamayadi.
- Magnit maydonni juda ham kuchaytirib yuboradigan moddalar *ferromagnitlar* deyiladi. Ferromagnitlarga kobalt ( $\mu = 175$ ), nikel ( $\mu = 1120$ )larni kiritish mumkin.
- Ferromagnit moddalarda tashqi maydon bo'lmasa ham, magnit momentlari bir tomonga yo'nalgan katta miqdordagi atomlarni o'z ichiga olgan sohalar - *demonlar* mavjud bo'ladi.
- Har bir ferromagnetik modda *Kyuri nuqtasi* ( $T_k$ ) deb ataladigan aniq bir temperaturada o'zining ferromagnetik xususiyatini yo'qotadi. Temir uchun  $T_k = 1043$  K, nikel uchun  $T_k = 631$  K. Kyuri temperaturasidan katta temperaturada ferromagnetik oddiy paramagnit moddaga aylanadi.
- Magnit disklari va lentalariga axborotlarni yozib olish, ulardagi magnit tayoqchalarning tashqi maydon ta'sirida ma'lum tartibda joylashib qolishiga asoslangan.
- Magnit lentalar polixlorvinil yoki boshqa moddalardan ishlangan yumshoq asosdan iborat. Unga magnitlanadigan ishchi qatlam surkaladi. Bu qatlam ferromagnit moddalardan juda mayda ninachalar (magnit tayoqchalari) tarzida ishlangan zarralardan va ularni bog'lovchi moddadan iborat bo'ladi.
- *Magnitosfera* deb Yerning xususiy magnit maydoni bilan aniqlanuvchi Yer atrofidagi ma'lum fazoga aytilib, uning xossalari, o'lchamlari va shakli quyoshdan keluvchi zaryadlangan zarralar oqimi, ya'ni quyosh shamoli bilan o'zaro ta'siri asosida aniqlanadi. Magnitosfera quyosh shamolidan Yerni himoya qiladi.
- *Quyosh shamoli*- quyosh tojining sayoralararo bo'shliqdagi plazmadan iborat doimiy radial oqimidir. Uning tarkibi, asosan, protonlardan iborat bo'lib, oz miqdorda geliy yadrosi, kislorod, kremniy, oltingugurt, temir ionlari mavjud. Ular Yer orbitasiga juda katta tezlik bilan yetib kelishadi (protonlarning tezligi  $300 - 750 \text{ km / sek}$ ).
- Yer magnit maydonining qutblarida yorug' (shaffof joy) mavjud bo'lib, unga quyosh shamolining zarralari kirishi mumkin. Bu zarralar qutb yog'dusini vujudga keltiradi.



Rasm 78. Yerning magnitosferasi va uning quyosh shamoli bilan o'zaro ta'siri.

#### 84-§. Elektromagnit tebranishlar

- Zanjirda zaryad miqdorining (yoki tok kuchining) va kuchlanishning davriy ravishda o'zgarib turishiga *elektromagnit tebranish* deyiladi.
- Elektromagnit tebranishlar sinus yoki kosinus qonuniga bo'ysunsa, bunday tebranishlar, *garmonik tebranishlar* deyiladi.
- Elektromagnit tebranishlarda elektr maydon energiyasini magnit maydon energiyasiga va aksincha, magnit maydon energiyasini elektr maydon energiyasiga davriy ravishda aylanib turishi kuzatiladi.
- Elektromagnit tebranishlarda elektr maydon energiyasining maksimal qiymati magnit maydon energiyasining maksimal qiymatiga teng bo'ladi:

$$W_{\text{elektr}}^{\text{max}} = W_{\text{magnit}}^{\text{max}}$$

- Elektromagnit tebranishlarda elektromagnit maydonning to'la energiyasi o'zgarmas bo'lib, uning qiymati, magnit maydon yoki elektr maydon energiyasining eng katta qiymatiga teng bo'ladi:

$$W^{\text{to'la}} = W_{\text{elektr}}^{\text{max}} = W_{\text{magnit}}^{\text{max}} = \text{const}$$

$$W^{\text{to'la}} = W_{\text{elektr}}^{\text{max}} + W_{\text{magnit}}^{\text{max}} = \text{const}$$

- Kondensator (C) va g'altak (L)dan iborat bo'lgan zanjirga *tebranish konturi* deyiladi.

- Elektromagnit tebranish kondensator va g'altakdan iborat bo'lgan berk zanjirda yuzaga keladi. Kondensatorida elektr maydon energiyasi yuzaga keladi, g'altakda magnit maydon energiyasi hosil bo'ladi.

- Tebranish konturida elektr maydon energiyasining eng katta (maksimal)

$$\text{qiymati: } W_{\text{elekt}}^{\text{max}} = \frac{q_0^2}{2C}; \quad W_{\text{elekt}}^{\text{max}} = \frac{CU_0^2}{2}; \quad W_{\text{elekt}}^{\text{max}} = \frac{q_0 U_0^2}{2};$$

$q_0$  - kondensatoridagi zaryadning maksimal yoki amplituda qiymati,  $U_0$  -

kondensatoridagi kuchlanishning maksimal yoki amplituda qiymati,

$C$  - kondensatorning elektr sig'imi

- Tebranish konturida magnit maydon energiyasining eng katta (maksimal)

$$\text{qiymati: } W_{\text{magnit}}^{\text{max}} = \frac{LI_0^2}{2}$$

$I_0$  - g'altakdagi tok kuchining maksimal yoki amplituda qiymati,

$L$  - g'altakning induktivligi

- Tebranish konturida elektromagnit tebranishlar tenglamasi:  $Q = -\frac{1}{LC}q$

- Tebranish konturi uchun Tomson formulasi

$$T = 2\pi\sqrt{LC}; \quad \nu = \frac{1}{2\pi\sqrt{LC}}; \quad \omega = \frac{1}{\sqrt{LC}}$$

$T$  - tebranish davri;  $\nu$  - tebranish chastotasi;  $\omega$  - siklik chastotasi

- Kondensator zaryadining maksimal qiymati:

$$q_0 = I_0\sqrt{LC}; \quad q_0 = \frac{T}{2\pi}I_0; \quad q_0 = \frac{I_0}{\omega};$$

$$q_0 = \frac{I_0}{2\pi\nu}; \quad q_0 = \frac{LI_0^2}{U_0}; \quad q_0 = \sqrt{2CW_{\text{max}}};$$

- Kondensatoridagi kuchlanishni maksimal qiymati:

$$U_0 = \omega LI_0; \quad U_0 = 2\pi\nu LI_0; \quad U_0 = 2\pi I_0 / T;$$

$$U_0 = I_0 \sqrt{\frac{L}{C}}; \quad U_0 = \frac{LI_0^2}{q_0}; \quad U_0 = \sqrt{\frac{2W_{\text{max}}}{C}};$$

- G'altakdagi tok kuchini maksimal qiymati:

$$I_0 = \frac{q_0}{\sqrt{LC}}; \quad I_0 = U_0 \sqrt{\frac{C}{L}}; \quad I_0 = \sqrt{\frac{q_0 U_0}{L}};$$

$$I_0 = \omega q_0; \quad I_0 = 2\pi\nu q_0; \quad I_0 = \frac{2W_{\text{max}}}{T}; \quad I_0 = \sqrt{\frac{2W_{\text{max}}}{L}};$$

### 85-§. O'zgaruvchan elektr toki

- Zaryad va tok kuchining o'zgarish qonuni:

$$q = q_0 \sin(\omega \cdot t + \varphi_0); \quad i = I_0 \cos(\omega \cdot t + \varphi_0); \quad q = q_0 \sin(2\pi\nu \cdot t + \varphi_0);$$

$$i = I_0 \cos(2\pi\nu \cdot t + \varphi_0); \quad q = q_0 \sin\left(\frac{2\pi}{T} \cdot t + \varphi_0\right); \quad i = I_0 \cos\left(\frac{2\pi}{T} \cdot t + \varphi_0\right)$$

$q_0$  - zaryadning amplituda qiymati,  $I_0$  - tok kuchining amplituda

qiymati,  $\varphi_0$  - boshlang'ich faza.

- $t$  vaqtidagi fazani topish:  $\omega t + \varphi_0$  yoki  $2\pi\nu t + \varphi_0$
- Elektr energiyasini to'lig'icha energiyaning qaytarib bo'lmaydigan boshqa turlariga aylantiruvchi quurilmalar *aktiv nagruzka*, ularning qarshiligi esa *aktiv qarshilik* deyiladi.



- O'zgaruvchan tok zanjirida rezistor –  $R$ :

$$i = I_0 \cos \omega t; \quad u = U_0 \cos \omega t; \quad P = I_0 U_0 \cos^2 \omega t;$$

$i$  – tok kuchini oniy qiymati,  $u$  – kuchlanishning oniy qiymati,

$P$  – quvvatning oniy qiymati.

$$R = \frac{u}{i}; \quad R = \frac{U_0}{I_0}; \quad R\text{- zanjirning aktiv qarshiligi.}$$



b)

c)

$$\underline{I_m = U_m = R I_m}$$

Rasm 79. O'zgaruvchan tok zanjirida aktiv qarshilikda (rezistorda) tok kuchi va kuchlanishning fazalari.

- Tok kuchi va kuchlanishning effektiv yoki ta'sir etuvchi ( $U_d, I_d$ ) qiymati:

$$I_d = \frac{I_0}{\sqrt{2}}; \quad I_d = \frac{U_d}{R}; \quad U_d = \frac{U_0}{\sqrt{2}}; \quad U_d = I_d R;$$

- Tok kuchi va kuchlanish amplituda qiymati:

$$I_0 = \sqrt{2} \cdot I_d; \quad I_0 = \frac{U_0}{R}; \quad U_0 = \sqrt{2} \cdot U_d; \quad U_0 = I_0 \cdot R;$$

- Aktiv qarshilikda tok kuchi va kuchlanish bir xil fazada tebranadi, fazalar farqi:  $\Delta\varphi = 0$

- Aktiv qarshilikda o'zgaruvchan tok quvvatining o'rtacha qiymati:

$$P_{av} = \frac{I_d U_d}{2}; \quad P_{av} = \frac{I_d^2 R}{2}; \quad P_{av} = \frac{U_d^2}{2R}; \quad P_{av} = I_d U_d;$$

- Aktiv qarshilikda o'zgaruvchan tokning bajargan ishi:

$$A = I_d U_d t; \quad A = I_d^2 R t; \quad A = \frac{U_d^2}{R} t; \quad A = \frac{I_0^2}{2} R t; \quad A = \frac{U_0^2}{2R} t;$$

- Aktiv qarshilikdan o'zgaruvchan tok o'tganda ajralib chiqqan issiqlik miqdori:

$$Q = I_d U_d t; \quad Q = I_d^2 R t; \quad Q = \frac{U_d^2}{R} t; \quad Q = \frac{I_0^2}{2} R t; \quad Q = \frac{U_0^2}{2R} t;$$

- Kondensator o'zgaruvchan tokni o'tkazmaydi, o'zgaruvchan tokka qarshilik ko'rsatadi. O'zgaruvchan tokka kondensatorning ko'rsatadigan qarshiligi *sig'im qarshilik* deyiladi.
- O'zgaruvchan tok zanjirida kondensator – C:

$$u = U_0 \cos \omega t; \quad i = -I_0 \sin \omega t = I_0 \cos\left(\omega t + \frac{\pi}{2}\right); \quad P = -\frac{I_0 U_0}{2} \sin(2\omega t);$$

$$P_{av} = 0;$$

- Kondensator qavat ajralmaydi:  $P = 0$ ;
- Kondensator kuchlanish tok kuchidan  $\pi/2$  faza orqada yuradi.

$$\text{Fazalar farqi } -\Delta\varphi: \quad \Delta\varphi = \frac{\pi}{2}$$

- Kondensator sig'im qarshiligi –  $X_C$ :

$$X_C = \frac{1}{\omega C}; \quad X_C = \frac{1}{2\pi\nu C}; \quad X_C = \frac{T}{2\pi C};$$

- Tok kuchi va kuchlanishning amplitudalari:

$$I_0 = \frac{U_0}{X_C}; \quad I_0 = \omega C U_0; \quad I_0 = 2\pi\nu C U_0; \quad U_0 = I_0 X_C;$$

$$U_0 = \frac{I_0}{\omega C}; \quad U_0 = \frac{I_0}{2\pi\nu C}; \quad U_0 = \frac{I_0 T}{2\pi C}; \quad I_0 = \frac{2\pi C U_0}{T}$$

- Induktiv g'altakning o'zgaruvchan tokka ko'rsatadigan qo'shimcha qarshiligi *induktiv qarshilik* deyiladi.
- O'zgaruvchan tok zanjirida g'altak – L.

$$u = U_0 \cos \omega t; \quad i = I_0 \sin \omega t = I_0 \cos\left(\omega t - \frac{\pi}{2}\right); \quad P = \frac{I_0 U_0}{2} \sin(2\omega t); \quad P_{av} = 0;$$

$i$  – tok kuchining oniy qiymati,  $u$  – kuchlanishning oniy qiymati,  
 $P$  – quvvatning oniy qiymati.

- G'altakda quvvat ajralmaydi –  $P = 0$ .
- G'altakdagi kuchlanish tok kuchidan  $\pi/2$  faza oldinda yuradi.

$$\text{Fazalar farqi } -\Delta\varphi: \quad \Delta\varphi = \frac{\pi}{2};$$

- G'altakning induktiv qarshiligi –  $X_L$ :


$$X_L = \omega L; \quad X_L = 2\pi\nu L; \quad X_L = \frac{2\pi L}{T};$$

- G'altakda o'z induksion EYUK ning maksimal qiymati:  $\varepsilon_n = \omega L I_0$


- Tok kuchi va kuchlanishning amplituda qiymatlari:

$$I_0 = \frac{U_0}{X_L}; \quad I_0 = \frac{U_0}{\omega L}; \quad I_0 = \frac{U_0}{2\pi\nu L}; \quad U_0 = I_0 X_L; \quad U_0 = \omega L I_0;$$

$$U_0 = 2\pi\nu L I_0; \quad U_0 = \frac{2\pi L I_0}{T}; \quad I_0 = \frac{U_0 T}{2\pi L};$$



Rasm 80. Faqat induktiv g'altakdan iborat o'zgaruvchan tok zanjirida tok kuchi va kuchlanish fazalari



Rasm 81. Faqat kondensatordan iborat o'zgaruvchan tok zanjirida tok kuchi va kuchlanish fazalari

- Ketma-ket ulangan rezistor, kondensator va g'altakdan iborat o'zgaruvchan tok zanjirida:

$$u = U_0 \cos \omega t; \quad i = I_0 \cos(\omega t + \varphi); \quad \varphi = \arctg \frac{\omega L - 1/\omega C}{R}; \quad \varphi = \arctg \frac{X_L - X_C}{R};$$

$$\varphi = \arccos \frac{R}{Z}; \quad \varphi = \arccos \frac{R}{\sqrt{R^2 + (\omega L - 1/\omega C)^2}};$$

$\varphi$  – kuchlanish va tok kuchi tebranishlari orasidagi fazalar farqi:

$X_L > X_C$  bo'lsa kuchlanish faza bo'yicha tokdan oldinda bo'ladi ( $\varphi > 0$ ),  
 agar  $X_L < X_C$ , bo'lsa kuchlanish faza bo'yicha tokdan orqada bo'ladi ( $\varphi < 0$ ).

- Zanjirdagi umumiy kuchlanish:  $U_m = \sqrt{U_R^2 + (U_L - U_C)^2}$   
 $U_m$  – zanjir umumiy kuchlanishi,  $I_m = I_R$  – umumiy tok,  
 $U_L$  – g'altakdagi kuchlanish,  $U_C$  – kondensatordagi kuchlanish.

- Agar zanjirda aktiv qarshilik (R) bo'lmasa:  $U_m = U_L - U_C$ ;

- Agar zanjirda g'altak (L) bo'lmasa:  $U_m = \sqrt{U_R^2 + U_C^2}$ ;



- Agar zanjirda kondensator (C) bo'lmasa:  $U_m = \sqrt{U_R^2 + U_L^2}$ ;

- O'zgaruvchan tok zanjiri to'la qarshiligi:

$$Z = \sqrt{R^2 + (X_L - X_C)^2}; \quad Z = \sqrt{R^2 + \left(\omega L - \frac{1}{\omega C}\right)^2}; \quad Z = \frac{U_R}{I_0}; \quad Z = \frac{U_{\varphi}}{I_{\varphi}};$$

- Tok kuchi va kuchlanish amplitudalari:

$$I_0 = \frac{U_R}{Z}; \quad I_0 = \frac{U_0}{\sqrt{R^2 + \left(\omega L - \frac{1}{\omega C}\right)^2}}; \quad U_0 = Z \cdot I_0; \quad U_0 = I_0 \cdot \sqrt{R^2 + \left(\omega L - \frac{1}{\omega C}\right)^2}$$



Rasm 82. Ketma-ket ulangan rezistor, induktiv g'altak va kondensatordan iborat bo'lgan o'zgaruvchan tok zanjiri

- Tok kuchi va kuchlanishning effektiv yoki ta'sir etuvchi qiymati:

$$I_d = \frac{U_d}{Z}; I_d = \frac{U_d}{\sqrt{R^2 + \left(\omega L - \frac{1}{\omega C}\right)^2}}; U_d = Z \cdot I_d; U_d = I_d \cdot \sqrt{R^2 + \left(\omega L - \frac{1}{\omega C}\right)^2};$$

- O'zgaruvchan tokning quvvati:

$$P = I_d U_d \cdot \cos \varphi; \quad P = \frac{1}{2} I_0 U_0 \cdot \cos \varphi; \quad P = I_R U_R;$$

$$\cos \varphi = \frac{R}{\sqrt{R^2 + \left(\omega L - \frac{1}{\omega C}\right)^2}}; \quad \cos \varphi = \frac{R}{\sqrt{R^2 + (X_L - X_C)^2}};$$

$\cos \varphi$  – ga quvvat koeffitsiyenti deyiladi.

$I_R, U_R$  – rezistor, ya'ni aktiv qarshilikdagi tok kuchi va kuchlanishlarning effektiv qiymatlari.

- $\cos \varphi$ -elektr energiyaning qancha qismi boshqa tur energiyaga aylanishini ko'rsatadi. Shuning uchun  $\cos \varphi$  quvvatdan foydalanish koeffitsiyenti yoki quvvat koeffitsiyenti deyiladi.
- Quvvat koeffitsiyentining kamayishi elektr stansiya quvvatidan to'liq foydalanmaslikka va zanjirdagi issiqlik isrofiga olib keladi.
- Kondensator va g'altakda quvvat ajralmaydi shu sababdan ular qarshiligiga reaktiv (aktiv bo'lmagan) qarshiliklar deyiladi. Rezistorlarda esa quvvat ajraladi shu sababdan rezistor aktiv qarshilik deb ataladi.
- Zanjirdagi to'la quvvat aktiv qarshilik quvvatiga teng bo'ladi.
- Mexanik energiyani elektr energiyaga aylantiruvchi elektr mashinalari o'zgaruvchan tok generatorlari deyiladi.
- Elektr energiyasini mexanik energiyaga aylantirish uchun ishlatiladigan qurilmalarga elektrodivigatellar deyiladi. Elektrodivigatellarning ishlash prinsipi quyidagicha: magnit maydonda joylashtirilgan ramka orqali elektr toki o'tkazilsa, unga aylantiruvchi moment ta'sir qiladi va ramka aylana boshlaydi.

- Dvigatellar salt ishlaganda u induktiv nagruzka vazifasini bajaradi, shuning uchun  $\cos\varphi$  kichik bo'ladi. Elektr dvigatellarining quvvat koeffitsientlarini oshirish uchun ularga parallel ravishda kondensator ulanadi. Kondensator va induktiv g'altak bir vaqtda ulansa qarama-qarshi faza siljishlari yuzaga keladi va ular o'zaro kompensatsiyalashadi. Shuning uchun quvvat koeffitsienti ortadi.
- Issiqlik isrofi orqali yo'qolgan quvvat:  $\Delta P = \frac{P^2}{U^2 \cos^2 \varphi} \cdot R$ ;  $\Delta P = \frac{\Delta P_p}{\cos^2 \varphi}$  Bu yerda  $P$ -iste'molchining quvvati;  $U$ -iste'molchi ulangan o'zgaruvchan kuchlanish;  $R$ -iste'molchining aktiv qarshiligi.

### 86-§. Transformator

- O'zgaruvchan tokning chastotasini o'zgartirishdan kuchlanishini o'zgartirib beruvchi asboblarga *transformatorlar* deyiladi va u elektromagnit induksiya hodisasiga asosan ishlaydi.
- *Transformator* o'zaro induktiv bog'langan ikkita g'altakdan tashkil topgan qurilmadir. Transformator o'zgaruvchan tok kuchini yoki kuchlanishini o'zgartirish maqsadida ishlatiladi.
- Transformator ikki yoki undan ortiq elektromagnit g'altakdan va berk po'lat o'zakdan iborat.
- Transformatorning manbaga ulangan g'altagi *birlamchi* iste'molchiga ulangan g'altagi *ikkilamchi g'altak* deyiladi.
- Transformatorning *transformatsiya koeffitsiyenti* ( $K$ ) deb birlamchi g'altakdagi kuchlanish qiymatini ikkilamchi g'altakdagi kuchlanish qiymatiga nisbatiga teng bo'lgan kattalikka aytiladi:


$$K = \frac{U_1}{U_2}; \quad K = \frac{N_1}{N_2}; \quad K = \frac{I_2}{I_1};$$

- Transformatorning birlamchi g'altagidagi kuchlanishining ikkilamchi g'altagidagi kuchlanishiga nisbati ulardagi tok kuchlarining teskari nisbatiga teng bo'ladi:

$$\frac{U_1}{U_2} = \frac{I_2}{I_1}; \quad \frac{U_1}{U_2} = \frac{N_1}{N_2}; \quad \frac{I_2}{I_1} = \frac{N_1}{N_2};$$

- Transformatorda kuchlanish  $n$  marta oshirilsa, tok kuchi  $n$  marta kamayadi.
- Transformatorda kuchlanish  $n$  marta kamaytirilsa, tok kuchi  $n$  marta ortadi.
- $K > 1$  ya'ni  $U_1 > U_2$ ,  $N_1 > N_2$ , ( $I_2 > I_1$ ) bo'lganida transformator pasaytiruvchi,  $K < 1$  ya'ni,  $U_1 < U_2$ ,  $N_1 < N_2$ ,  $I_2 < I_1$  bo'lganida transformator kuchaytiruvchi deyiladi.
- Transformator g'altaklaridagi quvvat:  $P_1 = I_1 U_1$ ;  $P_2 = I_2 U_2$
- Transformatorning foydali ish koeffitsiyenti:  $\eta = \frac{P_2}{P_1}$ ;  $\eta = \frac{I_2 U_2}{I_1 U_1}$ ;
- Kuchaytiruvchi transformator birlamchi g'altak, pasaytiruvchi transformator ikkilamchi g'altak simining ko'ndalang kesim yuzasi katta bo'lsa, transformatorning FIKi katta bo'ladi.

- Elektr energiyasini uzoq masofaga uzatishda energiya sarfini kamaytirish maqsadida transformator yordamida o'zgaruvchan tokning kuchlanishi oshirilib, tok kuchi kamaytiriladi.
- Uzatish liniyasida kuchlanish  $n$  marta oshirilsa, energiya sarfi  $n^2$  marta kamayadi.
- Uzatish liniyasida kuchlanish  $n$  marta kamaytirilsa, energiya sarfi  $n^2$  marta ortadi.
- Uzatish liniyasida tok kuchi  $n$  marta kamaytirilsa, energiya sarfi  $n^2$  marta kamayadi.
- Uzatish liniyasida energiya sarfini  $n$  marta kamaytirish uchun, kuchlanishni  $\sqrt{n}$  marta oshirish kerak.
- Elektr energiyasi o'zgarmas magnit maydonida aylanma harakat qilayotgan ramkada hosil bo'ladi.
- Magnit maydonini bir juft magnit qutblari hosil qilayotgan bo'lsa tokning o'zgarish chastotasi ramkaning aylanish chastotasiga teng bo'ladi.
- Tokning o'zgarish chastotasining  $N$  marta oshirish uchun juft magnit qutblar sonini  $N$  marta oshirish kerak bo'ladi.



**Rasm 83. Transformator**

## 87-§. Elektromagnit to'liqin

- Fazoda o'zgaruvchan elektr va magnit maydonlarining tarqalishiga *elektromagnit to'liqin* deyiladi.



### Rasm 84. Elektromagnit to'liqlar tarqalishi

- Zaryad tezlanish bilan harakat qilganida, yoki zaryad tebranganida o'zidan elektromagnit to'liqin nurlantiradi.
- Zaryad tekis harakat qilganida o'zidan elektromagnit to'liqin nurlantirmaydi.
- Elektromagnit to'liqin ko'ndalang to'liqindir. Elektromagnit to'liqin qutblanadi.
- Elektromagnit to'liqinning vakuumdagi (havodagi) tarqalish tezligi yorug'lik tezligiga ( $c$ ) ga teng:  $\vartheta = c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$
- Elektromagnit to'liqinining muhitdagi tarqalish tezligi yorug'lik tezligidan  $n$  marta

kichik bo'ladi:  $\vartheta = \frac{c}{n}; \quad \vartheta = \frac{c}{\sqrt{\epsilon\mu}}$

$n$  – muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi:  $n = \sqrt{\epsilon\mu}$

$\epsilon$  – muhitning dielektrik sindiruvchanligi,

$\mu$  – muhitning magnit kirituvchanligi.

- Elektromagnit to'liqinni muhitdagi to'liqin uzunligi ( $\lambda$ ) vakuumdagi to'liqin uzunligi ( $\lambda_0$ ) dan  $n$  marta kichik bo'ladi:  $\lambda = \frac{\lambda_0}{n}$

- Elektromagnit to'liqin bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganida *chastotasi o'zgarmaydi*.

- Elektromagnit to'liqin absolyut sindirish ko'rsatkichi ( $n$ ) kichik bo'lgan muhitdan sindirish ko'rsatkichi katta bo'lgan muhitga o'tganida tezligi va to'liqin uzunligi kamayadi. Absolyut sindirish ko'rsatkichi katta bo'lgan muhitdan absolyut sindirish ko'rsatkichi kichik bo'lgan muhitga o'tganda elektromagnit to'liqin uzunligi va tezligi ortadi.

- Elektromagnit to'liqlarning tarqalish tezligi:  $\vartheta = \lambda \cdot \nu; \quad \vartheta = \frac{\lambda}{T}; \quad \vartheta = \frac{\lambda\omega}{2\pi}$

- $l$  uzunlikdagi masofaga  $N$  ta to'liqin joylashsa:  $\lambda = \frac{l}{N}; \quad N = \frac{l}{\lambda}; \quad N = \frac{l\nu}{c}; \quad N = \frac{l\omega}{c};$

- Elektromagnit to'liqin uzunligi  $\lambda$  va tebranish konturidagi  $g'$  altak induktivligi  $L$ , kondensator sig'imi  $C$  orasidagi munosabatlar:


$$\lambda = 2\pi \cdot c \sqrt{LC}; \quad L = \frac{\lambda^2}{4\pi^2 c^2 \cdot C}; \quad C = \frac{\lambda^2}{4\pi^2 c^2 \cdot L}; \quad c - \text{yorug'lik tezligi.}$$

$$\Rightarrow g' \text{ altakning induktivligi } L \text{ o'zgarmaganda: } \frac{\lambda_2}{\lambda_1} = \sqrt{\frac{C_1}{C_2}}; \quad \frac{C_2}{C_1} = \left(\frac{\lambda_2}{\lambda_1}\right)^2;$$

$$\Rightarrow \text{kondensator sig'imi } C \text{ o'zgarmaganda: } \frac{\lambda_2}{\lambda_1} = \sqrt{\frac{L_2}{L_1}}; \quad \frac{L_2}{L_1} = \left(\frac{\lambda_2}{\lambda_1}\right)^2;$$

⇒ induktivlik va sig'ım o'zgarsa:  $\frac{\lambda_2}{\lambda_1} = \sqrt{\frac{L_2 C_2}{L_1 C_1}}$ ;

- **To'liqin fronti** deb bir xil fazada tebranayotgan nuqtalarning geometrik o'miga aytiladi.
- Chastotalari bir xil fazalar farqi vaqt o'tishi bilan o'zgar olmaydigan to'liqinlarga *kogerent to'liqinlar* deyiladi.
- Ikki to'liqinni fazalar farqi bo'yicha yo'llar farqi:  $\Delta x = \frac{\lambda}{2\pi} \Delta \varphi$ ;  $\Delta x = \frac{\vartheta}{2\pi\nu} \Delta \varphi$ ;
- Ikki to'liqinni yo'llar farqi bo'yicha fazalar farqi:  $\Delta \varphi = \frac{2\pi}{\lambda} \Delta x$ ;  $\Delta \varphi = \frac{2\pi\nu}{\vartheta} \Delta x$ ;
- Elektromagnit to'liqin elektromagnit maydon energiyasining tarqalish yo'nalishini bildiradi.
- **Elektromagnit to'liqinning tarqalish yo'nalishi:** Parma dastasini  $\vec{E}$  vektordan  $\vec{B}$  vektorga qarab aylantirsak, parma uchining yo'nalishi to'liqin tezligi  $\vartheta$  ning yo'nalishini ko'rsatadi:  $\vec{E} \perp \vec{B} \perp \vartheta$
- Elektromagnit to'liqinning tarqalish tezligi:  $\vartheta = \frac{E}{B}$ ;
- Radiolakatorming ob'ektni sezish uzoqligi  
 ⇒ lokatorda ketma-ket impulslar oralig'idagi vaqt  $t$  ga teng:  $S = \frac{c \cdot t}{2}$   
 ⇒  $t$  vaqt lokatordan  $N$  ta impuls chiqayotgan bo'lsa:  $S = \frac{c \cdot t}{2N}$
- Astronomiyaning osmon jismlarining chiqaradigan xususiy radionurlariga asosan o'rgandigan bo'limi radioastronomiya deyiladi.
- Radioto'liqinlar radiouzatkichlar yordamida uzatiladi. Radiouzatgich asosini vakuumli lampa yoki tranzistorda terilgan so'nmas tebranishlar generatori tashkil qiladi.
- Biror ma'lumotni uzatish uchun yuqori chastotali tebranishlarning xarakterini (amplitudasini) o'zgartirish jarayoni *modulyatsiya* deyiladi. Modulyatsiya ikki xil bo'ladi: amplituda va chastota modulyatsiyasi.
- Kichik chastotali elektr tebranishlar yordamida yuqori chastotali elektromagnit tebranishlarning parametrlarini o'zgartirish usuli *modulyatsiya yoki modullashtirish* deyiladi.
- Tovush chastotasidagi tebranishlar yordamida yuqori chastotali elektromagnit tebranishlarning amplitudasini o'zgartirish jarayoni *amplituda modulyatsiyasi* deyiladi.
- Radiouzatkichlar yordamida uzatilgan radioto'liqinlar radiopriyomniklar yordamida qabul qilinadi. Radiopriyomnik asosan antena, tebranish konturi, kuchaytirgich, detektor (qayd qilgich) va radiokamaydan tashkil topgan.
- Radiopriyomnikda modullashtirilgan yuqori chastotali tebranishlardan past chastotali tebranishlarni ajratib olish jarayoni *detektorlash* deyiladi.



**Rasm 85. Zamonviy radiouzatgich va radiopriyomnik.**

## O P T I K A

### 88-§. Yorug'likning to'g'ri chiziq bo'ylab tarqalishi. Yorug'lik tezligi

- Inson sezadigan yorug'lik - to'lqin uzunligi  $\lambda = (0,38 + 0,77) \cdot 10^{-6}$  m intervalida bo'lgan elektromagnit to'lqinlardir.
- Yorug'lik nuri deganda energiya oqimining tarqalish yo'nalishiga aytiladi.
- Yorug'lik to'g'ri chiziq bo'ylab tarqaladi.
- Yorug'likning bo'shliqdagi tezligi  $-c$ :  

$$c = 2.99792458 \text{ m/s}; \quad c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s};$$
- Muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi  $-n$ :  $n = \frac{c}{g}$ ;  
 $c$  - yorug'likning vakuumdagi tezligi,  $g$  - muhitdagi tezlik.
- Yorug'lik nuri elektromagnit to'lqindir.
- Yorug'lik to'lqinlari ko'ndalang to'lqinlardir.
- Yorug'lik to'lqinlari qutblanish hossasiga ega.
- Yorug'likning to'g'ri chiziq bo'ylab harakati:  $S = ct$ ;  $c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$
- Yorug'likning vakuumdagi tezligi:  $c = \frac{1}{\sqrt{\epsilon_0 \cdot \mu_0}}$ ;  $\epsilon_0 = \frac{1}{4\pi \cdot 9 \cdot 10^9} \text{ F/m}$  ;  
 $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7} \text{ H/m}$ ;  $\epsilon_0$  - elektr doimiysi;  $\mu_0$  - magnit doimiysi;
- Yorug'lik to'lqinlarining uzunligi  $0,4 \mu\text{m} - 0,78 \mu\text{m}$  ( $400 \text{ nm} + 780 \text{ nm}$ ) oralig'ida joylashgan elektromagnit to'lqinlardir.
- Har xil to'lqin uzunligidagi yorug'likning rangi har xil bo'ladi:  
 $\lambda = 0,4 \mu\text{m}$  - binafsha nur.  
 $\lambda = 0,78 \mu\text{m}$  - qizil nur.

#### Yorug'lik tezligini aniqlashning usullari:

- **Ryomer usuli.** Yorug'lik tezligini birinchi marta astronomik usul bilan daniyalik astronom Ryomer 1676-yilda o'lchagan. Unda Yupiter sayyorasi yo'ldoshining Yupiter orqa tomonidan (soyasidan) o'tishidagi kechikishiga ko'ra aniqlagan. Ryomerda yorug'lik tezligi  $215000 \text{ km/sekund}$  bo'lgan.
- **Laboratoriya usuli.** (Fizo, 1849-yil) Aylanuvchi tishli g'ildirak usulidan foydalangan. Yorug'lik tezligi  $313000 \text{ km/sekund}$  bo'lgan.
- **Mayklson usuli.** (1929). Aylanuvchi sakkiz qirrali ko'zgu usulidan foydalangan. Bunda tezlik  $299796 \pm 4 \text{ km/sekund}$  bo'lgan. Hozirda o'lchagan natijaga ko'ra  $c = (299792456 \pm 0,8) \text{ m/s}$  yoki  $c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$
- Yorug'likning to'g'ri chiziq bo'ylab tarqalishiga daraxtning soyasi misol bo'la oladi.
- Yorug'lik nurining mustaqillik prinsipiga asosan, yorug'lik nurlari o'zaro kesishganda bir-biriga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi., ya'ni nurlarning kesishishi har bir nurning mustaqil ravishda tarqalishiga xalaqit bermaydi.
- Optikaning yorug'lik energiyasini o'lchash usullarini o'rganuvchi bo'limi *fotometriya* deb ataladi.

- Ma'lum bir yuzaga tushayotgan nurlanish quvvati bilan o'lchanadigan kattalik  $\Phi$  *yorug'lik oqimi* deyiladi:  $\Phi = \frac{W}{t}$
- Yorug'lik oqimining birligi qilib *lyumen (lm)* qabul qilingan:  $1lm = 1cd \cdot sr$
- $O$  nuqtada turuvchi nuqtaviy yorug'lik manbaining atrofida markazi shu nuqtada bo'lgan  $r$  radiusli shar chizamiz, shunday shar sektori (uchi shar markazida bo'lgan konus) qirqib olaylikki, uning asosi shar sirtida  $\Delta S$  yuzani hosil qilsin. Bu konus sirti bilan chegaralangan fazo fazoviy burchak  $\Delta\Omega$  deb ataladi va quyidagicha topiladi:  $\Delta\Omega = \frac{\Delta S}{r^2}$ , agar  $\Delta S = r^2$  bo'lsa, fazoviy burchak 1 ga teng bo'ladi va bu burchak *steradian* deb ataladi.
- Sfera uchun fazoviy burchak:  $\Delta\Omega = \frac{\Delta S}{r^2} = \frac{4\pi \cdot r^2}{r^2} = 4\pi$
- Yorug'lik oqimining bu oqim tarqalayotgan fazoviy burchak kattaligiga nisbati bilan o'lchanadigan kattalikka manbaining *yorug'lik kuchi* deb ataladi:  $I = \frac{\Phi}{\Delta\Omega}$
- Yorug'lik kuchining birligi *kandela (cd)* bo'lib, XBSdagi asosiy birliklardan biri hisoblanadi.
- Yorug'lik oqimining o'zi tushayotgan sirt yuziga nisbati bilan o'lchanadigan kattalik *yoritilganlik* deyiladi:  $E = \frac{\Phi}{\Delta S}$
- Yorug'lik manbaining yuza birligidan barcha yo'nalishlari bo'yicha nurlanayotgan yorug'lik oqimiga son jihatdan teng bo'lgan kattalik *yorqinlik* deyiladi.
- Manba sirtining yuza birligidan ma'lum yo'nalishda yuzaga normal ravishda chiqayotgan yorug'lik kuchiga son jihatdan teng bo'lgan kattalik *ravshanlik* deyiladi:  $B = \frac{I}{\Delta S}$
- Ravshanlik birligi qilib *nit (nt)* qabul qilingan:  $1nt = 1cd/m^2$
- Agar nuqtaviy manba yorug'likni hamma yo'nalishlar bo'yicha tekis tarqatayotgan bo'lsa, uning to'liq yorug'lik oqimi va yoritilganligi:  $\Phi_0 = 4\pi I$ ,  $E_0 = \frac{I}{r^2}$
- **Yoritilganlikning ikkinchi qonuni:** Yorituvchi sirtga yorug'lik kuchi burchak ostida tushsa, sirtning yoritilganligi nurning tushish burchagi kosinusiga to'g'ri proporsionaldir:  $E = E_0 \cdot \cos\alpha$
- **Yoritilganlikning ikkala qonunini birlashtirishdan chiqqan xulosa:** Nuqtaviy yorug'lik manbaining biror sirtida hosil qilgan yoritilganligi manbaining yorug'lik kuchiga va nurlarning tushish burchagi kosinusiga to'g'ri proporsional va manbadan sirtgacha bo'lgan masofaning kvadratiga teskari proporsionaldir:  $E = \frac{I}{r^2} \cdot \cos\alpha$ ;  $\frac{I_1}{I_2} = \frac{r_2^2}{r_1^2}$

### 89-§ Yorug'likning qaytish qonuni

- Bir jinsli muhitda to'g'ri chiziq-bo'ylab tarqalayotgan yorug'lik nuri o'z yo'lida, birinchi muhit bilan chegaradosh ikkinchi muhitga duch kelsa, uning yo'nalishi o'zgaradi. Ikki muhit chegarasining xususiyatiga bog'liq ravishda yorug'likning ma'lum qismi I muhitga qaytadi, qolgan qismi esa II muhitga o'tadi. Yorug'likning ikki muhit chegarasidan yana I muhitga qaytishi *yorug'likning qaytishi* deyiladi.
- **Bir jinsli muhit** deb barcha nuqtalarida sindirish ko'rsatkichi bir xil ( $n=\text{const}$ ) bo'lgan muhitga aytiladi.
- Sirt optik jihatdan silliq bo'lishi uchun undagi «g'adir-budur» liklarning kattaligi yorug'likning to'lqin uzunligi ( $0,4 + 0,8 \mu\text{m}$ ) dan kichik bo'lishi kerak.
- **Yorug'likning qaytish qonuni:**
  1. Tushgan nur, qaytgan nur va nurning tushish nuqtasidan ikki muhit chegarasiga o'tkazilgan perpendikulyar bir tekislikda yotadi.
  2. Nurning tushish burchagi qaytish burchagiga tengdir.

### 90-§ Yorug'likning sinish qonuni

- Yorug'likning bir shaffof muhitdan ikkinchi shaffof muhitga o'tishi va bu o'tishda uning tarqalish yo'nalishining o'zgarishi *yorug'likning sinishi* deyiladi:

$$\frac{\sin \alpha}{\sin \gamma} = \frac{n_2}{n_1}; \quad \frac{\sin \alpha}{\sin \gamma} = n_{12}; \quad \text{yoki} \quad n_1 \cdot \sin \alpha = n_2 \cdot \sin \gamma$$

- Tushish va sinish burchaklari sinuslari nisbatining, yorug'lik tezligi va to'lqin uzunligi orqali ifodasi:

$$\frac{\sin \alpha}{\sin \gamma} = \frac{g_1}{g_2}; \quad \frac{\sin \alpha}{\sin \gamma} = \frac{\lambda_1}{\lambda_2};$$

- **Yorug'likning sinish qonuni:**
  1. Tushuvchi nur, singan nur va muhit chegarasiga nurning tushish nuqtasidan o'tkazilgan perpendikulyar bir tekislikda yotadi.
  2. Tushish burchagi sinusning sinish burchagi sinusiga nisbati chegaradosh muhitlarning optik xususiyatiga bog'liq bo'lgan o'zgarmas kattalik bo'lib, uni ikkinchi muhitning birinchi muhitga nisbatan sindirish ko'rsatkichi deyiladi.
- Yorug'lik nuri vakuumdan biror muhitga o'tgan holda mazkur muhitning vakuumga nisbatan sindirish ko'rsatkichi muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi deyiladi.
- Agar yorug'lik absolyut sindirish ko'rsatkichi  $n_1$  bo'lgan muhitdan absolyut sindirish ko'rsatkichi  $n_2$  bo'lgan muhitga o'tsa, muhitlar absolyut sindirish ko'rsatkichlarining nisbati ikkinchi muhitning birinchi muhitga nisbatan nisbiy sindirish ko'rsatkichiga teng bo'ladi:

$$n_{12} = \frac{n_2}{n_1};$$

$n_1$  – birinchi muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi,  $n_2$  – ikkinchi muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi.



Rasm 86. Yorug'lik qonunlari

- Ko'riylotgan muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi ( $n$ ), yorug'lik nurining vakuumdagi tezligini muhitdagi tarqalish tezligiga nisbatiga teng.
- Birinchi va ikkinchi muhitlardagi yorug'lik tezliklari nisbati ularning absolyut sindirish ko'rsatkichlarini teskari nisbatiga teng:

$$\frac{v_1}{v_2} = \frac{n_2}{n_1} \text{ yoki } v_1 \cdot n_1 = v_2 \cdot n_2$$

- Yorug'likning muhitdagi tezligi:  $v = \frac{c}{n}$ ;  $v = \frac{c}{\sqrt{\epsilon\mu}}$ ;
- Sindirish ko'rsatkichining yorug'lik tezligiga bog'liqligi, yorug'lik tarqalayotgan muhitning fizik xususiyatlari, jumladan uning zichligi, elastiklik darajasi va temperaturasi bilan belgilanadi.
- Sindirish ko'rsatkichining qiymati yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'liqdir.
- Yorug'likning sinish hodisasiga misollar:
  1. Suvga botirilgan tayoqchaga yon tomondan qarasak, tayoqcha suv sirtida singandek ko'rinadi.
  2. Suvli idishga tepadan qarasak, idish tubi bizga yaqinroq ko'rinadi.
- Nur optik zichligi ( $n_1$ ) kichik bo'lgan muhitdan optik zichligi ( $n_2$ ) katta bo'lgan muhitga o'tganida ( $n_1 < n_2$ ), tushish burchagi sinish burchagidan katta bo'ladi.  $\alpha > \gamma$  bu holda  $\beta_1 > \beta_2$  va  $\lambda_1 > \lambda_2$ .
- Nur optik zichligi ( $n_1$ ) katta bo'lgan muhitdan optik zichligi ( $n_2$ ) kichik bo'lgan muhitga o'tganida ( $n_1 > n_2$ ), sinish burchagi tushish burchagidan katta bo'ladi.  $\alpha < \gamma$  bu holda  $\beta_1 < \beta_2$  va  $\lambda_1 < \lambda_2$ .
- Nur havodan sindirish ko'rsatkichi  $n$  ga teng bo'lgan muhitga o'tganida qaytgan nur bilan singan nur bir-biriga perpendikulyar bo'lsa, (ular orasidagi burchak  $90^\circ$ ):
 
$$\text{tg } \alpha = n;$$
- Nur sindirish ko'rsatkichi  $n_1$  bo'lgan muhitdan sindirish ko'rsatkichi  $n_2$  bo'lgan muhitga o'tganida qaytgan nur bilan singan nur perpendikulyar bo'lsa, (ular orasidagi burchak  $90^\circ$ ):

$$\operatorname{tg} \alpha = \frac{n_2}{n_1}$$

- Yorug'likning to'lqin uzunligi  $\lambda$ , tezligi  $c$ , chastotasi  $\nu$ , tebranish davri  $T$ , orasidagi munosabatlar:

$$\lambda = \frac{c}{\nu}; \quad \lambda = c \cdot T; \quad \vartheta = \lambda \cdot \nu; \quad \vartheta = \frac{\lambda}{T}; \quad \nu = \frac{c}{\lambda}; \quad \nu = \frac{1}{T}; \quad T = \frac{\lambda}{c}; \quad T = \frac{1}{\nu};$$

- Bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganida yorug'likning tezligi va to'lqin uzunligi o'zgaradi, chastotasi esa o'zgarmaydi. Sindirish ko'rsatkichi katta bo'lgan muhitda yorug'likning tezligi va to'lqin uzunligi kichikroq bo'ladi.
- Muhitda yorug'likning tezligi va to'lqin uzunligi:

$$\vartheta = \frac{c}{n}; \quad \lambda = \frac{\lambda_0}{n}$$

$n$  – muhitning sindirish ko'rsatkichi,  $\lambda_0$  – yorug'likning vakuumdagi to'lqin uzunligi.

- Ikki muhitda tarqalayotgan yorug'lik tezliklari va to'lqin uzunliklari nisbati:

$$\frac{\vartheta_1}{\vartheta_2} = \frac{n_2}{n_1}; \quad \frac{\lambda_1}{\lambda_2} = \frac{n_2}{n_1}; \quad \frac{\lambda_1}{\lambda_2} = \frac{n_2}{n_1}$$

- Elektromagnit to'lqin (yorug'lik nuri) bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganda uning chastotasi ( rangi) saqlanadi, lekin, to'lqin uzunligi, tezligi, fazasi va amplitudasi o'zgaradi.

### 91- §. Yorug'likning to'la ichki qaytishi

- Tushgan nur va sirt orasidagi burchak  $\varphi$  ga teng bo'lsa, nurning tushish burchagi:  $\alpha = 90^\circ - \varphi$
- Nurning qaytish burchagi:  $\beta = 90^\circ - \varphi$
- Tushgan nur bilan qaytgan nur orasidagi burchak  $\varphi$  ga teng bo'lsa nurning tushish burchagi:  $\alpha = \frac{\varphi}{2}$
- $\Rightarrow$  Nurning qaytish burchagi:  $\beta = \frac{\varphi}{2}$
- Yorug'lik nuri absolyut sindirish ko'rsatkichi katta bo'lgan muhitdan absolyut sindirish ko'rsatkichi kichik bo'lgan muhitga o'tganda, ma'lum tushish burchagida hamma yorug'lik energiyasi orqaga qaytadi. Bu hodisa *to'la ichki qaytish* deyiladi.
- To'la ichki qaytish sodir bo'ladigan eng kichik tushish burchagi (yoki sinish burchagi  $90^\circ$  ga mos keladigan tushish burchagi) *chegaraviy burchak* deyiladi.
- To'la ichki qaytish hodisasidan yorug'lik nurlarini biror yo'nalishga burish yoki nurlar dastasi o'rmini almashtirish uchun foydalaniladi.
- To'la ichki qaytishning chegaraviy burchagi:

$$n_1 \cdot \sin \alpha_0 = n_2 \cdot \sin 90^\circ; \quad \sin \alpha_0 = \frac{n_2}{n_1};$$

agar ikkinchi muhit vakuum yoki havo bo'lsa:  $\sin \alpha_0 = \frac{1}{n}$

- Ko'zgudan yorug'lik to'liq qaytadi. Yassi ko'zguda buyumning mavhum tasviri hosil bo'ladi. Tasvir to'g'ri va o'lchami buyum o'lchamiga teng bo'ladi. Tasvirdan ko'zgugacha bo'lgan masofa ko'zgudan buyumgacha bo'lgan masofaga teng bo'ladi.
- Buyum ko'zguga  $\Delta x$  masofaga yaqinlashsa, buyum bilan tasvir orasidagi masofa  $2 \cdot \Delta x$  masofaga qisqaradi.
- Buyum ko'zguga  $\vartheta$  tezlik bilan yaqinlashsa, tasvir ham ko'zguga  $\vartheta$  tezlik bilan yaqinlashadi, lekin tasvir buyumga  $2 \cdot \vartheta$  tezlik bilan yaqinlashadi.
- Bo'yining uzunligi  $l$  ga teng bo'lgan bola o'z tasvirini to'liq ko'rishi uchun, uning oldida vertikal osilib turgan ko'zguning balandligi kamida  $h = l/2$  bo'lishi kerak.
- Perpendikulyar (tik) tekisliklarda yotgan ko'zgularga tushayotgan nur qaytgan nurga parallel bo'ladi.
- O'zaro  $\alpha$  burchak ostida yotgan ko'zgularga tushayotgan va ulardan qaytgan nurlar orasidagi burchak- $\varphi$ :  $\varphi = 2 \cdot \alpha$
- O'zaro  $\alpha$  burchak ostida tushirilgan ikkita ko'zgu orasidagi nuqtaning tasvirlari soni:  $N = \frac{2\pi}{\alpha}$ ;  $\pi = 180^\circ$ ;  $N = \frac{360^\circ}{\alpha}$ ;
- Nur tolada nurning yo'li to'la ichki qaytish hodisasiga asoslangandir.

### 92- §. Nurlarning uchburchakli prizmadagi yo'li

- Nurning prizmaga kelguncha bo'lgan yo'nalishi bilan uning prizmadan o'tgandan keyingi yo'nalishi orasidagi burchak og'ish burchagi deyiladi.

$$\theta = \alpha + \beta' - \varphi; \quad \sin \varphi = \varphi \Rightarrow \theta = (n-1) \cdot \varphi$$


$\alpha$  - nurning prizma sirtiga tushish burchagi,  $\beta'$  - prizmadan chiqqan nurning sinish burchagi,  $\varphi$  - prizmaning sindiruvchi burchagi (uchidagi burchak)

- Shaffof prizmada nur prizmaning katta asosi tomon og'adi.

- Parallel plastinada nurning yo'li:  $x = \frac{d \sin(\alpha - \beta)}{\cos \beta}$


### 93 - §. Linzalar

- Ikki tomoni sferik sirt bilan chegaralangan shaffof jism *linza* deb ataladi. O'rtasi chetiga nisbatan qalinroq bo'lgan linzalar *yig'uvchi linzalar* deyiladi. O'rtasi chetiga nisbatan yupqaroq bo'lgan linzalar *sochuvchi linzalar* deyiladi.



Rasm 87. a, b, f-yig'uvchi linza, d, e, g-sochuvchi linza

- Linzaning optik markazi va fokuslaridan o'tuvchi to'g'ri chiziqqa *bosh optik o'q* deyiladi.
- Linzaning bosh optik o'qiga parallel bo'lmagan va optik markazidan o'tuvchi to'g'ri chiziqqa *yordamchi optik o'q* deyiladi.
- Agar linzaga uning bosh optik o'qiga parallel nurlar yuborilsa, ular linzadan o'tayotib sinadi va o'z yo'nalishini o'zgartiradi.
- Linza yig'uvchi bo'lsa, nurlar hir-biriga yaqinlashib bir nuqtada kesishadi. Nurlar kesishgan nuqta linzaning *bosh fokusi* deb ataladi.
- Yordamchi optik o'qqa parallel bo'lgan nurning kesishish nuqtasiga linzaning *yordamchi fokusi* deyiladi.
- Linzaning optik markazlaridan bosh fokusgacha bo'lgan masofa linzaning *fokus masofasi* deyiladi va  $F$  harfi bilan belgilanadi.
- Agar parallel nurlar bosh optik o'qqa biror burchak ostida tushsa, bu nurlar ham linzadan o'tgach kesishadi. Kesishish nuqtasi bosh fokusdan o'tuvchi bosh optik o'qqa perpendikulyar bo'lgan tekislikda yotadi. Bu tekislik *fokal tekislik* deyiladi.



Rasm 88. a- yig'uvchi linza; b- sochuvchi linza; c- yig'uvchi linza fokusi; d-sochuvchi linza fokusi; e-MN-yig'uvchi linzaning fokal tekisligi, F-fokus masofasi

- Sochuvchi linzaning bosh fokus masofasi manfiy hisoblanadi.

### 94- §. Linzaning optik kuchi

- Linzaning fokus masofasi qancha kichik bo'lsa, uning nur sindirish qobiliyati shuncha katta bo'ladi, ya'ni singan nur shuncha katta burchakka og'adi. Aksincha, fokus masofasi katta bo'lganda og'ish burchagi kichik bo'ladi. Linzaning bunday xususiyatini xarakterlash uchun, odatda, fokus masofasi o'rniga unga teskari bo'lgan fizik kattalik kiritilgan bo'lib, u linzaning optik kuchi deyiladi va  $D$  harfi bilan belgilanadi.

Optik kuchining birligi dioptriya.  $1D_{pr} = 1/m$

- Agar linza havoda yoki bo'shliqda turgan bo'lsa, uning optik kuchi:

$$D = \frac{1}{F} = \pm(n-1)\left(\frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2}\right)$$

+ yig'uvchi linza  $D > 0$ ;

- sochuvchi linza  $D < 0$ ;

⇒ Agar linza biror muhitda turgan bo'lsa:

$$D = \frac{n_n}{F} = (n - n_n) \left( \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \right)$$

- Qalinligi, buyumdan linzagacha yoki linzadan tasvirgacha bo'lgan masofaga nisbatan kichik bo'lgan linzalar *yupqa linzalar* deyiladi.
- Yupqa linzaning fokus masofasi:

⇒ Agar linza havoda yoki bo'shliqda turgan bo'lsa:

$$F = \frac{1}{D} = \frac{1}{(n-1)} \frac{R_1 \cdot R_2}{R_1 + R_2}$$

⇒ Linza biror muhitda turgan bo'lsa:

$$F = \frac{n_n}{D} = \frac{n_n}{(n - n_n)} \frac{R_1 \cdot R_2}{R_1 + R_2}$$

### 95- §. Linzalarda tasvir yasash

- Tasviri yasalayotgan jism yoki buyumning istalgan nuqtasidan ikki nur tanlash yetarli. Yig'uvchi linzadan o'tgach nurlar kesishadi. Sochuvchi linzada esa nurlar yo'nalishi linza tomon davom ettirilib uning orqasida kesishadi.
- Jism tasvirini yasash uchun quyidagi nurlarni tanlash maqsadga muvofiq:
  - 1) linzaning bosh optik o'qiga parallel bo'lgan nur. Bu nur linzadan sinib o'tgach, uning fokusidan o'tadi;
  - 2) linzaga tushguniga qadar uning fokusidan o'tadigan nur. Bu nur linzadan o'tgach, bosh optik o'qqa parallel yo'nalishda ketadi;
  - 3) linzaning optik markazidan o'tuvchi nur yupqa linzalarda o'z yo'nalishini o'zgartirmaydi.

## 96- §. Linza formulasi

- Linza formulasi:

→ yig'uvchi linza (qavariq):  $\frac{1}{F} = \frac{1}{d} + \frac{1}{f}$ ;

→ sochuvchi linza (botiq):  $-\frac{1}{F} = \frac{1}{d} - \frac{1}{f}$ ;


- Linzaning kattalashtirishi:

→ yig'uvchi linza uchun:  $K = \frac{f}{d}$ ;  $K = \frac{f-F}{F}$ ;  $K = \frac{F}{d-F}$ ;


→ sochuvchi linza uchun:  $K = \frac{f}{d}$ ;  $K = \frac{F-f}{F}$ ;  $K = \frac{F}{F+d}$ ;

→ lupa uchun:  $K = \frac{d}{F}$ ;  $d_0 = 0.25M$ ;

$d_0$  - sog'lom ko'zning eng yaxshi ko'rish masofasi:  $d_0 = 0.25M$



a)



b)

Rasm 89. a-yig'uvchi linzada tasvir yasash; b-sochuvchi linzada tasvir yasash

- Linzaning fokus masofasi va kattalashtirishi orasidagi bog'liqlik:

⇒ Yig'uvchi linzada haqiqiy tasvir uchun:  $F = \frac{k}{k+1} \cdot d$ ;  $F = \frac{1}{k+1} \cdot f$

Agar tasvir n marta kichraygan bo'lsa, k ning o'rniga  $k=1/n$  ifoda olinadi.

⇒ Yig'uvchi linzada mavhum tasvir uchun:  $F = \frac{k}{k-1} \cdot d$ ;  $F = \frac{1}{k-1} \cdot f$

⇒ Sochuvchi linza uchun:  $F = \frac{k}{k-1} \cdot d$ ;  $F = \frac{1}{k-1} \cdot f$

- Buyumdan linzagacha bo'lgan masofa va linzaning kattalashtirishi orasidagi bog'liqlik:

⇒ Yig'uvchi linzada haqiqiy tasvir uchun:  $d = \frac{1}{k} \cdot f$ ;  $d = \frac{k+1}{k} \cdot F$

Agar tasvir n marta kichraygan bo'lsa, k ning o'rniga  $k=1/n$  ifoda olinadi.

⇒ Yig'uvchi linzada mavhum tasvir uchun:  $d = \frac{1}{k} \cdot f$ ;  $d = \frac{1-k}{k} \cdot F$

- Tasvirdan linzagacha bo'lgan masofa va linza kattalashtirishi orasidagi bog'liqlik:

⇒ Yig'uvchi linzada haqiqiy tasvir uchun:  $f = k \cdot d$ ;  $f = (k+1) \cdot F$

Agar tasvir n marta kichraygan bo'lsa k ning o'rniga  $k=1/n$  ifoda olinadi.

⇒ Yig'uvchi linzada mavhum tasvir uchun:  $f = k \cdot d$ ;  $f = (1-k) \cdot F$

⇒ Sochuvchi linza uchun:  $f = k \cdot d$ ;  $f = (1-k) \cdot F$

- Linza kattalashtirishi  $k$ , fokus masofasi  $F$  va  $l=d+f$  bo'lsa:

$$k = \frac{f}{d}; \quad k = \frac{l}{d} - 1; \quad k = \frac{f}{l-f}; \quad F = \frac{k}{(k+1)^2} \cdot l; \quad d = \frac{l}{k+1}; \quad f = \frac{k}{k+1} \cdot l;$$

- Yig'uvchi linza uchun mavjud bo'lgan ba'zi bir xususiy hollar:

1. Jism linzadan cheksiz uzoq masofada joylashgan, ya'ni  $d = \infty$ . Bunda tasvir haqiqiy, ammo u nuqtasimon va linzaning fokusida joylashadi

2. Buyum linzadan  $d > 2F$ , ammo chekli masofada joylashgan. Bunda tasvir haqiqiy, ammo teskari va kichraygan bo'lib,  $2F > f > F$  masofada joylashadi.

3. Buyum linzadan  $2F$  masofada joylashgan,  $d = 2F$ . Bu holda tasvir kattalik jihatidan buyumga teng, haqiqiy, ammo teskari.

4. Buyum  $2F > d > F$  masofada joylashgan. Bunda tasvir haqiqiy, ammo teskari va kattalashgan bo'lib,  $f > 2F$  masofada joylashadi.

5. Buyum  $F > d > 0$  masofada joylashgan, ya'ni u linzaga juda yaqin. Bunda buyumdan chiqqan nurlar kesishmaydi. Shu sababli buyumning haqiqiy tasviri o'rniga uning mavhum kattalashgan to'g'ri tasviri linzaning buyum turgan tomonida hosil bo'ladi.

- Ketma-ket joylashgan ikkita yig'uvchi linzalar tizimiga tushayotgan parallel nurlar dastasi linzalardan chiqib parallelligicha qolishi uchun birinchi linzaning orqa fokusiga ikkinchi linzaning fokusi mos tushishi kerak, linzalar orasidagi masofa esa ularning fokus masofalari yig'indisiga teng bo'lishi kerak:

$$l = F_1 + F_2$$

- Yonma-yon turuvchi ikkita yupqa linzaning optik kuchi va fokus masofasi:

$$D = D_1 + D_2; \quad F = \frac{F_1 F_2}{F_1 + F_2};$$

Linza orasidagi masofa  $l$  ga teng bo'lsa:

$$D = D_1 + D_2 - l \cdot D_1 D_2; \quad F = \frac{F_1 F_2}{F_1 + F_2 - l}$$

### 97-§. Optik asboblari

- **Proeksion apparatda** buyum ob'ektivning ikkilangan fokus masofasi bilan fokus masofasi o'rtasiga qo'yiladi. Shu sababli ekranda uning kattalashgan haqiqiy, ammo teskari tasviri hosil bo'ladi.
- Shaffof jismlar tasvirini olishda qo'llaniladigan proeksion apparat *diaskop* deyiladi.
- Agar jism shaffof bo'lmasa, uni yorug'lik manbai bilan yoritib, qaytgan nur yo'lga yassi ko'zgu qo'yiladi. Ko'zgdan qaytgan nur ob'ektivga yo'naltiradi. Ob'ektivdan chiqqan nurni ekranga tushirib, jism tasvirini ko'rish mumkin. Bunday proeksion apparat *episkop* deyiladi.
- Ham shaffof, ham shaffof bo'lmagan buyumlar tasvirini hosil qilish uchun ishlatiladigan proeksion apparatlar *epidiaskop* deyiladi.

- Buyum tasvirini biror plyonkaga tushirish va uni saqlab qolish uchun ishlatiladigan optik asbob *fotoapparat* deyiladi. Fotoapparat, asosan, ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qism buyum tasvirini hosil qiluvchi ob'ektivdan iborat. Odatda, ob'ektiv bir necha linzalar sistemasidan tashkil topgan. Ikkinchi qism orqa devoriga yorug'likka ta'sirchan plyonka yoki plastinka joylashtiriladigan qorong'u kameradan iborat.
- Fotoapparatda tasviri olinmoqchi bo'lgan buyum, odatda, ob'ektivning ikki fokus masofasidan uzoqda joylashganligi sababli uning tasviri haqiqiy kichiklashgan va teskari bo'ladi.
- Fotoapparatda  $d_1$  masofadan suratga olingan jism tasvirining o'lchami  $h_1$ ,  $d_2$  masofada esa  $h_2$  bo'lsa, ob'ektiv linzaning fokus masofasi :

$$F = \frac{h_1 d_1 - h_2 d_2}{h_1 - h_2}$$

- Juda mayda narsalarni ko'rish uchun *mikraskop* ishlatiladi. Mikraskop yaqin joylashgan mayda ob'ektlarni ko'rishga mo'ljallangan. Uni optik sistemasi obektiv okulyatordan iborat bo'lib, ularning optik o'qlari bir to'g'ri chiziqda yotadi.
- Mikraskopining kattalashtirishi yorug'lik difraksiyasi sabab 2500-3000 dan oshmaydi.
- Mikraskopning kattalashtirishi  $K$  buyumning ikkinchi tasviri  $H$  o'lchamining, buyumning o'lchami  $h$  ga bo'lgan nisbati bilan o'lchanib, u quyidagi formula bilan aniqlanadi:  $K = \frac{H}{h} = \frac{\sigma}{F_1} \frac{d_0}{F_2}$ . Bu yerda  $\sigma$  – mikraskop tubusining uzunligi,  $d_0$  – ko'zning yaxshi ko'rish masofasi,  $F_1$  va  $F_2$  – obektiv va okulyatorning fokus masofalari.
- *Teleskop*– osmon jismlarini, yoritgichlarini kuzatish uchun ishlatiladigan astronomik asbobdir. Teleskoplar refraktor va reflektorlarga bo'linadi. Refraktorlarning ko'rish burchagi linzalar sistemasi yordamida kattalashtiriladi, reflektorlarning asosiy qismi parabolik ko'zgudan iborat bo'ladi.
- Optik asboblarning ko'rinma kattalashtirishi:  $N = \frac{\varphi_2}{\varphi_1}$ . Bu yerda,  $\varphi_2$  – buyumning asbob orqali qaralgandagi ko'rish burchagi,  $\varphi_1$  – buyumning qurollanmagan ko'z bilan qaralgandagi ko'rish burchagi.
- Ko'z optik sistema bo'lib, buyumning tasviri ko'z soqqasining yorug'likka sezgir bo'lgan to'rsimon pardasida hosil bo'ladi. Odam ko'zining shakli shar shakliga yaqin bo'ladi.
- Ko'z gavharining fokus masofasini kuzatilayotgan buyumgacha bo'lgan masofaga moslash qobiliyati *akkomodatsiya* deyiladi.
- Buyumdan ko'zgacha shu buyumning mayda qismlarini (ko'zni haddan tashqari zo'riqtirmay) ko'rish mumkin bo'lgan masofa *eng yaxshi ko'rish masofasi* deyiladi.

- Ko'z zo'riqmagan holatda uzoqdagi buyum tasvirini to'r pardasida emas, uning oldida hosil qilsa, ko'zning bu nuqsoni *yaqindan ko'rarlik* deb ataladi. Bu nuqsomni yo'qotish uchun sochuvchi linzalar o'rnatilgan ko'zoynak taqaladi.
- Uzoqdagi buyumning tasviri to'r parda orqasiga tushishi bilan bog'liq bo'lgan nuqsom *uzoqdan ko'rarlik* deyiladi. Bu nuqsomni yo'qotish uchun sochuvchi linzalar o'rnatilgan ko'zoynak taqiladi.
- Ko'z optik sistema sifatida yig'uvchi linzadan iborat.
- Normal ko'zning eng yaxshii ko'rish masofasi:  $L_0 = 25\text{sm}$
- Fokus masofasi odatda, 1 sm dan 10 sm gacha bo'lgan yig'uvchi linza (yoki linzalar sistemasi) *hupa* deyiladi.
- Lupaning vazifasi eng yaxshii ko'rish masofasida buyumni katta ko'rish burchagi ostida ko'rsatib berishdir.
- Buyumning chekka nuqtalaridan keladigan nurlarning ko'zga tushish burchagi ko'rish burchagi deyiladi.
- Odatda ishlatiladigan lupalarning kattalashtirishi 2,5 dan 25 gacha bo'ladi.
- Lupaning kattalashtirishi:


$$K = \frac{L_0}{F}$$

- **Yaqindan ko'rar ko'z** optik kuchi manfiy ( $D < 0$ ) bo'lgan ko'zoynakdan foydalanadi.
- **Uzoqdan ko'rar ko'z** optik kuchi musbat ( $D > 0$ ) bo'lgan ko'zoynakdan foydalanadi.
- **Nuqsomli ko'z** foydalanishi kerak bo'lgan ko'zoynakni optik kuchi ( $D_{\text{nuqs}}$ ):


$$D_{\text{nuqs}} = 4 - \frac{1}{L}$$

$L$  – nuqsomli ko'zning yaxshii ko'rish masofasi.

- Mikraskopning kattalashtirishi:  $K = \frac{h \cdot D_2}{F_1 \cdot F_2}$




Rasm 90. Yaqindan ko'rar ko'z



Rasm 91. Uzoqdan ko'rar ko'z

### 98-§ Yorug'lik dispersiyasi

- Oq yorug'lik shaffof prizmada turli rangdagi nurlarga ajraladi. Bu nurlar prizmadan chiqqandan keyin ekranga tushirilsa, kamalakdagidek asosan 7 xil rangdan: qizil, to'q sariq, sariq, yashil, havo rang, ko'k va binafsha ranglardan iborat polosa hosil bo'ladi. Bu kamalak rangdagi, polosa *spektr* deb ataladi.




Rasm 92. Yorug'lik dispersiyasi

Ko'zga ko'rinadigan yorug'lik to'lqinlarining uzunliklari

	Rangi	To'lqin uzunligi nm		Rangi	To'lqin uzunligi nm
1	Qizil	800-620	5	Yashil	550-510
2	Zarg'aldoq	620-585	6	Havorang	510-480
3	Sariq	585-575	7	Ko'k	480-450
4	Yashil sariq	575-550	8	Binafsha	450-390


- Prizmadan o'tayotgan to'lqin uzunligi katta bo'lgan nurlar kichik burchakka og'adi, qisqa to'lqin uzunligidagi yorug'lik katta burchakka og'adi.
- Oq yorug'likni tashkil qilgan hamma rangli nurlarning qo'shilishidan yana oq yorug'lik hosil bo'ladi.



Rasm 93. Spektr ranglarining qo'shilishi

- Moddaning sindirish ko'rsatkichining yorug'lik rangiga bog'liqligi *dispersiya* deyiladi. Turli rangdagi yorug'lik nurlari to'lqin uzunligi qiymati bilan farqlanuvchi yorug'lik to'lqinlari ekanligini e'tiborga olsak, sindirish ko'rsatkichi to'lqin uzunligiga bog'liq degan xulosaga kelinadi.

- Dispersiya so'zi lotincha dispersio *sochilish* so'zidan olingan. Yorug'lik dispersiyasini birinchi bo'lib ingliz fizigi I. Nyuton kuzatgan.
- Dispersiya yorug'lik to'lqin nazariyasi asosida tushuntirish mumkin bo'lgan hodisalardan biridir.



**Rasm 94. Chastotaning sindirish ko'rsatkichiga bog'liqligi:**  
 a) normal dispersiya uchun; b) anomol dispersiya uchun

- Normal dispersiyada to'lqin uzunligi ortishi bilan muhitning sindirish ko'rsatkichi kamayadi. Normal dispersiya hodisasi elektromagnit to'lqinlarining ko'rish diapazonida kuzatiladi

Quyida ba'zi moddalar sindirish ko'rsatkichining to'lqin uzunligiga bog'liqligi keltirilgan

$\lambda$ to'lqin uzunligi (mkm)	$n$ sindirish ko'rsatkichi		
	Fluorit	Kvarts	Osh tuzi
0,2	1,5	1,65	1,75
1,6	1,43	1,53	1,53
3,2	1,41	1,47	1,51

- Nurning to'lqin uzunligi qanchalik kichik bo'lsa, shu nur uchun sindirish ko'rsatkichi shunchalik katta bo'ladi.
- Spektrlarni olish va tekshirish (dispersiya hodisasini kuzatish) uchun ishlatiladigan optik asboblarni *spektral apparatlar* deyiladi.
- Muhitda har xil rangdagi nurlarning har xil tezlikda tarqalishi dispersiyadir. Muhitda qizil rangdagi nurlar katta tezlikka, binafsha rangdagi nurlar kichik tezlikka ega bo'ladi:

$$v_{qizil} > v_{sariq} > v_{yashil} > v_{ko'k} > v_{binafsha}$$

- Bo'shliq va havoda barcha rangdagi nurlar bir xil tezlikka ega bo'ladi.
- Muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi qizil rangli nurlar uchun kichik binafsha rangli nur uchun katta qiymatga ega bo'ladi:

$$n_{qizil} < n_{sariq} < n_{yashil} < n_{ko'k} < n_{binafsha}$$

- Yorug'lik nurining chastotasi ortib borish tartibi:

$$v_{qizil} < v_{sariq} < v_{yashil} < v_{ko'q} < v_{kirmizi} < v_{qizil} < v_{qora}$$

- Ikkita (yoki undan ko'p) ranglarni qo'shish bilan ham oq yorug'likni hosil qilish mumkin. Bunday ranglarga *qo'shimcha rang* deyiladi.
- Uchta asosiy hisoblangan qizil, yashil va binafsha ranglarini turli hissalarda qo'shish bilan istalgan ko'rinisdagi rangni hosil qilish mumkin.
- Yorug'likni qaytarmaydigan va yutmaydigan jismlar *shaffof jismlar* deyiladi.
- Agar bo'yoq surtilgan shishaga oq yorug'lik tushsa, unda shisha asosan, bo'yoq rangidagi yorug'likni o'tkazadi.
- Noshaffof bo'lgan jismning rangi u qaytaradigan yorug'lik ranglarining aralashmasi bilan aniqlanadi. Agar noyshaffof jism o'ziga tushayotgan yorug'likni qaytarsa jism shu rangda ko'rinadi.
- Barcha rangdagi yorug'likni qaytaradigan jism oq bo'lib ko'rinadi.
- O'ziga tushayotgan barcha yorug'likni yutadigan jism qora jism bo'ladi.
- Difraksiya va dispersiya natijasida hosil bo'lgan spektrlar bir-biridan keskin farq qiladi. Difraksiyada katta to'lqin uzunligiga ega bo'lgan qizil nurlar, kichik to'lqin uzunligiga ega bo'lgan binafsharang nurlardan ko'ra ko'proq og'adi. Dispersiyada katta to'lqin uzunligiga ega bo'lgan qizil nurlar, kichik to'lqin uzunligiga ega bo'lgan binafsharang nurlardan ko'ra kamroq og'adi.
- Absolyut qora va oq jismlar mavjud emas.

#### Yorug'likning yutilishi

- Yorug'likning yutilishi (absorbsiya) deb moddadan o'tishda yorug'lik energiyasining yo'qotilishiga aytiladi. Bunga sabab – yorug'lik energiyasining moddaning ichki energiyasiga aylanishi. Yutilish natijasida o'tayotgan yorug'likning intensivligi kamayadi.
- Yorug'likning moddada yutilishi Buger qonuni yordamida tavsiflanadi:  $I = I_0 e^{-\alpha x}$   
Bu yerda  $I$  va  $I_0$  - mos ravishda  $x$  qalinlikli moddaga tushayotgan va undan chiqayotgan yorug'likning intensivliklari,  $\alpha$  - yutilish koeffitsienti deyilib, moddaning kimyoviy tarkibi, holati va tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'liq kattalik.
- Dispersiya hodisasining ahamiyati:
  1. Dispersiya hodisasi nurlanish yordamida moddalarning tuzilishi to'g'risida muhim ma'lumotlar olish imkonini beradi.
  2. Dispersiya hodisasi kerakli bo'yoqni turli ranglarni qancha hissada qo'shib hosil qilishni aniqlash imkonini beradi.
- Osmonda kamalakning hosil bo'lishi dispersiya hodisasiga asoslangan: Quyosh nurlarining atmosferada hosil bo'ladigan suv tomchilarida sinishi uning rangli nurlarga ajralishiga, ya'ni kamalakning hosil bo'lishiga olib keladi.

### 99-§. Infraqizil va ultrabinafsha nurlar

- Bizning ko'zimiz to'lqin uzunligi  $\lambda_1 = 0.7 + 0.8 \mu\text{m}$  bo'lgan (qizil) nurdan to'lqin uzunligi  $\lambda_2 = 0.37 + 0.4 \mu\text{m}$  gacha bo'lgan (binafsha) nurlarini sezadi.
- Moddaning isish darajasi yoki modda temperaturasining ko'tarilishi tushayotgan yorug'lik nurining to'lqin uzunligiga ham bog'liq. Masalan, qizil yorug'lik ta'sirida modda ko'proq qiziydi.
- Temperaturani o'lchash uchun ishlatiladigan, sirtiga qorakuya surtilgan plastinka — *bolometr* deyiladi.
- To'lqin uzunligi qizil nur to'lqin uzunligidan katta bo'lgan va inson ko'zi sezmaydigan nurlar *infraqizil nurlar* deyiladi. Infraqizil nurlarning to'lqin uzunligi  $(0,8 + 100) \mu\text{m}$  intervalida joylashgan.
- Infraqizil nurlari issiqlik ta'siriga ega. Shuning uchun ular ko'pincha *issiqlik nurlari* deb ham ataladi.
- Oddiy ko'zga ko'rinadigan nurlardan farqli ravishda infraqizil nurlarga bulut, tumanlar to'siq bo'lolmaydi. Shu nurlarga ta'sirchan bo'lgan maxsus fotodemulsiya yordamida ulardan texnik masalalarni yechishda, xususan, tungi fotografiya ishlarida foydalaniladi.
- To'lqin uzunligi binafsha nur to'lqin uzunligidan kichik bo'lgan, ya'ni inson ko'zi sezmaydigan nurlar *ultrabinafsha nurlar* deyiladi. Ultrabinafsha nurlar ba'zi moddalarga tushsa, ularda *lyuminestsensiya*, ya'ni qo'shimcha nur chiqarish xususiyatini tug'diradi. Ultrabinafsha nurlarning to'lqin uzunligi  $0,4 \cdot 10^{-10}$  m dan  $0,005 \mu\text{m}$  gacha.


### 100-§. Nurlanish va Yutilish spektrlari. Spektral analiz

- Yuqori temperaturagacha qizdirilgan moddalardan chiqadigan nurlar moddaning turiga bog'liq holda turli spektr beradi. Bunday spektrlar *nurlanish spektrlari* deyiladi. Bu nurlanish spektrlarini uch turga: *tutash* (uzluksiz), *chiziqli* va *polosasimon* spektrlarga ajratish mumkin.
- **Tutash (uzluksiz) spektrlar.** Bunday spektrlarni o'ta qizdirilgan qattiq yoki suyuq jismlardan chiqqan nurlar hosil qiladi. Shuningdek, yuqori bosim ostida bo'lgan gaz va bug'lar nurlanishida ham tutash spektrlar yuzaga keladi. Uzlüksiz spektrda shu spektrni hosil qilayotgan nurlar uchun barcha uzunlikdagi to'lqinlarni topish mumkin, ya'ni spektrda birorta ham uzilish bo'lmaydi. Quyosh nuri va yuqori temperaturada bo'lgan plazmadan chiqqan nur tutash spektrni beradi.
- **Chiziqli spektrlar.** Turli ravshanlikka ega bo'lgan va bir-biridan keng qopa yo'llar bilan ajralgan rangli chiziqlardan iborat spektrlar *chiziqli spektr* deyiladi. Bunday spektrlarni atomar holda bo'lgan gazsimon moddalar hosil qiladi. Har bir atom ma'lum qiymatli to'lqin uzunligiga mos nur chiqaradi. Demak, har bir kimyoviy element o'ziga xos chiziqli spektrga ega.

- **Polosasimon spektrlar.** Polosasimon spektr bir-biridan qora oralig'lar bilan ajralgan ayrim polosalar (yo'llardan) iborat. Har bir polosa bir-biriga juda yaqin joylashgan ko'pdan-ko'p zich chiziqlardan iborat ekanligini o'ta sezgir spektral apparat yordamida payqash mumkin. Polosasimon spektrlarni asosan gaz molekularining nurlanishi hosil qiladi.
- Agar tutash spektrni hosil qiladigan nur, atom yoki molekulari uyg'onmagan moddadan o'tsa, dastlabki tutash spektr o'zgaradi. Bunda hosil bo'ladigan spektr *yutilish spektri* deyiladi.
- *Moddaning nur chiqarishi va nur yutishi Kirxgof qonuniga asoslangan.*
- **Kirxgof qonuni:** Modda yorug'lik manbai sifatida qanday to'lqin uzunligiga ega bo'lgan nur chiqarsa, u spektrning xuddi shu qismiga mos keluvchi nurni yutadi.
- Qattiq va suyuq moddadan o'tgan yorug'likning yutilish spektrida yutilgan nurlar o'rnida polosasimon qopa chiziqlar paydo bo'ladi.
- Turli moddalarning kimyoviy tarkibini shu moddalarning nurlanish va nur yutish xususiyatiga ko'ra tekshirish usuli *spektral analiz* deyiladi.
- Spektral analiz uchun chiziqli spektrni hosil qilish lozim.
- *Jismning qizishi hisobiga nurlanishi issiqlik nurlanishi deyiladi.*
- Issiqlik nurlanishining asosiy miqdoriy o'lchovi *nurlanish qobiliyatidir* va u  $E_T$  harfi bilan belgilanadi. Bu kattalik birlik yuzadan vaqt birligida chiqayotgan issiqlik nurlanishi energiyasidir.
- Absolyut qora jismning nurlanish qobiliyati uning temperaturasining to'rtinchi darajasiga to'g'ri proporsional:  $E_e = \sigma \cdot T^4$ . Bu yerda  $\sigma = 5.67 \cdot 10^{-8} \frac{W}{m^2 \cdot K^2}$  Stefan-Boltsman doimiysi deyiladi.
- Yutish qobiliyati jism o'ziga tushayotgan nurlanishning qanday ulushini yutishini ko'rsatadi. Yutish qobiliyati  $a$  harfi bilan belgilanadi.
- Agar jism o'ziga tushayotgan nurlanishni butunlay yutsa, absolyut qora jism deyiladi. Absolyut qora jism uchun  $a = 1$ . Boshqa jismlarda  $a < 1$ . Ideal ko'zguda  $a = 0$  bo'ladi.
- Nurlanishlar ikki xil bo'ladi: tormozlanish nurlanishi va anod materialining tabiatiga bog'liq bo'lgan xarakteristik nurlanish.
- Tormozlanish nurlanishi tutash spektr hosil qiladi. Tormozlanish nurlanishi anod materialiga deyarli bog'liq bo'lmaydi.

## 101-§. Rentgen nurlari

- To'liqin uzunligi ultrabinaf ha va gamma nurlar orasida bo'lgan nurlar Rentgen nurlari deyiladi.
- 1895-yilda nemis fizigi Vilgelm Rentgen tomonidan kashf etilgan.
- Rentgen nurlari elektronlarning biror modda bilan urilishi natijasida paydo bo'ladi.



Rasm 95. Rentgen trubkasi

- Rentgen nurlari moddadan deyarli qaytmaydi. Ular sinmay moddani kesib o'tadi. Elektromagnit maydon bu nurlarga ta'sir qilmaydi.
- Rentgen nurlari fotoplastinkaga tushirilsa, unda iz qoldiradi.
- Xarakteristik rentgan nurlanishi ikki bosqichdan iborat. Dastavval katta engiyali elektron anodga urilib, undagi atomlar bilan ta'sirlashadi. Natijada biror atom qobig'idagi (tashqi valent qobiqdagi) elektronni urib chiqaradi. Ikkinchi bosqichda bo'sh o'ringa yuqori qobiqdagi elektronlardan birortasi o'tadi (joylashadi). Natijada atom nurlanadi va rentgan nurlari chiqaradi.
- Kristall jismga tushganda rentgen nurlari difraksiyasi ro'y beradi.

- Rentgen trubkasida anodga yetib borgan elektron tezligi:  $v = \sqrt{\frac{2eU}{m_e}}$

bunda;  $U$  – anod kuchlanishi,  $e$  – elektron zaryadi,  $m_e$  – elektron massasi.

- Rentgen nurlanishi ikki xil bo'ladi: tormozlanish nurlanishi va xarakteristik nurlanish.
- Tormozlanish nurlanishi tutash spektrga ega bo'ladi. Spektrni aniq qisqa to'liqin chegarasi mavjud bo'lib, u anod kuchlanishi bilan aniqlanadi:

$$\lambda_{\text{min}} = \frac{h \cdot c}{e \cdot U}; \quad v_{\text{max}} = \frac{e \cdot U}{h}$$

bunda;  $h$  – Plank doimiysi,  $c$  – yorug'lik tezligi,  $U$  – anod kuchlanishi,  $e$  – elektron zaryadi.

- Anod kuchlanishi:  $U = \frac{m_e v^2}{2e}; \quad J = \frac{hc}{e \lambda_{\text{min}}}; \quad U = \frac{h v_{\text{max}}}{e};$
- Quvvati  $P$ , foydali ish koeffitsiyenti  $\eta$  bo'lgan rentgen trubkasidan  $t$  vaqt oralig'ida nurlangan fotonlar soni:  $N = \frac{\eta P t}{h v}; \quad N = \frac{\eta P t \lambda}{hc}$

## 102-§. Yorug'lik interferensiyasi

- *Yorug'lik interferensiyasi*— ikki yorug'lik to'lqinining qo'shilishi tufayli fazoning ma'lum sohalarida yorug'lik intensivligining kuchayishi yoki susayishi amalga oshadigan hodisadir.
- Yorug'lik interferensiyasini kuzatish shartlari: 1. Kogerent to'lqinlar hosil qilish kerak. 2. Kogerent to'lqinlar uchrashishidan oldin yo'llar farqini hosil qilish kerak, ya'ni bu kogerent to'lqinlarning yo'llar farqi butun yoki yarim to'lqin uzunligiga teng bo'lishi kerak.
- Yorug'lik interferensiyasi faqat kogerent yorug'lik to'lqinlarining qo'shilishi tufayli vujudga keladi.
- *Kogerent to'lqinlar* — chastotalari (ya'ni to'lqin uzunliklari) o'zaro teng, fazalar ayirmasi vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydigan to'lqinlardir.
- *Monoxrmatik to'lqinlar* – bir xil chastotali (to'lqin uzunlikli) va o'zgarmas amplitudali to'lqinlardir.
- Ikkita yorug'lik manbaidan kogerent to'lqinlar chiqmagani uchun ularni to'lqinlari uchrashganda yorug'lik interferensiyasi kuzatilmaydi.
- Mexanik to'lqinlarda ham interferensiya hodisasi kuzatiladi.
- Turli yorug'lik manbalaridan monoxrmatik to'lqinlari chiqmagani uchun ular interferensiyaga kirishmaydi.
- Interferensiyalanuvchi yorug'lik to'lqinlari, yo'llarining optik farqi yorug'lik to'lqinining yarim uzunligiga juft karrali bo'lgan holda, ya'ni interferension manzaraning  $\delta = 2\kappa \frac{\lambda}{2}$ , ( $\kappa = 0, 1, 2, \dots$ ) shart bajarilgan sohalarida yorug'lik intensivligining maksimumi kuzatiladi.

Havoda yoki bo'shliqda:  $\Delta x = 2m \cdot \frac{\lambda}{2}$  yoki  $\Delta x = m \cdot \lambda$ ;  $m = 1, 2, 3, \dots$  butun son.

Biror muhitda:  $n \cdot \Delta x = 2m \cdot \frac{\lambda}{2}$  yoki  $n \cdot \Delta x = m \cdot \lambda$

$n$  – muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi

$\delta$  ning qiymati yorug'lik to'lqinning yarim uzunligiga toq karrali bo'lgan holda, ya'ni interferension manzaraning

$$\delta = (2\kappa + 1) \frac{\lambda}{2}, \quad (\kappa = 0, 1, 2, \dots)$$

shart bajarilgan sohalarida yorug'lik intensivligining minimumi kuzatiladi.

Havoda yoki bo'shliqda:  $\Delta x = (2m + 1) \cdot \frac{\lambda}{2}$ ;  $m = 1, 2, 3, \dots$  butun son.

Biror muhitda:  $n \cdot \Delta x = (2m + 1) \cdot \frac{\lambda}{2}$

- **Yorug'lik to'lqinlarining superpozitsiya prinsipi:** Ikkita  $x_1 = A_1 \cos(\omega t + \varphi_1)$  va  $x_2 = A_2 \cos(\omega t + \varphi_2)$  kogerent yassi yorug'lik to'lqinlarining qo'shilishi natijasida fazoning ma'lum bir nuqtasida quyidagi amplitudali tebranish vujudga keladi:  $A^2 = A_1^2 + A_2^2 + 2A_1 A_2 \cos(\varphi_2 - \varphi_1)$  Bu yerda  $\varphi_2 - \varphi_1$  qo'shilayotgan to'lqinlarining fazalar farqi.

- Agar to'lqin intensivligi amplituda kvadratiga proporsionalligini e'tiborga olsak, u holda:  $I = I_1 + I_2 + 2\sqrt{I_1 I_2} \cos(\varphi_2 - \varphi_1)$  bo'ladi, Bu yerda  $I_1$ ,  $I_2$  va  $I$  to'lqin intensivligi.
- Ikki to'lqin intensivligi o'zaro teng bo'lib,  $I_1 = I_2 = I_0$  ular uchrashganida optik yo'llar farqi juft yarim to'lqin uzunligiga teng bo'lsa natijaviy intensivlik ( $I_{max}$ ) 4 marta ortadi:  $I_{max} = 4I_0$
- Ikki to'lqin uzunligi o'zaro teng bo'lib  $I_1 = I_2$  ular uchrashganda optik yo'llar farqi toq yarim to'lqin uzunligiga teng bo'lsa, natijaviy intensivlik ( $I_{min}$ ) nolga teng bo'ladi:  $I_{min} = 0$
- Egrilik radiusi  $R$  ga teng bo'lgan sferik sirt (linzada) kuzatiladigan Nyuton halqalaridagi qorong'u dog'larning radiusi:

$$r = \sqrt{mR\lambda}$$

agar linza va plastinka oralig'i biror muhit ( $n$ ) bilan to'ldirilsa:

$$r = \sqrt{mR \frac{\lambda}{n}}$$

- Yorug' dog'larning radiusi:


$$r = \sqrt{(2m-1) \frac{R\lambda}{2}}$$

agar linza va plastinka oralig'i biror muhit ( $n$ ) bilan to'ldirilsa:


$$r = \sqrt{(2m-1) \frac{R\lambda}{2n}}$$

- Interferensiya hodisasidan quyidagilarda foydalaniladi:

1. Yorug'likni to'lqin uzunligini aniqlashda;
2. Yaxshi qaytaruvchi silliq qatlamlarni hosil qilishda;
3. Sindirish ko'rsatkichining bosim, temperatura va aralashma turiga bog'liqligini o'rganishda.



a)



b)

Rasm 96. Nyuton xalqalari

## Yorug'lik interferensiyasini kuzatish usullari:

1. Yung usuli;
  2. Frenel ko'zgusi;
  3. Yupqa pardalarda turli xil ranglarni tovlanishi;
  4. Havo ponada interferensiya;
  5. Nyuton xalqalari;
  6. Frenel diprizmasi.
- **Interferometr**- jism o'lchamlarini yorug'likni to'lqin uzunligi bilan solishtirib aniqlash uchun ishlatiladigan asbob.
  - Interferometr va mikroskopdan iborat *mikrointerferometrlar* yordamida sirtlarning sayqalligi nazorat qilinadi.
  - *Interferension refraktometrlar* yordamida shaffof jismlar (gazlar, suyuqliklar va qattiq jismlar) sindirish ko'rsatkichining bosimga, temperaturaga va aralashmalarga bog'liqligi o'rganiladi.

### 103-§. Yorug'lik difraksiyasi

- Yorug'lik to'lqinlarining to'siqlarni aylanib o'tishi va geometrik soya sohasiga og'ishi *difraksiya* deb ataladi.
- Yorug'lik difraksiyasining kuzatilish sharti to'siq o'lchami ( $d$ ) yorug'lik to'lqin uzunligiga yaqin bo'lishi kerak:  $d \approx \lambda$
- **Geometrik optikaning qo'llanilish sharti:** to'siq o'lchami ( $d$ ) yorug'lik to'lqin uzunligidan juda katta bo'lishi kerak:  $d \gg \lambda$
- **Frenel-Gyugens prinsipi:** Yorug'lik to'lqini etib borgan har bir nuqta ikkilamchi yorug'lik manbai bo'lib, ular kogerent yorug'lik manbaiga aylanadi va ulardan chiqqan nurlar kelib tushgan har bir nuqtada interferensiya yuzaga keladi.
- Ketma-ket joylashgan juda ko'p tirqishlar yoki to'siqlardan tashkil topgan asbobga difraksion panjara deyiladi. Tirqishning kengligi ( $a$ ) bilan, to'siq kengligi ( $b$ ) yig'indisi difraksion panjara doimiysi ( $d$ ) deyiladi:  $d = a + b$
- Difraksion panjarada maksimumlar sharti:  
$$d \cdot \sin \varphi = k \cdot \lambda$$
bunda;  $d$  - difraksion panjara doimiysi,  $k$  - kuzatilayotgan maksimum tartibi (butun son),  $\varphi$  -  $k$  tartibli maksimumning markaziy maksimumga nisbatan ko'rinish burchagi,  $\lambda$  - to'lqin uzunligi.
- Difraksion manzaraning markazida tartib raqami  $k = 0$  bo'lgan markaziy maksimum yotadi.
- Markaziy maksimumning har ikki tomonida  $k$  tadan maksimumlar yotadi.
- Bir xil tartibli maksimumlar orasidagi burchak  $\alpha$ , maksimumlar shartidagi  $\varphi$  burchakdan ikki marta katta bo'ladi:

$$\varphi = \frac{\alpha}{2}$$

- Kuzatilishi mumkin bo'lgan eng katta tartib:

$$k_{\max} = \left[ \frac{d}{\lambda} \right], \quad \left[ \frac{d}{\lambda} \right] - \text{ning butun qismi.}$$

- Maksimumlar sonini topish:

$$N_{\max} = 2 \cdot \left[ \frac{d}{\lambda} \right] + 1$$

- Difraksion panjaradan ekrangacha bo'lgan masofa  $L$  markaziy maksimumdan  $k$  tartibli maksimumgacha bo'lgan masofa  $x$  ga teng bo'lsa maksimumlar sharti quydagicha bo'ladi:

$$d \cdot \frac{x}{\sqrt{L^2 + x^2}} = k \cdot \lambda$$

- Difraksion panjara yordamida to'liq uzunligini topish:

$$\lambda = \frac{d \cdot \sin \varphi}{k}; \quad \lambda = \frac{d}{k} \cdot \frac{x}{\sqrt{L^2 + x^2}};$$

- Difraksion panjaraning  $l$  uzunligida,  $N$  ta shtrixi bo'lsa  $d = l/N$ :

$$\frac{l}{N} \cdot \sin \varphi = k \cdot \lambda; \quad \lambda = \frac{l \cdot \sin \varphi}{k \cdot N}; \quad \lambda = \frac{l}{k \cdot N} \cdot \frac{x}{\sqrt{L^2 + x^2}}$$

- Agar difraksion panjara doimiysi ortirilsa maksimumlar orasidagi masofa kamayadi, maksimumlar soni ortadi.
- Difraksion manzarada qizil rangli nur katta burchakka va binafsha rangli nur kichik burchakka og'adi:

$$\varphi_{qiz} > \varphi_{pur} > \varphi_{nar} > \varphi_{yash} > \varphi_{havo} > \varphi_{ko'k} > \varphi_{bin}$$


- Difraksion panjara bilan ekran orasidagi masofa ortirilsa maksimumlar soni o'zgarmaydi, maksimumlar orasidagi masofa ortadi va maksimumning kengligi ortadi.
- Difraksion panjarada minimumlar sharti:

$$d \cdot \sin \varphi = (2k + 1) \cdot \frac{\lambda}{2}$$

bunda;  $d$  – difraksion panjara doimiysi,  $\varphi$  –  $k$  tartibli minimumning markaziy maksimumga nisbatan og'ish burchagi,  $k$  – minimumlarning tartib raqami.

### 104- §. Yorug'likning qutblanishi

- Yorug'lik to'lqinida to'lqin tarqalish yo'nalishiga perpendikulyar tekislikda uzviy bog'langan elektr vektori  $E$  (elektr maydon kuchlanganligi) va magnit vektori  $B$  (magnit maydon induksiyasi) tebranadi.
- Yorug'lik tarqatuvchi har bir real manba tartibsiz nur sochuvchi, ya'ni elektr va magnit vektorlarining tebranish tekisligi turlicha bo'lgan ko'plab atomlardan tashkil topgan. Bu atomlardan tarqalayotgan to'lqinlar bir-biriga qo'shilib tabiiy yorug'lik nurini hosil qiladi.
- Tabiiy yorug'likda elektr vektorining tebranishi boshqa yo'nalishlardagi tebranishlardan ustunlikka ega bo'lgan biror bir yo'nalish mavjud emas.



Rasm 97. a) tabiiy yorug'lik nuri, b) qutblangan nur.

- Agar elektr tebranishlari biror-bir yo'nalish bilan tartibga solinsa, (elektr tebranish vektori bitta tekislikda tebranadigan bo'lsa) bunday yorug'lik nuri *qutblangan nur* deyiladi.
- Qutblangan yorug'likning elektr vektori tebranayotgan tekislik-tebranish tekisligi, magnit vektori tebranayotgan tekislik - *qutblanish tekisligi* deyiladi.
- Tabiiy yorug'likni qutblantirib beradigan qurilmalar *qutblagichlar* yoki *polyarizatorlar* deyiladi. Qutblagichdan o'tgan yorug'lik intensivligi ikki marta kamayadi:  $I = I_0/2$
- Yorug'lik ikki muhit chegarasiga biror  $i_B$  burchak ostida tushsa va bunda  $n_2 \sin i_B = n_1 \sin r$  shart bajarilsa ( $n_2$ , ikkinchi muhitning birinchi muhitga nisbatan sindirish ko'rsatkichi), qaytgan nur tushish tekisligiga perpendikulyar yo'nalishda *qutblangan* bo'ladi.
- Tabiiy yorug'lik manбайдan chiqayotgan yorug'lik nuri qutblanmagandir.
- **Molyus qonuni:** Birinchi qutblagichdan o'tgan yorug'lik intensivligi  $I_0$ , ikkinchi qutblagichdan o'tgan yorug'lik intensivligi  $I$ , qutblagich o'qlari orasidagi burchak  $\alpha$  ga teng bo'lsa, ular orasidagi munosabat quyidagiga teng:

$$I = I_0 \cos^2 \alpha$$


• Elektromagnit to'liqlar shkalasi to'liq uzunligining kamayib borish tartibida quyidagicha joylashadi:

1. past chastotali elektromagnit to'liqlar;
2. radioto'liqlar;
3. infraqizil nurlar;
4. qizil nurlar;
5. zarg'aldoq nurlar;
6. sariq nurlar;
7. yashil nurlar;
8. havo rang nurlar;
9. ko'k nurlar;
10. binafsha nurlar;
11. ultrabinafsha nurlar;
12. rentgen nurlari;
13. gamma  $\gamma$  nurlar;

*Ushbu tartibda chastotasi ortib boradi.*

- $\gamma$  nurlar to'liq uzunligi rentgen nurlarining to'liq uzunligidan kichik, chastotasi rentgen nurlarining chastotasidan katta bo'lgan elektromagnit to'liqlardir.
- $\gamma$  nurlar yadroning uyg'ongan holatidan asosiy statsionar holatiga o'tishida hosil bo'ladi,  $\gamma$  nurlarini uyg'ongan yadro nurlantiradi.

№	Turlarining nomi	To'liq uzunligi, $\lambda$	Chastotasi, $H$ :	Nurlar manbai
1	Past chastotali	$10^4$ dan katta	$3 \cdot 10^4$ dan kichik	Tok generatori
2	Radioto'liqlar	$10^{-1} - 10^4$	$3 \cdot 10^4 - 3 \cdot 10^{10}$	Tebranish konturi
3	Ultraradioto'liqlar	$10^{-4} - 10^{-1}$	$3 \cdot 10^{10} - 3 \cdot 10^{12}$	Yalpi tarqatgich
4	Infraqizil nurlar	$7,7 \cdot 10^{-7} - 10^{-4}$	$3 \cdot 10^{12} - 4 \cdot 10^{14}$	Lampalar
5	Yorug'lik nurlari	$4 \cdot 10^{-7} - 7,7 \cdot 10^{-7}$	$4 \cdot 10^{14} - 7,5 \cdot 10^{14}$	Lampalar
6	Ultrabinafsha	$10^{-8} - 4 \cdot 10^{-7}$	$7,5 \cdot 10^{14} - 3 \cdot 10^{16}$	Lampalar
7	Rentgen nurlari	$10^{-11} - 10^{-8}$	$3 \cdot 10^{16} - 3 \cdot 10^{19}$	Rentgen nayi
8	Gamma nurlari	$10^{-11}$ dan kichik	$3 \cdot 10^{19}$ dan katta	Radioaktiv modda



Rasm 98. Elektromagnit to'liqinlar shkalasi

### 105- §. Yorug'likning kimyoviy ta'siri

- Yorug'lik ta'sirida boradigan kimyoviy o'zgarishlarni *fotokimyoviy reaksiyalar* deyiladi.
  1. **Fotosintez.** O'simliklar tomonidan havodagi korbanat-angidridni yutib, uni yorug'lik ta'sirida kislorod va uglerodga ajratish.
  2. **Fotografiya.** a) *Suratga olish* – yorug'lik ta'sirida bromli kumush molekulasining ajralishi. b) *Surat chiqarish* – yorug'lik ta'sir etgan molekulalardan kumushni chiqarish. v) Mustahkamlash – fotoqatlamdan kumushni chiqarish. g) Nusxa ko'chirish – fotoplyonkadan tasvirni fotoqog'ozga o'tkazish.
- **Luminessensiya** (Sovuq holda nur chiqarish).  
Luminessensiya ikki usulda kuzatiladi:
  1. **Fluoressensiya** – jismlarga yorug'lik tushganda nur chiqarib, tushmaganda – chiqmasligi.
  2. **Fosforessensiya** – jismini yoritilgandan keyin ham nur chiqarib turishi.
- **Fotoelementlar** ikki turga bo'linadi. Tashqi fotoeffekt hodisasiga asoslanib ishlaydigan vakuumli va ichki fotoeffektga asoslanib ishlaydigan yarim o'tkazgichli asboblarga ajraladi. Yorug'lik ta'sirida modda yuzasidan elektronlar chiqishi *tashqi fotoeffekt*, moddada yorug'lik ta'sirida erkin elektronlar ko'payishiga *ichki fotoeffekt* deyiladi.
- Elektr qarshiligi yoritilganligiga bog'liq bo'lgan yarim o'tkazgichli asbobga *photodiode* deyiladi.
- Tok o'tganda o'zidan sovuq nur chiqaradigan yarim o'tkazgichli diodga *yorug'lik diode* deyiladi.
- O'tuvchi toki yorug'lik vositasida boshqariladigan tranzistorga *phototransistor* deyiladi.

### 106- §. Nisbiylik nazariyasi elementlari

- Eynshteynning maxsus nisbiylik nazariyasi fazo hamda vaqt to'g'risidagi eski (klassik) tassavurlar o'rniga kelgan ma'lumotdir. 1905 yilda maxsus nisbiylik nazariyasi yaratildi. Bu nazariya yorug'rik tezligidan kichik, lekin unga yaqin bo'lgan har qanday tezlik bilan harakatlanayotgan jismlarning harakat qonunlarini o'z ichiga oluvchi mexanik qonunlarning umumlashmasidan iborat bo'lib, unga *relyativistik mexanika* ("katta tezliklar mexanikasi") deb nom berildi.

Eynshteyn maxsus nisbiylik nazariyasining asosiy ikki prinsipi:


1. **Nisbiylik prinsipi.** Fizik qonunlar (bunda faqat mexanik qonunlar emas, balki elektromagnetizm, optika qonunlari ham nazarda tutilyapti) barcha inersial sanoq sistemalarida o'rinlidir. Boshqacha qilib aytganda, ayni biror fizik hodisani inersial sanoq sistemalarining birida kuzatish tufayli olingan natijalar boshqa inersial sanoq sistemalarida olingan natijalardan farq qilmaydi.

2. **Yorug'lik tezligining doimiylik prinsipi.** Yorug'likning vakuumdagi tezligi barcha inersial sanoq sistemalarida birday qiymatga ega bo'ladi. U yorug'likning tarqalish yo'nalishiga hamda yorug'lik chiqaruvchi jism va kuzatuvchining harakatiga bog'liq emas. Bu prinsip klassik mexanikadagi tezliklarni qo'shish qoidasiga mutlaqo ziddir.

- Nisbiylik nazariyasidagi tezliklarni qo'shishning realistik qonuni:

$$u = \frac{g_1 + g_2}{1 + \frac{g_1 \cdot g_2}{c^2}}; \quad u - \text{umumiy tezlik}$$

- Vaqt qonuni:  $t = \frac{t_0}{\sqrt{1 - \frac{g^2}{c^2}}}$



Rasm 99. Nisbiylik nazariyasida: a-vaqtning tezlikka bog'liqligi; b-uzunlikning tezlikka bog'lig'ligi

- Uzunlik qonuni:  $l = l_0 \sqrt{1 - \frac{g^2}{c^2}}$

- Massaning tezlikka bog'liqlik qonuni:  $m = \frac{m_0}{\sqrt{1 - \frac{g^2}{c^2}}}$


- Vaqtni  $n$  marta ortishi uchun tezlik:  $g = c \cdot \sqrt{1 - \frac{1}{n^2}}$

- Tinchlikdagi energiya:  $E_0 = m_0 c^2$

- Energiya va massaning bog'liqlik qonuni:

$$W = \frac{m_0 c^2}{\sqrt{1 - \frac{g^2}{c^2}}}; \quad W = m_0 c^2 + T; \quad W = m_0 c^2 + \frac{m_0 g^2}{2}; \quad W = m_0 (c^2 + \frac{g^2}{2})$$

W- to'liq energiya; T- kinetik energiya:  $T = m_0 c^2 \left( \frac{1}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} - 1 \right)$



Rasm 100. Nisbiylik nazariyasida massaning tezlikka bog'liqligi;

- Massa defekti:  $E = \Delta m c^2$   $\Delta m = \frac{E}{c^2}$   $\Delta m$  - massa defekti
- Impuls:  $P = \frac{m_0 v}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}}$ ;
- Zichlik:  $\rho = \frac{\rho_0}{1 - \frac{v^2}{c^2}}$
- Zichlik  $n$  marta oshishi uchun tezlik:  $v = c \cdot \sqrt{1 - \frac{1}{n}}$ ;  $n = \frac{\rho}{\rho_0}$
- Hajm qonuni:  $V = V_0 \cdot \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}$
- Jismning hajmi  $n$  marta qisqarishi uchun tezlik:  $v = c \cdot \sqrt{1 - \frac{1}{n^2}}$ ;  $n = \frac{V_0}{V}$ ;
- Nisbiy tezlikni topish:
  - $\Rightarrow$  Agar harakat yo'nalishlari qarama-qarshi bo'lsa:  $v_{ab} = \frac{v_1 + v_2}{1 + \frac{v_1 v_2}{c^2}}$
  - $\Rightarrow$  Agar harakat yo'nalishlari bir xil bo'lsa:  $v_{ab} = \frac{v_1 - v_2}{1 - \frac{v_1 v_2}{c^2}}$
- Agar jismning energiyasi  $\Delta E$  ga o'zgarsa massasi  $\Delta m$  ga o'zgaradi:
 
$$\Delta m = \frac{\Delta E}{c^2}$$
- $h$  balandlikka ko'tarilgan  $m$  massali jism massasining ortishi ( $\Delta m$ ):  $\Delta m = \frac{mgh}{c^2}$

- Deformatsiyalangan prujina massasining ortishi ( $\Delta m$ ):  $\Delta m = \frac{k \cdot x^2}{2c^2}$
- Jismga  $Q$  issiqlik miqdori berilganda jism massasining ortishi:  

$$\Delta m = \frac{Q}{c^2}; \quad c - \text{yorug'likning vakuumdagi tezligi}$$
- Temperaturasi  $\Delta T$  ga ortgan jism massasining ortishi:  $\Delta m = \frac{m \cdot c_{\text{moly}} \Delta T}{c^2}$ ;  
 $c_{\text{moly}}$  – jismning solishtirma issiqlik sig'imi.

### 107- §. Yorug'lik kvantlari

- Yorug'lik nurining modda bilan o'zaro ta'siri va bu ta'sir natijasida yorug'lik energiyasining modda atomlarini elektronlariga uzatilish hodisasi *fotoelektr effekt* yoki *fotoeffekt* deyiladi.
- Fotoeffekt hodisasi G. Gerts tomonidan kashf etilgan va Stoletov tomonidan o'rganilgan.
- Fotoeffekt natijasida chiqayotgan elektronlarni *fotoelektronlar*, zanjirda vujudga kelgan tokni *fototok* deyiladi.
- *Fotoeffektning birinchi tajribaviy qonuni*:
  1. Yorug'lik nuri tushayotgan plastinkaning yoritilganlik darajasi qancha katta bo'lsa, fototok kuchi shuncha katta bo'ladi.
  2. Vaqt birligi ichida chiqayotgan elektronlar soni tushayotgan yorug'lik intensivligiga to'g'ri proporsionaldir.
- *Tashqi fotoeffektning asosiy qonunlari*:
  1. Fotoelektronlarning maksimal tezligi fotokatodga tushayotgan yorug'lik chastotasiga, metalning turiga va uni sirtining xususiyatiga bog'liqdir. U yorug'likning intensivligiga bog'liq emas.
  2. Yorug'lik ta'sirida katoddan vaqt birligi ichida uchib chiqarilayotgan fotoelektronlarni umumiy soni (to'yinish toki) fotokatodga tushayotgan yorug'lik intensivligiga to'g'ri proporsionaldir.
  3. Har qaysi modda uchun fotoeffekt vujudga kelishi mumkin bo'lgan eng kichik yorug'lik to'lqinining chastotasi (yoki eng katta to'lqin uzunligi) ning qiymatlari mavjud bo'lib, u fotoeffektning «qizil chegarasi» deb ataladi. Bu chegara turli moddalar uchun turli qiymatga ega.
- Yorug'lik ta'sirida jismdan elektronlarning ajralib chiqib, erkin holatga o'tishi *tashqi fotoeffekt* deyiladi. *Tashqi fotoeffekt*, asosan, metallarning to'lqin uzunligi kichik bo'lgan yorug'lik nuri bilan o'zaro ta'sirida kuzatiladi.
- Elektronlarning jismda bir holatdan ikkinchi holatga yorug'lik ta'sirida o'tishi *ichki fotoeffekt* deyiladi. Ichki fotoeffekt dielektrik va yarim o'tkazgichlarda sodir bo'ladi. Ichki fotoeffekt tufayli ularning elektr o'tkazuvchanligi ortadi.

- Fotoeffekt hodisasining yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib berish xususiyatidan fan va texnikada keng qo'llaniladi. Shu xususiyat asosida ishlaydigan asboblarni *fotoelementlar deb ataladi*
- Yorug'lik zarracha sifatida *foton* deb ataladi yoki yorug'lik kvantiga foton deyiladi.

→ Foton energiyasi:

$$E = \nu h; \quad E = \frac{ch}{\lambda}; \quad E = cp; \quad h = 6.62 \cdot 10^{-34} \text{ j} \cdot \text{s}; \quad c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$$

Muhitda:  $E = \nu h; \quad E = \frac{hc}{n\lambda}$

- Fotoeffekt uchun Eynshteyn tenglamasi:  $\nu h = A_{\text{ch}} + \frac{m\mathcal{G}^2}{2}; \quad \nu h = A_{\text{ch}} + W_e$   
 $\nu h > A_{\text{ch}}$  bo'lganda fotoeffekt yuz beradi.

- **Fotoeffektning qizil chegarasi:** moddadan fotoelektronlarni urib chiqarish uchun yetarli bo'lgan yorug'lik to'lqin uzunligining eng katta qiymatiga, yoki chastotasining eng kichik qiymatiga *fotoeffektning qizil chegarasi* deyiladi:

$$\nu_{\text{min}} = \frac{A}{h}; \quad \lambda_{\text{max}} = \frac{ch}{A};$$

- Fotoeffekt uchun qizil chegarani hisobga olgan holdagi Eynshteyn tenglamasi:

$$h\nu = h\nu_e + \frac{m\mathcal{G}^2}{2}; \quad h\nu = h\nu_e + eU; \quad hc = \lambda \left( h\nu_e + \frac{m\mathcal{G}^2}{2} \right); \quad hc = \lambda(h\nu_e + eU);$$

- Foton massasi:  $m = \frac{E}{c^2}; \quad m = \frac{\nu h}{c^2}; \quad m = \frac{h}{\lambda c}; \quad m = \frac{h}{\nu \lambda^2}$

- Foton impulsini:  $P = \frac{\nu h}{c}; \quad P = \frac{E}{c}; \quad P = \frac{h}{\lambda}; \quad P = mc$

→ Foton sirtga tushib to'liq yutilganda sirt oladigan kuch impulsini, yoki foton impulsini o'zgarishi:

$$\Delta p = \frac{h\nu}{c}; \quad \Delta p = \frac{h}{\lambda}$$

→ Foton sirtga  $\alpha$  burchak ostida tushib to'liq yutilganda sirt oladigan kuch impulsining o'zgarishi:

$$\Delta p = \frac{h\nu}{c} \cdot \cos \alpha; \quad \Delta p = \frac{h}{\lambda} \cdot \cos \alpha$$

→ Foton sirtga tik tushib to'liq qaytganida sirt oladigan kuch impulsini, yoki foton impulsining o'zgarishi:

$$\Delta p = 2 \cdot \frac{h\nu}{c}; \quad \Delta p = 2 \cdot \frac{h}{\lambda}$$

→ Foton sirtga  $\alpha$  burchak ostida tushib sirtidan to'liq qaytganida sirt oladigan kuch impulsini, yoki foton impulsining o'zgarishi:

$$\Delta p = 2 \cdot \frac{h\nu}{c} \cdot \cos \alpha; \quad \Delta p = 2 \cdot \frac{h}{\lambda} \cdot \cos \alpha$$

- Yutilish va nurlanish chastotalari:  $\nu = \frac{W_m - W_n}{h}$ ;  $h = 6.62 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$

$W_m$ -elektronning  $m$ -orbitadagi energiyasi,  $\nu$ -chastota,  $\nu > 0$  – nurlanish  
 $\nu < 0$  – yutilish  $W_m$  dan  $W_n$  ga o'tish.

- Quvvati  $P$  bo'lgan manba  $t$  vaqt davomida nurlantirgan  $\nu$  chastotali fotonlar soni:

$$N = \frac{Pt}{h\nu}; \quad N = \frac{Pt\lambda}{hc}$$

- Agar manbaning foydali ish koeffitsiyenti  $\eta$  ga teng bo'lsa:  $N = \frac{\eta Pt}{h\nu}$ ;  $N = \frac{\eta Pt\lambda}{hc}$

- $1eV = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ J}$

- **Yorug'lik bosimi:**  $P = \frac{E}{c}(1 + R)$

$P$  – yorug'lik bosimi,  $E$  – sirtning yoritilganligi, ya'ni 1 s ichida tik tushayotgan yorug'lik energiyasi,  $R$  – sirtning yorug'lik qaytarish koeffitsiyenti,  $c$  – yorug'lik tezligi.

- Yorug'lik bosimi, uning intensivligi orqali:  $P = \frac{I}{c}$

- Yorug'lik bosimi:

$$\Rightarrow \text{Yorug'lik sirtga to'liq yutilsa: } P = \frac{W}{ctS}$$

$$\Rightarrow \text{sirtga to'liq qaytsa: } P = 2 \cdot \frac{W}{ctS}$$


$W$  – tushgan yorug'lik energiyasi,  $t$  – vaqt,  $S$  – yuza.

- **Yorug'lik ta'sirlari:** fotoelektrik, kimyoviy, issiqlik.
- **Fotoelement** deb yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi asboblarga aytiladi.
- **Fotorezistor** deb elektr qarshiligi yorug'lik ta'sirida o'zgaruvchi moddalarga aytiladi.
- Yer sirtining har kvadrat metr ko'ndalang yuzasiga bir sekunda o'rtacha 1370 J energiya kelib tushadi. Bu kattalik *quyosh doimiysi* deyiladi.

## ATOM FIZIKASI

### 108-§. Rezerford tajribasi. Atomning planetar modeli


- Rezerford 1899 yilda  $\alpha$ -nurlar musbat zaryadli zarrachalar oqimi ekanini isbotladi.  $\alpha$ -zarralar radiy yoki boshqa elementlarning parchalanishidan hosil bo'ladi. Ularning massalari elektronning massasidan taxminan 8000 marta katta, musbat zaryadi esa moduli jihatidan elektronning zaryadidan ikki marta kattadir.  $\alpha$ -zarralar butunlay ionlashgan geliy atomining xuddi o'zidir,  $\alpha$ -zarralarning tezligi juda katta: yorug'lik tezligining 1/15 ulushiga teng.
- Rezerford  $\alpha$ -zarralar bilan og'ir elementlarning atomlarini bombardimon qildi. Elektronlarning massasi juda kichik bo'lgani uchun ular  $\alpha$ -zarralarning traektoriyasini sezilarli o'zgartira olmaydi. Atomning musbat zaryadli qismigina  $\alpha$ -zarralarning sochilishiga sabab bo'ladi.
- $\alpha$ -zarralarning sochilishiga qarab atom ichida musbat zaryadning va massaning taqsimlanish xarakterini aniqlash mumkin.



Rasm 101. Rezerford tajribasi sxemasi

- Rezerford tajribasi atomning Tomson modeli noo'rin ekanligini tasdiqladi.
- Atomning Tomson modeli: Modelga ko'ra atom shar shaklida bo'lib musbat zaryadga ega. Uning ichida elektronlar suzib yuradi. Tomson modeli tajribada tasdiqlanmadi.
- **Atom yadrosining o'lchamlari:** Turli burchaklar ostida sochilgan zarralarni sanab, Rezerford atomning o'lchamlarini baholadi. Yadroning diametri  $10^{-12} + 10^{-13}$  sm tartibida. (turli yadrolarning diametrlari turlicha). Atomning o'lchami esa  $10^{-8}$  sm, ya'ni yadro o'lchamidan 10+100 ming marta katta.
- **Atomning planetar modeli.** Rezerford tajribalaridan atomning planetar modeli kelib chiqadi. Markazda atomning deyarli butun massasi yig'ilgan musbat zaryadli yadro joylashgan. *Butunicha atom neytral zarradir.* Elektronlar yadro atrofida xuddi quyosh atrofida planetalar aylangani singari harakatlanadi. Elektronlar harakatining bunday xarakteri yadro tomonidan kulon kuchlarining ta'siri bilan aniqlanadi.
- **Atomning planetar modelining kamchiliklari:** 1. Elektronlar egri chiziq bo'ylab harakatlanganda tezlanishi bor. 2. Energiya sarflagani uchun elektron oxirida yadroga qulab tushishi kerak.

- **Vodorod atomida yadro atrofida faqat bittagina elektron aylanadi.** Vodorod atomining yadrosi moduli jihatidan elektronning zaryadiga teng musbat zaryadga ega bo'lib, uning massasi elektronning massasidan taxminan 1836,1 marta katta. Bu yadro *proton* deb ataladi. *Atomning o'lchami* – bu uning elektron orbitasining radiusidir.



**Rasm 102. Vodorod atomi**

- Atomlar barqarordir va uyg'otilmagan holatda hech qanday elektromagnit to'liqin chiqarmasdan cheksiz uzoq vaqt yashashi mumkin. Atom mashtabidagi hodisalarga klassik fizika qonunlarini tatbiq qilish mumkin emas.

### 109-§. Borning kvant postulatlarini. Atomlarning energiya chiqarishi va energiya yutishi

- **Borning birinchi postulati:** Atom sistemasi har biriga muayyan  $E_n$  energiya mos keladigan alohida stasionar yoki kvant holatlaridagina bo'la oladi. Atom stasionar holatda yorug'lik chiqarmaydi. Bu postulat klassik fizikaga tamoman ziddir, klassik fizikaga ko'ra harakatlanayotgan elektronning energiyasi har qanday qiymatni qabul qilishi mumkin. Bu postulat Maksvel elektrodinamikasiga ham ziddir, chunki unga muvofiq elektronlar elektromagnit to'liqin chiqarmasdan ham tezlanish bilan harakatlanishi mumkin.
- **Borning ikkinchi postulati:** Atom katta energiyali  $E_k$  stasionar holatdan kam energiyali  $E_n$  stasionar holatga o'tganda yorug'lik nurlanadi. Nurlangan fotonning energiyasi stasionar holatlar energiyalarining farqiga teng bo'ladi:  $h\nu = E_k - E_n$ .

Bunda nurlanish chastotasini shunday ifodalash mumkin:  $\nu = \frac{E_k - E_n}{h}$ . Nur

yutganda atom kam energiyali stasionar holatdan katta energiyali stasionar holatga o'tadi. Ikkinchi postulat Maksvel elektrodinamikasiga ham ziddir, chunki bu postulatga ko'ra yorug'likning nurlanish chastotasi elektron harakatining xususiyatlarini emas, balki atom energiyasining o'zgarishinigina bildiradi. Bor o'z postulatlarini eng oddiy atom sistemasi – vodorod atomining nazariyasini yaratish uchun qo'lladi.

- Atom energiyasining stasionar qiymatlarini aniqlash qoidasi *kvantlash qoidasi* deyiladi.
- **Vodorod atomining Bor taklif etgan modeli.** Nyuton mexanikasi qonunlari va stasionar holatlarni tanlab olishga imkon beruvchi kvantlash qoidasini qo'llab Bor elektronning mumkin bo'lgan orbitalar radiuslari hamda


statsionar holatlarning energiyalarini hisoblashga erishdi. Orbitaning minimal radiusi atomning o'lchamini bildiradi.

- Yuqori sathlardan birinchi uyg'ongan holatga (ikkinchi  $E_2$  energetik sathga) o'tishlar **Balmer seriyasini** hosil qiladi. Ko'zga ko'rinadigan nurlarning chiziqli spektri **Balmer seriyasi** deyiladi. Ultrabinafsha nurlar spektri **Layman seriyasi** deyiladi. Infraqizil nurlar spektri **Pashen seriyasi** deyiladi.
- n- orbitadagi elektronning aylanish radiusi:  $r_n = \frac{nh}{2\pi m_e v}$

- Plank doimiysi:  $h=6.62 \cdot 10^{-34}$  J·s
- O'tish sathlari qanchalik yaqin bo'lsa, nurlangan (yoki yutilgan) foton chastotasi ( $\nu$ ) kichik va to'lqin uzunligi ( $\lambda$ ) katta bo'ladi:

Agar  $\nu_1 < \nu_2 < \nu_3 < \nu_4$  bo'lsa  $\lambda_1 > \lambda_2 > \lambda_3 > \lambda_4$  o'rinli

- Lazer - optik generatori bo'lib, katta quvvatli, sochilish burchagi juda kichik, kogorent va monoxromatik nurlanish chiqaradi.
- Lazerlar tarqalish burchagi juda kichik ( $10^{-3}$  rad atrofida) yorug'lik dastasi hosil qiladi.
- Lazer nurlanib chiqaradigan elektromagnit to'lqindagi elektr maydonning kuchlanganligi atom ichidagi maydon kuchlanganligidan kattadir.
- Santimetr to'lqinlar diapazonida ishlovchi kvant generatori *mazer* deb ataladi.
- **Spontan nurlanish** deb atomning o'z-o'zidan tashqi ta'sirsiz nurlanishiga aytiladi. Tashqi ta'sir ostida nurlanishga indutsirlangan yoki majburiy nurlanish deyiladi.
- Atom uzoq vaqt qolishi mumkin bo'lgan uyg'otilgan holatga *metastabil holat* deyiladi.
- Lazerda *indutsirlangan nurlanish* va *metastabil holatdan* foydalaniladi.



Rasm 103. Chastotalar haqidagi postulat

- 3- eng katta energiyali foton nurlanadi;
- 4- eng kichik energiyali foton nurlanadi;
- 5- eng katta energiyali foton yutiladi;
- 8- eng kichik energiyali foton yutiladi;

- Atomning eng kichik (minimal) energiyali holati uning *asosiy holati* deyiladi. Asosiy holat, bosh kvant soni  $n = 1$  ga mos keladi va u quyidagiga teng:  
 $E_1 = -13,6 eV$
- Birinchi Bor orbitasining radiusi:  $r_1 = 5,29 \cdot 10^{-11} m$

### 110-§. Zaryadlangan zarralarni tajribada qayd qilish va kuzatish usullari

- Atom *yadrodan* va *elektronlardan* iborat. Atom yadrosi esa elementar zarralardan iboratdir. *Elementar zarralarni qayd qiluvchi asbob* – beqaror holatda tura oladigan biror darajadagi murakkab mikroskopik sistemadir. Uchib o'tayotgan zarralar tomonidan berilgan ozgina ta'sir natijasida sistemaning yangi, barqarorroq holatga o'tish jarayoni boshlanadi. Ana shu jarayon zarrani qayd qilishga imkon beradi.
- Muhit orqali o'tgan zarralar energiyasini ularni o'lchash va qayd qilish uchun qulay bo'lgan boshqa turdagi energiyaga aylantirib beruvchi qurilmalarga *ionlashgan nurlanish detektorlari* deyiladi.
- **Ionizatsion detektorlar**, ularning ishlash prinsipida asosan zarralarning muhit bilan ta'sirlashishi tufayli hosil bo'lgan ionlanish jarayonidan foydalaniladi. Ularga ionizatsion kameralar, gaz razryadiga asoslangan sanagichlar, Vilson va pufakli kameralar, fotoemulsiya va boshqalar kiradi.
- **Tsintilyatsion sanagichlar**. Ba'zi shaffaof moddalar atomlarining uyg'ongan elektronlarini asosiy holatga qaytarishda yuzaga keladigan elektromagnit nurlanish to'lqin uzunligi ko'rinuvchi yoki ultrabinavsha soxada yotadi. Shunday moddalarga zarra kelib tushgan vaqtda ularda kuchsiz yorug'lik chaqnashi tsintilyatsiya yuzaga keladi. Kuchsiz yorug'lik chaqnashi-tsintilyatsiyaga asoslanib zarralarni qayd qiladigan qurilmalarga *tsintilyatsion sanagichlar* deyiladi.
- Har qanday tsintilyatsion sanagich *tsintilyator* va *fotoelektron kuchaytirgichdan* iborat bo'ladi. O'ziga tushgan zarra energiyasini yorug'lik energiyasiga aylantirib beradigan moddaga *tsintilyator* deyiladi.
- **Geygerning gaz razryad hisoblagichi**. Geyger hisoblagichi – zarralarni avtomatik ravishda sanaydigan asbobdir. Hisoblagichning ishlashi *zarb ta'sirida ionlashishga* asoslangan. Geyger hisoblagichi asosan *elektronlar* va  *$\gamma$ -kvantlarni* qayd qilish uchun ishlatiladi.  $\gamma$ -kvantlarni qayd qilish uchun nayning ichki devori maxsus material bilan qoplanadi.  $\gamma$ -kvantlar bu materialdan elektronlarni urib chiqaradi va bu elektronlar gaz atomlarini ionlashtiradi. Hisoblagich unga tushayotgan elektronlarni devarli hammasini qayd qiladi,  $\gamma$ -kvantlarni esa har vuztasidan bittasini qayd qiladi.
- **Vilson kamerasi**. Vilson kamerasida tez harakatlanayotgan zaryadli zarra iz qoldiradi, bu izga *«trek»* deyiladi. Vilson kamerasining ishlashi *ionlarda o'ta tuyingan bug'ning suv tomchilari hosil qilib kondensatsiyalanishiga*

asoslangan. Bunday ionlarni harakatdagi zaryadlangan zarracha o'z traektoriyasi bo'ylab hosil qiladi. Trekning uzunligiga qarab zarraning energiyasini aniqlash, trekning uzunlik birligidagi tomchilar soniga qarab zarraning tezligini baholash mumkin. Zarraning izi qanchalik uzun bo'lsa, energiyasi shuncha ko'p bo'ladi. Izning uzunlik birligida qancha ko'p suv tomchilari hosil bo'lsa, tezligi shunchalik kichik bo'ladi. Zaryadi katta bo'lgan zarralar yo'g'on iz qoldiradi.


- Bundan tashqari, yuqori energiyali tez zarralarni pufakli kamera, qalin qatlamli fotoemulsiya usullarida qayd qilish mumkin.
- Kvant energiyasi:  $E = h \cdot \nu = \frac{hc}{\lambda}$

### 111-§. Radioaktivlik

- Kimyoviy elementlarning o'z-o'zidan nurlanish hodisasiga *radioaktivlik* deb ataladi. Mendeliyev jadvalidagi tartib nomeri 83 dan yuqori bo'lgan barcha kimyoviy elementlar radioaktiv elementlardir. Radioaktivlik hodisasini 1896 yili Bekkerel kashf qilgan. Radioaktiv elementlarga misol: uran, toriy, poloniy
- Yadroning o'z-o'zidan bir yoki bir necha zarralar chiqarish hodisasiga *radioaktivlik* deyiladi. Shunday hodisaga duchor bo'lgan yadrolarni *radioaktiv yadrolar*, duchor bo'lmaganlari esa *turg'un yadrolar* deyiladi.
- Radioaktiv yadrolarning o'zidan biror bir turdagi zarralarni chiqarib, boshqa yangi yadroga aylanish jarayoni *radioaktiv yemirilish* deyiladi. Radioaktiv yemirilish jarayonida yadroning zaryadi va massa soni o'zgarishi mumkin.
- Radioaktivlikka duchor bo'layotgan yadrolarni *birlamchi* yoki *ona yadro*, yemirilishi natijasida hosil bo'lgan yadrolarni *ikkilamchi* yoki *qiz yadro* deyiladi.
- Radioaktivlik ikki xil bo'ladi: 1. Tabiiy radioaktivlik. 2. Sun'iy radioaktivlik. Tabiatda mavjud bo'lgan yadrolarning radioaktivligi *tabiiy radioaktivlik* deyiladi. Radioaktiv yadrolar biror-bir turg'un yadrolarni zarralar yoki yadrolar bilan bombardimon qilish natijasida hosil bo'lgan yadrolarning radioaktivligi *sun'iy radioaktivlik* deyiladi.
- Tabiatda asosan 5 xil radioaktivlik turi uchraydi:  $\alpha$  – yemirilish,  $\beta$  – yemirilish,  $\gamma$  – yemirilish,  $\rho$  – yemirilish va spontan bo'linish. Birinchi uchta radioaktivlik turi eng ko'p uchraydi.
- Radioaktiv yadrolarning o'z-o'zidan protonlarni chiqarish hodisasi yadroning *proton yemirilishi* deyiladi.
- Tashqi ta'sirsiz atom yadrosining o'z-o'zidan bo'linib, boshqa yadrolarning hosil bo'lish jarayoni *spontan bo'linish* deyiladi.
- Nurlanishning musbat zaryadli komponentasi *alfa* ( $\alpha$ ) nurlar, manfiy zaryadli komponentasi *beta* ( $\beta$ ) nurlar, neytral komponentasi *gamma* ( $\gamma$ ) nurlar deb ataladi.  $\alpha$ -nurlarning moddaga kiruvchanligi ancha pastdir.  $\beta$ -nurlar modda orqali o'tganda ancha kam yutiladi.  $\gamma$ -nurlarning kiruvchanlik qobiliyati eng kattadir.

- **Gamma nurlar.**  $\gamma$ -nurlarning xossalari rentgen nurlarining xossalariга juda o'xshab ketadi, lekin ularning moddaga kiruvchanlik qobiliyati ancha katta.  $\gamma$ -nurlar elektromagnit to'liqlardir, ularning to'liq uzunligi juda qisqa bo'lib  $10^{-8}$  sm dan  $10^{-11}$  sm oralig'ida bo'ladi. Elektromagnit to'liqlar shkalasida  $\gamma$ -nurlar bevosita rentgen nurlaridan keyin joylashadi.
- $\gamma$  – **nurlanish.** Yadroning o'z-o'zidan  $\gamma$  – kvantlarini chiqarish jarayoni  $\gamma$  – *nurlanish deyiladi*. Yadroda  $\gamma$  – nurlanish undagi nuklonning bir enegetik holatdan past enegetik holatga o'tishi tufayli sodir bo'ladi. Yadro uyg'ongan holatdan asosiy holatiga bir yoki bir necha  $\gamma$  – kvant chiqarib o'tishi mumkin.
- Birlik vaqt ichida, birlik yuzadan o'tgan  $\gamma$  – kvantlar soni  $\gamma$  – *nurlanishning intensivligi* deyiladi.
- **Betta nurlar.**  $\beta$ -nurlarning elektr va magnit maydonlarida og'ishlarini tekshirishda ular yorug'lik tezligiga yaqin tezliklar bilan harakatlanuvchi elektronlar oqimi ekanligi 1899 yili A. Bekkerel tomonidan aniqlandi. Ayni bir radioaktiv element chiqargan  $\beta$ -zarrachalarining tezliklari bir xil emas.
- $\beta$  – **yemirilish.** Yadrolarning o'z-o'zidan  $\beta^+$  – yoki  $\beta^-$  – zarralarni chiqarish jarayoni  $\beta$  – yemirilish deyiladi.  $\beta$  – radioaktiv yadrolarning yarim yemirilish davri  $10^{-2}$ s dan  $2 \cdot 10^{11}$  yil orlig'ida o'zgarsa, uning energiyasi  $18 keV$  dan  $1,66 MeV$  oralig'ida o'zgaradi.
- $\beta$  – yemirilish uch xil bo'ladi:  $\beta^+$  – yemirilish,  $\beta^-$  – yemirilish va elektron qamrash.
- $\beta^+$  – **yemirilish** deb yadrolarning o'z-o'zidan elektronlarni, ya'ni  $\beta^-$  – zarralarni chiqarish jarayoniga aytiladi. Bu yemirilish uchun siljish qoidasi quyidagicha yoziladi:  ${}_Z^AX \xrightarrow{\beta^+} {}_{Z+1}^AY + e^+ + \bar{\nu}_e$ . Bu yerda  $\bar{\nu}_e$  – zarra elektron antineytrinosi deyiladi.
- Yadrolarning o'z-o'zidan  $\beta^-$  – zarralarni, ya'ni pozitronlarni chiqarish jarayoni  $\beta^-$  – yemirilish deyiladi. U uchun siljish qoidasini quyidagicha yozish mumkin:  ${}_Z^AX \xrightarrow{\beta^-} {}_{Z+1}^AY + e^- + \bar{\nu}_e$ . Bu yerda  $e^+$  – pozitron,  $\bar{\nu}_e$  – elektron neytrinosi.
- Agar yadrodagi protonlar soni ortiqcha bo'lsa, shu yadroning  $\beta^-$  – yemirilishi kuzatiladi. Buning natijasida protonlardan biri o'zidan pozitron chiqarib, neytronga aylanadi:  $p \longrightarrow n + e^+ + \bar{\nu}_e$ .
- Yadrolardan pozitron chiqishi natijasida unda turg'un proton-neutron kompleksi yuzaga keladi. Protonning neytronga aylanishi yadro o'ziga yaqin turgan qobiqdagi elektronni tortib olishi tufayli sodir bo'lsa, bu xodisa *elektron qamrash* deyiladi.
- **Alfa zarralar.** Rezerford Geyger hisoblagichi yordamida  $\alpha$ -zarrachalarining zaryadini aniqladi. Bitta  $\alpha$ -zarrachasining zaryadi ikkita musbat elementar zaryadga va to'rt atom massa birligiga to'g'ri keladi, va'ni  $\alpha$ -zarra geliy atomining yadrosidir.

- Yadrolarning  $\alpha$ -zarralarning o'zidan chiqarish jarayoni kvant mexanikasi effekti bo'lib, u tunnel effektining o'zidir, De-Broyl to'lqiniga ega bo'lgan  $\alpha$ -zarralarning yadro potentsiali to'sig'ini suzib o'tish effekti *tunnel effekti* deyiladi.
- $\alpha$ -yemirilish faqat og'ir (ya'ni  $Z > 83$ ) yadrolarda kuzatiladi.
- Radioaktiv yemirilishda  $\alpha$ -nurlar (geliy atomining yadrosi),  $\beta$ -nurlar (elektronlar) va  $\gamma$ -nurlar (qisqa to'lqinli elektromagnit nurlanishlar) hosil bo'ladi.



Rasm 104. Magnit maydondan o'tkazilgan radioaktiv nurlar yo'nalishi

• **Radioaktivlikda muhim xossalari:**

1. Uran, toriy, radiy singari radioaktiv elementlarning nurlanish intensivligi oylar va yillar davomida sezilarli o'zgarib qolmaydi. Bu nurlanishning doimiyligiga odatdagi ta'sirlar qizdirish, bosimni orttirish hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Radioaktiv moddalar kirishadigan reaksiyalar ham nurlanish intensivligiga ta'sir ko'rsatmaydi.
  2. Radioaktiv nurlanishda energiya ajralib chiqadi. Radioaktiv yemirilishda moddada odatdagi kimyoviy o'zgarishlardan mutlaqo farq qiluvchi chuqur o'zgarishlar yuz beradi, ya'ni atomlarning o'zi o'zgaradi. Radioaktiv nurlanish natijasida radioaktiv elementning atomi boshqa turdagi atomga aylanadi. Atomning boshqa atomga aylanishi natijasida dastlabki moddadan fizik va ximik xossalari jihatidan batamom farq qiluvchi mutlaqo yangi modda hosil bo'ladi. Biroq bu yangi modda ham barqaror emas va o'ziga xos radioaktiv nurlar chiqarib o'zi ham o'zgaradi. Radioaktiv nurlanishda chiqayotgan zarralar yadro tarkibidan chiqadi, shuning uchun ham yadro yangi turdagi yadroga aylanadi (yadro tarkibidan elektron ajralib chiqqanda yadroning musbat zaryadi bittaga ortadi).
- **Siljish qoidasi.** Bir yadroning boshqa yadrolarga aylanishi siljish qoidasiga bo'ysinadi. Bu qoidani birinchi bo'lib Soddi ta'riflagan:

$\alpha$ -yemirilishda yadro  $2e$  musbat zaryad yuqotadi va uning massasi taxminan to'rt atom massa birligiga kamayadi. Natijada davriy sistemaning boshiga qarab ikki katakka silliydi:



Bunda A-elementning nisbiy atom massasi, Z-element yadrosining zaryadi.

- $\beta$ -yemirilishda yadrodan elektron uchib chiqadi. Natijada yadroning zaryadi bir birlikka ortadi, massasi esa deyarli o'zgarishsiz qoladi:




bu erda  ${}^0_{-1} e$  elektronni bildiradi, yuqoridagi «0» indeks elektronning massasi massaning atom birligiga nisbatan juda kichik ekanligini bildiradi.  $\beta$ -yemirilishdan keyin element davriy sistemaning oxiriga qarab bitta katakka siliydi.

- Gamma nurlanishda yadroning zaryadi o'zgaraydi, massasi esa nihoyatda kam o'zgaradi.
- Siljish qoidalari radioaktiv yemirilishda elektr zaryadining saqlanishini va yadrolarning nisbiy atom massasi taxminan saqlanishini ko'rsatadi.
- Alfa siljish qonuni:  ${}^A_Z X \rightarrow {}^{A-4}_{Z-2} Y + {}^4_2 He$
- Beta siljish qonuni:  ${}^A_Z X \rightarrow {}^A_{Z+1} Y + {}^0_{-1} e$
- Annigilyatsiya deb elektron va pozitronning o'zaro ta'sirlashganda zaryadlari yuqolib 2 ta  $\gamma$  kvant hosil qilish jarayoniga aytiladi:



- **Radioaktiv yemirilish qonuni.** Radioaktiv yemirilish statistik qonunga bo'ysinadi. Radioaktiv moddalarning aktivligi vaqt o'tishi bilan susayib boradi, masalan radonning aktivligi 1 minutdan so'ng ikki marta kamayadi. Uran, radiy va toriy kabi radioaktiv moddalarning aktivligi ancha sekin kamayadi. Radioaktiv element uchun aktivligi ikki marta kamayishi uchun ketgan vaqtga yarim yemirilish davri deyiladi va T harfi bilan belgilanadi. T vaqtda radioaktiv atomlar miqdorining yarimi yemiriladi.



Rasm 105. Aktivlikning vaqtga bog'liqligi

$$N = N_0 \cdot \frac{1}{2^n} \quad N = N_0 \cdot 2^{-\frac{t}{T}}$$

- **Yarim yemirilish davri** – radioaktiv yemirilish tezligini aniqlovchi asosiy kattalikdir. Yarim yemirilish davri qanchalik kichik bo'lsa atomlar shuncha kam vaqt yashaydi, yemirilish shunchalik tez bo'ladi. Turli radioaktiv moddalarning yarim yemirilish davri turlicha, masalan  ${}^{238}_{92} U$  uran uchun

$T \approx 4,5$  milliard yil. Shuning uchun uranning aktivligi bir necha yil ichida sezilarli o'zgarmaydi. Radiyning yarim yemirilish davri 1600 yilga teng. Shuning uchun radiyning aktivligi uranning aktivligidan katta. Radioaktiv moddalarni vaqt o'tishi bilan yemirilish tezligi o'zgarmaydi. Radioaktiv atomlar «keksaymaydi».

- Radioaktiv oilalar 4 ta: 1) Uran-radiy, 2) Antinouran, 3) Toriy, 4) Neptuniy.
- Parchalanishdagi atomlar soni:  $\Delta N = -\lambda \cdot N_0 \Delta t$ ;  $\Delta N = N_0 - N = N_0 \left(1 - 2^{-\frac{t}{T}}\right)$

$\Delta N$  - parchalanishdagi atomlar soni,  $N_0$  - dastlabki atomlar soni,  $\lambda$  - parchalanish doimiyi.

$$N = N_0 \cdot 2^{-\frac{t}{T}} \quad N - \text{qolgan atomlar, } T - \text{yarim yemirilish davri, } t - \text{vaqt}$$

- Radiaktiv moddaning yarim yemirilish davri:  $T = \frac{\ln 2}{\lambda} = \frac{0.693}{\lambda}$
- Radiaktiv moddaning o'rtacha yashash vaqti:  $\tau = 1/\lambda$ ;  $\tau = 1.44 \cdot T$
- Radioaktivlik yemirilish qonuni:  $N = N_0 2^{-\frac{t}{T}}$
- $t$  vaqt ichida necha foiz yadrolar yemirilganligini topish:

$$\frac{\Delta N}{N_0} \cdot 100\% = \left(1 - \frac{1}{2^{\frac{t}{T}}}\right) 100\%$$

- $t$  vaqtdan so'ng qolgan yadrolar foizini topish:

$$\frac{N}{N_0} \cdot 100\% = \frac{1}{2^{\frac{t}{T}}} \cdot 100\%$$

- Radioaktiv yadrolarning aktivligi –  $A$  deb vaqt birligi ichida yemirilishlar soniga teng bo'lgan kattalikka aytiladi:

$$A = \frac{\Delta N}{\Delta t}; \quad A = \lambda N = \frac{0.69 \cdot N}{T} = \frac{N}{\tau}; \quad A = \frac{N_0}{\tau} \cdot 2^{-\frac{t}{T}};$$

- $\Delta t$  vaqt ichida radioaktiv yadrolarning aktivligi  $n$  marta kamaygan bo'lsa:

$$n = 2^{\frac{\Delta t}{T}}; \quad n = \frac{A_2}{A_1}; \quad \frac{A_2}{A_1} = 2^{-\frac{\Delta t}{T}}$$

### 112-§. Atom yadrosining tarkibi

- Neytronning kashf etilishi. 1932 yili ingliz fizigi D.Chedvik neytronni kashf etdi. Berilliyning  $\alpha$ -zarralar bilan bombardimon qilganda protonlar paydo bo'lmadi. Biroq qalinligi 10-20 sm bo'lgan qo'rg'oshin plastinkadan iborat to'siqdan o'ta oladigan kuchli kiruvchan qandaydir nurlanish bor ekanligi aniqlandi. Bu nurlanish (zarralar oqimi) ta'sirida u bilan to'qnashayotgan atom juda katta energiya olar edi. Bu zarralarning kiruvchanlik qobiliyati katta bo'lgani va gazni bevosita ionlashtirmagani uchun ular elektr jihatidan neytraldir. Yangi zarra neytron deb ataldi.  $\alpha$ -zarralar berilliy yadrosiga tekkanda quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:



bu erda  ${}_0^1\text{n}$  neytronning belgisi, uning zaryadi nolga teng, nisbiy massasi esa taxminan birga teng. Neytronning massasi 1836,6 elektron massasiga teng bo'lib, proton massasidan salgina katta. Neytron beqaror zarra, ozod neytron 15 minutga yaqin vaqt ichida proton, elektron va neytrinoga (tinchlik massaga ega bo'lmagan zarraga) parchalanadi.

- **Yadro zaryadi.** Atom yadrolarining elektr zaryadini 1913 yilda ingliz fizigi Genri Mozli aniq o'lchagan. Mozli atom yadrosining elektr zaryadi elementar elektr zaryadi (e)ning kimyoviy elementning Mendeliyev jadvalidagi Z tartib nomeriga ko'paytmasiga teng ( $q=e \cdot Z$ ) ekanligini aniqladi. Kimyoviy elementning Mendeliyev davriy jadvalidagi tartib nomeri istagan kimyoviy element atomi yadrosidagi musbat elementar zaryadlar soni bilan yoki neytral atom qobig'idagi elektronlar soni bilan aniqlanadi.
- Atom yadrolari tarkibidagi musbat elementar zaryadga ega bo'lgan zarrachaga proton deb ataladi, u atomlardan eng yengilining – vodorod atomining yadrosidir. Protonning massasi  $m_p=1,6726 \cdot 10^{-27}$  kg ga teng. Atom yadrolari tarkibida faqat protonlar bo'lmasdan, elektr zaryadi neytral bo'lgan va massasi taxminan proton massasiga teng bo'lgan zarrachalar ham mavjud bo'lib ular neytronlar deyiladi. Yadro zarrachalari, protonlar va neytronlar - nuklonlar deb ataladi. Yadrodagi Z protonlar va N neytronlar sonining yig'indisi massa soni (yoki nuklonlar soni) deb ataladi va A harfi bilan belgilanadi:  $A=Z+N$ .
- **Izotoplar.** Atom zaryadi bir xil, biroq atom massalari va radioaktivligi turlicha bo'lgan moddalarga izotoplar deyiladi. Izotoplarda protonlar (yoki elektronlar)ning qiymatlari aynan bir xil ammo massa sonlari turlicha, ya'ni izotoplar neytronlar soni turlicha bo'lgan yadrolardir. Izotop moddalar yadrolari radioaktiv bo'lishi ham, stabil bo'lishi ham mumkin. Izotoplar davriy jadvalning bitta katagida joylashadi. Shuning uchun ham ularning kimyoviy xossalari bir xil bo'ladi. Barcha kimyoviy elementlarning izotoplari mavjud.
- Vodorod atomining uchta izotopi mavjud (nisbiy atom massalari 1, 2, 3 ga teng bo'lgan). Vodorodning nisbiy atom massasi 2 ga teng bo'lgan izotopi deyteriy deyiladi. U stabil – radioaktiv emas. Deyteriyning kislorod bilan birikishidan og'ir suv hosil bo'ladi. Vodorodning nisbiy atom massasi 3 ga teng bo'lgan izotopi tritiy deyiladi. U  $\beta$ -radioaktiv bo'lib yarim yemirilish davri 12 yilga teng.
- Nisbiy atom massalari bir xil, lekin proton va neytronlar soni bilan farq qiluvchi atomlar yadrolariga izobarlar deyiladi. Izobar atomlar yadrolarida nuklonlar soni bir xil bo'ladi.

- **Yadro kuchlari.** Yadro juda barqaror, binobarin, proton va neytronlar juda katta kuchlar bilan tutib turiladi. Proton-proton, proton-neytron, va neytron-neytron orasida alohida ta'sir kuchlari mavjud bo'lib bu kuchlarga *yadro kuchlari* deyiladi. Yadro kuchlari elektromagnit ta'sir kuchlaridan 100 marta katta. Bu kuchlar tabiatdagi eng qudratli kuchdir. Shuning uchun yadro zarralarining o'zaro ta'sirini ko'pincha *kuchli o'zaro ta'sir* deb ataladi. Bunday kuchlar faqat yadro tarkibidagi proton va neytronlargagina xos bo'lmasdan, balki ko'plab elementar zarrachalarga xos bo'lgan kuchlardir.
- Nuklonlar orasida mavjud bo'lgan yadro kuchlarining ta'sir radiusiga, *yadro radiusi* deyiladi. Zamonaviy dalillar bo'yicha yadrolarning o'lchamlari  $10^{-13} - 10^{-14}$  m tartibida ekan.
- Yadro kuchlari nuklonlarning zaryadiga bog'liq bo'lmagan kuchlardir, ya'ni ular proton-proton, proton-neytron, neytron-neytonlar orasida bir xilda ta'sir etadi. Bundan yadro kuchlarining elektromagnit tabiatga ega emasligi kelib chiqadi.
- Yadro kuchlari to'yinish xarakteriga ega, uni har bir nuklon yadroning barcha nuklonlari bilan emas, o'ziga yaqin turgan chegaralangan sondagi nuklonlar bilan ta'sirlashadi.
- Yadro kuchlari markaziy bo'lmagan kuchlardir, ular gravitatsion va kulon kuchlaridan farqli o'laroq, nuklonlar orasidagi masofaga bog'liq bo'lmaydi.
- Yadro kuchlarining muhim bir xususiyati – ularning juda qisqa masofada ta'sir qilishidir.
- Yadro kuchlari yaqindan ta'sirlashuv kuchlari bo'lib,  $10^{-14}$  m masofadagina mavjud bo'ladi.
- Massa sonlari  $A_1$  va  $A_2$  bo'lgan izotoplar aralashmasidan tashkil topgan qotishmaning massa soni  $A$ , tarkibiy qismlarining massa ulushlari  $\eta_1$  va  $\eta_2$ :

$$A = \eta_1 A_1 + \eta_2 A_2; \quad \eta_1 = \frac{A - A_2}{A_1 - A_2}; \quad \eta_2 = \frac{A_1 - A}{A_1 - A_2};$$

### 113-§. Atom yadrolarining bog'lanish energiyasi

- **Bog'lanish energiyasi** yadrolarning turg'unligini tushuntiradi va qanday jarayonlar yadro energiyasining ajralishiga olib kelishini ko'rsatadi.
- Nuklonlar yadroda yadro kuchlari tufayli mustahkam ushlab turiladi. Nuklonni yadrodan uzib olish uchun katta ish bajarish, ya'ni yadroga katta energiya berish kerak bo'ladi. Yadroni alohida nuklonlarga batamom parchalab yuborish uchun zarur bo'lgan energiya yadroning *bog'lanish energiyasi* deyiladi.
- Energiyaning saqlanish qonuniga asosan, bog'lanish energiyasi alohida zarralardan yadro hosil bo'lishida chiqadigan energiyaga teng. Atom yadrolarining bog'lanish energiyasi juda katta.
- Yadroning tinchlikdagi  $M_{ya}$  massasi uni tashkil etuvchi protonlar bilan neytronlarning tinchlikdagi massalari yig'indisidan hamisha kichik bo'ladi:

$$M_{ya} < Z \cdot m_p + N \cdot m_n$$

- Massa defekti:  $\Delta M = Z \cdot m_p + N \cdot m_n - M_{ya}$ .
- Nuklonlardan yadro hosil bo'lib massaning kamayishida bu zarralar sistemasining energiyasi, ya'ni bog'lanish energiyasi ( $E_{bog}$ ) miqdorida kamayishini bildiradi:

$$E_{bog} = \Delta M c^2 = (Z m_p + N m_n - M_{ya}) \cdot c^2.$$

- Zarralardan yadro hosil bo'lishida, zarralar yadro kuchlarining qisqa masofalarda ta'sir qilishi hisobiga bir-biriga qarab nihoyatda katta tezlanish bilan harakatlanadi. Bunda nurlanadigan  $\gamma$ -kvantlar  $E_{bog}$  energiyaga va  $\Delta M = E_{bog}/c^2$  massaga egadir.
- **Solishtirma bog'lanish energiyasi** – bu yadroning bitta nukloniga to'g'ri keladigan bog'lanish energiyasidir. U tajriba orqali aniqlanadi. Eng yengil yadrolarni hisobga olmaganda, solishtirma bog'lanish energiyasi taxminan doimiy va 8 MeV/nuklon ga teng. Massa sonlari 50 dan 60 gacha bo'lgan elementlar, ya'ni temir va tartib nomeri unga yaqin elementlar maksimal solishtirma bog'lanish energiyasiga ega. Bu elementlarning yadrolari eng barqaror yadrolardir. Og'ir yadrolarda solishtirma bog'lanish energiyasi, protonlar orasidagi Kulon itarishish energiyasining ortishi hisobiga Z ortishi bilan kamayadi. Kulon kuchlari yadroni parchalab yuborishga intiladi. Yadrodagi proton va neytronlarning alohida massalari va energiyalari orasidagi munosabat:  $M_n < M_p + M_n$ ;  $m_n < m_p + m_n$ ;  $E_n < E_p + E_n$ ;  $W_p < W_p + W_n$ .
- Yadroning solishtirma bog'lanish energiyasi:


$$\varepsilon = \frac{(Z m_p + (A - Z) m_n - M_{ya}) \cdot c^2}{A}; \quad \varepsilon = \frac{\Delta W}{A}$$

## 114-§. Yadroviy va termoyadroviy reaksiyalar

- **Yadro reaksiyalari.** Atom yadrolari o'zaro ta'sirlarda biri ikkinchisiga aylanadi. Bunday aylanishlarda biridan ikkinchisiga aylanayotgan zarralar kinetik energiyalari ko'payishi yoki kamayishi mumkin. *Atom yadrolarining elementar zarralar bilan yoki bir-birlari bilan o'zaro ta'sirida o'zgarishlari yadro reaksiyalari* deb ataladi.
- Yadro reaksiyalari zarralar yadrolarga taqalib yaqinlashganida va yadroviy kuchlarning ta'sir doirasiga tushganida ro'y beradi. Ayni bir xil zaryadli zarralar bir-biridan itariladi. Shuning uchun musbat zaryadli zarralarning yadrolar bilan yaqinlashishi bu zarralarga katta kinetik energiya berilgandagina mumkindir. Bunday energiya protonlar, deytronlar,  $\alpha$ -zarralar va boshqa yanada og'irroq yadrolarga elementar zarralar va ionlarning tezlatichlari yordamida beriladi.

- **Termoyadro reaksiyasi.** Yengil yadrolarning qo'shilganida ularning tinchlikdagi massasining kamayishi, binobarin, katta miqdorda energiya chiqishi mumkinligini bildiradi.

- Neytronlarning zaryadi bo'lmagani uchun ular atom yadrolariga qarshiliksiz kira oladi va ularda o'zgarishlar yuzaga keltiradi. Masalan:



- Yadro reaksiyasi zaryadning saqlanish qonuni va massaning saqlanish qonuniga bo'ysinadi. Bunda reaksiyaga qadar element va zarralar massalarining yig'indisi reaksiyadan keyin hosil bo'lgan elementlar va zarralar massalari yig'indisiga teng bo'ladi. Xuddi shuningdek, reaksiyaga qadar element va zarralar zaryadlarining yig'indisi reaksiyadan keyin hosil bo'lgan elementlar va zarralar zaryadlarining yig'indisiga teng bo'ladi, ya'ni:




Bu erda X, Y, F, W qandaydir elementlar va zarralar,

$$A_1 + A_2 = A_3 + A_4$$

$$Z_1 + Z_2 = Z_3 + Z_4$$

- Neytronlar yordamida uyg'otilgan holatga o'tkazilgan og'ir yadrolar bo'linish mahsulotlarining taxminan 2 ta bir xil qismga ajralishi *og'ir yadrolarning bo'linishi* deyiladi.
- **Nuklonlar sonining saqlanish qonuni.** Reksiyaga kirayotgan yadro va zarralarning umumiy nuklonlar soni undan so'ng hosil bo'layotgan yadro va zarralarning umumiy nuklonlar soniga teng.
- **Yadro reaksiyalari uchun elektr zaryadining saqlanish qonuni.** Reksiyaga kirayotgan yadro va zarralarning yig'indi elektr zaryadi reaksiyadan so'ng hosil bo'lgan yadro va zarralarning yig'indi elektr zaryadiga teng.
- Yadrolar qo'shilishi uchun  $10^{-13}$  m masofaga yaqinlashishlari, ya'ni yadro kuchlarining ta'sir doirasiga tushishlari shart.
- Og'ir yadroni bo'laklarga bo'lish uchun kerak bo'ladigan minimal energiya *aktivatsiya energiyasi* yoki *bo'linish bo'sag'asi* deyiladi.
- Yadroning bo'linishida ajralib chiqqan ikki-uchta neytron boshqa yadroning bo'linish reaksiyasini amalga oshirishga imkon beradi. Natijada bo'linayotgan yadrolar soni keskin ortib ketib, o'zini o'zi bavom ettiuvchi reaksiya yuzaga keladi. Ushbu reaksiyaga *zanjir yadro reaksiyasi* deyiladi.
- Og'ir yadrolarning bo'linishida katta miqdorda energiya ajralib chiqadi.
- O'zini-o'zi davom ettiruvchi og'ir yadrolarining bo'linish reaksiyalariga *zanjir yadro reaksiyalari* deyiladi.
- Yadrolarning bo'linishini boshqaradigan reaksiyani amalga oshiriladigan qurilmaga *yadro reaktori (atom reaktori)* deyiladi.
- **Yadro yoqilg'isi:** uran izotoplari va plutoniy.
- **Neytronlarni sekinlatgich:** suv, og'ir suv, grafit.
- **Issiqlikni tashuvchi jism:** suv, suyuq natriy.

- **Yadro bo'linish reaksiyasini boshqaruvchi modda** – neytronlarni yutuvchi: bor, kadmij.
- Reaktorda ishlovchi va ularga xizmat qiluvchi insonlar organizmini  $\gamma$  nurlanish hamda neytronlar oqimi ta'siridan himoya qilish maqsadida reaktor tashqi tomondan  $\gamma$  kvant va neytronlarni ushlab qoluvchi himoya qobig'i bilan o'ralgan.
- **Himoya vositasi:** beton, qo'rg'oshin, temir qobiq.
- Yuqori temperaturada ( $10^7 - 10^8 K$ ) yengil yadrolarning qo'shilish reaksiyasiga *termoyadro reaksiyasi* deyiladi.
- Termoyadro reaksiyalari, *sintez reaksiyalar* deb ataladi.
- **Uran yadrosining bo'linishi:** Og'ir yadrolarning neytron yutish yo'li bilan ikki bo'lakka ajraladigan yadro reaksiyasiga *yadroning bo'linishi* deyiladi. 1939-yilda Gann, Shtrassman Meytner birinchi bor uran 235 ni neytronlar bilan bombardimon qilib og'ir yadrolarni bo'linishini amalga oshirgan.



- Ikki yadro yoki yadro elementar zarra bir-biriga  $10^{-15}$  m masofagacha yaqin kelganda yadro kuchlari hisobiga bir-biri bilan o'zaro intensiv ta'sirlashib, yadrolar tarkibining o'zgarish jarayoni *yadro reaksiyalari* deyiladi. Yadro reaksiyalari vaqtida yadrolarning energiya va impulslari qayta taqsimlanadi.
- Yadro reaksiyalari ro'y beradigan barcha yo'llar *yadro reaksiyalarining kanallari* deyiladi. Reaksiyaning boshlang'ich bosqichi kirish kanali, oxirgi bosqichi chiqish kanali deyiladi.

### 115-§. Radioaktiv nurlanishning biologik ta'siri

- Jismning ionlanish darajasini va jism yutgan energiyani xarakterlash uchun quyidagi kattaliklardan foydalaniladi:

1. **Ionlovchi nurlanishning yutilgan dozasi** — nurlantirilayotgan jismning birlik massasi tomonidan yutilgan ionlovchi nurlanish energiyasi. Uning SI dagi o'lchov birligi — grey (Gr). Nurlantirilayotgan jismning 1 kg massasiga ionlovchi nurlanishning 1 J energiyasi berilganda, yutilgan doza 1 Gr bo'ladi, ya'ni  $1Gr = 1 \frac{J}{kg}$

2. **Kerma** — bilvosita ionlovchi nurlanish tufayli birlik massali jismda vujudga kelgan zaryadli zarralar kinetik energiyalarining yig'indisi. Kerma inglizcha Kinetic Energy Released in Material so'zlarning bosh harflaridan olingan. Kerma ham grey (Gr) larda o'lchanadi. Lekin kerma va yutilgan doza bir-biridan farq qiluvchi fizik kattaliklardir. Bu farqning mohiyati quyidagicha: yutilgan doza tushunchasi bevosita ionlovchi nurlanishlar (masalan zaryadli zarralar) ga nisbatan qo'llaniladi, Kerma tushunchasi esa bevosita emas, balki bilvosita ionlovchi nurlanishni xarakterlaydi. Masalan,  $\gamma$ -kvantlar yoki neytronlar jismga tushganida ularning o'zlari to'g'ridan-to'g'ri jism atomlarini ionlashtirmaydi. Ularning atom yoki atom yadrosi

bilan ta'sirlanishi tufayli zaryadli zarralar hosil bo'ladi. Bu zarralar esa jism atomlarini ionlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda,  $\gamma$ -nurlar yoki neytronlar jismga tushganda jism atomlarini bilvosita ionlashtiradi.

**3. Rentgen va gamma nurlanishning ekspozitsion dozasi**— nurlanishning havodagi ionlovchi ta'sirini xarakterlovchi kattalik bo'lib, u quruq atmosfera havosining birlik massasida rentgen va  $\gamma$ -nurlanish vujudga keltiradigan bir xil ishorali ionlarning umumiy zaryad miqdori bilan aniqlanadi. SI da  $\frac{C}{kg}$  (kulon taqsim kilogramm) larda o'lchanadi.

**4. Nurlanishning ekvivalent dozasi**—tirik organizm, to'qima yoki organda nurlanish ta'sirida vujudga keladigan yomon (salbiy) oqibatlar o'lchovidir.

Birligi — zivert (ZV):

$$1ZV = 1 \frac{J}{kg}$$

Ilgari chop etilgan adabiyotlarda uchraydigan birliklar va SI birliklari orasida quyidagi munosabatlar o'rinni:

$$1 \text{ rad} = 10^{-2} \text{ Gr}; \quad 1R(\text{rentgen}) = 2.58 \cdot 10^{-4} \frac{C}{kg}; \quad 1\text{ber} = 10 \text{ ZV};$$

## Grek alfaviti

Bosma harflar	Nomi	Bosma harflar	Nomi
A α	alfa	Ν ν	nyu
B β	beta	Ξ ξ	ksi
Γ γ	gamma	Ο ο	omikron
Δ δ	del'ta	Π π	pi
Ε ε	epsilon	Ρ ρ	ro
Ζ ζ	dzeta	Σ σ	sigma
Η η	eta	Τ τ	tau
Θ θ	teta	Υ υ	ipsilon
Ι ι	yota	Φ φ	fi
Κ κ	kappa	Χ χ	xi
Λ λ	lambda	Ψ ψ	psi
Μ μ	myu	Ω ω	omega

## Miqdor ulushlari va karrali kattaliklar

№	Nomlanishi	Belgilanishi		Ko'paytma
		Kiril	Xalqaro	

## Karrali

1	Eksa	Э	E	$10^{18}$
2	Peta	Π	P	$10^{15}$
3	Tera	T	T	$10^{12}$
4	Giga	Γ	G	$10^9$
5	Mega	M	M	$10^6$
6	Kilo	K	K	$10^3$
7	Gekto	Г	G	$10^2$
8	deka	да	da	10

## Ulushlari

1	Detsi	д	d	$10^{-1}$
2	Santi	с	s	$10^{-2}$
3	Milli	м	m	$10^{-3}$
4	Mikro	мк	μ	$10^{-6}$
5	Nano	н	n	$10^{-9}$
6	Piko	п	p	$10^{-12}$
7	Femto	ф	f	$10^{-15}$
8	atto	а	a	$10^{-18}$

## Doimiy fizik kattaliklar

№	Nomi	Belgilanishi	Son qiymati va birligi	Son qiymati va birligi
1	Yorug'lik tezligi	$s$	$2.99792458 \cdot 10^8 \text{ m/s}$	$3 \cdot 10^8 \text{ m/c}$
2	Elektron zaryadi	$e$	$1.6021892 \cdot 10^{-19} \text{ C}$	$1.6 \cdot 10^{-19} \text{ Ka}$
3	Plank doimiysi	$h$	$6.626176 \cdot 10^{-34} \text{ J} \cdot \text{s}$	$6.62 \cdot 10^{-34} \text{ Ж} \cdot \text{c}$
4	Avagadro soni (doimiysi)	$N_A$	$6.022045 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$	$6.02 \cdot 10^{23} \frac{1}{\text{моль}}$
5	Atom massa birligi	a.m.b.	$1.6605655 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$	$1.66 \cdot 10^{-27} \text{ кг}$
6	Elektronning massasi	$m_e$	$9.109534 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$ $5.4858026 \cdot 10^{-4} \text{ a.m.b}$	$9.1 \cdot 10^{-31} \text{ кг}$ $5.49 \cdot 10^{-4} \text{ a.m.б}$
7	Protonning tinch holatdagi massasi	$m_p$	$1.6726485 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$ $1.00727647 \text{ a.m.b}$	$1.67 \cdot 10^{-27} \text{ кг}$ $1 \text{ a.m.б}$
8	Neytronning tinch holatdagi massasi	$m_n$	$1.6749543 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$ $1.00866501 \text{ a.m.b}$	$1.675 \cdot 10^{-27} \text{ кг}$ $1 \text{ a.m.б}$
9	Elektron zaryadining massasiga nisbati	$\frac{e}{m_e}$	$1.7588047 \cdot 10^{11} \frac{\text{C}}{\text{kg}}$	$1.76 \cdot 10^{11} \frac{\text{Ka}}{\text{кг}}$
10	Faradey doimiysi (soni)	$F$	$9.648456 \cdot 10^4 \text{ C} \cdot \text{mol}^{-1}$	$9.65 \cdot 10^4 \frac{\text{Ka}}{\text{моль}}$
11	Ridberg doimiysi	$R_\infty$	$1.097373 \cdot 10^7 \text{ m}^{-1}$	$1.1 \cdot 10^7 \frac{1}{\text{м}}$
12	Bor radiusi	$a_0$	$5.291771 \cdot 10^{-11} \text{ m}$	$5.3 \cdot 10^{-11} \text{ м}$
13	Universal gaz doimiysi	$R$	$8.31441 \text{ J} \cdot \text{mol}^{-1} \cdot \text{K}^{-1}$	$8.31 \frac{\text{Ж}}{\text{K} \cdot \text{моль}}$
14	Boltsman doimiysi	$k$	$1.380662 \cdot 10^{-23} \text{ J} \cdot \text{K}^{-1}$	$1.38 \cdot 10^{-23} \frac{\text{Ж}}{\text{K}}$
15	Loshmidt doimiysi (soni)	$n_0 \cdot N_L \cdot L_0$	$2.68719 \cdot 10^{25} \text{ m}^{-3}$	$2.69 \cdot 10^{25} \frac{1}{\text{м}^3}$
16	Gravitatsion doimiysi	$G$	$6.6720 \cdot 10^{-11} \text{ N} \cdot \text{m}^2 \cdot \text{kg}^{-2}$	$6.67 \cdot 10^{-11} \frac{\text{H} \cdot \text{м}^2}{\text{кг}^2}$
17	Erkin tushish tezlanishi	$g$	$9.80665 \text{ m} \cdot \text{s}^{-2}$	$9.81 \frac{\text{м}}{\text{с}^2}$

## Doimiy fizik kattaliklar

№	Nomi	Belgilanishi	Son qiymati va birligi	Son qiymati va birligi
